





**QODIROVA L.B.**  
**JAHON**  
**SIVILIZATSIYALAR**  
**TARIXI**



**L.B.QODIROVA**

**JAHON SIVILIZATSIYALARI  
TARIXI**

**O'quv-uslubiy qo'llanma**

**Guliston - 2015**

BBK: 63  
UO'K: 9  
Q-53

L.B.Qodirova. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma.  
– Guliston, 2015. – 156 b.

O'quv-uslubiy qo'llanmada tarixni o'rganishga sivilizatsion yondashuv nazariyalari, jahon sivilizatsiyalarining qadimgi davrdan hozirgu kungacha bo'lgan rivojlanishining asosiy omillari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni bayon qilingan.

“Jahon sivilizatsiyalari tarixi” fanidan 5120300 - tarix tarix yo'nalishi talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tarix ta'lim yo'nalishi (bakalavr) uchun tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan.

O'quv qo'llanma nashrga Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan (№ 9. 28.05.2015) nashrga tavsiya etilgan.

Ilmiy muharrir: t.f.n. N.Mirzayeva  
Taqrizchilar: t.f.d., prof. Sh.Vohidov  
f.f.n. S.Ismoilov

## KIRISH

Gumanitar ta'limda, XXI asr avlodlarining dunyoqarashini shakllantirishda insoniyat jamiyatining o'tmishi, buguni va kelajagini, jahon va lokal tsivilizatsiyalar taqdirini qayta anglash markaziy o'rinni egallaydi. Bu sharoitda tarixiy jarayonni formatsion yondashuv asosida talqin qilishning bir yoqlamaliligi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ushbu talqinni tarixni tuushunishga nisbatan o'zgacha, nochizikli yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonning turli-tuman ko'rinishlari, qirralarini isobga oladi, bundan tashqari uning asosiy vazifasi inson va uning dunyoqarashi, ahloqiy va estetik qarashlarini o'rganishdir. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsion yondashuv har bir xalq, mamlakat, mintaqa taraqqiyotining noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi.

Taqdim etilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanma jahon sivilizatsiyalari tarixini o'rganayotgan talabalarga mo'ljallangan. "Jahon sivilizatsiyalari tarixi" kursi jahon tarixi fani bilan bevosita bog'liq va uning mantiqiy davomidir. Shundan kelib chiqib ushbu kurs talabalarda tarixiy taraqqiyot bosqichlarining qonuniyatlari, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi rivojining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bergan omillar, rivojlanishning turli tiplariga ega sivilizatsiyalar, modernizatsiya jarayonidagi muammolar va ziddiyatlar, O'zbekistonning sivilizatsion jarayondagi o'rni kabi tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan. Kursni o'rganish natijasida talabalar asosiy tushunchalarni anglab olishi, hodisalar izchilligini aniqlashi, turli sivilizatsiyalar taraqqiyotining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olishi kerak.

## **1-mavzu. “Sivilizatsiya” tushunchasi. Uning ta’rifi va o’ziga xos sifatleri**

### **Asosiy savollar:**

1. XVIII – XIX asrda Yevropa fan olamida sivilizatsiya tushunchasining yuzaga kelishi.
2. Inson jamiyati taraqqiyoti muammosiga sintetik yondashuv yo’llari.

Sivilizatsiya so’zi insoniyat tarixidagi sifat chegarasini belgilash bilan bog’liq. Ushbu tushunchaning yuzaga kelishi Ma’rifatparvarlik davridagi Yevropa fani va adabiyotining yutug’idir. Ammo sivilizatsiya haqidagi ilk tushunchalar ancha ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi davrlardayoq insonlar o’zlarining dunyolarini o’zgarar dunyosi bilan solishtira boshlashgan. Antik davrda sivilizatsiya so’zi bilan belgilanmasa-da, o’z taraqqiyot darajalariga varvarlikni qarama-qarshi qo’yganlar.

Sivilizatsiya so’zi lotincha sivilis - fuqarolikka, davlatga, shaharga taalluqli ma’nolarini anglatuvchi o’zakdan kelib chiqqan. U "silvaticus", ya’ni lotinchadan tarjima qilganda qo’pol, yovvoyi so’ziga qarshi ma’noda qo’llanilgan. Sivilizatsiya tushunchasi “madaniyat” tushunchasi bilan uzviy bog’liq ravishda paydo bo’lgan. Dastlab madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari sinonim sifatida qo’llanilgan, ammo bora-bora bu ikki atama o’rtasida farq paydo bo’ldi. Masalan, nemis faylasufi I.Kant bu tushunchalar o’rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko’rsatib o’tgan edi. Ko’pchilik faylasuflar “sivilizatsiya” deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, “madaniyat” deganda esa faqat uning ma’naviy qadriyatlarini tushunishgan. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi O.Shpengler “Yevropa quyoshining so’nishi” asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo’ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo’lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o’giradi. Nemis faylasufi sivilizatsiya deganda texnik- mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutgan.

Madaniyatning paydo bo’lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog’liq bo’lsa, sivilizatsiya - tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizatsiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta’minlash

imkoniyatini yaratadi. Sivilizatsiyali hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Sivilizatsiya kategoriyasining serqirraligi va ko'p serma'noligi tufayli unga aniq ta'rif berish mushkul. "Sivilizatsiya" ning yuzdan ortiq ta'riflari mavjud bo'lib, har bir o'ziga xos ta'rifida ijtimoiy hayotning ma'lum tomonlari, jihatlariga alohida urg'u beriladiki, bu umuman sivilizatsiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini to'laroq anglab etishga xizmat qiladi.

Sivilizatsiya tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati – tarixiy jarayonning birligi va ushbu jarayon davomida insoniyatning moddiy-texnik hamda ma'naviy yutuqlarning majmui. Sivilizatsiya umumjahon tarixiy jarayonining ijtimoiylikning ma'lum darajasiga erishish bilan bog'liq bosqichini ham anglatadi. Sivilizatsiyaning yana bir ma'nosi - madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi (Misr sivilizatsiyasi, Mesopotamiya sivilizatsiyasi va b.). Sivilizatsiya madaniyat so'zining sinonimi sifatida, ko'pincha moddiy madaniyat ma'nosida ham qo'llaniladi.

Shveytsariyalik tarixchi J.Starobinskiyning fikricha, sivilizatsiya tushunchasini ilk bor fransuz iqtisodchisi Viktor Riketi Mirabo (1715-1789 yy) o'zining "Qonunlar do'sti" asarida qo'llagan. 1767 yilda u shotlandiyalik ma'rifatparvar Adam Fergyusson (1723-1816) asarida paydo bo'ldi. O'shanda ushbu atama madaniy taraqqiyotning umumiy darajasini anglatgan. Sivilizatsiya ma'rifatsiz xalqlarga, qorong'u feodalizm davri va o'rta asrlarga qarama-qarshi qo'yilgan. A.Fergyusson ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish mezoni sifatida "madaniyatning o'zlashtirish darajasini" ilgari surdi: yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya. Keyinchalik shved olimi S.Nilson bu davrlashtirishni bir oz to'g'irladi va to'ldirdi: yovvoyilik, nomadizm (yunon. nomados – ko'chib yuruvchi, ko'chmanchilik), dehqonchilik va sivilizatsiya.

Ma'rifatparvarlik davridagi ensiklopediyalarda sivilizatsiya tushunchasi taraqqiyot konsepsiyasi bilan uyg'unlashib ketdi. Fransuz faylasuf ma'rifatparvarlari aql va adolatga asoslangan jamiyatni sivilizatsiyalashgan jamiyat deb bilganlar.

Sivilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi va XVIII asrdan "sivilizatsiya" tushunchasi tarixchilar lug'atidan mustahkam o'rin oldi. Shu davrdan sivilizatsiyaning turli nazariyalari shakllana boshladi. XIX asr boshlaridayoq sivilizatsiyalar to'g'risida

ko'plikda fikr yuritila boshlandi, bu esa xalqlar sivilizatsion taraqqiyotining rang-barangligini tan olishni anglatardi.

O'z asarlarida tarixning yo'nalishi, shuningdek tarixiy jarayonda yagonalik va rang-baranglikning o'zaro nisbati muammolarini ayniqsa to'la qamrab olgan dastlabki tadqiqotchilardan biri italyan faylasufi Jambatissta Viko (1668-1744) o'zining "Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari" deb nomlangan risolasida jahon tarixining barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan tarixiy aylanma harakat sifatidagi dunyoviy konsepsiyasini ilgari surgan. Viko fikriga ko'ra, barcha xalqlar o'z rivojlanishida bir xil bosqichlardan o'tadi: ibtidoiy varvarlik ("xudolar asri")dan feodalizm ("qahramonlar asri") orqali demokratik respublika yoki konstitutsiyaviy monarxiya ("sivilizatsiya asri") sari harakatlanadi. Har bir tsikl mazkur jamiyatning umumiy inqirozi va parchalanishi bilan tugaydi. Tsikl yakunlangach, rivojlanish jarayoni yangilanadi va ayni shu bosqichlardan, lekin yuqoriroq darajada o'tadi. Vikoning g'oyalari madaniyatlar va sivilizatsiyalarning rivojlanishida tsikllilik nazariyalari (Danilyevskiy, Shpengler, Toynbi)ga asos bo'lgan.

1877 yilda amerikalik tarixchi va etnograf L.Morgan (1818-1881 yy) o'zining "Qadimgi jamiyat" kitobida sivilizatsiya atamasini yagona madaniy-tarixiy jarayonning ma'lum darajasini belgilash uchun qo'llashni taklif etdi. Morgan sistemasida ham ibtidoiy jamiyat taraqqiyoti yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya bosqichlaridan iborat, ammo u yovvoyilik va varvarlik davrlarining har birini, xo'jalik va moddiy madaniyat taraqqiyotining belgilariga ko'ra quyi, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'ladi. Ushbu davrlashtirishda ishlab chiqarish kuchlari rivojining darajasi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tarixni o'rganishga sivilizatsion yondashuv asoschilaridan biri rus tabiatshunos olimi N.Ya.Danilyevskiy (1822-1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar "asosi" - diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi.

Nemis faylasufi va tarixchisi Osvald Shpengler (1880-1936 yy) ning fikricha, "sivilizatsiya" har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichini bildiradi. Sivilizatsiyani bunday davr

tanazzuli sifatida tushunish madaniyatning bir butunligi va tabiiyligiga ziddir.

O.Shpengler “Yevropa quyoshning so’nishi” asarida G’arbiy Yevropa tarixiga xos evropotsentrizm, panlogizm, istorizm, to’g’ri chiziqli progressizm printsiplarini tanqid qildi va madaniy - tarixiy jarayonning aylanma harakati nazariyasini yaratdi. Bu nazariya sivilizatsiyaning tsikli rivojlanishi, ya’ni takrorlanib turishi haqidagi konsepsiyaga olib keldi.

Shpengler ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli yevroposentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G’arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko’ra, har bir madaniy organizm ma’lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo’ladi, shundan so’ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo’ladi. Har bir madaniyat o’z teran mazmuniga ega bo’ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889-1975) sivilizatsiyani yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ifodalagan. U o’zining o’n ikki tomlik “Tarixni anglash” asarida keltirgan o’zaro o’rin almashuvchi lokal sivilizatsiyalar konsepsiyasida sivilizatsion taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida chaqiriq va javob nazariyasini ilgari surdi.

Toynbining fikricha din har qanday sivilizatsiyaning o’zagi va tayanchidir. Sivilizatsiyalarni bir – biridan farqlash va tasnif qilishda u yoki bu jahon dinlarini asos qilib olinishi bejiz emasdir: musulmon sivilizatsiyasi, xristian sivilizatsiyasi va hokazo.

U dastlab 21, keyinchalik 37 ta sivilizatsini sanab o’tib, tarixiy jarayonning to’g’ri chiziq bo’ylab rivojlanishi haqidagi qarashlarga qarshi chiqdi va sivilizatsiyaning bosqichli-tsiklik rivojlanishini ta’kidladi. Toynbi Arab, Xitoy, Shumer, Mayya, Hind, Ellin, G’arb, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq (Koreya va Yaponiya), Eron, Misr, Arab, Meksika, Vavilon va boshqa sivilizatsiyalarni tadqiq etish natijasida “...tabiiy muhitdagi va odamlar tegrasidagi yashash sharoitlarining og’irligi sivilizatsiyaning vujudga kelishiga sabab bo’ladi”, - degan xulosaga keladi. Toynbi sivilizatsiyalarga “evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar” sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy



bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Nemis faylasufi K.Yaspers (1883-1969 yy.) o'zining "Tarix manbalari va uning maqsadi" asarida sivilizatsion taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi konsepsiyasini ilgari surdi: tarixgacha bo'lgan davr, qadimgi davr madaniyati, vaqt o'qi (jahon tarixining boshlanishi), texnik davr (yagona jahon tarixiga o'tish). Uning fikricha tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini bir-biridan ajratmaydi, balki jipslashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qilolmaydi

Sotsiolog P.Sorokin (1889-1968) insoniyat madaniyatining butunjahon-tarixiy taraqqiyoti nazariyasini yaratdi. U bu taraqqiyotni markaziy mazmunga yoki mentallikka ega ulkan madaniy supertizimlar doirasida ko'rib chiqdi. Bu madaniy supertizimlar yoki sivilizatsiyalar insonlarning hayoti va hulqini, ko'pgina tarixiy jarayonlar va an'analarni belgilaydi. Tarixning har qanday davrida, Sorokinning fikricha, beshta asosiy madaniy tizimlar mavjud: til, ahloq, din, fan, san'at. U sivilizatsiyalarni moddiy madaniyat hech bir tizimsiz ravishda namoyishga qo'yilgan ulkan muzeylar sifatida talqin qiladi. Sorokin sivilizatsiyalar tabiatining yaxlitligi g'oyasiga tanqidiy yondashib, uning tarkibiy qismlari o'zaro bog'lanmagan, deb hisoblagan.

"Iqtisodiy va ijtimoiy tarix annallari" (1929 g.) fransuz jurnali redaksiyasi atrofida vujudga kelgan tarixiy maktab asoschilari va vakillari bo'lmish fransuz tarixchilari Mark Blok (1886-1944) va Lyusyen Fevr (1878-1956) lar jahon taraqqiyoti muammosiga o'zgacha yondashgan. Ularning fikricha tarixiy taraqqiyotning asosini mentalitet tashkil qiladi. L.Fevr birinchilardan bo'lib o'zining "Sivilizatsiya: so'z evolyutsiyasi va g'oyalar guruhi" asarida "sivilizatsiya" atamasining kelib chiqish vaqtini aniqlashga ham harakat qilgan.

O'tmish hodisalarini tushuntirishda Fernan Brodel (1902-1985) va bir qator boshqa fransuz tarixchilari tarixiy qonuniyatlar yoki tasodifiylikka birinchi darajali e'tibor qaratmasdan, birinchi o'ringa "muhit" (tarixiy vaqt) omilini qo'yishgan. Ularni birinchi navbatda xalqlarning hayoti, turmushi va mentaliteti qiziqtirgan.

XX asrning ikkinchi yarmida, sovuq urush davrida va u tugagandan so'ng insoniyat rivojining umumiy chizmasini yaratish va sivilizatsion taraqqiyot jarayonining istiqbollari ko'rsatishga urinish sifatida bir qancha tadqiqotlar paydo bo'ldi. Tarixiy rivojlanishining

ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini ilgari surgan amerikalik sotsiolog Uolt Rostouning fikricha jamiyat taraqqiyotida texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Industrial jamiyat nazariyasining yaratuvchilaridan biri bo'lgan fransuz sotsiologi R.Aron (1905-1983) jamiyatning nomafkuraviy nazariyasini hamda texnika va jamiyatning o'zaro ilgari ta'siri tezisini surgan.

XX asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy-texnika taraqqiyoti industrial jamiyatni butunlay o'zgacha sifatlarga ega postindustrial jamiyatga aylanishi haqidagi g'oyalar ishlab chiqila boshlandi. Ushbu nazariyaning asoschilaridan biri amerikalik sotsiolog D.Bellning fikricha tarix jamiyatda texnika taraqqiyotining darajasiga bog'liq holda rivojlanadi. U jamiyat taraqqiyotining uch bosqichini ajratib ko'rsatadi: industriyagacha, industrial va postindustrial.

Yana bir amerikalik sotsiolog A.Toffler o'zining "Uchinchi to'lqin" (1980) asarida birinchi to'lqin sifatida qishloq xo'jaligi tsivilizatsiyasini, ikkinchi to'lqin sifatida industrial sivilizatsiyani ko'rsatadi. XX asr oxiridan boshlangan uchinchi to'lqinningn nomini olimlar turlicha nom bilan atashmoqda: kosmik yoki elektron era, texnotron jamiyat. Toffler informatsion jamiyat atamasini qo'llamagan bo'lsa-da, uning asari chop etilgach, ushbu so'z mashhur bo'lib ketdi. Amerikalik tadqiqotchi J.Nesbitt esa o'z asarlaridan birida postindustrial jamiyatni informatsion jamiyat deb atadi.

Garvard universiteti qoshidagi Strategik tadqiqotlar institutining direktori S.Xantington 1996 yilda chop etilgan shov-shuvli "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida sivilizatsion taraqqiyotning pessimistik nazariyasini keltiradi. Ushbu asarda insoniyatning kelajagini sivilizatsiyalar qarama-qarshiligi belgilab beradi degan fikr ilgari surilgan. Xantington diniy omil asos qilib olingan quyidagi sivilizatsiyalar ro'yxatini keltiradi: g'arbiy, pravoslav, islom, xitoy, hind, afrika (so'roq ostida), Lotin Amerikasi. Bu o'rinda g'arb sivilizatsiyasi katolik-protestant dunyo sifatida qaralgan.

Shunday qilib, sivilizatsion taraqqiyot xususida bugungi kunda ham yangidan-yangi g'oyalar yaratilmoqda, yangicha modellar taklif etilmoqda. Bu jarayonda globallashuv ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

## **2-savolning bayoni:**

Hozirgi zamon tarix fanida tarixiy jarayonni tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud.

Uzoq vaqt davomida tarixni o'rganishga formatsion yondashuv ustunlik qilib keldi. Formatsion yondashuv tarixni universal tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar olinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi ta'limotni ilgari surgan tadqiqotchilar fikrlarini tahlil qilib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to'xtamga kelish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

Ammo alohida xalqlar tarixini jahon ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalari tarixining yagona doirasiga sig'dirib bo'lmaydi. Shu sababdan XIX asrda ishlab chiqilgan formatsion yondashuv o'zini oqlamadi. Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga formatsiyali yondashishning bir yoqlama, sun'iy ekanligini ko'rsatdi.

Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarini qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga belgilaydi, deb aytish o'rinli bo'lmaydi. Ikkinchidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llarini tanlashga o'rin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq bo'ylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sig'maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o'ziga xosligi va betakrorligi yo'qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

Shunday qilib, hozirgi davr sharoitida tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat bo'lgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. Shu sababli ushbu talqinni tarixni tushunishga nisbatan o'zgacha, nochiziq

yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir.

Ma'lumki, formatsion yondashuv ob'yektiv ravishda mavjud bo'lgan, inson irodasiga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni asos qilib oladi. Sivilizatsion yondashuv esa tarixiy jarayonning turli-tuman ko'rinishlari, qirralarini hisobga oladi, bundan tashqari uning asosiy vazifasi inson va uning dunyoqarashi, ahloqiy va estetik qarashlarini o'rganishdir. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashish har bir xalq, mamlakat, mintaqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formatsiyali yondashishga ziddir.

Sivilizatsion yondashuv asosan ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonlarni, ularning o'ziga xosligini chuqurroq anglash, har bir mamlakat tarixi bilan jahon tarixi o'rtasidagi umumiylik, o'ziga xoslik va betakrorlikni bir – biridan farqlashga, har bir jamiyatning qiymati va uning jahon tarixi va madaniyatidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuvning eng muhim jihati tarixning ko'p qirrali va ko'p tarmoqli jarayon sifatida baholanishidir. Bunda tarixiy jarayonni tushunish uchun xalqlarning dini, madaniyati, mentalitetiga, ya'ni ma'naviy-ahloqiy va intellektual omillarga katta ahamiyat beriladi.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: 1) formatsion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi va asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa statik deb e'tirof etadi; 2) formatsion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizatsion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

Demak, bu ikki yondashuv bir-birini butkul rad etmaydi, har holda formatsion yondashuvning elementlarini sivilizatsion tahlilga kiritish mumkin, chunki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – sivilizatsion jarayonning muhim qismidir. Shu sababdan inson jamiyati taraqqiyoti muammosiga sintetik yondashuv yo'llarini izlash lozim. Bugungi kunda tarixning shunday bir sintetik talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu har ikki muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalardan

foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rnini to'ldirishga harakat qiladilar.

Bugungi kunda sivilizatsiyaga doir keng tarqalgan nazariyalar orasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: sivilizatsiyaning chiziqli, bosqichli nazariyalari, lokal sivilizatsiyalar va jahon tarixiy bosqichi nazariyalari. Ushbu nazariyalar antik davrlar, o'rta asrlarda va yangi davrda ishlab chiqilgan tarixiy konsepsiyalar asosida shakllangan.

Qadimgi davrlardayoq insoniyat tarixining takrorlanib turuvchi bosqichli aylanma harakati to'g'risidagi g'oyalar shakllangan. Buni qadimgi dunyoning ko'plab xalqlarida kuzatish mumkin. Shu bilan birga yo'naltirilgan, ortga qaytmas, zamonaviy tilda aytganda, chiziqli evolyutsiya haqidagi tushunchalar ham yuzaga keldi. Masalan, yunon shoiri Gesiodning (m.a VII asr ) "Mehnatlar va kunlar" asarida insoniyat taraqqiyoti yaxshidan yomonga qarab boruvchi tanazzul sifatida ko'rsatilgan. Bu tushkun modelga qarama-qarshi ravishda insoniyat taraqqiyotini tinimsiz mukammalashib boruvchi jarayon sifatida qaragan g'oyalar ham vujudga kelgan. Rim shoiri Tit Lukretsiy Kar (m.a. I asr) "Ashyolarning tabiati" asarida insoniyat taraqqiyoti xuddi shu nuqtai nazardan ko'rsatilgan. O'rta asr mutafakkirlari insoniyat taraqqiyotining chiziqli g'oyasini rivojlantirishgan.

Insoniyatning chiziqli tarixiy taraqqiyot jarayonida mukammalashib borishi haqidagi qarashlar sivilizatsiyaning bosqichli konsepsiyasiga asos bo'ldi. Sivilizatsiyaning bosqichli nazariyalari sivilizatsiyani insoniyat progressiv taraqqiyotining yaxlit jarayoni sifatida o'rganadi va bu jarayonda ma'lum bosqichlar ajratiladi. Bu jarayon o'zining boshlang'ich nuqtasiga ega: "buyuk daryolar" vodiylarida sivilizatsiyaning dastlabki o'choqlari yuzaga kela boshlagan m.a. IV-III ming yilliklar. XX asr oxiriga kelib sivilizatsion areal deyarli butun dunyoni qamrab oldi.

Bugunga qadar mavjud bo'lgan va bugungi kunda mavjud sivilizatsiyalar miqdorini aniqlab bo'lmaydi, zero sivilizatsiyalarning aniq vaqt va hududiy chegarasi, sivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatishning aniq universal mezonlari yo'q. Shu sababli sivilizatsiya nazariyalarini ishlab chiqqan turli olimlarning ro'yxatlari bir-biriga to'liq mos tushmaydi. Masalan, Danilyevskiy til guruhlari asosida 15 ta madaniy – tarixiy tipni ajratib ko'rsatgan bo'lsa, Shpengler sakkizta "yuksak madaniyat" larni sanab o'tgan. Biroq bu barcha ro'yxatlar mukammal emas.

Shu o'rinda sivilizatsiyalarning quyidagi ayrim turlarini sanab o'tish mumkin: dastlabki (avtohton) sivilizatsiyalar, an'anaviy sivilizatsiyalar, yo'ldosh sivilizatsiyalar, yangilangan sivilizatsiyalar, o'rta sivilizatsiyalar, monolit sivilizatsiyalar, sintetik sivilizatsiyalar, agrar sivilizatsiyalar, industrial sivilizatsiyalar, kontinental sivilizatsiyalar, dengiz, okean sivilizatsiyalari. Deyarli barcha sivilizatsiyalar bir vaqtning o'zida bir necha turga aloqador bo'lishi mumkin. Masalan, ibtidoiy davrdan o'sib chiqqan qadimgi Yunon sivilizatsiyasi yangilangan, monolit, agrar, dengiz sivilizatsiyasi edi.

Olimlarning fikricha sivilizatsiyaning mohiyatini, uning o'ziga xosligini turli omillar belgilaydi: tabiiy muhit, xo'jalik yuritish tizimi, siyosiy tuzim, jamiyatning ijtimoiy tashkiloti, din (yoki din darajasiga chiqarilgan mafkura), ma'naviy qadriyatlar, mentalitet. Ularning nuqtai nazaridan, insoniyat taraqqiyoti sivilizatsiyalarning bir-biri bilan o'rin almashashishi shaklida boradi, ularning har biri o'z madaniy-tarixiy an'analari, ahloq normalari, diniy tizimlarini ishlab chiqadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sivilizatsiya so'zining kelib chiqishi qaysi tushunchalar bilan bog'liq?
2. Sivilizatsiya insoniyat tarixida sifat chegarasini anglatuvchi so'z sifatida qachon paydo bo'ldi?
3. Turli sivilizatsion nazariyalarning kuchli va zaif jihatlariga baho bering.
4. Tarixiy jarayonga formatsion yondashuvning mohiyati nimadan iborat?
5. Tarixni o'rganishga sivilizatsion yondashuvning ijobiy jihatlariga baho bering.

## **2-mavzu. Dastlabki sivilizatsiyalarning shakllanishi**

### **Asosiy savollar:**

1. Dastlabki sivilizatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy belgilari.
2. Neolit sivilizatsiyasi
3. Dehqonchilik madaniyatining ilk markazlari.

### **1-savolning bayoni:**

Dastlabki sivilizatsiyalar xususida so'z yuritishdan oldin, ularni arxaik davrdan ajratib turuvchi belgilarga to'xtalib o'tish joiz. A.Fergyusson sivilizatsiya sifatida insoniyat jamiyatining ijtimoiy

sinflar, shaharlar, yozuv va boshqa hodisalar xos bo'lgan bosqichi sifatida ta'riflagan. L.Morgan va F.Engels sivilizatsiyaning muhim belgilaridan biri sifatida yozuvni ko'rsatishgan. Ko'pchilik olimlar sivilizatsiyani sinfiy jamiyat, siyosiy va ijtimoiy tabaqalashuv tizimi, ma'muriyat va hududiy bo'linish, davlatchilik, shuningdek, mehnat taqsimoti bilan bog'lashadi.

Ingliz olimi G.Chayld tomonidan sivilizatsiyaning quyidagi 10 ta belgisi ilgai surilgan: shaharlar, mahobatli jamoatchilik binolari, soliqlar yoki boj, intensiv iqtisodiyot, shu jumladan, savdo, hunarmandlarning ajralib chiqishi, yozuv, ilm kurtaklari, san'atning rivojlanishi, imtiyozli sinflar va davlat. Ushbu belgilarning ichida mahobatli me'morchilik, shaharlar va yozuv jamiyatda kechgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan sabab-oqibat aloqalarning butun bir tizimi orqali bog'liq bo'lib, dastlabki sivilizatsiyalarning madaniy majmuasini xarakterlaydi. Sivilizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini esa sinfiy jamiyat va davlat tashkil etadi.

Ibtidoiy davr eng qadimgi ilk sivilizatsiyalarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Bu insoniyat rivojining odamning paydo bo'lishidan to sinfiy jamiyatlar va davlatlar paydo bo'lgunga qadar davom etgan bosqichidir.

Siz zamonaviy qiyofadagi insonlar shakllanishining murakkab jarayoni - anropogonez haqida ma'lumotlarga egasiz. Yer yuzasida insonlarning paydo bo'lish jarayoni uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, aql-idrokli odamning shakllanishi bilan nihoyasiga yetdi.

Avstrolopiteklar paleodemografiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan amerikalik paleoantropolog A.Manning fikricha, insonlarning dastlabki soni 10-20 ming atrofida bo'lgan. Yana bir amerikalik demograf E.Divin Afrika hududida istiqomat qilgan quyi paleolit insonlarining sonini taxminan 125 ming atrofida bo'lgan degan xulosaga kelgan. Aql-idrokli inson paydo bo'lganda esa u taxminan 1 mln. kishidan iborat edi. Insonlar nafaqat son balki sifat jihatidan ham o'zgarib bordi.

Xo'sh, dastlabki sivilizatsiyalar poydevoriga asos olgan aql-idrokli odam qayerda shakllandi, uning vatani qayerda? Ibtidoiy odamlarning dastlabki areallari Afrika va Osiyoning ekvatorial va tropik mintaqalarida joylashgan edi. Bir million yil avval Afrika arxantropolari shimolga tomon harakat qila boshladilar va Yevropa hududlariga kirib bordilar. So'nggi paleolit ovchilari dastlab o'zlashtirilgan yerlardan Shimoliy Yevropa va Osiyoning muzlikdan

bo'shagan keng yerlariga joylasha boshladilar. So'nggi paleolitda 140-150 ming yil avval Sibir, Shimoliy Germaniya hududlari insonlar tomonidan o'zlashtirildi. O'sha davrlarda tor bo'lgan Bering bo'g'ozi orqali ular Alyaska va Amerikaga kirib bordilar. Eramizdan 10 yil oldin Antarktidadan boshqa hamma materiklar u yoki bu darajada odamlar tomonidan o'zlashtirilgan edi.

Polisentrizm nazariyasiga ko'ra zamonaviy odamning shakllanishi bir necha markazlarda kechgan. Monotsentrik nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra bu jarayonda bir areal (Janubiy-G'arbiy Osiyo, Shimoliy-Sharqiy Afrika va Janubiy Yevropa) muhim rol o'ynagan. Dastlabki oykumenaning kengayishi va idroklashuv jarayoni insonlar irqalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Yevropoid, negroid va mongoloid irqalarining yuzaga kelishiga turli materiklarda turlicha bo'lgan atrof-muhitga moslashuv va butun materiklar ulkan hududlarining izolyatsiyasi kabi ikki omil muhim rol o'ynadi.

Primatlardan to zamonaviy odamgacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan qadimgi insonning ma'naviy dunyosini tasavvur etish nihoyatda qiyin. Ibtidoiy insonning tafakkuri daxldorlik prinsipiga asoslangan edi. Aynan mana shu daxldorlik mantiqi totemizmni keltirib chiqardi. Arxantrop davrida sehrgarlik e'tiqodining kurtaklari ham paydo bo'la boshlaganligi ehtimoldan xoli emas.

Aql-idrokli odam nafaqat mehnat qilish, balki ichki kechinmalarini va hissiyotlarini turli usullar bilan aks ettirishni ham bilgan. Paleolit davrida raqsning, keyinroq musiqa va qo'shiqning paydo bo'lishi fikrimizga isbotdir. So'nggi paleolitda ibtidoiy tasviriy san'at ham yuzaga keldi. Ijodiy fantaziyaning ilk kurtaklari neandertallarga tegishli bo'lsa ham, o'z kechinma va hislarini aks ettirish aynan aql-idrokli odamga xosdir. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalari Ispaniya (Altamir), Ural (Kapova), Fransiya (Lasko) va boshqa ko'plab joylardan topilgan. Bu suratlar qadimgi odamlarning ma'naviy intilishlari va ijodiy ilhomini aks ettiradi. Shu qatorda bu davrda dumaloq haykaltaroshlik ham rivoj topdi. Ilk davrlarda bu asosan ayollar haykallari edi. Paleolit "Venera" lari Rossiya, Slovakiya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Avstriyadan topilgan. Tabiat va hayvonot olamining ulkan roli qadimgi insonlarning diniy e'tiqodlarida aks etdi. Masalan, hayvonlarga topinish va totemizm.

12 ming yil avval Yerdagi harorat ko'tarila boshlagan, bu esa ayrim hududlarda muzlikning erishga, boshqa hududlarda kuchli qurg'oqchilikka olib kelgan. Tabiatdagi bu o'zgarishlar insoniyat



taraqqiyotiga o'zining ta'sirini o'tkazdi. Mezolit davri odami sivilizatsiya darajasiga yetib bormadi, ammo u insoniyatni sivilizatsiya ostonasiga olib kelgan ulkan to'ntarish yasadi. O'q-yoyning kashf etilishi insoniyat tarixida yangi iqtisodiy tuzumni va tarixiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Inson nafaqat o'zining tabiatga muteligini sezilarli kamaytirish, balki asosiy iste'mol mahsulotlarini takror ishlab chiqarish imkonini qo'lga kiritdi. Yangi sharoitlarda yashab qolish talabi mikrolitlar texnikasining takomillashuvini tezlashtirdi, murakkab tarkibli qurollar paydo bo'ldi. Mezolit davrida baliqchilik yanada rivojlangan, kemachilik asoslari yuzaga kelgan davrdir.

Mezolit davri odamlari ko'chmanchi ovchilar bo'lib, yegulik manbai izlab bir joyda ko'p qolishmagan. Bu esa yangi yerlarning o'zlashtirilishiga olib keldi. Mezolit odamlari makon tutgan daryo va ko'l bo'ylari neolit davri o'troq manzilgohlari uchu asos bhldi.

Mezolit davrida yuzaga kelgan ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik insoniyatning keyingi taqdirini belgilab berdi. Mezolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqarish xo'jaligiga - dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishi buning uchun qulay tabiiy sharoit bo'lgan hududda paydo bo'ldi. Dehqonchilik mezolit davrida asta-sekin shakllanib bordi. Dastlab o'stirila boshlangan donli ekin bu arpadir. U Kichik Osiyo, Falastin, Eron, Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Afrikaning tog'oldi hududlarida o'sgan. Keyinroq boshqa boshqoli o'simliklar ham o'zlashtirilgan. Yerdagi ilk dehqonlar m.a. X-IX ming yilliklarda Old Osiyoda yashagan natufiyaliklar bo'lishgan. Quddusdan 30 km. shimoli-g'arbidagi joylashgan Karmal tog'idagi Vadi-en-Natuf tog' daryosining bo'yida yashagan odamlar olimlar tomonidan shunday atalgan. Tog'oldi hududlarida yashagan natufiyaliklar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan va g'orlarda, ungirlarda yashashgan. Ular o'ziga xos tosh qadamali suyak o'roqlar yordamida boshqoli o'simliklarni yig'ishgan, tosh hovonchalarda bazalt kelidasta bilan tuyib, iste'mol qilishgan.

O'q-yoyning kashf etilishi ov samaradorligini oshirgan va qo'shimcha mahsulot olish imkoniyatini yaratib, chorvachilikka asos yaratgan. Domestikatsiya jarayoni, ya'ni yovvoyi hayvonlarni qo'lgan o'rgatish juda uzoq davom etdi. So'nggi paleolitdayoq itni qo'lga o'rgata boshlagan odam so'nggi mezolitda echki, qo'y, yirik shohli qoramolni qo'lga o'rgatishni boshladi.

Mezolit davrida insonlar tafakkuri yanada o'sdi, u o'zini o'rab turgan dunyodan ajratib ko'rsatishga harakat qilgan. Mezolit davrida qoyatosh suratlarining mazmuni o'zgardi, ularda asosan ov yoki raqs bilan mashg'ul odamlar guruhi aks ettirilgan.

Tajriba va kuzatish oldingi davrlardagi kabi bilimlar manbai bo'lib xizmat qilgan. Egulik topish uchun mezolit odamlari ov qilinadigan hudud topografiyasini bilishi, o'simliklarning foydali va zararli xususiyatlarini ajrata bilishi, hayvonlarning harakat yo'li va hatti-harakatini shrganishi, turli minerallarning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olishi, xullas, o'z atrofidagi tabiatni o'rganishi zarur bo'lgan. Mezolit davridan boshlab odamlar nafaqat amaliy meditsinaning eng sodda ko'nikmalarini egalladi, balki bosh chanog'ining trepanatsiyasi va amputatsiya kabi murakkab jarrohlikni amalga oshira boshladi. Insonlar tafakkuridagi bu kabi o'zgarishlar neolit inqilobiga zamin hozirlagan.

## **2-savolning bayoni:**

Neolit tosh davrining so'nggi va sivilizatsiya tarixining boshlanish davridir. Neolit davrida ingliz olimi Gordon Chayld tomonidan neolit inqilobi deb nomlangan ulkan to'ntarish sodir bo'ldi. Neolit inqilobi bu o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishdir.

Yuqori mahsuldor boshhoqli g'alla ekinlari (bug'doy, arpa, makkajo'xori, sholi) yetishtirishga asoslangan dehqonchilikka o'tilishi insonlar jamoasini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni barqarorlashtirdi, aholining o'sishiga imkon yaratdi. Dehqonchilik mehnatining siklik xususiyati jamiyatni oziq-ovqat bilan ta'minlashga sarflanadigan vaqtni chegaraladi, farovon hayot tarziga asos soldi. O'troq turmush tarzi va ixtisoslashgan ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan yashash sharoiti yaxshilandi.

Neolit hayvonlarni qo'lga o'rgatishda ham muhim davr bo'ldi. Neolit davri odamlari uy hayvoniga aylantirgan barcha uy jonivorlari bugun ham insonlarga xizmat qilmoqda. Qo'lga o'rgatilgan hayvonlar insonlarga yegulik berishdan tashqari ish hayvoni, transport vositasi sifatida o'z kuchi bilan ham xizmat qila boshladi.

Shunday qilib, neolit davrida birinchi mehnat taqsimoti yuz berdi - dehqonchilik va chorvachilik alohida faoliyat turlariga ajraldi. O'troq dehqonlar va ko'chmanchi chorvador qabilalar paydo bo'ldi. Tarixiy rivojlanishdagi notekislik kuchaydi va insoniyat sivilizatsiyaga turli

yo'llar va turli sur'atda yo'l oldi.

Dastlabki davrda ishlab chiqaruvchi xo'jalik o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan yonma-yon mavjud bo'ldi. Bu davrda yuksak tashkil etilgan ovchilik va baliqchilik ham ayrim qabilalar uchun asosiy xo'jalik turi bo'lib qolaverdi. Agar neolit oxiriga kelib Mesopotamiya, Misr, Hindiston va Xitoyda dehqonchilik yetakchilik qilgan bo'lsa, Yevropada u kamroq rivojlangan edi, Yer sharining boshqa hududlarda esa endi kurtak ota boshlagandi.

Jismoniy jihatlari bilan o'z ajdodlaridan uncha uzoq ketmagan bo'lsa-da, neolit davri odamlari yangi madaniyat, yangi ixtirolar va kashfiyotlar odami edi. Neolit yangi texnologiyalar va materiallar davridir. Uning tosh industriyasi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, mehnat quollariga ishlov berishning yuqori texnologiyalari qo'llanilgan. Neolit davriga kelib, mezolitning so'nggi bosqichida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqalgan, parrakchalar, qadamalar, nayza va kamon o'qlarining uchlari, pichoq, teshgich, parma, qirg'ich, yorma toshlar, o'roq-randa va boshqa quollar takomillashgan.

Yuz minglab yillar davomida faqatgina beshta material: tosh, yog'och, suyak, hayvonlar terisi va loy odamlarni qoniqtirib keldi. Neolit davriga kelib esa uning o'zi o'ziga kerakli materiallarni yarata boshladi. Yig'ib – teruvchi va ovchidan dehqon va chorvadorga aylangan inson dastlab sopolni va to'qimachilikni, neolit oxirida esa metallar qotishmasini kashf etdi.

Sopolning paydo bo'lishi insoniyat tarixida katta voqea va uning sivilizatsion taraqqiyotining muhim qadami bo'ldi. Neolitni ko'pincha sopol davri deb ham atashadi. Kulolchilik charxi paydo bo'lgunga qadar sopol buyumlar qo'lda tayyorlangan va naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlarda ko'p hollarda kosmogonik xususiyatga ega bo'lib, turli afsonalarni aks ettirgan.

Neolit davri yutuqlari qatoriga yigiruvchilik va to'qimachilikni ham kiritish kerak. Bu davrda o'simlik tolalari, teri tasmalari, soch, daraxt tolasi, keyinchalik qo'y yungidan tayyorlangan matolar turli ranglarga bo'yalgan. Bu davrga oid qabrlarda chig'anoqlar va yarimqimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar, pardoz buyumlari ko'proq uchraydi. Shishasimon vulqon jinsi – obsidiandan yasalgan dastlabki ko'zgul, pardoz vositalari paydo bo'ldi.

Shunday qilib, neolit davrida ikkinchi mehnat taqsimoti sodir bo'ldi: hunarmandchilik dehqonchilikdan ajrala boshladi. Tez orada bu

alohida hunarmandchilik manzilgohlarining paydo bo'lishi bilan ifodalandi, bu esa shaharning qishloqdan ajralishiga olib keldi.

Neolit o'troqlikni yuzaga keltirdi va mustahkamladi, chunki dehqonchilik bilan shug'ullanish o'troq turmush tarzini talab qilardi. Dastlabki muqim manzilgohlar, so'ngra shahar tipidagi manzilgohlar vujudga keldi. Chayla, yerto'la, qoziqoyoqli imoratlar bilan bir qatorda neolit davri odamlari loydan, yog'ochdan va toshdan uylar barpo eta boshladi. Bunday uylarda endi yopiq o'choq va jihozlar bor bo'lib, uylarning atrofida xo'jalik imoratlari joylashgan edi. Kichik Osiyo, Suriya va Falastinda boy va taraqqiy etgan manzilgohlar vujudga kelgan, ayrim hollarda ular devor bilan o'ralgan. Neolit davrining qurilish sohasida g'ayrioddiy va sirli megalitlar tarqaldi. Ushbu inshootlar ulkan tosh bo'laklaridan iborat bo'lib, ularning ayrimlari muqaddas ziyoratgohlar, urug' dahmalari sifatida xizmat qilgan. Ko'pchilik megalitlarning vazifasi aniq ma'lum emas.

Neolit matriarxatning eng rivojlangan davridir, bu davrda ayolning xo'jalik va ijtimoiy roli yanada oshdi. Ilk oilalar, to'g'rirog'i matriarxal oilalar paydo bo'la boshladi. Erkaklar ayolning uyiga va uning urug' jamosiga ko'chib o'tgan. Bunday oilaning mehnat qurollaridan tashqari, shaxsiy mulki bo'lmagan. Ijtimoiy jamolarning urug'dan kattaroq bo'g'ini-qabilalar paydo bo'ldi. Xullas, dehqonchilik davriga qadam bosgan insonlarning ma'naviy dunyosi yanada boyidi.

Madaniyat, hayot tarzi va ma'naviy sohada tub o'zgarishlarga olib kelgan xo'jalikning yangi shakllariga o'tish bir qator omillar ta'siri ostida sodir bo'ldi. Insonlar jamiyatining o'zida yuzaga kelgan omillar birinchi darajli ahamiyatga ega edi. Ularning qatoriga, mehnat qurollari yasashning yuqori darajada rivojlangan texnikasining paydo bo'lishi kiradi. Aholining yuqori zichligi ham muhim rol o'ynagan, chunki uning o'sib borishi eski xo'jalik shakllarining samaradorligini yo'qqa chiqargan va yangi xo'jalik shakllari taraqqiyotini tezlashtirgan. Ijobiy bilim kurtaklarining yuzaga kelishi kelgusi taraqqiyotning muhim shartlaridan biri bo'lgan.

Albatta, faqatgina qulay tabiiy sharoit majud hududlardagina bu omillar yig'indisi taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Ijtimoiy va tabiiy omillar yer sharining turli burchaklarida turlicha namoyon bo'lgan, bu esa bu hududlarda shakllangan jamiyatlar va ular tomonidan yaratilgan madaniy majmualar xususiyatida sezilarli farqlarni yuzaga keltirdi. Tarix sahnasida yetakchi rolni dehqonchilik yuksak taraqqiy etgan xalqlar o'ynay boshladi.

### **3-savolning bayoni:**

Neolit inqilobi davrida dastlabki sivilizatsiyalarga asos bo'lgan ilk dehqonchilik majmualari yoki ilk dehqonchilik madaniyatlari vujudga keldi. Neolitda ilk dehqonchilik madaniyatlari shakllangan va rivojlangan bir nechta markazlar yuzaga keldi. Yaqin Sharqdagi Iordan-Falastin majmuasi alohida madaniy mintaqani tashkil etdi. O'lik dengizdan shimolda, Iordan daryosi vodiysida Tell-as-Sulton tepaligi joylashgan. Ushbu tepalik Bibliyada tilga olingan, m.a. VIII-VII ming yilliklarda mavjud bo'lgan sopolsiz neolit manzilgohi bo'lmish Iyerixon qoldig'idir.

Ushbu madaniyat natufiya madaniyati an'analari asosida shakllangan. Sopolsiz neolit A manzilgohi 4 ga maydonni egallagan va haqiqiy ilk dehqonchilik manzilgohi bo'lgan. Iyerixonni o'rab turgan to'rt metr balandlikdagi tosh devorga balandligi 8 metr va diametri 7 metr bo'lgan dumaloq tosh minora tutashib turgan. Mudofaa inshootlarining mavjudligi nafaqat o'sha davrda turli qabilalar o'rtasidagi murakkab ziddiyatli holatdan, balki yetarlicha moddiy boyliklarning to'planganidan ham dalolat beradi. Iyerixon B davridagi xom g'ishtdan barpo etilib, poli ohak bilan suvalgan, devorlari qizil va qaymoqrangga bo'yalgan to'rtburchakli uylar yangi davrning o'ziga xos xususiyati - aholining farvon hayot kechirganligidan dalolat beradi.

ichik Osiyo ham ilk dehqonchilik madaniyati rivojlangan alohida markazdir. Kichik Osiyoning janubi-g'arbidagi Xojilar manzilgohi m.a. VIII asr oxiri – VII asr boshlariga oid quyi qatlamlaridan poli va devorlari puxtalik bilan tekislangan va pardozlangan paxsa imoratlar topilgan.

Hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan Cheyyunyu Tepasida m.a. VIII ming yillikda tosh poydevorli, xom g'ishtdan qurilgan ikki qavatli uylardan iborat manzilgoh paydo bo'lgan. Yuqori qavatda turar joy xonalari, pastda omborxonalar va ustaxonalar joylashgan. Iyerixon singari, bu yerda ham poli ohak bilan tekis suvalgan, bo'yalgan qulay uylar jihozlarga ega. Sopol haykalchalar yasalgan, biroq spool idishlar uchramaydi.

Aholi ovchilik, ziroatchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Cheyyunyudan topilgan tosh motigalar Old Osiyoning boshqa yerida uchramaydi. Va nihoyat, bu yerdan mis metallurgiyasining eng qadimgi

izi – malaxit (mis rudasi) parchalari, sof mis va mayda mis buyumlar topilgan.

M.a. VII ming yillikning ikkinchi yarmida Kunya vodiysining 12-13 gektar yerida vujudga kelgan Chatal Xuyuk manzilgohi atrofdagi 20 ga yaqin manzilgohlarning markazi bo'lgan. Aholisi 2-5 ming kishidan iborat bo'lgan manzilgohda uylar xom g'ishtdan barpo etilgan. Aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu dehqonchilik markazida 14 turga yaqin o'simlik yetishtirilgan, shu jumladan bir necha bug'doy turlari, arpa, no'xat, pista va bodom yog'i va h.k. ishlab chiqarilgan. Chatal Xuyukda san'at va farovonlik taraqqiy etganligini uylarning jihozlari, devoriy suratlar, pardoz buyumlari, haykalchalar, taqinchoqlarda ko'rish mumkin. Nisbatan kam sonli sopol idishlar o'rninu yog'och idishlar to'ldirgan.

Ilk dehqonchilik madaniyatlarining uchinchi markazi Shimoliy Mesopotamiya va G'arbiy Eronning unga tutash viloyatlari bo'lgan. Bu yerda m.a. VII-VI asrlarda Jarmo madaniyati rivojlangan. Bu madaniyat yodgorliklari qatoriga 1950 yilda ochilgan Jarmo manzilgohining o'zini, shuningdek Zagros tog'ining Iroq hududida topilgan Tell-Shamshir, Eron hududidan topilgan Sorab Tepa va Guran Tepalarni kiritish mumkin. Bu hududlar aholisi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan, tosh poydevor ustida barpo etilgan xom g'ishtli mustahkam uylar fikrimiz dalilidir. Alohida manzilgohlar minorali mudofaa istehkomlari va darvozalarga ega bo'lgan. Ularning aholisi bug'doy, arpa, no'xat va yasmiq yetishtirgan, shuningdek echki, qo'y va cho'chqalar boqishgan. Kam sonli sopol idishlardan tashqari turli tosh idishlardan ham foydalanilgan. Bu yerda ilk bor bizga tanish egri shakldagi o'roq uchraydi.

Markaziy Osiyo ham ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan markazlardan biridir. Turkmanistondagi Joytun dehqonchilik madaniyati Markaziy Osiyodagi ilk dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi va eng nodir yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Ashxobod shahridan 25 km shimolda joylashgan bu ibtidoiy manzilgoh bir necha uylardan tashkil topgan bo'lib, uylarning maydoni 25—30 kv. m ni tashkil etadi. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi uylar maydalangan somon qo'shilgan paxsadan qurilgan va bo'yalgan. Ularning yonida omborxonalar, saroy va xo'jalik uchun zarur o'ralar ham bor. Joytunliklar miloddan oldingi, VI—V ming yilliklarda yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Joytun xarobalaridan bug'doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh qurollar,

munchoqlar, urchuq, taqinchoqlar, hatto shaxmat-shashka donalariga o'xshash buyumlar ham topilgan. Joytundagi uylardan loydan ishlanib, pishirilgan odamlar va hayvonlarning haykalchalari topilgan.

Belujistonning tog'li hududlarida ochilgan Mexrgarx (Mergar) manzilgohi m.a. VI m.y. oid. Dastlabki bosqichlarda bu yerda dehqonlar va ovchilar xo'jaligi mavjud bo'lgan, u qisman termachilik bilan to'ldirilgan. Mustahkam paxsa uylarda yashagan Mexrgar aholisi feruza va chig'anoqlardan taqinchoqlar yasagan, nisbatan kechroq paydo bo'lgan sopol idishlarni yorqin naqshlar bilan bezagan.

M.a. VI—V m.y. da Gang vodiysidagi kichikroq manzilgohlarda yashagan qabilalar ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan, chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar va relyefli bezak berilgan qo'pol sopol idishlardan foydalangan. Sopol bo'laklarida xonakilashtirilgan sholi izlari topilgan. Biroq mehnat qurollari rivojining va ijtimoiy tashkilotning past darajasi murakkab sug'orma dehqonchilikning taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan.

Neolit davridagi ilk dehqonchilik markazlari qatorida Bolqon, Moldaviya, Ukrainaning janubi-g'arbi, Kavkaz, Xuanxening o'rta oqimi (Yanshao madaniyati) ni ko'rsatish mumkin.

Aynan ilk dehqonchilik madaniyati mintaqalarida ilk sivilizatsiyalar yuzaga keldi. Hamma joyda ham ilk dehqonchilik jamiyatlari taraqqiyoti tez va mustaqil ravishda sivilizatsiyalarning shakllanishi bilan tugallanmadi. Bu hodisa dehqonchilik ayniqsa mahsuldor va ijtimoiy taraqqiyot sur'atlari yuqori bo'lgan joylardagina sodir bo'ldi.

Neolit davrida dehqonchilik va chorvachilikka o'tilishi bilan Yer yuzi aholisi 15 marta o'sdi, bu insoniyat tarixidagi birinchi demografik inqilobdir.

Neolit davrida me'morchilik, hunarmandchilik taraqqiy etdi. Neolit davri odami o'z atrofini chiroyli narsalar bilan o'rashga harakat qila boshladi. Ovchi, dehqon va chorvador qabilalarda dekorativ an'analar ularning turmushi va mashg'ulotni aks ettirgan holda turlicha edi. Neolit inqilobi natijasida moddiy madaniyat birinchi planga chiqdi, ma'naviy madaniyat esa madaniyatdagi moddiy omillarning jiddiy ta'siri ostida go'yo ikkinchi darajali hodisaga aylandi. Neolit davri san'atida tushkunlik kuzatiladi. Paleolit davrining realistlik san'atidan farq qilgan holda u shartli-sxematikdir.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning rivojlanishi jonli va jonsiz tabiat haqida bilimlarning to'planishi va ilk tizimlashuviga imkon berdi.

Neolit davri diniy e'tiqodlari markazida tabiat kuchlari, ayniqsa Quyosh va yer turar edi. Neolit davri diniy e'tiqodlari murakkablashdi, turli me'yorlar va ta'qiqlar paydo bo'ldi.

Neolit so'ngida ma'lumotni saqlash va uzatishning og'zaki usulidan yozma usuliga o'tish boshlandi, rasmi piktografik yozuv vujudga keldi. Haqiqiy yozuv esa keyinroq, sivilizatsiyaning belgisi sifatida vujudga keldi. Taraqqiyot sari harakat qilayotgan insoniyat sivilizatsiyaning birinchi pillapoyalariga qadam qo'ydi: ilk shahar tipidagi manzilgohlar, mahobatli me'morchilik, yozuv paydo bo'ldi.

M.a. IV ming yillikda insoniyat metall asriga qadam qo'ydi. Insoniyat dastlab qo'llagan metall mis edi. Misdan foydalanishning boshlanishi insonlarga juda katta imkoniyatlar berdi. Eneolit yoki xalkolit davrida insoniyat xo'jalik faoliyatining barcha tarmoqlari rivoj topdi va bu jarayon ishlab chiqarish texnologiyalari, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi yirik o'zgarishlar, savdo ayirboshlashi va qabilalararo harbiy to'qnashuvlar kuchayishi bilan birgalikda kechdi. Natijada ilk dehqonchilik dunyosi asta-sekin sivilizatsiyaga o'ta boshladi.

Ammo urug'chilik jamoasidan sivilizatsiyaga o'tish taqsimlangan jamiyatda (mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish taqsimoti, jamiyat taqsimoti va h.k.) sodir bo'ldi, bu esa ilk dehqonchilik dunyosining tabiatiga zid edi. Mis – tosh davri eski urug'chilik an'alarini saqlab qolagnn holda, insonlar oldida yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu tufayli eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida beqarorlik, noturg'unlik, tartibsizlik va insoniyat tarixiy taraqqiyoti dinamikasining notekisligini ko'rsatish mumkin.

Sivilizatsiyaga o'tish davrida ma'lumot hajmining ko'payishi, uni saqlash va uzatishning yangi shaklini topish zaruriyatini yuzaga keltirdi. M.a. IV-III ming yilliklarda Shumerda yozuvni yaratishga ilk qadam qo'yildi. Buyumlarni va miqdorni tasvirlash uchun piktogrammalar (yoki suratli yozuv) qo'llanilgan. Piktogrammalar shartlilashib, abstrakt ramzlarga aylanib borib alohida so'z yoki bo'g'inlarni anglatuvchi ideografik yoki logografik yozuvni vujudga keltirdi. Yozuvning vujudga kelishi sivilizatsiya yo'lidagi muhim qadam, ibtidoiy insoniyat ma'naviy taraqqiyotining eng yuksak cho'qqisi bo'ldi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Insoniyatning kelib chiqishi muammosiga sizning munosabatingiz?



2. Ibtidoiy insonlar ma'naviy dunyosining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar?
3. Neolit inqilobining sivilizatsiya poydevorining yaratilishida tutgan o'rniga baho bering.
4. Nima uchun aynan eneolit davrida sivilizatsiyaga o'tish sodir bo'ldi?

### **3-mavzu. Ikki daryo oralig'ining (Mesopotamiya) qadimgi sivilizatsiyasi**

#### **Asosiy savollar:**

1. Mesopotamiya sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyoti
2. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati.

#### **1-savolning bayoni:**

Dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri Dajla va Frot oralig'ida joylashgan Mesopotamiyada vujudga kelgan. Ushbu sivilizatsiyaning shakllanishi qulay geografik sharoitlarda kechdi.

Ikkidaryo oralig'i sivilizatsiyasi yutuqlarining asosiy o'zagini Xassun madaniyati (m.a. VI m.y.) tashkil etdi. Uning belgilari – ko'p xonali paxsa imoratlari, metall buyumlarning paydo bo'lishi, naqsh bilan bezatilgan sopol idishlar o'troq dehqonlar va chorvadorlar turmush tarzidan dalolat beradi.

Dajlaning yuqori oqimida shakllangan Xalaf madaniyati (m.a. V m.y) aylana shaklli paxsa imoratlari, yupqa devorli monoxrom va polixrom sopol idishlari, ayollar haykalchalari bilan ajralib turadi. Xalafliklarda hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan, ayirboshlash asosidagi savdo paydo bo'lgan.

Elamning tog'li hududlari va Shimoliy Mesopotamiya qabilalarining ko'chib kelishi tufayli Mesopotamiya janubida m.a. V m.y.da Ubayd madaniyati shakllangan va keng tarqalgan. Ushbu madaniyatga monoxrom naqshli sopol idishlar, sopol o'roqlar va boshi afsonaviy mahluqlar tarzida yasalgan ayol haykalchalari xos bo'lib, aholining asosiy mashg'uloti qishloq xo'jaligidan iborat bo'lgan. Ubaydliklar katta va murakkab sun'iy sug'orish tizimlari barpo eta boshlashgan. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuv jarayoni faol tarzda borgan. Turarjoylardan tashqari mahobatli va diniy inshootlar barpo etilgan. Hunarmandlar, savdogarlar, koinlar ajralib chiqqan. Shunday qilib, Ubayd davrida Shumer madaniyatining asoslari shakllangan.

M.a. IV ming yilliklarda janubiy Mesopotamiyada shumer manzilgozlari paydo bo'lgan. Olimlarning fikricha, shumerlar janubiy

Mesopotamiyaning ilk aholisi bo'lmagan, chunki ular Frot va Dajlaning quyi oqimlarini o'zlashtirgan davrda mavjud bo'lgan ko'plab toponimik nomlar shumer tiliga oid emas. Bora-bora shumerlar butun Mesopotamiyani (shimolda –hozirda Bog`dod joylashgan hududdan, janubda – Fors qo`ltig`igacha) egallashgan.

Shumerlarning ilk vatani hanuz aniqlanmagan. Shumerlar an'anasiga ko'ra, ular Fors ko'rfazidagi Dulmun orolidan (hozirgi Bahrayn) kelishgan. Shumerlarning tili boshqa tillar bilan aloqada bo'lmagan. Olimlarning shumer tilining turkiy, kavkaz, etrusk va boshqa tillar bilan qarindoshligini aniqlashga bo'lgan urinishlari ijobiy natija bermadi.

Mesopotamiyaning shimoliy qismida m.a. III ming yillikning birinchi yarmidan semitlar istiqomat qilgan. Ular qadimgi Old Osiyo va Suriya dashtlarining chorvador qabilalari bo'lishgan. Mesopotamiyaga kelib o'rtnashgan qabilalar guruhining tili sharqiy semit yoki akkad tili deb atalgan. Bir necha asrlar davomida semitlar shumerlar bilan yonmayon yashashgan, so'ngra ular janubga siljib, III ming yillik oxirida butun janubiy Mesopotamiyani egallashgan. Shumer tili serharakat chorvador akkadlar tili tomonidan siqib chiqarilgan. Turli tillarda so'zlagan xalqlar o'rtasida etnik nizolar bo'lmagan. Qaysi tilda so'zlashmasin, butun Mesopotamiya aholisi o'zlarini qora boshlilar deb atashgan.

M.a. III ming yillik oxirida Mesopotamiyaga Suriya dashtlaridan g'arbiy semit chorvador qabilalari kirib kela boshlagan. Ularni bobilliklar amoriylar (akkadcha “Ammuri”, “Suriya” yoki “g`arb”) deb atashgan. M.a. III ming yillikdan boshlab shimoliy Mesopotamiyada kutiy yoki gutiy qabilalari istiqomat qilishgan. Qadimgi davrlardan bu yerda xurrit qabilalari ham yashagan. Shimoliy Mesopotamiyada xurritlar o'zlarining Mitanni davlatini barpo etishgan. G'arbiy semit guruhiga mansub kassit qabilalari shimoliy-g'arbiy Eronda, elamlardan shimolda yashagan.

M.a. II ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Arabistondan Suriya dashtlariga, Shimoliy Suriya va Mesopotamiyaga oromiy qabilalarining kuchli to'liqini kirib keldi. M.a. X asrda janubiy Mesopotamiyaga oromiylarga qarindosh xaldey qabilalari kelib o'rtnashdi.

M.a. IV m.y. ning ikkinchi yarmidan Mesopotamiya sivilizatsiyasining taraqqiyotida Uruk madaniyati (IV m.y. 2- yarmi – III m.y.) deb nom olgan yangi davr boshlandi. Aynan shu davrda

Shumer sivilizatsiyasining iqtisodiy va madaniy asoslarining shakllanishi nihoyasiga yetdi.

M.a. IV ming yillikning oxirlarida Mesopotamiya janubida qator shahar-davlatlar Eredu, Ur, Larsa, Uruk va Kish kabilar paydo bo'ldi. Hunarmandchilik yuqori darajada rivojlandi. Metallurgiya sanoati birinchi o'ringa chiqib oladi. Savdo hunarmandchilikdan ajralib chiqadi. Yerni sotish va sotib olish boshlandi. Qulchilik munosabatlari rivojlanadi. M.a. III ming yillik boshlaridan shumerlar jezni o'zlashtira boshladilar. Shu davrdan arxeologlar Ilk sulola davrini (m.a. 2750-2315-yillar atrofi) belgilaydilar. Shumer an'anasi esa mamlakat tarixini "to'fon" gacha va "to'fondan" keyingi davrga bo'ladi.

Shumer jamiyatida qullardan tashqari o'z yeri bo'lmagan yoki yeridan ajralgan, boshqa jamoalardan kelganlar, kambag'al oilaning kichik a'zosi ibodatxonaga bag'ishlangan qaram kishilar ko'p bo'lgan. Bu qaram kishilar ibodatxona va xususiy xo'jaliklarda qullar qatorida mehnat qilganlar. Ilk sulola davrida Shumer jamiyatining hukmron qatlamini quldorlar tashkil qilgan. Bu qatlamga urug' zodagonlari, oliy kohinlar, ma'muriyat vakillari bo'lgan amaldorlar kirgan. Mayda ishlab chiqaruvchilar qatlamini kichik yer uchastkasiga ega bo'lgan hududiy va katta oilalarga birlashgan oddiy jamoachilar tashkil qilgan. Shumer jamiyatida yer egaligi ikki qismdan -jamo'a va ibodatxona yerlaridan iborat bo'lgan. Shahar-davlat tepasida "En" (janob)-oliy kohin turgan, ehtimol u saylab qo'yilgan. "En" ning vazifasi kohinlik, ibodatxona ma'muriyatini boshqarish, ibodatxona, shahar qurilishi-sug'orish inshootlarini barpo qilish, boshqa jamoa mulki hamda uning iqtisodiyotini boshqarish bo'lgan. M.a. III ming yillik o'rtalarida "En" unvoni o'rniga "Ensi" ("kohin-quruvchi" shahar boshqaruvchisi) va "Lugal"-("katta odam", "podsho", akkadcha "sharru") paydo bo'ladi.

Shumer tarixini u yoki bu markazning siyosiy yetakchiligiga qarab m.a. III ming yillikning birinchi yarmida Ilk sulola davrini tashkil qilgan uch bosqichga bo'lish qabul qilingan. Dastlab Kish (m.a. XXVIII—XXVII a.), so'ngra Uruk (m.a. XXVII—XXVI a.) va uchinchi bosqichda Ur (m.a. XXV—XXIV a.) yetakchilik qilgan.

Vaqt o'tishi bilan ziddiyatlar kuchayib, Ur zaiflashib qo'shni Lagash shahri kuchayib ketadi. Lagash deyarli barcha Shumer shaharlarini bo'ysundiradi, Elam ustidan g'alaba qiladi. Ammo ichki ziddiyatlar Lagashni zaiflashtiradi. Lagashning ichki qiyinchiliklaridan foydalangan Umma shahri podshosi Lugalzagissi

m.a. XXIV asr oxirida Lagashni bosib olib, butun Shumerda chorak asr yetakchilik mavqeiga ega bo'ladi.

O'zini Sharrum-ken ("haqiqiy podsho") deb atagan Sargon (m.a. 2316-2361 yy) Shumer shimolidagi Akkad davlatiga asos soldi va butun Shumerni istilo qildi. Sargon butun Mesopotamiyani Akkad davlati qo'l ostiga birlashtiradi. Bundan tashqari u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurishlar qiladi.

Sargon davlati oldingi Mesopotamiya davlatlaridan farq qilgan holda markazlashgan davlat edi. Sargon va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, tovar-pul munosabatlari, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik yuksaladi.

Akkad podsholigining qudratiga Mesopotamiyaga Zagros tog'laridan bostirib kirgan tog'li qabilalardan bo'lgan kutiyalar chek qo'yganlar. Lagash hokimlari kutiyalar yordamiga tayanib boshqa shaharlar ustidan ma'lum darajada hukmronlik qildilar. Kutiyalar Mesopotamiyada yuz yilga yaqin hukmronlik qilganlar. Kutiyalar Ur podshosi Utuxengal tomonidan tor-mor qilinadi va III Ur sulolasi (m.a. 2112-1996 y.) hukmronligi boshlanadi. Shumer-akkad podsholigining davlat boshqaruvi III sulola davrida qadimgi Sharq podsho hokimiyatining tugallangan shakli edi. Uning eng mashhur hukmdori Shulgi o'z shahsini to'liq ilohiylashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Mamlakat okruglarga bo'lingan, ularni endilikda oddiy amaldorlarga aylangan ensilar boshqargan va podshoga boj to'lagan. Yagona davlat xo'jaligi mavjud bo'lib, unda mehnat qilganlar guruhlar va cho'rilar deb atalgan.

Iqtisodiy tushkunlik, amoriy ko'chmanchi qabilalarining hujumi, Ur sulolasining yemirilishi siyosiy tarqoqlikka olib keldi. Amoriy va Akkad davlatlari bir-birlari bilan shafqatsiz urushlar olib bordilar. M.a. 1800-yillar atrofida Mesopotamiya janubini Larsa podsholigi, markazni Babil shahri va Eshnunna, Yuqori Mesopotamiyani va Mari podsholigini M.a. XIX asr oxirida amoriy hukmdor Shamshi-Add (m.a. 1824-1870-yillar atrofida) davlati egallab olgan edi.

Bu davlatlar o'rtasida uzoqqa cho'zilgan urushlar bo'lib o'tdi. Bu kurashlar davomida sekin-asta Babil shahri yuksala boshlaydi. Bu shaharda I-Babil yoki amoriylar sulolasi hukmronlik qilib uning boshqaruvi tarixda qadimgi Babil (m.a. 1894-1595 yillar) davri deb nom oldi.

Bobilning gullab-yashnashi I-Bobil sulolasining oltinchi podshosi Xammurapi (m.a. 1792-1750 yillar) davriga to'g'ri keladi. Xammurapining hukmronligi davomida Bobil kichik shahardan butun Mesopotamiyani birlashtirgan yangi qudratli davlatning poytaxti, Old Osiyoning yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Bobil iqtisodiyotida sodir bo'lgan keskin o'zgarishlar faol huquqiy faoliyat bilan bog'liq edi. Xammurapining 282 moddadan iborat qonunlari Bobil sivilizatsiyasining ajoyib yodgorliklaridan biridir.

M.a. 1742-yilda Mesopotamiyaga shimoli-sharqdan bu yerda avval noma'lum bo'lgan "kass" etnomidagi hind-yevropa qabilalari bostirib kiradilar. Janubda Elam shumer shaharlariga bostirib kiradi. M.a. 1595 - yildan Bobilda kassit sulolasining hukmronligi boshlanib, 1055 - yilgacha davom etadi. Bu davr "O'rta Bobil davri" deb ataladi. Kassitlar Bobilni yuksak madaniyatini qabul qiladilar. Kassit sulolasi keng qamrovli tashqi siyosat olib bordi.

M.a. XII asrda Elam kassitlar sulolasi hukmronligini tugatadi. Navuxodonosor I (m.a. 1124-1108-yillar) II Issin sulolasi davrida elamlilar Bobildan haydab yuboriladi.

Bobilning keyingi tarixida Dajla, Frot daryolari, Fors qo'ltig'i qirg'og'i va janubiy Mesopotamiyaning shaharlari oralig'ida joylashgan xaldey qabilalari muhim o'rinni egalladilar. Ular yarim ko'chmanchi chorvador va dehqonlar edilar. Xaldeylar M.a. IX asrda Bobilning janubiy qismini bosib oladilar va Bobil madaniyatini qabul qiladilar.

Qadimgi Ossuriya dastlab markazi Ashshur bo'lgan kichik hududni o'z ichiga olgan edi. M.a. XVIII asr o'rtalarida Ashshur Bobilga qaram bo'lib qoldi. M.a. XVI asrda Bobil sulolasi qulagach, Ashshur qudratli qo'shni davlat Mitannining tazyiqiga qarshi Misr bilan diplomatik aloqa o'rnatadi. Bunga qarshi m.a. XV asr o'rtalarida Mitanni Ashshurni bosib oladi. Keyingi davrda Ashshur Bobilning hukmronligini tan olish evaziga Mitanni zulmidan ozod bo'ladi va bir qancha vaqt o'tgach, Bobildan to'la mustaqil bo'ladi.

M.a. XIV asrda Ossuriya qudratli davlatga aylandi. Zaiflashib qolgan Mitanni xetlar tazyiqiga qarshi Ossuriyaga ittifoqchi sifatida chiqadi. Tez orada Ossuriya xetlarni yuqori Mesopotamiyadan haydab chiqarib, Frot daryosiga chiqadi. Natijada Mitannining sharqiy viloyatlari, bu yerdagi diniy markaz Nineviya bosib olinadi. Mitanni, m.a. 729-yilda Bobil ham Ossuriya ta'siri ostiga tushib qoldi.

Ossuriya katta-katta hududlarni bosib olishi natijasida hududlar, shaharlarda savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlanadi. Metallurgiya, qurolsozlik sohalari yuqori darajada taraqqiy qiladi. Talonchilik urushlardan olingan ko'plab o'ljalar va qullardan Ossuriya shahar va qal'alarni qurishda keng foydalaniladi.

Ossuriyaliklar Bobilda m.a. VII asrgacha hukmronlik qiladilar. Yangi Babil podsholigini paydo bo'lishi m.a. 629-yilga to'g'ri keladi. Lashkarboshi Nabopalasar Bobilda yangi xaldey sulolasiga asos soldi. Navuxodonosor II ning hukmronlik yillari Bobilning gullab-yashnagan davri bo'ldi. Navuxodonosor II vafotidan so'ng Babil zaiflashadi. M.a. 539 - yilda Bobilni Eron podshosi Kayxusrav II bosib oldi. Bobil m.a. 331-yilgacha Ahamoniylar davlati tarkibiga kiradi, keyin esa Makedoniyalik Iskandar davlatiga, uning yemirilishidan so'ng Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi.

## **2-savolning bayoni:**

Mesopotamiya – jahon sivilizatsiyasi va qadimgi shahar madaniyatining ilk o'choqlaridan biri. Bu madaniyatning ilk asoschilaridan biri shumerlar bo'lib, ularning yutuqlarini bobilliklar va Ossuriyaliklar o'zlashtirib, davom ettirdilar. Mesopotamiya madaniyatining manbalari m.a IV ming yillikda shaharlar paydo bo'lishi bilan boshlandi.

M.a. IV-III ming yilliklarda shumer yozuvi paydo bo'ldi. Taxminlarga ko'ra bu yozuv shumerlar Mesopotamiyaga kelganga qadar noma'lum xalq tomonidan kashf qilingan. Shumerlar bu yozuvni sivilizatsiya xizmatiga qo'ydilar. Dastlab shumer yozuvi piktografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar tarzida ifodalangan. Dastlab 1500 ga yaqin belgidan iborat piktografiya juda sodda bo'lib, haqiqiy yozuv emas edi, u so'zlarni ifodalamas edi. Shunday yozuvdan m.a. III ming yillikdan boshlab akkadlar ham foydalanishgan. Sekin-asta bu yozuv mixxatga aylandi. Dastlabki shumer mixxatlari tarixiy hodisalar yoki hukmdorlar hayotini emas, oddiy xo'jalik hisob-kitoblarini qayd etgan.

Shumerliklar foydalangan mixxat dastlab 800 atrofidagi belgilardan iborat bo'lib, ular so'z yoki bo'g'inni tasvirlagan. Ularni eslab qolish qiyin edi, biroq shumerlar mixxati ko'plab qo'shni xalqlar tomonidan qabul qilingan. Yangi Babil davriga kelib mixxat belgilar 300 dan salgina ortiq bo'lgan.

Akkad tili janubiy Mesopotamiyada m.a III ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Shumer va akkad tillari bir-biridan

ko'pgina so'zlarni o'zlashtirib oldi. M.a. III ming yillikning oxirida qadimgi Shumer–akkad lug'atlari tuzilgan. Akkad tili Old Osiyo xalqaro diplomatiya tiliga aylandi. M.a. VII asrdan boshlab oromiy tili va yozuvi kirib kelgan paytda mixxat yozuvlari muomaladan chiqqan bordi.

Mesopotamiya tsivilizatsiyasi ma'lumotli kishilarni tayyorlash bo'yicha ilk tajribalarni amalga oshirdi. Yirik ibodatxonalar, hukmdorlar saroylari, maktablar, shuningdek xususiy shaxslar qo'lida sopol taxtachalardan iborat kitoblar to'plangan. M.a. II ming yillikdan boshlab Ur, Nippur shaharlarida adabiy va ilmiy matnlardan iborat ilk kutubxonalar paydo bo'ladi. Qadimgi Sharqning eng mashhur kutubxonasi Oshshurbanipalning (m.a. 669-635 yillar hukmronlik qilgan) Nineviya shahrida to'plangan 30.000 taxtachadan iborat kutubxonasi bo'lgan.

Qadimgi Shumer va keyingi Bobil maktablarida asosan davlat va ibodatxonalar uchun kotiblar tayyorlangan. Maktablar ta'lim va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Maktabda asosan shumer tili va adabiyoti o'qitilgan. Yuqori sinf o'quvchilari kelajakda tor mutaxassislashuvga qarab grammatika astronomiya va matematikadan bilim olganlar. O'zini fanga bag'ishlamoqchi bo'lgan o'quvchi bo'lsa huquq, astronomiya, tibbiyot va matematikani o'rgangan.

Qadimgi Mesopotamiya arxivlar makoni bo'lgan. Eng qadimgi arxivlar m.a. III ming yillikning birinchi choragiga tegishli. Bu davrda arxiv ma'lumotlari yozilgan taxtachalar namlikdan saqlash uchun mumlangan savatlarda saqlangan. M.a. XIX asrga oid Ur shahri arxivi, m.a. XVIII asrga oid arxiv Mari podshosi saroyidan, Uruk shahridan m.a. VIII-VI asrlarga oid 2500 xo'jalik hujjatlari arxivi topilgan.

Shumer adabiyotiga oid epik asarlar, afsonalar, madhiya, doston, ertak va maqollar to'plami bizgacha yetib kelgan. Shumer shahrini qo'shni qabilalar hujumlari natijasida halokati to'g'risida ma'lumot beradigan asarlar alohida o'rin tutadi. "Ur shahri aholisining falokati motam yig'isi" (m.a. XX asr oxiri) asarida ayollar, qariyalar va bolalarning ochlikdan qiynalishi, yong'indan qolgan uylarda halok bo'lganlarni tafsilotlari batafsil tavsiflagan.

Shumer adabiyotining eng mashhur-namunasi afsonaviy qahramon Gilgamesh to'g'risidagi epik afsonalar to'plamidir. Bu asar akkad tilida qayta ishlangan nusxada to'laroq ko'rinishda Oshshurbanipal kutubxonasida topilgan. Bobilda falsafiy, diniy g'oyalar aks etgan asarlar yaratilgan.

Shumerliklar va so'ngra akkadlar dunyoqarashida dehqonchilik uchun muhim ahamiyat kasb etgan tabiat kuchlarini - osmon, her, suvni ilohiylashtirish muhim rol o'ynagan. M.a. IV-III ming yilliklar chegarasida Shumerda batafsil ishlab chiqilgan, keyinchalik Bobilda o'zlashtirilib, rivojlantirilgan teologik tizim yuzaga keladi. Osmon xudosi Anu, yer xudosi Enlil, suv xudosi Enki yoki Ea kabi ilohlar tabiat kuchlarini aks ettirganlar. Oliy xudo va Olamning yaratuvchisi Marduk sanalgan. Har bir shahar o'z xudo - homiysiga ega bo'lgan. Dehqonchilik, hosildorlik va farzand tug'ilishining homiysi bo'lgan ona ilohaga katta ehtirom bilan munosabatda bo'lingan. Shumer panteonidagi ayol ilohalar orasida markaziy o'rinni Uruk ilohasi Inanna egallagan. Mesopotamiya aholisining diniy tuyg'ulari pessimistik kayfiyat bilan sug'orilgan. Shumer va akkadlar u dunyoga ishonganlar. Ularning tasavvurida u dunyo soyalar podsholigi, qaysiki, o'liklar ochlik va chanqoqlikdan qiynaladilar.

Mesopotamiya rasmiy va xalq e'tiqodlarida sehrgarlik amaliyoti keng tarqalgan. Folbin-munajjimlar, bashoratchilar, tush ta'burchilarining roli katta bo'lgan.

Qadimgi Bobil sivilizatsiya tarixida ilk bor huquqiy tizimni yaratdi. XX asrda Suzada fransuz arxeologilari tomonidan topilgan va bugungi kunda Luvrda saqlanayotgan Xammurapi qonunlari ikki metrli bazalt ustunga o'yib yozilgan. Ushbu qonunlar insoniyat tarixida ilk bor xususiy mulk himoyasiga qaratildi. Begona mulkiga ko'z olaytirish, patriarxal oila negizlariga daxl qilingandagi kabi qattiqqo'llik bilan jazolangan. Jazoni belgilashda ko'pincha aybdorning ijtimoiy holati hisobga olingan. Qullar ayniqsa shafqatsizlik bilan jazolangan. Xammurapi qonunlari qadimgi Sharq tsivilizatsiyalari qonunchiligi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi Mesopotamiyada dunyoni ilmiy bilishda ma'lum yutuqlarga erishildi. Bobilda ayniqsa, matematika fanlari amaliy maqsadlar uchun yuzaga kelib, yuqori darajada rivojlanadi. Qadimdayoq bobilliklar zikkuratlarining yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar. Ana shu ko'p asrlik kuzatishlari natijasida matematik astronomiya vujudga keldi. Bobilda ko'p sonli astronomik jadvallar vujudga kelgan. Shu davrda Bobilda mashhur astronomlar Naburian va Kiden yashaganlar. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqdi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat 41 minut va 41,6 sekund hisobladi. U yil hisobi



davomiyligida bor yo'g'i 7 minut, 17 sekundga xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan bog'langan edi.

Bizgacha juda ko'p Babil tibbiyot matnlari yetib kelgan. M.a. III ming yillikdayoq mesopotamiyaliklar Hindistonga boradigan yo'lni, m.a. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yo'lni bilganlar. Bizgacha yetib kelgan xaritalar bobilliklarning o'z geografik bilimlarini tizimga solishga harakat qilganliklarini ko'rsatadi.

Qadimgi Mesopotamiyaning san'atini shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy an'analari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tosh o'ymakorlik m.a. III ming yillik boshlarida shakllandi. Toshga naqshlar o'yish (gliptika) m.a. I asrigacha yuksak darajada rivojlandi. M.a. XXIV-XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat bo'lib, birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo bo'ladi.

M.a. II ming yillik boshlaridan qurbonlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san'ati rivojlanadi. Mesopotamiya san'ati m.a. VIII-VII asrlarda Ossuriya davlatining gullab-yashnagan davrida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Bu asosan relyef san'atida o'z aksini topgan. Bu davrda ulug'vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshlandi.

M.a. I ming yillikda Mesopotamiyada yirik savdo-hunarmandchilik madaniyat markazlari bo'lgan katta shaharlar paydo bo'ladi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san'ati, me'morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti, qadimda ko'pgina Sharq xalqlari madaniyati ravnaqining o'lchov mezonini bo'lib xizmat qildi.

### **Nazorat savollari:**

1. Mesopotamiya sivilizatsiyasining shakllanishida geografik omilning o'rniga baho bering.
2. Shumer sivilizatsiyasi ikkidaryo oralig'i sivilizatsiyasining taraqqiyotida qanday rol o'ynadi?
3. Mesopotamiya sivilizatsiyasining yutuqlarini sanab bering.

## **4-mavzu. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining asoslari.
2. Misr sivilizatsiyasining taraqqiyot bosqichlari.

3. Misr sivilizatsiyasining yutuqlari va uning jahon sivilizatsiyaisda tutgan o'рни.

### **1-savolning bayoni:**

Sivilizatsiya tug'ilgan qadimgi markazlardan biri Afrikaning shimoli-sharqiy qismida shimoldan janubga tomon oquvchi sersuv Nil daryosi vodiysi bo'lgan. Nil vodiysi aholisi o'z yerlarini Ta kemet (Qora yer) deb atashgan. Qadimgi yunonlar Memfisning nomlaridan biri bo'lgan, qiyin talaffuz etiladigan Xet-ka-Ptaxni Aygyuptos (Egipet) deb o'zgartirishgan. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot ta'rifiga ko'ra: "Misr – Nil tuhfası". Misr sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan uning taqdirida ushbu daryoning o'ynagan alohida roli bilan bog'liq.

Nil daryosining o'ziga xos suv rejimi, uning vaqti-vaqti bilan o'zanlaridan toshi turishi katta xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan. Nil vodiysida yillab yomg'ir yog'magan, quyosh nuri yerni va o'simliklarni qovjiratib yuborgan, iyun oyiga kelib daryo kengligi sezilarli kichraygan. Ammo iyul oyi boshida daryo toshib, butun vodiyni suv bilan qoplagan. Avgust-sentyabr oylarida suv toshqini o'zining avj nuqtasiga yetgan, suvning sathi 14 metrgacha ko'tarilgan. Noyabr oyida daryo o'z o'zaniga qaytganda, yerda serhosil loyqa qolgan. Nil daryosining minglab yillar davomidagi faoliyati natijasi bo'lgan mana shu yer Misr sivilizatsiyasining boyligi va gullab-yashnashiga asosidir.

Eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri qulay tabiiy – geografik joylashuvga, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan, savdo, siyosiy va madaniy aloqalar chorrahasida joylashgan yerda vujudga kelgan. O'rta yer dengizi Misrni Old Osiyo qirg'oqlari, Kipr, Egey dengizi orollari va Bolqon yarim oroli bilan bog'lab turgan. Nil daryosi Yuqori va Quyi Misrni hamda butun mamlakatni antik mualliflar Efiopiya deb atagan Nubiya bilan bog'lab turuvchi kemalar qatnovini ta'minlovchi arteriya bo'lgan.

Misr sivilizatsiyasini yaratgan qadimgi misrliklar Shimoli-sharqiy Afrikaning turli qabilalarining aralashuvi jarayonida shakllangan. Misrliklar bir tilning turli lahjalarida so'zlashganlar, bu esa Misrning birlashish va yagona davlatning shakllanish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Sivilizatsiyaning moddiy asosini yaratish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar Misrning o'zida yoki unga yondosh yerlarda mavjud bo'lgan. Metallar, xususan mis Arabiston sahrolari va Sinay yarim

orolidan, oltin Efiopiyadan, kumush va temir asosan Kichik Osiyodan keltirilgan. Qizil dengiz bo'ylaridan rux va qo'rg'oshin, Nilni g'arbdan sharqqa tomon o'rab turuvchi tog'lardan chaqmoqtosh, Qohira atrofidagi Tur tosh konlaridan ohaktosh, Asuan yaqinidan marmarning qimmatbaho navlari qazib olingan. Mamlakatning o'simlik va hayvonot dunyosi ham boy bo'lib, misrliklarning xo'jalik hayotida muhim o'rin tutgan.

Ilk odamlar Nilning qayirlarida neolit davrlarida paydo bo'lishgan. Bu yerga ularni tashqi sharoit boshlab kelgan: iqlim quruqlashib, sahro bostirib kela boshlagan. Dastlab Nil vodiysi chekkalariga joylashgan odamlar dehqonchilik, chorvachilik, ov, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan. Ilk dehqon jamoalari m.a. VI-V ming yillikda Quyi Misrdagi Fayum vodiysida mavjud bo'lgan. Fayum manzilgohida g'alla ekinlari ekilgan, yirik va mayda qoramol boqilgan va baliq tutilgan.

Vohaning qulay tabiiy sharoiti tufayli manzilgohlar rivojlanib, ularning aholisi turmushi farovonlashib borgan. Ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan. Bunga misol tariqasida Badariy madaniyatini ko'rsatish mumkin. Yuqori Misrdagi Badariy madaniyati (mil. av. IV ming yillik) ga mansub aholi o'troq tarzda, urug' jamosi bo'lib yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Yerga motiga bilan ishlov berilib, kichik kanallar qazilgan. Ov va baliqchilik ham shug'ullanishgan. Badariylar hunarmandchilik sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Mis va misdan yasalgan mehnat qurollarining paydo bo'lishi bilan Nil vodiysini o'zlashtirish boshlangan. M.a. IV ming yillikning birinchi yarmida misrliklar havza sug'orish tizimini yaratishgan. M.a. IV ming yillikning II yarmida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqqan. Urug'chilik munosabatlari emirilib, ilk ijtimoiy tabaqalanish yuz bergan, ilk ibtidoiy qulchilik paydo bo'lgan.

Mashaqqatli kechgan Nilni bo'ysundirish jarayonida misrliklar hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mehnat sharoitlari o'zgardi, uni tashkil etish bilan asosan qabila boshliqlari va koinlar shug'ullanishgan. Bu esa mulkiy tengsizlikni boshlab berdi. Har bir sug'orish xo'jaligi insonlarni yagona hududiy birlikka, o'ziga xos qo'shnichilik jamoasiga – nomlarga birlashtirdi. Davlat tashkil etilishidan oldingi davrda Misrda 40 ga yaqin shu kabi nomlar mavjud

edi. Ularning birlashtirilishi oqibatida o'zaro raqobatchi ikki podsholik – Yuqori va Quyi Misr vujudga keldi.

Ular o'rtasidagi uzoq davom etgan kurash Quyi va Yuqori Misrning homiylari bo'lgan xudolar Gor va Set o'rtasida borgan kurash to'g'risidagi diniy afsonada o'z aksini topgan. Misr sivilizatsiyasi tarixi davomida mavjud bo'lgan ikki mamlakat fir'avni unvoni va davlat ma'muriyatining ikkiga bo'linishi ham Yuqori va Quyi Misrning alohida podsholik sifatida uzoq muddat mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Misrning bu ikki qismining birlashishi bilan ularning ramzi bo'lgan qizil va oq ranglardan iborat toj Misr sivilizatsiyasining yakuniga qadar podsholik ramziga aylandi.

Har ikkala podsholik butun mamlakatda hukmronlik uchun kurash olib borar ekan, o'z navbatida iqtisodiy jihatdan bir-birini to'ldirgan. Yuqori Misr dehqonchilikning markazi bo'lgan bo'lsa, Quyi Misr – chorvachilik, uzumchilik va bog'dorchilik markazi edi.

## **2-savolning bayoni:**

Qadimgi Misr tarixi mil. av. IV ming yillikning II yarmidan - davlat va sinfiy jamiyatning paydo bo'lishidan mil. av. VI asrda Misrning Ahmoniylar davlatiga qo'shib olingan davrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi Misr tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Sulolalargacha bo'lgan davr (m.a. IV ming yillik).
2. Ilk podsholik (m.a. XXX - XXVIII asrlar, I-II sulolalar).
3. Qadimgi podsholik davri (m.a. XXVIII-XXIII asrlar, III-IV sulolalar).
4. O'rta podsholik davri (m.a. XXII-XVIII asrlar, XII sulola).
5. Yangi podsholik davri (m.a. XVI-XI asrlar, XVIII-XX sulolalar)
6. So'nggi podsholik (m.a. XI-V asrlar XXII -XXV sulolalar)

Tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida Misr sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ilk podsholik davrida mamlakatni birlashtirish tugallangan va taxminan m.a. 3000 yilda Nil vodiysida ko'proq ibtidoiy qabila ittifoqini eslatuvchi yagona davlat vujudga kelgan. Bu voqea birinchi sulola asoschisi bo'lgan Menes (Mina) nomi bilan bog'liq. U Yuqori va Quyi Misr tutashgan strategik muhim nuqtada yangi poytaxt- mustahkamlangan shahar Memfis shahriga asos soldi. Ilk podsholik davrida Misr I va II sulolalar tomonidan boshqarilgan.

Ilk podsholik davrida sun'iy sug'orishning xo'jalik madaniyati asosida Misr sivilizatsiyasining iqtisodiy va siyosiy tizimlari shakllana boshlagan. Bu davr asosiy funksiyasi Nil vodiysida sug'orish ishini tashkil etish bo'lgan umummisr davlat aparatining shakllanish davri edi. Yuqori mahsuldor bo'lgan qishloq xo'jaligi moddiy madaniyatning taraqqiy etishiga asos bo'ldi. Hunarmandchilik rivoj topdi. Ilk podsholik davridayoq misrliklar papirus tayyorlashni bilishgan. Bu insoniyat tarixidagi maxsus yozuv uchun tayyorlangan ilk qog'oz edi. Papirusning paydo bo'lishi sivilizatsiya rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgan yozuvning keng tarqalishiga turtki bo'ldi. Bu davridayoq Nil suvining sathidan tortib, ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning taqsimlanishigacha hisob-kitob va nazorat qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ilk podsholik davrida ish yuritish, ayniqsa hisob ishi rivojlangan.

Qadimgi podsholik davri 500 yildan ortiq davom etdi ( m.a.2800-2300 yy). Bu davrda Misr qo'shnilar bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borayotgan yirik markazlashgan davlatga aylandi, Misr sivilizatsiyasining ideallari va asosiy qadriyatlari shakllandi.

Mamlakatning mustahkam yaxlitligi uning iqtisodiy gullab-yashnashiga asos bo'ldi. Qadimgi podsholik davri iqtisodida oliy amaldorlar xo'jaligi katta rol o'ynagan. Podsho va ibodatxona xo'jaliklari ham amaldorlar xo'jaligiga o'xshash bo'lgan. Ularni birlashtirgan xususiyat ko'psonli xizmatchilar ustidan o'rnatilgan kuchli nazorat, mehnat va uning natijasini qattiq hisob-kitob qilish bo'lgan.

Shakllangan Misr davlatining tepasida yunonlar fir'avn (misrcha per-o – “ulug' uy”, “katta xonadon” so'zidan kelib chiqqan) deb atagan hukmdor turgan. Fir'avn odam qiyofasidagi xudo deb tasavvur qilingan. U cheklanmagan iqtisodiy, siyosiy va oliy kohinlik hokimiyatiga ega bo'lgan. Qadimgi podsholik davridagi Misr sivilizatsiyasi Qadimgi Sharq despotiyasining noyob namunasi. Despotiyaning moddiy timsoli fir'avnlarning muhtasham dahmalari – piramidalar bo'lgan.

Davlat boshqaruvi tizimi yakka hukmronlikka, cheklanmagan hokimiyatga ega podshoning ilohiyligini targ'ib etuvchi diniy mafkuraga asoslangan. Fir'avnning eng yaqin yordamchisi oliy amaldor-chati (bosh vazir) bo'lgan. U bir vaqtning o'zida bosh sudya, fir'avn nomidan mamlakat xo'jaligining umumiy nazoratini amalga

oshiruvchi, bir qator davlat amallarining egasi bo'lgan. Bu yuksak amalni odatda podshoning o'g'li egallagan.

Davlat boshqaruvi uch bo'g'indan iborat bo'lgan: markaziy, viloyat (nom), mahalliy (qishloq-jamoa). Nomlar boshqaruvi markaziy boshqaruvning kichikroq ko'rinishidagi nusxasi bo'lgan. Ko'p hollarda nomarxlar separatizmi mavjud bo'lgan.

M.a. III ming yillik o'rtalaridan zodagonlar hokimiyati mustahkamlanib borgan. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va mahalliy zodagonlarning kuchayishi m.a. 2200 yilda Misrning mustaqil nomlarga bo'linib ketishiga olib kelgan.

Tarqoqlik va nomlar o'rtasidagi kurash Misr sivilizatsiyasi farovonligi va taraqqiyotining asosi bo'lgan sug'orish tizimi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Birlashish jarayoniga ikkita markaz boshchilik qildi: shimoldagi Gerakleopol va janubdagi Fiva. Kurashda yakuniy g'alabani Fiva podshosi Mentuxotep I qo'lga kiritdi va mamlakat yaxlitligini tikladi. Ushbu hodisadan O'rta podsholik davri boshlandi (m.a. 2050-1700 yy). Bu Misr sivilizatsiyasi tarixidagi murakkab, shu bilan birga ahamiyatli davr edi.

Taxminan m.a. 2000 yilda Amenemxet I ning fir'avn bo'lishi bilan O'rta podsholikning gullab-yashnash davri boshlandi. Mamlakatni birlashtirishga va markaziy hokimiyatni kuchaytirishga intilgan fir'avnlarni o'z ta'sir doiralari olishga urindilar.

Amenemxet va Senusert nomlari bilan 8 ta fir'avn hukmronlik qilgan bu davrda misrliklar o'z qo'shnilari bilan muvaffaqiyatli urushlar olib bordilar, bronza quyish va shisha tayyorlashni o'zlashtirdilar. Bu davrda hunarmandchilik, jumladan to'qimachilik rivoj topdi. Yagona Misrning tashkil topishi tashqi savdoning yanada taraqqiy etishiga olib keldi.

Misr moddiy boyligining asosiy yaratuvchisi bo'lgan mehnatkash xalq "podsho odamlari" deb nomlangan. Ularning asosiy majburiyati qaysi yer- mulkka biriktirilganidan qat'iy nazar o'z kasblari doirasidagi ishni bajarish edi. Kasb va hunar bo'yicha taqsimlanish misrliklarning ixtiyorida emas edi.

O'rta podsholik davrida mayda mulkdorlar qatlami – nejeslar shakllana boshladi. Boyib ketgan nejeslar koinlar va amaldorlar safiga kira boshladilar. Fir'avnlarni eski aslzodalarni mavqeini pasaytirishga urunib, davlat mansablariga o'rta qatlam vakillarini tayinlay boshladilar.

Misr sivilizatsiyasi Fayyum vohasidagi ulkan sug'orish ishlarini yakunlagan va yunonlar Labirint deb nom bergan ulkan tosh imoratni barpo etgan Amenemxet II davrida gullab – yashnadi.

M.a. 1700 yil atroflarida sharqdan Misrga Janubiy Suriya va Shimoliy Arabiston qabilalarining ittifoqidan iborat giksoslar bostirib keldi. Shimoliy Misrda o'rnashib olgan bosqinchi giksoslar misrliklarni yilqichilik, jang aravasi, janglarda otliq qo'shından foydalanish bilan tanishtirdilar.

Giksoslarga qarshi kurashni tashkil etgan Fiva nomining hukmdori Yaxmos nafaqat bosqinchilarni quvib chiqdi, balki mamlakatni birlashtirdi. Shu tariqa m.a. 1600 yil atroflarida Misr sivilizatsiyasi Yangi podsholik davriga qadam qo'ydi.

Yangi podsholik davrida (m.a. 1580-1085 yy) Misr iqtisodiy ko'tarilishni boshidan kechirdi va Sharqiy O'rtayer dengizida hukmron mavqeni qo'lga kiritdi. Temir paydo bo'ldi, ammo u hali noyob metall sifatida qabul qilinardi. Yangi podsholik davrida metallurgiya taraqqiy etdi, yangi texnika va texnologiyalar joriy etildi. Masalan, teri bosqon, takomillashgan omoch, shaduf va h.k.

Yangi podsholikning iqtisodiy yuksalishi fir'avnlarning bosqinchilik siyosati bilan bog'liq edi. Janglarda toblangan qo'shin Misr podsholarining tayanchiga aylandi. Jangchilar davlat ta'minotida edi.

Fir'avn Tutmos I Misrni o'sha davrdagi kuchli davlatga aylantirdi. Tutmos II dan so'ng taxtni uning bevasi Xatshepsut egallab oldi. Taxminan m.a. 1500 yilda Tutmos III taxtga o'tirib, Tutmos I boshlagan yurishlarni g'olibona davom ettirdi.

Qaram yerlar va Misr aholisini talanishi natijasida hukmron tabaqa, ayniqsa ko'p sonli yaxshi uyushgan kohinlar tabaqasi boyib ketgan. XVIII sulola davrida Fivadagi Amon ibodatxonasi nihoyatda katta obro' – e'tiborga ega bo'lgan. Mamlakatda Amon ibodatxonasi kohinlarining mavqei kuchayib, ular Misr iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaganlar. Bu holat davlat hokimiyatiga katta muammolarni tug'dirgan. Natijada Amenxotep IV diniy islohot o'tkazgan. Amenxotep IV (m.a 1372-1354 yy) davrida “quyosh shu'lası” xudosi Aton birinchi o'ringa qo'yila boshlangan. Bu fir'avnning o'z nomini Exnaton deb o'zgartirishida ham o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga Exnaton Fiva kohinlari bilan uzil-kesil suratda aloqani uzib, Fivadan go'zal saroy va ibodatxonalar bilan bezalgan yangi poytaxt Axetaton (Aton shahri) ga butun saroy amaldorlari va

yangi quyosh xudosining koinlari bilan birga ko'chib kelgan va Aton Misrning yagona va oliy xudosi deb e'lon qilinadi. Exnaton Fiva koinlari va nomlardagi quldor zodagonlarni qudratini vaqtincha bo'shashtirishga muvaffaq bo'lgan. Exnatondan keyin taxtga o'tirgan fir'avnlarning uning diniy siyosatini davom ettira olmaganlar. Ulardan biri Tutanxaton Fiva koinlariga yon berib, Amon e'tiqodini qaytadan tiklashga va hatto o'z ismini ham shunga yarasha o'zgartirib «Tutanxamon» deb atashga majbur bo'lgan.

Ramzese I va Ramzese II davrida davom etgan xetlar bilan urushlar m.a 1292 yilda tinchilik sulhi tuzish bilan yakunlandi. Ammo Ramzese II vorislari davrida Misr endi liviyalik qabilalar va dengiz xalqlari hujumidan himoyalanihga majbur bo'ldi.

So'nggi davrda (m.a. XI-V asrlar) Misr sivilizatsiyasi og'ir damlarni boshidan kechirdi. Misr tarixining So'nggi davridagi beqarorlik temirning sekinlik bilan joriy etilishi, sudxo'rlikning avj olishi, jamiyatning erkinlar va qullarga yanada qat'iy bo'linishi, mamlakatning tarqoqligi, Liviyalik yollanma qo'shin harbiy tabaqasining shakllanishi, koinlik lavozimlari uchun keskin kurash, janubdan efiopiyaliklar, sharqdan ossuriyaliklarning bosqini bilan ifodalanadi. Shunga qaramasdan Misr sivilizatsiyasi o'z yutuqlari va erishgan natijalarini saqlab qoldi.

Misrning ozod etilishi va qayta birlashishi Sais sulolasi asoschisi, yunon va kirit yollanma qo'shiniga tayangan Psammetix I davrida yuz berdi. Misrliklarning Suriya va Falastindagi hukmronligi qisqa muddatga tiklandi, Kipr, Samos, Kirena bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Ammo m.a. 525 yilda Misr forslar, m.a. 332 yilda Makedoniyalik Iskandar tomonidan bosib olindi. Fir'avnlarning davridagi Misr sivilizatsiyasi davri tugadi. Yana markazlashgan yagona davlatga aylangan Misr uchun uch asrlik Ptolomeylar davri, ellinizm davri, siyosiy va iqtisodiy qudrat davri boshlandi. Ushbu sulolani Makedonskiyning sarkardasi Ptolomey I boshlab berdi va Kleopatra yakunlandi. Ptolomeylar Misri uning davrida Rim tomonidan bosib olindi va Rim provintsiyalaridan biriga aylantirildi.

### **3-savolning bayoni:**

Qadimgi Misr sivilizatsiyasining o'ziga xosligi va betakrorligini uning tabiiy-geografik joylashuvi, Nil vodiysining nisbatan yopiqligi va tashqi hujumlardan himoyalanganligi, fir'avnlarning hokimiyati va butun



ijtimoiy tizimning barqarorligi, shuningdek misrliklarning yuqori turmush darajasi belgilab berdi.

Misr sivilizatsiyasiga chuqur konservatizm va an'anaviylik xos. Misrliklar o'zlarining madaniy qadriyatlar tizimiga biror bir yangilik kiritishdan qochdilar. Aksincha, ularda o'zlariga ma'lum g'oya, qonun, badiiy uslublarni asrash va taqlid qilish uzoq asrlar asosiy tamoyil bo'lib qoldi. Albatta bu hol yangi unsur, g'oya va uslublarni inkor qilmadi, ammo ular asta-sekin paydo bo'ldi. Shu sababli Misr ustalari doimo rioya qilgan an'anaviylik va konservatizm Misr san'ati uchun xos bo'lgan kontseptuallik va yuqori malakalilik, mohirlik, uyg'unlikni o'zida aks ettirib nihoyasiga yetkazib ishlangan.

Misrda din ilk urug'chilik jamoalarida vujudga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Diniy an'analar mustahkam va turg'un bo'lgan, fetishizm, totemizm, ayniqsa hayvonlarga topinish Misrda uzoq davom etgan.

Misr xudolarining panteoni juda katta bo'lib, u ilk davrda vujudga kelgan madaniyatga borib taqaladi. Misrliklarning xudolari hayvon qiyofasida tasvirlangan. Xudolar mahalliy va umumisr miqyosida e'tiqod qilingan ilohlarga bo'lingan. Oddiy odamlarning himoyachisi va homiysi bo'lgan Amonga topinish umumisr xarakteriga ega bo'lgan. Quyosh xudosi Raning o'g'li Gorning yerdagi ifodasi sifatida qabul qilinadigan, o'limidan so'ng xudo bo'lib Osiris bilan tenglashtirilgan fir'avn shaxsini ilohiylashtirish alohida o'rin egallagan. Yer osti saltanatining podshosi Osiris butun Misrda e'zozlangan.

Misrda fir'avn Exnaton tomonidan ilgari surilgan monoteizmning birinchi tarixiy shakli bo'lgan yagona xudoga sig'inish konsepsiyasi o'z o'rnini topmadi.

Misr dinida u dunyodagi hayotga katta o'rin berilgan, o'limdan keyingi hayot bu hayotning davomi deb tushunilgan. Inson go'yoki, uch asosiy substansiya jismoniy tana, uning ma'naviy ko'rinishi («Ka») va uning ruhi («Ba») dan iborat. Faqat shu uch unurning birligi boqiy yashashga imkon beradi. Mana shu boqiylikka intilish ko'mish marosimlarining shakllanishiga, inson tanasini abadiy saqlash uchun mumiyolashning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Qadimgi Misr dini san'at taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Misr sivilizatsiyasi o'ziga xos, tuzilishi bo'yicha murakkab, mazmunan boy madaniyat yaratdi. Bu jahon madaniyati xazinasiga ko'plab durdonalarni yetkazib berdi. Bular qadimgi Misr yozuvi, yozuv uchun dunyodagi ilk material bo'lgan papirus, bugungi kungacha saqlanib

qolgan afsonalar, ertaklar, nasihatlar, ulug'vor piramidalar va ibodatxonalar, fir'avnlr va amaldorlar dahmalaridagi suratlardir.

Misrliklar yozuvning uch ko'rinishidan foydalanishgan: muqaddas hisoblangan iyeroglif yozuv, iyeratik yozuv va demotik yozuv.

Misrliklar dunyoda eng qadimgi qiziqarli g'oyalar, badiiy obrazlar bilan sug'orilgan boy adabiyotni yaratdilar. Adabiyot uchun qulay omil bo'lib xalq og'zaki ijodi xizmat qildi. Ilk abadiy asarlar m.a. IV ming yillikda paydo bo'ldi. Ertaklar, didaktik nasihatnomalar, zodagonlar tarjimai hollari, diniy matnlar va poetik asarlar Qadimgi podsholik davridayoq paydo bo'ldi. O'rta podsholik davrida janrlarning xilma-xilligi ko'paydi. Yuqori darajada yozilgan prozaik asarlar paydo bo'ldi (Sinuxet hikoyasi). Yangi podsholik davrida Misr adabiyoti g'oyaviy-badiiy tugallanish davrini boshdan kechirdi.

Misr adabiyotida nasihatnoma va bashoratlar didaktik janri to'laroq aks etgan. Nasihatnomalardan «Ptaxotep nasihatnomasi», «Gerakleopol podshosi Axtoyning o'gli Merikaraga nasihati», «Fir'avn Amenxemxet I ning nasihatnomasi» kabi asarlarda davlatni boshqarish qoidalari bayon qilingan. «Axtoyning o'gli Dauafaga nasihati»da mirzolikni boshqa kasblardan afzalligi ko'rsatiladi. «Ani nasihati», «Amenemope nasihati»da turmush ahloqi va an'anaviy ahloq qoidalari batafsil bayon qilinadi.

Ertaklar Misr adabiyotida alohida bir janr sifatida shakllandi. Ulardan eng mashhurlari: «Fir'avn Xufu va sehrgarlar», «Kema halokatiga uchraganlar to'g'risida», «Egri va to'g'ri to'g'risida», «Ikki aka-uka to'g'risida».

Sivilizatsion tuzilmaning tarkibiy qismi sifatida maorif ilk sivilizatsiyalardayoq birinchi o'ringa chiqqan. Misr sivilizatsiyasi savodxonlik va savodli odamlarni yuqori qadrlagan. Yozuv, xudo va xo'jayin ma'nolarini anglatuvchi tushunchalar bitta iyeroglif bilan ifodalangan. Kohinlar bir vaqtning o'zida olimlar ham bo'lishgan.

Misr sivilizatsiyasida ulkan bilim xazinasini yaratdi, ammo u tor doirada foydalanildi. Misr fani asosan matematika, astronomiya, tibbiyot yo'nalishlarida rivojlandi. Dunyodagi birinchi Quyosh kalendari bo'lgan Misr kalendari osmon jismlari va Nil daryosi rejimi asosida tuzilgan. Misrliklar Quyosh va oy tutilishini oldindan ayta olganlar, yulduzlarning aniq xaritasini tuzganlar, suv va quyosh soatlarini kashf qilganlar, o'nlik tizimga yaqin hisobni yaratganlar, qo'shish, ayirish, bo'lish va ko'paytirishni bilganlar.

Misr tabiblari butun Old Osiyoga mashhur bo'lganlar. Bizgacha 10 tibbiyot papirusi yetib kelgan. Tabiblar 100 ga yaqin kasalliklarni davolash usullarini bilganlar, qon aylanishi va yurak faoliyati to'g'risida bilimga ega bo'lganlar.

Fadimgi Misr san'ati misrliklarning kundalik hayoti, ularning qadriyatlari va estetik qarashlarini aks ettiradi. Piramidalar Misr sivilizatsiyasining ramziga aylandi, shaharlarning paydo bo'lishi esa varvalik va sivilizatsiyaning chegarasi bo'lib xizmat qildi. Yirik madaniy markazlar bo'lgan Memfis, Fiva kabi shaharlar nafaqat boy moddiy madaniyatni, balki sivilizatsiyalashgan jamiyatining universal ma'naviy madaniyatini ham yaratdi. Misr sivilizatsiyasining qudrat, kuch va donishmandligini aks ettiruvchi Fivadagi Luksor va Karnak ibodatxonalari bugungi kungacha yetib kelgan.

Me'morchilikda fir'avnlarning piramida-qabrlari, ibodatxonalar qurish ustivor ahamiyat kasb etdi. Dahmalarning ikki xili: yer usti dahmalari va qoyaga o'yilgan dahmalar keng tarqaldi. Piramida va dahmalar qurish uchun I-II sulola fir'avnlari dafn qilingan mastabalar namuna bo'lib xizmat qildi. III sulola fir'avni Joser uchun balandligi 60 m bo'lgan zinapoyasimon ilk piramida mastaba o'rnida qurildi. IV sulola fir'avni Xufu, Xafra va Menkaura piramidasini qoyadan o'yib yasalgan 20 metrlik sfinks qo'riqlab turibdi.

Dayr-al Baxrdagi malika Xatshepsut ibodatxonasi va Ramzes III ning Madinat Abudagi (Fiva) ibodatxonalari ulug'vor tarzda qurilgan. Yana shunday ibodatxonalar qoyalarga o'yib yasalgan (Ramzes III ning Nubiyadagi Abu Simbel ibodatxonasi). Yana bir me'morchilik san'ati namunasi podsho saroyi qarorgohi monumental shaklda qurilgan. Barcha ibodatxona va saroylar rel'eflar, boy devoriy rangtasvirlar bilan bezatilgan.

Misrda mahobatli haykaltaroshlikning eng qadimgi namunalarini ko'rish mumkin. Masalan, Ramzes II ning ulug'vor haykali, hayotga to'la Nefertiti haykalchalari.

### **Nazorat savollari:**

1. Dastlabki odamlar Nil vodiysiga qaysi davrda kelib o'rnamashishgan?
2. Nil vodiysining eng qadimgi aholisi (Badariy madaniyati) qaysi xo'jalik turi muhim rol o'ynagan?
3. Fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) islohotining mohiyati nimadan iborat edi?
4. Misr sivilizatsiyasining fir'avnlari davri qachon o'z nihoyasiga yetdi?

5. Misr sivilizatsiyasining diniy e'tiqodlari uchun xos bo'lgan xususiyatni aniqlang

#### **Adabiyotlar:**

1. Ерасов Б.С. Культура, религия и цивилизация на Востоке. – М., 1990.
2. Замаровский В. Их величества пирамиды. - М., 1986
3. Веллар К. Архитектура страны фараонов. - М., 1990.
4. История письма: эволюция письменности от Древнего Египта до наших дней./ Перевод с немецкого. – М.: Эксмо, 2002. -398 с.
5. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. Том-1, - Т.: Ўқитувчи, 1986.
6. «МААТ» Ассоциация по изучению Древнего Египта. - М., 2001-2013. - URL: <http://www.maat.org.ru>

### **5-mavzu. Qadimgi Kichik Osiyo va Sharqiy O'rta yer dengiz bo'yi sivilizatsiyalari**

#### **Asosiy savollar:**

1. Kichik Osiyo va Sharqiy O'rta yer dengiz bo'yining qadimgi madaniyat markazlari
2. Xett sivilizatsiyasi
3. Sharqiy O'rta yer dengiz bo'yi sivilizatsiyalari.

#### **1-savolning bayoni:**

Qadimgi yunonlar Kichik Osiyoni Anatoliya deb atashgan. XX asrning 20-yillaridan Turkiyaning Osiyo qismi ushbu nom bilan ataladi. Anatoliya dastlab qadimgi sivilizatsiyalar tadqiqotchilarini jalb etmagan. Ammo Chatal-Guyuk manzilgohining ochilishi bu hudud qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Anatoliyada turli davrlarda Xett, Mitanni, Ossuriya, Frigiya, Lidiya, Urartu kabi davlatlar gullab-yashnadi.

Mitanni davlatiga m.a. XVI asrda xurrit qabilasi mitannilar asos soladi. Mitanni poytaxti yuqori Xaburdagi Vassokanda joylashgan edi. M.a. XVI asr Mitanni Zagros va Nineviyadan Shimoliy Suriyagacha bo'lgan hududni egallab, ulkan davlatga aylandi. Shu vaqtdan boshlab bir yuz ellik yil davomida Old Osiyoda Mitannidan kuchli bo'lgan qudratli davlat yo'q edi. Mitanni bu davrda Misr bilan Mesopotamiya va Sharqiy O'rta yer dengizi havzasi uchun uzoq kurash olib bordi. XV asrda xalqaro vaziyat o'zgarib Misr bilan Mitanni o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari o'rnatildi va sulolaviy nikohlar tuzildi. M.a. XIV asr boshlaridagi Mitannidagi sulolaviy nizo, saroy fitnalari

davlatni zaiflashtirdi. Xettalar va Ossuriya tomonidan katta hududlari istilo qilingan Mitanni shimoliy Mesopotamiyadagi kichik bir davlatchaga aylanib qoldi. Qachonlardir qudratli davlat qoldig'i sifatida Mitanni Ossuriya tomonidan tugatildi.

M.a. XIII asr o'rtalarida Bolqon yarim orollaridagi o'zini frigiya deb atagan qabilalar Kichik Osiyoga kirib keldilar. Yuz yildan keyin boshqa Bolqon qabilasi Qora dengiz bo'yi briglari Kichik Osiyoga kelib bu yerdagi birinchi to'lqin frigiyaliklarni qisman assimilyatsiya qilib, qisman siqib chiqardi. Yangi birlik frigiyaliklar Ilion (Troya) shahrini to'la buzib tashladilar. M.a. VIII asr o'rtalarida Frigiya davlati amalda butun Kichik Osiyoni Egey dengizidan Tavr va Urartugacha bosib olib o'zini gullab yashnagan pallasiga kirdi. M.a. 675 yilda kimmeriy va Urartu ittifoqchi qo'shinlarini zarbasi ostida Frigiya davlati quladi. Frigiyada o'ziga xos madaniyat shakllangan edi. Frigiya mabudalari Attisa va Buyuk ona Kibela antik madaniyatga kuchli tasirini o'tkazdilar.

Poytaxti Sard bo'lgan Lidiya podsholigi taxminlarga ko'ra eramizdan avvalgi XII asrda Anatoliyaga egey-bolqon bosqinlaridan keyin xett kolonistlari, mahalliy liviya qabilasi bo'lgan meonlar tomonidan tashkil etilgan. Eramizdan avvalgi VIII asrda Lidiya Frigiyaga bo'ysunadi. 675-yildan Lidiya mustaqil bo'ldi. Biroz vaqt o'tmay Lidiyaga kimmeriyalar bostirib kirdi. Lidiya podshosi Ossuriyaga yordam so'rab murojaat qildi va uning hokimiyatini rasman tan oldi. M.a. 654-yil Lidiya zaiflashgan Ossuriya tarkibidan chiqib Misr bilan ittifoq tuzdi. Eramizdan avvalgi 644 yilda kimmeriyalar Sardni bosib oldilar. Skif-Ossuriya urushi Lidiyaning mustaqil bo'lishiga imkon yaratdi. Lidiya Likiyadan tashqari Galis daryosidan g'arbdagi butun Kichik Osiyoni bo'ysundirdi. Lidiya dunyoda birinchi bo'lib oltin va kumushning tabiiy qo'shilmasi-elektradan (m.a. VII asr) tanga zarb qildi va oltin tanga VI asrda zarb qilindi. M.a. VI asrda Lidiya Fors davlati tarkibiga kirdi.

Tavr tog'laridan va Frot daryosining o'rta oqimining Misrgacha bo'lgan Sharqiy o'rtayer dengizi qirg'ogi hududi va Suriyani qadimda yunonlar Finikiya va Falastin deb nomladilar. Qadimda bu hududning katta qismini Xanaan deb atalgan dengiz qirg'ogi tashkil etardi.

M.a. IV ming yillik oxirida Sharqiy o'rtayer dengizi qirg'ogi jamoalarida hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanadi va m.a. III ming yillikda shahar tipidagi manzilgohlar paydo bo'ldi. Ana shunday shaharlardan Finikiyada yuzaga kelgan Bibl, Ugarit, Sidon va Tirlarni

sanab o'tish mumkin. Mamlakat ichkarisida shimoliy Suriyada Alalax shahri (m.a. IV ming yilliklar oxiri- III ming yilliklar 2-yarmida), M.a. III ming Ebla shahri shakllandi. M.a. III ming yillikda Falastinda Megiddo, Quddus va Laxesh shaharlari shakllanadi. M.a. III ming yillikda Sharqiy o'rtayer dengizi qirg'og'i aholisi o'z tarkibiga ko'ra xilma-xil edi.

M.a. XVIII asrda shimoliy Suriyaga bostirib kirgan amoriy qabilalaridan biri tashkil etgan, bir necha shahar va davlatlarni birlashtirgan siyosiy birlashma Yamxad nomini oldi. Dastlab bu birlashma qabilalar ittifoqi shaklida bo'lgan. U shimolda Karxemishdan janubda Oront daryosigacha bo'lgan bepoyon hududga hukmronlik qilgan. (tax. m.a. XVII asrning II yarmida) Xalpa (hozirgi Aleppo) shahri poytaxt vazifasini o'tadi. M.a. XVII asrda Yamxad zaiflashib tushkunlikka yuz tutadi. M.a. 1600-yillar atrofida Yamxad davlatini xetlar bosib oladilar.

M.a. XIII-XVII asrda Yamxaddan janubroqda bir qancha shaharlarni birlashtirgan qudratli giksoslar ittifoqi vujudga keladi. Zarbdor qism jang aravalari bo'lgan qo'shinga ega bo'lgan giksoslar o'z hokimiyatlarini Misrda o'rnatdilar, Falastin va Suriyada ham egalik qildilar. Giksoslar ittifoqiga Kadesh va Megiddo shaharlari ham kiradi. Giksoslar davlati qurama bo'lib, unga semit qabilalari yetakchi o'rin egallab, bu davlat birlashmasiga xurrit va xett qabilalari qo'shildilar.

Giksoslar Misrdan haydalgach, Falastin va Suriyaga chekinib bu yerda qariyb yuz yil hukmronlik qildilar. Shimoliy Suriyada xetlar hokimiyatni qo'lga oldilar, lekin tez orada Mitanni davlati bu hududni egallab oladi. M.a. XVI asr oxiriga kelib, Sharqiy O'rtayer dengizi Misr va Mitanni tomonidan bo'linib olinadi. M.a. XV-XIV asrlarda Sharqiy O'rtayer dengizi siyosiy tarqoqlik, o'zaro urushlar girdobida qoldi.

M.a. XIII-XII asr boshlarida Suriya va Falastin O'rtayer dengizi qirg'og'i egey-anatoliya xalqlari («dengiz xalqlari») bosqiniga uchraydi. Shundan so'ng ular Misrga hujum qiladilar, lekin misrliklar hujumni qaytaradilar. Misrdan uloqtirib tashlangan kelgindilar Falastin qirg'og'iga o'rinishib, Filistim ("Peleset") nomi bilan davlat tuzdilar. Tez orada ular bu yerdagi mahalliy aholining tili va madaniyatini o'zlashtirdilar, ularning nomidan "Falastin" nomi kelib chiqdi.

M.a. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida Sharqiy o'rtayer dengizi qirg'og'i shaharlari qayta tiklandilar. Sharqiy o'rtayer

dengizi qirg'og'ida finikiyaliklar xalqaro savdoda yetakchi o'rinni egalladilar. Finikiya shaharlarida kemasozlik, dengizchilik yuqori darajada rivojlanadi. Finikiyaliklar O'rtayer dengizi havzasida o'zlarining o'nlab koloniyalarini barpo qiladilar. Tir va Sidon shaharlari bu yo'nalishda faol harakat qiladilar va o'zaro birlashib yagona davlat tuzadilar.

Finikiyaning koloniyalari ichida Tir shahri asos solgan Shimoliy Afrikadagi Karfagen yoki Karxemish (m.a. 825 yoki 814 yilda barpo qilingan) iqtisodiy jihatdan yuqori darajada taraqqiy qilgan va siyosiy qudratga erishgan. Karfagen shahri G'arbiy o'rtayer dengizidagi Finikiyaning boshqa koloniyalarining markaziga aylanadi va o'z koloniyalarini barpo qila boshlaydi. M.a. III-II asr o'rtalarida Puni urushlari natijasida Karfagen batamom tor-mor qilinib, uning hududi Rim respublikasining Afrika profintsiyasiga aylantiriladi ( m.a. 146-yil).

M.a. II ming yillik oxirlarida kontinental Suriyada savdo yo'llari kesishgan nuqtada Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylarning Suriyadagi bosh markazi Damashq shahri kuchayib ketadi. Damashq podsholigining iqtisodiyoti rivojlangan chorvachilik, butun Yaqin Sharqqa mashhur bo'lgan qurolsozlik va oliy navli jun bilan vositachilik savdosiga asoslangan. M.a. IX asr oxirida beto'xtov urushlar sababli zaiflashib qolgan Damashq Ossuriya tomonidan bosib olindi.

M.a. XII asrda Falastin hududida kelgindi ko'chmanchi isroil qabilalari va mahalliy xananlar birlashib 12 qabila ittifoqini shakllantiradilar. M.a. XI asr boshlarida Falastinda temir qurollar ishlab chiqarishda yetakchi bo'lgan filistimlar hukmronligi o'rnatiladi. Isroil qabilalari filistimlarga qarshilik ko'rsata olmaydi. Falastinda isroil qabilalari Misrdan kelib o'rtnashadilar. M.a. XIII asrda o'n ikki yahudiy qabilalari Falastinga bostirib kirib, mahalliy Xanaan shahar-davlatlarini bo'ysundirganlar. Yahudiy so'zi etimologik jihatdan «daryo ortidagi aholi» degan ma'noni bildiradi.

M.a. XI asrning oxirida yahudiy jamiyatida ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish yuz bergan. Saylab quyiladigan yo'l boshchilar o'rniga merosiy podsho hokimiyati shakllanadi. Dovud (1010-970 yillar) podsholigi davrida markazlashgan davlat tuziladi. Bosib olingan Quddus yangi davlatning poytaxti bo'lgan.

Dovudning o'g'li Sulaymonning shafqatsiz siyosatidan norozi bo'lgan 10 shimoliy yahudiya qabilalari ajralib chiqib, Isroil

podsholigini tashkil qiladilar. Uning poytaxti yangi qurilgan Samariya shahri bo'lgan. Dovud sulolasi hukmdor bo'lgan Quddus podsholigi uning bosh qabilasi nomi bilan Yahudiya deb atalgan. Ikkala podsholik ham bir-biri bilan dushmanchilik munosabatida bo'lib vaqti-vaqti bilan konfederatsiya tashkil qiladilar. Yahudiyani parchalanganidan foydalangan Misr Falastinga yurish qilib Yahudiya va Isroilni bosib oladi.

M.a. VIII asr o'rtalarida Ossuriya Damashq va Isroil davlatlarini tor-mor qiladi. Tir-Sidon podsholigining katta qismi Ossuriya tomonidan bosib olinib, tobe hududga aylantiriladi. Ossuriyaning g'arbiy qismiga skiflarning hujumi Sharqiy o'rtayer dengizi qirg'og'ida Ossuriya hukmronligiga chek qo'yadi. Ossuriyaning halokatidan keyin Sharqiy o'rtayer dengizi Misr va Bobil o'rtasidagi raqobat maydoniga aylanadi. Misr va Bobil o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda m.a. 587-yilda Yahudiyani halokati, yahudiylarning Mesopotamiyaga asir qilinib olib ketilishi, butun Sharqiy O'rtayer dengizini Bobilga tobe bo'lishi bilan yakunlanadi. M.a. 539-yilda ahamoniylar tomonidan Bobilni bosib olinishi bilan bu hududda forslar hukmronligi o'rnatiladi.

## **2-savolning bayoni:**

M.a. XX-XVIII asrlarda Kichik Osiyodagi Nesa (Kanish), Burusxan, Kussar va Xattusi kabi shaharlarni o'z ichiga olgan siyosiy birlashmalar vujudga kela boshlaydi. Kichik Osiyoning bu siyosiy birlashmalarining ilk birlashuvi eramizdan avvalgi XVIII asrning birinchi yarmida yuz beradi.

Qadimgi Xett davlatida urug'-jamo'a qoldiqlari hali kuchli bo'lgan. Xett podsholari o'z hokimiyatlarini xalq kengashlariga tayanib amalga oshirganlar. Qurol ko'tarishga qobiliyatli bo'lgan barcha erkaklar podsho chiqaradigan «pankus» deb ataladigan yig'ilishga muntazam ishtirok etganlar. Zodagonlar davlat boshqaruvda faol qatnashib, o'zlarini kuchli tayanchi bo'lgan zodagonlar kengashi (Tuliya) orqali xalq yig'iniga boshchilik qilganlar.

Xett davlatining hukmdorlari mamlakatni birlashtirib, istilochilik yurishlari olib boradilar va davlat chegaralarini “dengizdan-dengizgacha” kengaytiradilar. Poytaxt xettlarning sobiq bosh markazi Xattusiga ko'chirilgach keyin davlat rasmiy ravishda “Xatti”, zamonaviy fanda “Xett” deb atala boshlandi.

M.a. XVIII- XVI asrlar qadimgi Xett podsholigi davri deb ataladi. Xett davlatining tushkunlik davri bo'lgan m.a. XV asr o'rta



Xett podsholigi davri deb nom oldi. M.a. XIV asr boshlarida Old Osiyoda Misr, kassitlar Bobili va Mitanni davlatlari zaiflashib, xalqaro munosabatlarda Xett davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit tug'iladi. Yangi Xet podsholigi davri sanalgan m.a. XIV -XII asrlarda ushbu davlat yana yuksaldi.

Yangi sulola podsholari qadimgi xett buyuk davlatchiligi g'oyalari qaytarishga da'vo qilib, harbiy-byurokratik monarxiyani tashkil qildilar. Podsho ilohiylashtirilgan mutlaq hukmdorga aylandi. Xett hukmdorlari bu davrda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i mayda davlatchalarini va Mitanni davlatini bosib oldilar. Mitanniga tegishli Suriya viloyatlarini va shaharlarini, Kichik Osiyodagi janubiy Frigiya va Lidiya, Milavan (Milet) hokimlarini bo'ysundiradilar.

Ammo Misr XIX sulola davrida yanada kuchayib va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'ogi uchun Xett davlati bilan yana raqobat boshlaydi. Xetlar Falastin, Finikiya va Suriyani katta qismidan siqib chiqariladi. Oxir oqibatda Misr va Xett davlati eramizdan avvalgi 1280 yilda tinchlik shartnomasini imzolaydilar. Shartnoma bo'yicha Suriyaning bir qismi, Shimoliy Finikiya Xett davlati ta'siri ostida qoladi.

Endilikda Xett davlati kuchayib borayotgan Ossuriyaning harbiy tazyiqiga qarshi Bobil bilan ittifoq bo'lishga harakat qiladi, lekin Ossuriyani Yuqori Mesopotamiyadan siqib chiqara olmadi. Xett davlati kuchli qo'shinga ega bo'lgan Ossuriya tazyiqini qiyinchilik bilan qaytaradi.

So'ngi xett podsholari davrida axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklarni Kichik Osiyoning g'arbida hujumini zo'rg'a qaytaradilar. Axeylar tor-mor qilinganidan keyin Kichik Osiyo g'arbidagi Iliion shahri bosib olinadi. M.a. XII asr oxirida Egey dengizi qirg'oqlari va orollarining «dengiz xalqlari» Xett davlatini tor-mor qiladilar. Shunday qilib, yangi Xett davlati tarix sahnasidan abadiy tushib ketdi. Markazlari Karxamesh va Melida bo'lgan so'nggi Xett podsholiklari qoldiqlari m.a. VIII asr oxirlarida Ossuriya tomonidan tugatiladi.

Xetlar xo'jaligining asosi dehqonchilik, chorvachilikning qo'ychilik sohasi bo'lgan. Dehqonchilikda sun'iy sug'orish sezilarli bo'lmagan. Hunarmandchilikning taraqqiyoti to'g'risida qonunlar va boshqa hujjatlarda temirchi, kulol, duradgor va tikuvchi kasblari tilga olinadi. Mehnat qurollari va harbiy aslahalar ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo dastlab mis, keyinchalik qalay edi. Temirdan faqat diniy marosimlar uchun haykalcha va boshqa buyumlar yasashda oz

miqdorda foydalanilgan. Xett davlatida podsho oilasi va podsho bosh koxin sifatida juda katta miqdorda yerga egalik qilgan. Podsho va ibodatxona yerlarida ishlovchilar o'z yerlariga berkitib qo'yilib, turli soliq va majburiyatlarni o'taganlar.

Xett jamiyatida barcha aholi ikki guruhga bo'lingan. Soliq to'lovlari va boshqa majburiyatlarni o'tovchi (podsho, ibodatxona eki xususiy shaxs foydasiga) kishilar erkin bo'lmagan mavqega ega bo'lib, kamsitilganlar. To'la ma'noda erkin kishilar deb zodagonlar, amaldorlar, kohinlar va katta yer egalari hisoblanganlar. Xett davlati bosib olgan hududlarni boshqarmagan, faqat ulardan xiroj olish bilan cheklagan.

### **3-savolning bayoni:**

Sharqiy O'rta yer dengizi bo'yi shaharlarida me'morchilik yuksak darajada taraqqiy etgan. Ugarit va Ebla shaharlarida hashamatli me'morchilik inshootlari, saroylar bunyod qilingan. Ebla saroy devorlarini bezalishida Mesopotamiya me'morchiligi bilan aloqa yaqqol ko'rinadi. Haykaltaroshlikda yog'och va toshdan podsho va ma'budalar haykallari yasalgan.

Dengizchilik, kemasozlik sohalari ayniqsa Finikiyada yuksak darajaga ko'tariladi. M.a. 600-yillar atrofida fir'avn Nexo buyrug'i bilan finikiyaliklarning dengizchilik tarixida ilk bor Gibraltar orqali Atalantika okeaniga chiqib, Afrikani aylanib o'tishlari buyuk kashfiyot edi. Finikiyaliklar mohir kemasoz bo'lganlar. Ularning kemalaridan misrliklar va boshqa Old Osiyo xalqlari keng foydalandilar.

Xetlar madaniy tarqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta'siri yaqqol seziladi. Xett dini o'ziga xos belgilarga ega edi. Xetlarning ming ma'bud va ma'budalari to'g'risida manbalarda eslatishlar mavjud. Amalda esa, cheklangan miqdorda ilohlarga sig'inilgan. Podsho quyoshga o'xshatilib ilohiylashtirilgan.

Xett podsholigining boshqa xalqlar bilan yaqin aloqasi mavjudligidan dalolat beradigan yana bir madaniy yutuq uch tilli shumer-bobil-xett lug'atlarining tuzilishidir.

Xett haykal va relyeflari vazmin va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda ayniqsa, mudofaa inshootlari qal'a devorlari qurish yuqori darajada bo'lgan. Xett madaniyati ko'p asrlik shimoliy Mesopotamiyada va unga yaqin boshqa hududlarda yashagan qabila va xalqlarning madaniyatini o'zida aks ettirgan va boshqa madaniyatlarga xam o'z ta'sirini o'tkazgan. Xetlarning madaniy

merosi Xett davlati halokatidan keyingi asrlarda ham boshqa qo'shni mamlakatlar madaniyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Karfagen Misr, Xett, Bobil va Osuriya madaniyatlarini doimiy ta'siri ostida bo'lgan va shu sababli uning madaniyati sinkretik (madaniyatlar qo'shilmasi hosilasi) xususiyatiga ega edi. Karfagenliklar qadimda Afrika, O'rtayer dengizi, Atlantika qirg'og'i, Kanar va Azor orollarining eng aniq geografik xaritasiga ega bo'lganlar. Karfagen madaniyati G'arbiy o'rtayer dengizi va Shimoliy Afrika tarixida muhim iz qoldirdi.

Sharqiy o'rtayer dengizi hududining madaniy sohadagi eng katta yutug'i alifboli yozuvning yaratilishi edi. M.a. XV-XII asrlardayoq Ugaritda o'ttiz belgili mixxat alifbosi qo'llanilgan. Finikiya alifbosi yanada takomillashgan tizim bo'lib, yunonlar tomonidan qabul qilinib, keyinchalik barcha zamonaviy alfavitlarga asos bo'ldi.

Sharqiy O'rtayer dengizi xudolar panteoni tabiat kuchlarini aks ettiradi. Har bir shaharni o'z homiy ma'budi bor edi. Falastinda m.a. VIII-VI asrlarda monoteistik ta'limot keng tarqaldi. Yahudiyada vujudga kelgan monoteistik ta'limot Yaxvani yagona xudo deb e'lon qiladi. Yaxva dastlab iuda qabilasining xudosi edi. Keyinchalik Isroil-Yahudiy davlatining bosh xudosi deb e'lon qilingan. Yahudiy manbalariga ko'ra, Sulaymon payg'ambar Quddusda unga atab ibodatxona qurdirgan. Yaxudo dini insoniyat tarixidagi birinchi yakka xudolikka asoslangan dindir.

Yahudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmuasi bo'lmish Bibliyaning "Qadimgi ahd" qismi o'sha davrda yaratila boshlangan. "Bibliya" eng qadimgi adabiy yodgorliklardan biri bo'lib, diniy pand-nasihatlari, aqidalar, bashoratlari, duolar, solnomalar, masallar, ishqiy va falsafiy dostonlar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. Bibliya jahon bo'yicha keng tarqalgan, asrlar mobaynida ko'pgina xalqlarning axloqi, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti, musiqa va rangtasvir san'atiga barakali ta'sir ko'rsatgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Anatoliyaning qadimgi madaniyat markazlarini sanab bering.
2. Finikiya sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tahlil qiling.
3. Xett podsholigining davlat tuzumiga baho bering.
4. Yaxudo dini insoniyat tarixidagi birinchi yakka xudolikka

asoslangan din sifatida qanday rol o'ynadi?

## **6-mavzu: Qadimgi Afrika va Janubiy Arabiston sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Qadimgi Afrika sivilizatsiyasi o'choqlari.
2. Janubiy Arabiston sivilizatsiyalari taraqqiyotining omillari.

#### **1-savolning bayoni:**

M.a. IV ming yillikda Yuqori Misr va Shimoliy Nubiyada deyarli bir xil madaniyat tarqalgan bo'lsa, keyinchalik geografik omillar xususiyatiga ko'ra madaniyatlar taraqqiyoti turlicha yo'ldan ketdi.

Nilning uchinchi va beshinchi ostonalari oralig'idagi hududlarni asosan Kush podsholari nazorat qilgan, ba'zan esa ular o'z hukmronligini shimolda Asuandan janubda Xartumgacha kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. Kushda asosan dehqon-chorvador birlashmalar istiqomat qilgan.

M.a. III ming yillikda Misr fir'avnlarning istilochilik yurishlari tufayli Nilning birinchi ostonasidan janubdagi hududlarda yuzaga kelgan madaniyatlar almashib turgan. Shimoliy Suriyadagi Kush hududida yashagan aholi sezilarli darajada negroid elementlari aralashgan Kerma madaniyatiga mansub bo'lgan. Kerma shahri xarobasi, bu yerdan topilgan buyumlar jamiyatning ancha yuksak darajadagi taraqqiyotidan dalolat beradi. Sopol idishlardagi naqshlarda qora Afrikaning kuchli ta'siridan dalolat beradi. Kerma aholisi Misr, Sharqiy Saxara, Xartum viloyatlari va Efiopiyaning chegara rayonlari bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Kermaning gullab-yashnash davri Misrdagi O'rta podsholik va II-O'tish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Kerma ikkinchi ostonadan to'rtinchi Nil ostonasigacha bo'lgan hududni nazorat qilgan. Kush sivilizatsiyasining keyingi davriga oid markazlar - Kava, Napata va Meroyening dafn inshootlari ushbu sivilizatsiyaning mahalliy ildizlaridan darak beradi. Ushbu hududda mavjud bo'lgan oltin, chorvachilikni rivojlantirish, qimmatbaho yog'och navlari va asirlarni haydab ketish uchun qulay sharoit Misrni doimo qiziqtirib kelgan. Misr kolonizatsiyasi davrida Kush madaniyati Misr madaniyati bilan juda yaqinlashib ketgan, ammo mahalliy an'analar va qarashlar saqlanib qolgan.

XXV sulola davrida endi Misr Kush tomonidan istilo qilinadi. Kushlik fir'avnlarning hukmronligiga Ossuriya qo'shinlarining qudrati va zarbasi chek qo'ydi.

Shimoldan bosqinchilarning hujumi xavfi yoki boshqa sabab bilan Kush sivilizatsiyasining markazlari janubga, Napata va Meroyega ko'chadi. M.a. VI-V asrlarda podsho oilasining qarorgohi Meroyeda joylashgan, ammo Napata bosh diniy markaz, podsholarning asosiy toj kiyish marosimi o'tkaziladigan joy bo'lib qolavergan.

Mahalliy me'morchilik va san'atning eng yorqin namunasi Musavvarat-as-Sufradagi diniy majmuadir. Bu yerda sher boshli mahalliy xudo Apedemakkka topinilgan. Ushbu yodgorlik shaklan Misr an'alariga o'xshatib barpo etilgan, biroq u mazmunan Afrika madaniyatiga mansub.

Meroye xatida bitilgan ilk yozuvlar m.a. II asrga oid, ammo u ilgari mavjud bo'lgan. Bu yozuv Afrika qit'asidagi eng qadimgi alifboli yozuv bo'lib, bevosita Misr iyeroglif va demotik yozuvi ta'sirida paydo bo'lgan.

Meroye madaniyati rivojining butun tarixi qadimgi dunyoning buyuk davlatlari bilan bog'liq tarzda kechgan. Kushda ushbu davlatlarning ko'plab an'analari va yutuqlari qabul qilingan. Bunda ayniqsa Misrning ta'siri eng kuchli bo'lgan.

O'ziga xos va betakror Kush madaniyati qadimgi Sharq mamlakatlarining umumiy madaniy merosiga o'z hissasini qo'shgan, Sudan xalqlarining zamonaviy madaniyati manbai bo'lib xizmat qilgan.

Tropik Afrikada temir davriga o'tish bilan bir vaqtda yuzaga kelgan, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatga ega bo'lgan markazlarni shartli ravishda sivilizatsiya deb atash mumkin. Bir-biridan ulkan masofalar ajratib turgan, ammo o'zaro bog'liq holda rivoj topgan bu qadimiy sivilizatsiyalarga G'arbiy Sudan va unga tutash bo'lgan Saxara hududlari, hozirgi Nigeriyaning markaziy va janubiy-g'arbiy qismlari, Lualaba daryosining yuqori qismi havzasi (hozirgi Zairdagi Shaba viloyati), hozirgi Zimbabve Respublikasining markaziy va sharqiy viloyatlari hamda Hind okeanining Afrika qirg'oqlarini kiritish mumkin. Ushbu qadimgi sivilizatsiyalar va Afrikaning o'rta asr sivilizatsiyalari - G'arbiy Sudanning buyuk davlatlari (Gana, Mali, Songai), Ife, Benin, Kongo, Zimbabve, suaxili sivilizatsiyalari orasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik arxeologik tadqiqotlar natijasida isbotlab berilgan.

G'arbiy Sudan va Nigeriyada vujudga kelgan sivilizatsiyalar ayniqsa rivoj topgan. Markaziy Afrika o'choqlari temir va mis metallurgiyasi, shahar tipidagi yirik manzilgohlarning paydo bo'lish vaqtiga ko'ra orqada qolgan edi. Sharqiy Afrika markazi uning

shakllanishida dengiz savdosi o'ynagan rol bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan.

Tropik Afrika sivilizatsiya o'choqlarining bir-biridan uzoq masofalar bilan ajratilganligi ularning o'rtalarida o'rtasida aloqalar o'rnatishga to'sqinlik qilmagan. Bu aloqa G'arbiy Sudan va Nigeriya o'chog'i, Nigeriya va Kongo havzasi o'rtasida kuzatiladi. Arxeologik ma'lumotlar hozirgi Zimbabve, Zambiya va Yuqori Lualaba, shuningdek, sharqiy Afrika qirg'oqbo'yi hududlari m.a. II ming yillik boshlarida o'zaro aloqada bo'lganligini tasdiqlaydi. Biroq ularning ko'pchiligi, masalan, Nigeriya va Markaziy Afrika o'choqlari Afrikadan tashqaridagi sivilizatsiyalar bilan to'g'ridan – to'g'ri aloqa bog'lash imkoniga ega bo'lmagan.

Sahroi Kabir hududi orqali o'tgan savdo yo'llari bu yerdagi taraqqiyotga o'z ta'siri ko'rsatdi. Tropik Afrikadagi yagona G'arbiy Afrika bronza davri industriyasi va undan so'ng yuzaga kelgan metallurgiyani mana shu ta'sir natijasi deb baholash mumkin. Mavritaniyadagi (Akjujta) fransuz olimlarining tadqiqotlari bu yerda m.a. VI-V asrlarda mis va bronza davri industriyasining yirik markazi bo'lganligini ko'rsatib berdi. U Marokash janubida ilgariroq yuzaga kelgan metallurgiya markazi bilan bog'liq bo'lgan.

Niger daryosi o'rta oqimining Gundam rayoni – Niafunkdagi yodgorliklar (dahmalar va megalitik inshootlar) esa miloddan oldingi davridayoq shakllangan shahar hayoti an'analariga ega Mali sivilizatsiyasi bilan bog'liq.

Malidagi Jenna shahri xarobalarida amerikalik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bu yerda rivojlangan temir metallurgiyasi mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Radiouglerod tekshiruvlari an'anaga ko'ra VIII asrda paydo bo'lgan deb hisoblanib kelingan bu shahar m.a. III asrda vujudga kelganligini aniqlab berdi.

M.a. I ming yillikda Sahroi Kabirning suvsizlanishi va ko'chmanchilarning janubga kirib kelishining kuchayishi dehqonlarda bu hujumga qarshi tura oladigan ilk yirik tashkiliy siyosiy birlashmalarning vujudga kelishiga olib keldi. Milodiy III-IV asrlar chegarasida ushbu hududdagi eng qadimgi davlat birlashmasi bo'lgan Gananing vujudga kelishi aynan mana shu jarayonning mantiqiy yakuni bo'ldi.

Qadimgi Markaziy Afrika sivilizatsiyasining Nigeriya o'chog'i to'g'ridan – to'g'ri G'arbiy Afrikada temir industriyasi bilan bog'liq. Ushbu o'choqning ko'pchilik sivilizatsiyalari u yoki bu darajada bu

regiondagi ilk temir asri madaniyati bo'lgan Nok madaniyati bilan aloqador (m.a. V asr).

Nok sivilizatsiyasi izlari ilk bor 1928 yilda Jos yassitog'liklarida ochilgan. 1943 yilda Nok qishlog'i yaqinida topilgan haykalchalar uning keng miqyosda o'rganilishini boshlab berdi. Nok sivilizatsiyasi hozirgi Nigerning markaziy va janubi-g'arbiy qismlarida, qisman Benin va Nigeriya hududlarida tarqalgan. So'nggi tadqiqotlar natijasida uning xronologiyasi taxminan m.a. 900 yildan milodiy 200 yillar bilan belgilanmoqda.

Nok sivilizatsiyasi vakillari Sahroi Kabirdan janubdagi hududda ilk bor sopol buyumlar tayyorlay boshlagan va metallurgiya ko'nikmalariga ega bo'lib, tosh davridan to'g'ridan-to'g'ri temir davriga o'tgan. Nok sivilizatsiyasi vakillari yaratgan ajoyib sopol va bronza haykalchalar ushbu madaniyatning sof Afrika ildizlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu haykalchalar dafn marosimi uchun xizmat qilgan. Ular sof badiiy fazilatlaridan tashqari, an'anaviy afrika haykaltaroshligida bugungi kungacha saqlanib qolgan uslub aks etganligi bilan qiziqarlidir.

Hozirgi yoruba xalqining ajdodlari tomonidan yaratilgan Ife sivilizatsiyasining Nok bilan aloqasi mashhur Ife bronzalarida o'z aksini topgan. Ifening bronza va sopol haykalchalari juda mukammal bo'lib, antik haykalchalarga o'xshab ketadi, biroq ularda tasvirlangan odamlar negroid irqiga mansub.

Lualaba daryosining yuqori oqimlarida ham o'ziga xos qadimgi sivilizatsiyalar shakllangan. Bu hududda topilgan yirik Sanga (m.a. VII-IX asrlar) va Katoto (m.a. XII asr) dahmalaridagi boy arxeologik topilmalar - mis va temir buyumlar, fil suyagidan tayyorlangan buyumlar, sopol Buyumlar xarakteri buyumlar mahalliy hunarmandchilikning yuksak taraqqiyotidan dalolat beradi. Xronologik jihatdan Sanga Lualaba va Zambezi havzasi o'rtasidagi tovar ayirboshlash shakllangan davrga to'g'ri keladi.

Hozirgi Zambiya va Zimbabve hududlarida vujudga kelgan sivilizatsiyaning gullab-yashnashi XII-XIII asrlarga to'g'ri keladi. Ammo uning shakllanish omillari ancha oldingi davrlarga oid. Bu hududdagi Inyango platosidan topilgan mis buyumlar VIII-IX asrlar bilan belgilanadi.

Zimbabve davlatining Masvingo viloyatida joylashgan Katta Zimbabve qadimgi Afrika shahrining ulkan tosh xarobalari iborat. U shona (bantu guruhiga kiruvchi xalq) xalqi ajdodlarining bosh

ibodatxonasi va diniy markazi bo'lgan deb hisoblanadi. 1928-29 yillarda ingliz arxeologi G.Katon-Tompson tomonidan o'rganilgan ushbu yodgorlik taxminan 1130 yillarda barpo etilgan. Ushbu hududning o'zlashtirilishi esa III asrdan boshlangan. Qadimda ushbu shahar Monomotapa yoki Buyuk (Katta) Zimbabve, Muene, Mutapa, munxumutapa nomlari bilan mashhur davlatning markazi bo'lgan. U hozirgi Zimbabve (ushbu nom aynan shu shahar nomidan olingan bo'lib, "tosh uylar", "ibodat uylari" ma'nosini anglatadi) va Mozambik hududlarini o'z ichiga olgan.

O'rta asr Afrika sivilizatsiyalariga yorqin misol sifatida Suaxili sivilizatsiyasini ko'rsatish mumkin. I-VIII asrlar davomida shakllangan ushbu sivilizatsiyaning gullab-yashnashi XII-XIII asrlarga to'g'ri keladi.

Milodimiz boshlariga kelib Sharqiy Afrika allaqachon Qizil dengiz va Fors qo'ltig'i, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo bilan savdo va madaniy aloqalar bilan bog'langan edi. Suaxiliya sivilizatsiyasining ilk asoslari okean dengizchiligi va okean xo'jaligiga asoslangan. Bu hududda savdo va dengiz xo'jaligi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan yirik manzilgohlar keyinchalik suaxiliya sivilizatsiyasi uchun xos bo'lgan Kilva, Mombasa kabi mashhur shahar-davlatlarga aylangan.

Sharqiy Afrikadagi turli arxeologik tadqiqotlar Suaxili sivilizatsiyasining gullab-yashnagan davri haqida ham, ya'ni hudud tarixining musulmon davriga oid ma'lumotlar beradi.

Shunady qilib VIII asrga kelib Tropik Afrika hududida ilk sivilizatsiyalarning bir qancha o'choqlari yuzaga kelgan va afrika madaniyatlarining keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilgan.

## **2-savolning bayoni:**

Janubiy Arabiston sivilizatsiyasining o'ziga xosligi uning Misr, Ikki daryo oralig'i va boshqa sivilizatsiya markazlardan to'liq bo'lmasa-da, ajralganligi bilan belgilanadi.

Janubiy Arabistonning bo'g'ozdagi qirg'oqbo'yidan to Xadramautning g'arbiy rayonlarigacha bo'lgan hududida olduvay tipidagi ilk paleolit qurollarining, shuningdek Rub-al-Xalining shimoliy chegaralarida ko'plab ilk paleolit manzilgohlarining topilishi Janubiy Arabiston inson paydo bo'lgan va shakllangan hududga kirishini ko'rsatadi. Dastlab qulay tabiatga ega bo'lgan Arabiston yarimorolida m.a. XX ming yillikdan boshlangan tabiatdagi o'zgarishlar m.a. XVIII-



XVII ming yilliklarga kelib qurg'oqchil iqlimning shakllanishiga olib keldi. Insonlar Arabiston yarimorolini tark etadi va faqat uning janubi va sharqida "ekologik boshpanalar" da hayot davom etdi.

M.a. VIII ming yillikdan boshlab iqlim yana o'zgara boshladi va bu safar insonlar uchun qulay sharoit tufayli ushbu hudud Jamdat-Nasr madaniyati vakillari tomonidan egallanadi. M.a. III ming yillikka kelib Sharqiy Arabiston, ayniqsa Ummon (qadimgi Magan) Ikki daryo oralig'i va "Dilmun mamlakatlari" (Baxrayn)ning Shimoli-G'arbiy Hindiston bilan savdosida faol ishtirok eta boshlaydi.

M.a. III ming yillik oxiri – II ming yillik boshlarida Janubiy Arabistonga dehqonchilik bilan tanish bo'lgan va sug'orish, qurilish ko'nikmalariga ega bo'lgan semit qabilalari kirib keladi. Janubiy Arabiston tabiatining o'ziga xos xususiyatlari ko'chib kelgan xalqlarni alohida guruhlar va urug'lar bo'lib joylashib, biqiq madaniyat o'choqlarini shakllantirishiga olib keldi.

M.a. III m.y. ning ikkichi yarmiga oid shumer hujjatlarida Ikkidaryo oralig'i bilan aloqada bo'lgan Magan va Meluxxa mamlakatlari tilga olinadi.

M.a. II ming yillik oxiridan to m.a. VI asrga qadar yuzaga kelgan Sabey, Kataban, Xadramaut va Mayn sivilizatsiyalari o'ziga xos yorqin xususiyatlarga ega bo'lib, m.a. I ming yillik davomida yonma-yon mavjud bo'lgan.

Qadimgi Xadramaut madaniyatida uzoq vaqtgacha janubiy Ikkidaryo oralig'i ta'sirida bo'lgan Arabiston yarimorolining eng chekka sharqiy viloyatlariga xos alohida qirralar saqlanib qolgan.

M.a. I ming yillikning birinchi yarmida bu sivilizatsiyalar sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, ko'plab shaharlar, rivojlangan me'morchilik va san'atga ega bo'lgan. M.a. VII asrda barpo etilgan va o'n uch asr faoliyat ko'rsatgan Marib to'g'oni bu sohada erishilgan hayratlanarli natijalardan guvohlik beradi.

Bu hududlarda yetishtirilgan ko'plab ekinlarga Yaqin Sharq va O'rtayer dengizi mamlakatlarida talab kuchli bo'lgan. Xushbo'y hidli daraxtlarni o'stirish qadimgi Yaman davlatlarining gullab-yashnashiga asos bo'lgan. M.a. X asrda Sharqiy O'rtayer dengizi bilan savdo va diplomatik aloqalarini o'rnatgan Saba davlati m.a. VIII asrda Ossuriya davlati bilan muloqotga kirishgan va m.a. VII asrda hozirgi Shimoliy-Sharqiy Efiopiya hududlarini koloniyalashtirgan.

Xushbo'y o'simliklar yetishtirish asosan Xadramaut (qisman Kataban) rayonlarida jamlangan bo'lib, tashqi karvon savdosi esa m.a.

VI asrdan Mayn qo'lida bo'lgan.

Janubiy Arabistonning Hindistondan Afrika va Misr hamda O'rtayer dengiziga boruvchi dengiz yo'li ustida joylashganligi m.a. I ming yillikdayoq uning Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq, Hind okeani va O'rtayer dengizi havzasining qadimgi sivilizatsiyalari orasidagi mahsulot ayirboshlashda vositachilik vazifasini belgilab berdi.

M.a. VII asrdan butun Janubi-g'arbiy Arabistonga Sabaning siyosiy hukmronligi tarqaldi, ammo VI-IV asrlardan uzoq urushlar tufayli Mayn, Kataban va Xadramaut Saba hukmronligidan ozod bo'ldi. Urushlar m. a. I ming yillikning ikkinchi yarmida davom etgan va milodiy III asrga kelibgina hududda barqarorlik o'rnatilgan. Urushlar natijasida Mayn Saba tomonidan zabt etilgan, Kataban tarix sahnasidan yo'q bo'lib ketgan, Sabada esa Janubiy Arabistonning janubi-sharqiy burchagida joylashgan viloyat – Ximiyara sulolasi hukmronligi o'rnatilgan. Ximiyara davlatining poytaxti Zafar bo'lib, IV asrga kelib u butun Janubiy Arabiston ustidan o'z hukmronligi o'rnatgan.

Milodimiz boshlariga kelib Qizil dengiz va Adan ko'rfazining g'arbiy qismmining yunon, misr dengizchilari tomonidan o'zlashtirilishi Janubiy Arabistonning Hindiston va Misr o'rtasidagi savdoda yakkahukmronlik mavqeiga zarba bergan hamda mahalliy sivilizatsiyalar taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan. Suriya va Misrning Rim tomonidan egallanishi esa vaziyatni yanada murakkablashtirgan. Endi kurash savdo yo'llarida hukmronlik uchun emas, balki hosildor yer va qulay ko'rfazlarga ega dengizbo'yi hududlari uchun olib boriladigan bo'ldi.

Qadimgi Yaman sivilizatsiyalarining asoschilari o'zlari bilan Janubiy Arabistonga xo'jalik va madaniy hayotning ko'plab sohalarida mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni olib kelishgan. Ajoyib tosh inshootlar, vodiylardagi baland tepaliklarda barpo etilgan ulkan shaharlar, sug'orish tizimlari shundan dalolat beradi. Marib, Timna, Shabva va Karnava shaharlari xarobalariga ko'ra, shaharlar to'g'ri to'rt burchak shaklida qurilib, balandligi 10-12 metrli tosh devorlar bilan o'rab olingan. Shahar devorlarida kvadrat shaklida minoralar bunyod qilingan. Haykaltaroshlik taraqqiy etgan, alebaster, jez va loydan haykallar yasalgan. Oltin va bronzadan yasalgan hayvonlar (ho'kiz, tuya, ot) dinamik va ifodali tasvirlangan.

Qadimgi janubiy arabistonliklar Sharqiy O'rtayer dengizining (finikiya yoki protosinay) alifboli yozuvi asosida yaratilgan o'ziga xos yozuvdan foydalanishgan.

Ushbu xalqlarning ma'naviy hayoti haqida bizgacha u qadar ko'p narsa yetib kelmagan. Ilk bosqichlarda bu yerda qadimgi semit xudosi Astar yetakchilik qilgan. Astral xudolar va ikkinchi darajali mahalliy xudolar muhim rol o'ynagan. Erkak ilohalar bilan bir qatorda ayol ilohalar ham e'zozlangan. Yagona xudolar panteoni shakllanmagan. Sabeylar Almakax deb atagan oy xudosi Janubiy Arabiston qabilalarida katta rol o'ynagan. Eramiz boshlarida Astar asta-sekin siqib chiqarilib, "mahalliy xudolar" birinchi o'ringa chiqqan. Kohinlik funksiyasini Janubiy Arabistonda boshqaruv ishlari va ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar - mukarriblar bajargan

Janubiy Arabiston sivilizatsiyalarining ichki hududlardagi ko'chmanchilar bilan doimiy qo'shnichiligi ularning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Nisbatan past taraqqiyot bosqichida turgan chorvador qabilalar asrlar davomida Yaman yerlarida o'rnashib mahalliy sivilizatsiyalar bilan bevosita aloqaga kirishgan. Bu o'z navbatida xo'jalik hayoti va madaniyatning tushkunligiga olib keldi. Kuchayib borayotgan salbiy omillar ta'sirida Janubiy Arabiston tsivilizatsiyalari milodiy asrning ilk asrlaridan yemirila boshladi va VI asrda halokatga uchradi. Ammo Janubiy Arabistonning qadimgi sivilizatsiyalari halokatiga ma'naviy hayotning yuksak taraqqiyoti hamroh bo'ldi.

Janubiy Arabistonning qulay geografik joylashuvi buyuk imperiyalarning nazaridan chetda qolmadi. Milodiy asr boshlarida Janubiy Arabistonning dengiz bo'ylaridagi shaharlarida joylashgan yunon va misr savdogarlarining savdo manzilgohlari so'nggi ellin (keyinchalik xristianlik) ta'siri tarqalishining tabiiy markazlariga aylandi. Milodimizning birinchi asrlarida Adan va Sokotradagi yunon-rim muhitida xristianlik ham tarqala boshladi.

IV asrdan sharqiy Rim imperiyasi Aleksandriya cherkovidan hamda Efiopiya (Habashiston) hududida milodimiz boshida yuzaga kelgan va ayrim qirg'oqbo'yi hududlari, janubiy-G'arbiy Arabistonni bosib olgan Aksum davlatining xristianlashgan yuqori tabaqasidan foydalangan holda bu hududda xristianlikni yanada keng yoyishga harakat qildi. Ko'p o'tmay Arabistonda arianlar, monofistlar, nestorianlar ko'payib, mahalliy majusiy dinlar, ibtidoiy e'tiqodlar bilan birgalikda Arabiston yarimorolining janubidagi siyosiy hodisalarga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi.

Arabiston janubidagi g'oyalar kurashi kuchayib, butun yarimorolga yoyila boshladi. Bu kurashda bosh siyosiy g'oya – birlik g'oyasi o'z

o'rnini egallay boshladi va islom tug'ildi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qadimgi Afrikaning qadimgi madaniyat o'choqlarini sanab bering.
2. Afrika sivilizatsiyalarining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tahlil qiling.
3. Janubiy Arabiston sivilizatsiyalari taraqqiyotida uning tabiiy-geografik o'rni qanday rol o'ynagan?
4. Janubiy Arabistonda diniy tafakkurning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni izohlang.

### **7-mavzu: Qadimgi Kavkazorti o'lkalarning sivilizatsiyalari**

#### **Asosiy savollar:**

1. Urartu davlati va uning Kavkazorti sivilizatsiyalari taraqqiyotida tutgan o'rnini.
2. Kavkazortining keyingi madaniyat markazlari: Kolxida, Iberiya va Albaniya.

#### **1-savolning bayoni:**

Kavkazorti sivilizatsiyasi tarixi jahon madaniyatining eng qadimgi sahifalaridan biridir. Bu hududda dastlab Urartu, so'ngra Kolxida, Iberiya, Armaniston, Kavkaz Albaniyasi kabi o'ziga xos sivilizatsiyalar vujudga keldi.

M.a. VI-V ming yilliklarda Kavkazortining Kuro va Araks daryolari vodiylarida o'troq dehqonlar va chorvadorlar madaniyati yuzaga keldi. Ular paxsa uylardan iborat uncha katta bo'lmagan manzilgohlarda istiqomat qilishgan, tosh va suyak qurollardan foydalanishgan. Keyinchalik mis qurollar paydo bo'lgan. M.a. III ming yillikda Armaniston tog'ligi va Kavkazortida kuro-araks madaniyati deb nom olgan ilk bronza davri madaniyatining yuzaga kelishi bilan madaniy-xo'jalik taraqqiyoti yanada yuksaldi.

Ibtidoiy munosabatlarning yemirilishi Van ko'li atrofida istiqomat qilgan va urartlar deb nom olgan qabilalarda jadal kechdi. Xurritlarga qarindosh bo'lgan Urartu qabilalari m.a. 1300-yillar atrofida qabilalar ittifoqiga birlashganlar. M.a. XIII asrda Ossuriya manbalarida Uruatri degan umumiy nom bilan atalgan sakkizta davlat tilga olingan bo'lsa, Ashshurnasirpal II hukmronligi davriga oid hujjatlarda ko'plab mayda mulklar o'rnida Urartu (Biayneli) nomi bilan atalgan yagona davlat qayd etilgan. Urmiya ko'li atrofida Mutsatsir deb atalgan yana bir

urartu qabilalari davlat birlashmasi yuzaga kelgan. Bu erda umumurartu diniy markazi joylashgan.

Birlashgan Urartuning ilk podshosi Aram (864-845 yy) davrida mamlakatga Salmanasar III ning qo'shini bostirib kirgan. Ammo Urartu kuchayib boraverdi. Sardur I (835-825 yy) rasman Ossuriya podsholari kabi dabdabali unvonni qabul qilgan. Ururtu davlatining poytaxti Van ko'li atrofida joylashgan Tushpa shahri edi.

Urartu podshosi Ishpuini ( m.a. 825- 810 yy) faol siyosat yuritgan. Sardur davri yozuvlari ossuriya tilida yozilgan bo'lsa, uning davrida rasmiy matnlar bir oz o'zgartirilgan ossuriya mixxatidan foydalanilib, ururtu tilida bitilgan. Tushpa hukmdorlarining mulklari Urmiya ko'ligacha kengayib, Musatsirni ham o'ziga tobe qiladi.

Yangi davlatni mafkuraviy jihatdan jiplashtirish uchun diniy islohot o'tkaziladi – uchta bosh iloha: osmon xudosi Xaldi, momaqaldiraq va yomg'ir xudosi Teysheb va quyosh xudosi Shivini asosiy o'ringa chiqadi. Urartu panteoninig oliy xudosi Xaldining bosh ibodatxonasi joylashgan urartu qabilalarining qadimgi diniy markazi Musasirning ta'siri mustahkamlandi.

Ururtu davlati podsho Menua davrida o'z qudratining cho'qqisiga chiqadi. Uning davrida Urartuda joriy qilingan annalarda hukmdorning faoliyati yilma-yil yoritib borilgan.

Menua davrida Urartu keng miqyosda istilochilik siyosatini olib boradi va uning hududi janubda Dajlaning chap qirg'og'i, shimolda Kavkazoritga qarab kengayadi. Menua Urartuda ma'muriy isloht o'tkazadi va mamlakat markaziy hukumat vakillari tomonidan boshqariladigan viloyatlarga jaratiladi. Uning davrida keng miqyosda qurilish ishlari ham olib boriladi. Tushpa hududida uzunligi 70 km.li kanal barpo etiladi, ba'zi joylarda suv balandligi 10-15 metrli akveduklar yordamida o'tkazilgan.

Menuaning vorisi Argishti (m.a.786-764 yy) davrida Urartu qo'shinlari Shimoliy Suriyagacha, janubi-sharqda esa deyarli Bobil chegaralarigacha yetib boradi. Kavkazortida Urartu g'arbiy Gruziyadagi Kolxidaga yetib borib, Araksning chap qirg'og'idagi Sevan ko'ligacha bo'lgan hududlarni egallaydi. Uning davrida keng bunyodkorlik ishlari olib borilib, Argishtixinili (m.a. 776 y.), Erebuni (m.a. 782 y.) kabi yirik shaharlar barpo etiladi. Argishtinixili hududidan to'rtta kanal o'tkaziladi, uzumzorlar va bog'lar barpo etiladi. Shahar-qal'alarda ulkan don omborlari qurilib, davlat g'alla zahirasi to'planadi.

Argishtining ishlarini uning vorisi Sardur II (m.a. 764-735 yy) davom ettiradi.

Ammo Tiglatpalasar III davrida erishilgan ichki barqarorlik Ossuriyaga 734 yilda Shimoliy Suriyadagi Arpad yaqinida bo'lgan jangda Ururtu boshliq ittifoqchilarni yengish imkonini beradi. 735 yilda Tiglatpalasar III Van ko'li atrofida Ururtuga qaqshatgich zarba beradi.

Podsho Rusa I (m.a. 735-713 yy) Urartu qudratini qayta tiklashga harakat qiladi. Tashqi siyosatda u Ossuriya bilan ochiq kurashga kirishdan tiyiladi, biroq hamma joyda Ossuriyaga qarshi kayfiyatni qo'llab-quvvatlaydi. Shimoldan Urartu yerlariga kimmeriyliklar bostirib kirishi vaziyatni yanada murakkablashtirardi. Biroq Kavkazoridagi Urartu yerlari kengayib bordi. Rusaxinili kabi yangi shaharlar barpo etildi.

M.a. 714 yilda Sargon II boshliq Ossuriya qo'shinlari yana Urartuga bostirib kiradi. Bu urushdagi mag'lubiyatdan so'ng Urartu Old Osiyodagi hukmronlik maqeidan mahrum bo'ldi va keyinchalik bu ikki davlat to'ridan-to'g'ri to'qnashmaslikka harakat qildi.

Argishti II (m.a. 713-685 yy) o'z istilochilik siyosatini sharqqa qaratdi va Kaspiy dengizi sohillarigacha chiqdi. Bu yerda ham Urartu podsholarining an'anaviy siyosati davom ettirildi – yengilgan viloyatlar vayron qilinmadi, balki boj to'lash sharti bilan qaram qilindi. Argishti II va Rusa II (m.a. 685-645 yy) davrida barqaror iqtisodiy holat davom etdi.

Kimmeriyliklar bilan kelishuv tuzishga muvaffaq bo'lgan Rusa II Kichik Osiyoga ham yurishlar tashkil etadi. Ammo Ururtuga yangi dushman – kimmeriyliklarni ham mag'lub etgan skiflar xavf sola boshladi. Zaiflashib qolgan Urartu m.a. VI asrning bohlarida Midiyaga qaram bo'lib qoladi va 590 yilda o'z mustaqilligini yo'qotadi.

Urartu davlati iqtisodiy taraqqiyotga, ayniqsa sug'orish inshootlari va suv omborlari barpo etishga katta e'tibor bergan. Iqtisodiyotda podsho xo'jaligi katta rol o'ynagan. Teyshebaini qal'asini barpo etish bilan bir vaqtning o'zida podsho Rusa II kanal o'tkazib, keng qishloq xo'jalik yerlarini barpo etgan. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, Rusaxinilidagi podsho xo'jaligida 5500 kishi mehnat qilgan. Ibodatxona xo'jaligi kmroq ahmiyatga ega bo'lgan.

Urartuning madaniyati va iqtisodi to'g'risida arxeologik qazishmalar boy ma'lumot beradi. Bu yerda shaharsozlik yuksak taraqqiy etgan. Teyshebaini (Karmir Bilur) va Erebuni (qadimgi Yerevan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o'rab olingan.

Shaharlar hududi 200-300 gektardan 400-500 gektargacha yetgan. Muntazam rejalashtirishga ega bo'lgan shaharlar odatda baland tepaliklar yonbag'rida barpo etilgan, eng yuqorida ark joylashgan. Ular bir, ko'pincha ikki, ba'zan uch qator mudofaa tizimiga ega bo'lgan. Saroy va ibodatxona me'morchiligi xilma-xil ko'rinishga ega bo'lgan.

Ururtuning mahobatli san'atini bizgacha yetib kelgan tosh relyeflar, haykaltaroshlik, devoriy suratlar orqali o'rganish mumkin. Тош ҳайкаллар яққол икки хусусиятга эга. Ularning birinchisi Old Osiyo san'ati an'analari bilan bog'liq Urartu haykaltaroshligi namunalari. Masalan, Vandan topilgan kulrang bazalt haykalda Urartuning ilk podsholaridan biri tasvirlangan. "An'anaviy-shartli" uslub esa bronza davri an'alarini davom ettirgan.

Urartuliklar amaliy san'at sohasida ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan. Урарту тореветикасининг намуналари Кичик Осиё (Гордион), Эгей денгизининг бир қатор ороллари (родос, Самос), қитъа Юнонистони (Делфа, Олимпия), ҳатто Этруриядан топилган. Ibodatxonalarga qurbonlik sifatida xizmat qilgan va relyefli bezaklar bilan bezatilgan qalqonlar, sovutlar, dubulg'alar Urartu san'atining yorqin namunasi. Qazishmalar chog'ida ko'p miqdorda yuksak badiiy darajada ishlangan oltin va kumush taqinchoqlar ham topilgan.

Urartu madaniyatining yutuqlari Midiya, so'ngra Ahamoniylar Eroni tomonidan qabul qilindi va Old va O'rta Sharq bo'ylab keng tarqaldi.

## **2-savolning bayoni:**

Urartuning halokatidan keyingi davrda sinfiy jamiyat va davlatchilikning shakllanishi yana uchta Kavkazorti markazida yakuniga yetdi: Kolxida, Iberiya va Albaniya. Urartuning merosxo'ri bo'lgan Qadimgi Arman podsholigidagi singari bu yerda ham keyinchalik mahalliy va qadimgi Sharq madaniy an'alariga antik sivilizatsiya katta ta'sir ko'rsatdi.

Shu tariqa Kavkazorti sivilizatsiyasini quyidagicha davrlashtirish mumkin: m.a. I ming yillikning ilk asrlarida bu yerda sinfiy jamiyat va davlatchilikning yagona markazi Urartu mavjud bo'lgan; so'ngra bu hududga Kavkazortining Qora dengizbo'yi qirg'oqlarida yuzaga kelgan qadimgi Kolxida; ellinistik davrda esa – bu regionning qolgan hududlari - Iberiya (hozirgi sharqiy Gruziya ) va Kavkaz Albaniyasi (hozirgi Ozarbayjonning shimoli va Dog'istonning bir qismi) ham qo'shilgan.

Sobiq Urartu mulklarining katta qismi Midiya davlati, so'ngra

Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirdi. Ular bir necha satraplik tarkibiga kiritilgan va markaziy hokimiyatga boj to'lagan. Shunday satrapliklar doirasida m.a. VI-V asrlarda o'z ichiga urartlarning avlodlari va boshqa qabilalarni qamrab olgan qadimgi arman xalqining shakllanishi boshlangan.

Ahamoniylar boshqaruvga jalb etgan mahalliy zodagonlar ichida satrapliklarning birini boshqargan Yervantitlar (yunoncha Orontitlar) bor edi. Satrap va uning atrofida g'ildirarning madaniyati va turmush tarzi ahamoniylar namunasida tashkil etilgan. Erebunidan topilgan m.a. V asrga oid yunon tangalari madaniy va savdo aloqalarining kengayganligidan dalolat beradi. Qadimgi Eron diniy ta'limotlari, xususan zardo'shtiylik, qadimgi Armanistonga katta ta'sir ko'rsatgan. Biroq ommaviy, xalq madaniyati ko'p jihatlarda ururtu an'analarini davom ettirgan.

Yervantitlar mulkining markazi Armavir bo'lgan. Armanistonning mustaqilligi m.a. 220 yilda, Antiox III ning bu davlatni Salavkiylar davlati doirasida tashkil etgan Buyuk Armanistonga qo'shishi bilan nihoyasiga yetdi.

Salavkiylar davlati zaiflashgan davrda (m.a. II asr) Van ko'lidan g'arbdagi hududda Zariadr (arm. Zarex) boshchiligida Sofen, Van va Sevan ko'llari oralig'ida Armaniston kabi davlatlar barpo etilgan. Armanistonning birinchi podshosi Artashes I (m.a. 189-161 yy) Artasheslar sulolasiga asos soldi va yangi poytaxt Artashagni barpo etdi.

M.a. 95 yilda parfiyaliklar yordamida Artasheslar taxtiga Tigran II o'tiradi. Ko'p o'tmay bu uddaburon siyosatchi parfiyaliklarning o'zini siquvga o'lib boshladi. Qadimgi Arman podsholigining qisqa yuksalishi davrida Salavkiylarning sobiq mulklarining bir qismi va Van ko'lidan janubi-g'arbdagi yerlarni qo'shib olib, ellinistik yunon polislari tipidagi yangi poytaxt – Tigranokertni barpo etadi.

Biroq Old Osiyodagi umumiy vaziyat murakkablashib borib, Tigran II rimliklar bilan kelishishga majbur bo'ladi. Pompey bilan m.a. 66 yilda imzolangan tinchlik shartnomasiga ko'ra "Buyuk Armaniston"ning chegaralari qisqaradi, "podsholar podshosi" o'zini "rim xalqining do'sti va ittifoqchisi" deb tan oladi.

Trayan davrida, 114 yilda Armaniston Rimga tobe davlatga aylandi va II asrgning ikkinchi yarmiga kelibgina o'z mustaqilligini qayta qo'lga kiritdi. Armanistonni o'zlariga bo'sundirishga intilgan Sosoniylar kuchli qarshilikka duch keldilar. Qadimgi an'analarga ega



bo'lgan davlat mafkuraviy mustaqillikka ham erishishga harakat qilib, Tiridat III (287-330 yy) davrida xristianlikni davlat dini deb e'lon qildi.

Miloddan oldingi so'nggi asrlar va milodiy birinchi asrlarda Armaniston yuksak madaniyatga ega davlat edi. Urbanizatsiya jarayoni buning yorqin dalilidir. Doimiy rejalashtirish asosida barpo etilgan qadimgi arman shaharlari ellinistik shaharsozlik qoidalari asosida barpo etilgan. Milodiy I asrda bunyod etilgan Garnidagi Mixr ibodatxonasi arman me'morchilikning yuksak taraqqiyotidan dalolat beradi. Armaniston haykaltaroshligi rang-barangligi bilan ajralib turadi, unda ellinistik va mahalliy an'analar uyg'unlashib ketgan. Kulolchilik, metallsozlik, zargarlik ham yuksak taraqqiy etgan.

Antik davrdagi Armanistonning ma'anaviy hayoti haqida u qadar ko'p narsa ma'lum emas. Armaniston diniga sinkretizm xos bo'lib, unda qadimgi mahalliy e'tiqodlar va Eron ta'siri qorishib ketgan. Arman xudolarining panteonida Mixr, Anait va Vaxagn kabi xudolar muhim o'rin tutgan.

Kavkazorti tarixida Kolxida alohida o'rin tutadi. Uning tarixi antik mualliflar, arxeologik tadqiqotlar natijalari tufayli yaxshi o'rganilgan. Kavkazortining boshqa davlatlaridan farqli ravishda Kolxida O'rtayer dengizi madaniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va m.a. VI asrda yunon koloniyalashtirishining ob'ektiga aylangan. Qora dengizning sharqiy qirg'oqlarida vujudga kelgan yunon koloniyalarining iqtisodiy asosini vositachilik savdosi tashkil etgan.

Kolxida davlatining yuzaga kelishida ilk temir davrida ishlab chiqarishning rivoj topishi muhim omil bo'ldi. Kolxida temir metallurgiyasining muhim markazlaridan biriga aylandi. Kolxidagi ijtimoiy tabaqalanish dafn yodgorliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, m.a. V asrga oid ayol qabridan 1600 ta oltin buyum, shu jumladan ho'kiz va ohuni ovlayotgan sher tasvirlangan ajoyib tillaqosh topilgan.

Yuksak darajada rivoj topgan hunarmandchilik va savdo Kolxidaning gullab-yashnashiga asos bo'ldi. Antik dunyoda Kolxida haqida argonavtlar sarguzashtiga sabab bo'lgan "oltin mo'yna" mamlakati sifatida ma'lum edi.

Dioskuriadada 70 ta qabila va xalq vakillari savdo uchun to'planishganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Kolxidada nafaqat mahalliy, balki tranzit savdoning ham taraqqiy etganligi pul muomalasining ham erta rivojlanishiga olib keldi. Du yerda yunon va mahalliy tangalar muomalada bo'lgan. M.a. V- III asrning birinchi

yarmida zarb etilgan mahalliy tangalarning old tarafida hukmdor, orqa tarafida ho'kiz boshining tasviri bo'lgan. M.a. III asrda podsho Aka nomidan tilla tangalar zarb etilgan. Ma'muriy jihatdan Kolxida provintsiyalarga bo'lingan, ularning tepasida skeptux (tojdor) unvoniga ega shaxslar turgan.

Kolxida madaniyatining o'ziga xos jihati unda mahalliy va yunon an'analarining qorishib ketganligidir. Van shahri xarobalaridan topilgan buyumlar, inshootlarda yunon ta'siri kuchli ekanligi ko'rinib turibdi. Kolxida hududidan o'ziga xos tosh va bronza haykallar, koroplastika, torevtika, gliptika namunalari topilgan.

Kolxida keyinchalik Rimning ta'siriga tushadi va I asrda Rimning Kappadokiya viloyatiga qo'shiladi.

Milodiy III-IV asrlar antik manbalarida G'arbiy Gruziya Lazika deb atalgan, mahalliy aholi esa uni Egrisi deb atagan. Poytaxti Arxeopol. IV asrdan bu yerda xristianlik tarqalgan.

Ellinistik davrda Kavkazortida Iberiya davlati shakllandi va mustahkamlandi. Yunon – rim mualliflari antik davrdagi Sharqiy Gruziya podsholigini (m.a. III- milodiy III-IV asr) Iberiya deb ataganlar. O'rta asr gruzin manbalarida u Kartli deb yuritilgan. Iberiya hozirgi Sharqiy va janubiy Gruziya yerlarini egallagan. Vaqt o'tishi bilan u Kolxidaning ayrim hududlarini o'ziga qo'shib olishga muvaffaq bo'ladi.

Iberiya davlatining shakllanishi va mustahkamlanishi ellinistik davrda sodir bo'ldi. Dedoplis-Mindoridan topilgan, m.a. II-I asrlarga oid, mahalliy gruzin astral ilohalari bilan qo'shib ketgan mazdakiylik ilohalariga bag'ishlangan ibodaxona majmuasi Iberiyada me'morchilikning yuksak taraqqiyotidan dalolat beradi.

Qadimgi Gruziya tarixiy an'analariga ko'ra, Iberiyaning ilk podshosi Parnovaz o'z qarorgohini Armazi tog'ida barpo etgan. Bagineti tepaligida joylashgan bu shahar arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Sarkine, Dazalisi, Urbnisi va boshqa joylardan ham Iberiya shaharlarining xarobalari topilgan. O'ziga xos g'or-shaharlar ham mavjud bo'lgan (Uplistsixe). Iberiya san'atida ham yunon-rim madaniyatining ta'siri ko'rish mumkin. Masalan, Iberiyada Dionisga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Sarkinedan topilgan Dionis va Ariadna tasvirlangan sopol niqoblar, Dionisiy doirasidagi ilohalar haykalchlari shundan dalolat beradi.

Kavkaz Albaniyasi Kavkazortining boshqa viloyatlariga nisbatan yunon-rim dunyosining markazlaridan uzoqda joylashgan va shu

sababdan uning tarixi va madaniyati antik mualliflar asarlarida kam yoritilgan. Uning tarixi asosan arxeologik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Bu yerda davlatchilik va sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi muammosi hanuz bahstlab bo'lib qolmoqda. Biroq bu jarayon ellinisik davrda nihoyasiga etgan deb hisoblashga asos bor.

M.a. I asrda bu yerga ham rimliklar kirib kelgan. Boku yaqinidagi Gobuston tog'idan topilgan m.a. I asrga oid XII legion senturioni nomidan tuzilgan lotin yozuvi bunga guvohlik beradi. Keyinchalik Kavkaz Albaniyasida hukmronlikni Arshakiylar sulolasi o'z qo'liga oldi. Albaniya u yoki bu darajada Kavkazortidagi rim-parfiya kurashlariga jalb etilgan.

M.a. I asrda Albaniyaning eng yirik shahar markazi va poytaxti Kabala (maydoni 50 ga) edi. Bundan tashqari Shemaxa, Mingechaur, Tazakent va mamlakatning shimoliy qismi, Dog'iston hududida ham ko'plab antik davr shaharlari aniqlangan.

Albaniyada qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo taraqqiy etgan. Aleksandr Makedonskiy draxmalariga taqlid qilib yaratilgan mahalliy tangalar muomalada bo'lgan. San'atning haykaltaroshlik turi keng tarqalgan. Kulolchilik namunalari antropomorf va zoomorf shakllarda yaratilgan. Albaniya hayotida din muhim o'rin tutgan. Straboning ma'lumotiga ko'ra, oliy xudolar uchligiga Selena, Gelios va Zevs kirgan (Strabon mahalliy xudolarning yunoncha nomlarini keltirgan). Bosh kohin podshodan keyingi o'rinda turgan.

Kavkazorti sivilizatsiyalari o'ziga xoslik bilan bir qatorda, o'xshash jihatlarga ham ega. Bu esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumidagi yaqinlik, tarixiy taqdirларining tutashligi va uzoq vaqt davomidagi aloqalar bilan izohlanadi.

Janub va shimolning doimiy bosimi ostida bo'lishiga qaramasdan Kavkazorti xalqlari o'ziga xos sivilizatsiyalarni yaratish, saqlab qolish va rivojlantirishga muvaffaq bo'lishdi. Qadimgi madaniy an'analar bilan tashqi ta'sir uyg'unlashib ketgan bu sivilizatsiyalar jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Kavkazorti sivilizatsiyalari qanday o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarga ega?
2. Kavkazorti sivilizatsiyalari taraqqiyotida antik dunyo ta'siriga baho bering.
3. Kavkazorti sivilizatsiyalarining yutuqlari qadimgi Sharq madaniy taraqqiyotida qanday rol o'ynadi?

## **8-mavzu: Qadimgi va ilk o'rta asrda Eron**

### **Asosiy savollar:**

1. M.a. IV-I ming yilliklarda Qadimgi Eron sivilizatsiyalarining shakllanishi va taraqqiyoti
2. Ahamoniylar sulolasi va Parfiya davrida Eron.

### **1-savolning bayoni:**

Qadimgi Eron tarixida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin: Elam sivilizatsiyasining vujudga kelishi va gullab-yashnashi (m.a. IV ming yillik oxiridan m.a. VII asr oxirigacha); Midiya davri (m.a. VIII-VI asr o'rtalari); Ahamoniylar davri ( m.a. VI asr o'rtasidan 330 yilgacha); Parfiya davri ( m.a. III asr o'rtasidan – taxminan 224 yilgacha).

Eron janubi-g'arbiy qismining tub aholisi elamliliklar bo'lgan. Zagrosning g'arbiy tog'oldi hududlarida va shimoliy-g'arbiy Eronda kelib chiqishi hind-yevropalik bo'lmagan qabilalar, jumladan xurritlar, maneylar, lullubeylar va boshqalar istiqomat qilishgan. M.a. XII-XI asr chegaralarida G'arbiy Eronga midiya va fors qabilalari kirib kelgan, ular keyinchalik butun Eron tog'ligini egallab, avtohton aholini assimilyatsiya qilgan.

Eronning hozirgi Xuziston viloyatini egallagan Elamda ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishi uchun qulay sharoit mavjud edi. Eng qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlardan biri bo'lgan tekislik qismida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, jumladan kulolchilik ravnaq topdi. Elamning tog'li qismi esa qurilish xom-ashyosiga, qazilma boyliklarga boy bo'lib, aholi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. M.a. III ming yillik boshlarida bu hududda qabilalarning ilk davlatchilik birlashmalari vujudga keldi.

Shunday birlashmalardan birining poytaxti bo'lgan Suza Elamni Ikkidaryo oralig'i va Sharqiy Eron bilan bog'lab turuvchi muhim savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan edi. Bundan tashqari Elamda Avan, Anshan, Kimash va Simash davlatlari mavjud edi.

Asta-sekin davlat boshqaruvining o'ziga xos tizimi shakllandi. Sukkalmax (buyuk vakil) unvoni bilan Suzada hukmronlik qilgan oliy hukmdordan tashqari uning o'rinbosari, odatda kichik uka va bo'lajak merosxo'r katta rol o'ynagan. U Simash sukkali (vakili) deb atalgan. Davlat iyerarxiyasida uchinchi o'rinni Suziana viloyatining noibi, podshoning katta o'g'li turgan. Kichikroq viloyatlarni esa mahalliy

shaxslar - «otalar» («adda») boshqargan, ularning vafotidan so'ng hokimiyat jiyanlarga (singillarning o'g'illari) o'tgan. M.a. XIII asrdan podsho taxti ota tomonidan meros qoladigan bo'ldi, ya'ni otadan o'g'ilga o'ta boshlagan.

M.a. III ming yillikda Elamdagi iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotning asosiy shakli barcha erkin shaxslar kirgan va oqsoqollar tomonidan boshqarilgan qishloq jamolari edi. Ammo m.a. II ming yillikdan boshlab qul mehnatidan foydalaniladigan xususiy xo'jaliklar jadal rivojlana boshladi. Qishloq jamolarining o'rniga paydo bo'lgan qarindoshlardan tashkil topgan uy jamoalari ham mulkiy tengsizlikning kuchayib borishi tufayli bora-bora o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Elamning siyosiy tarixi Mesopotamiya tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ikki davlat bir-birlari bilan urushlar olib borgan, tinchlik shartnomalarini tuzgan hamda qizg'in savdo va madaniy aloqalariga ega bo'lgan. M.a. XXIV-XXIII asrlarda Elam Akkad davlati tarkibida bo'lgan. M.a. XXII-XXI asrlarda Urning III sulolasi davrida ham Elam Ikkidaryo oralig'ining hukmronligi ostida bo'lgan, biroq XXI asrning ikkinchi yarmida mustaqillikka erishgan. M.a. XIV asrdan m.a. XII asrgacha Elam bobilliklarga qaram bo'ladi. M.a. XII asrda Elam mustaqilligini qo'lga kiritib, hatto Bobilning ko'plab shaharlarini bosib olgan. Eroning o'zida Elam janubda Fors ko'rfazidan shimolda hozirgi Hamadon shahrigacha bo'lgan hududlarda hukmronlik qilgan.

M.a. VIII asrda uzoq davom etgan Ossuriya – Bobil urushlarida Elam bobilliklarning ittifoqchisi bo'lgan. Urush so'ngida Elamning mag'lubiyati va Suzaning ssuriyaliklar tomonidan bosib olinishi bilan yakun topdi. M.a. 549 yilda urushlar tufayli zaiflashib qolgan Elam forslar tomonidan bosib olindi va o'z mustaqilligini yo'qotdi.

Elam sivilizatsiyasi Qadimgi Eroning ma'naviy va madaniy hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Elamlilar m.a. III ming yillikda piktografik yozuvni kashf etishdi. Hozirgacha o'qishga muvaffaq bo'linmagan protoelam yozuvida tushunchalar va so'zlarni anglatuvchi 150 ga yaqin asosiy belgilar mavjud edi. Protoelam yozuvida bitilgan sopol taxtachalar nafaqat Elam hududida (Suza, Anshan va h.k.), hatto Markaziy Eroning Sialkda, Eroning janubi-sharqida (Tepa-Yahyo) ham topilgan.

M.a. III ming yillikning ikkinchi yarmida Elamda chiziqli-bo'g'inli yozuv ixtiro qilindi. 80 ga yaqin belgilar yordamida turli mazmundagi

matnlarni yozish imkoni bo'lgan. III ming yillik oxiridan to m.a. V asrgacha elamliklar shumer-akkad mixxatidan foydalanganlar.

Elam dini ham Mesopotamiya dini ta'sirida bo'lgan bo'lsada, o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan. Mamlakatning diniy markazi Suza bo'lgan. Elam xudolar panteoniga xudolar onasi hisoblangan Pinekir, Suza homiysi Inshushinaka, Xumban, quyosh xudosi Naxxunt kabi 37 ga yaqin ilohalar kirgan.

Elamliklar m.a. IV ming yillikdayoq o'ziga xos san'at yaratishgan. M.a. II ming yillikda uning rivojiga Bobil san'ati katta ta'sir ko'rsatgan. Malika Napirasuning bronza haykali Elam san'atining nodir namunasi. Elam me'morchiligining eng yirik yodgorligi m.a. XIII asrda Dur-Untash (hozirgi Choga-Zambil) yaqinida barpo etilgan, umumiy balandligi 42 metrni tashkil etgan zikkurat sanaladi.

Midiyalik va fors qabilalari m.a. I ming yillikning boshlarida Eronga kirib kelishgan. Ular eron tilining turli lahjalarida so'zlashgan va ko'pchiligi ko'chmanchi chorvachilik, shuningdek dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ossuriya manbalarida ular haqidagi ilk ma'lumotlar m.a. IX asrga oid.

Midiyaliklar shimoliy–g'arbiy Eronda joylashishgan. M.a. IX asrda bu yerda midiyaliklar va avtoxton aholini birlashtirgan o'nlab mayda knyazliklar mavjud edi. Forslar Ossuriya manbalarida parsua deb atalgan Markaziy Zagros tog'larida joylashgan viloyatda ko'plab mayda qabilalarga bo'linib istiqomat qilishgan.

Tax. m.a. 800 yillarda forslar midiya qabilalaridan ajralib, Eronning janubi-g'arbiga yo'l olishgan va vaqt o'tishi bilan Elam hududlarini egallab olishgan. Bu hudud ularning nomi bilan Parsa (hozirgi Fors viloyati) deb atalgan. M.a. VII asrning 40-yillariga qadar forslar Elam podsholariga, so'ngra qisqa muddat ossuriyaliklarga qaram bo'lishgan. Shu davrlardayoq forslar Ahamoniylar sulolasi tomonidan boshqarilgan qabila ittifoqiga birlashgan. Fors qabila ittifoqi 6 ta dehqonchilik qabilasi va 4 ta ko'chmanchi-chorvador qabilalardan iborat bo'lgan.

Ossuriyaliklarga qarshi kurashish zaruriyati midiyaliklarning birlashish jarayonini kuchaytirgan. M.a. VII asr o'rtalarida Midiya qadimgi sharqda kuchli davlatga aylanadi. M.a. 624 yilda Kiaksar skiflarning bosqinini bartaraf qilib, barcha midiya qabilalarini birlashuvini to'liq tugallaydi va poytaxti Ekbatana (hozirgi Hamadon) bo'lgan yagona davlat tuzadi.

Shundan so'ng, Midiya raqibi Osuriyaga qarshi dastlab o'zi, keyin Bobil bilan ittifoq bo'lib kurash boshlaydi. M.a. 614 yilda Midiya va Bobil qo'shinlari Ossuriyaning qadimgi poytaxti Ashshurni, 612 yilda Nineviyani yer bilan yakson qiladilar. M.a. 609-yilda ular Xarran shahrida ossur qo'shinlari qoldiqlarini tor-mor qilganlar.

Midiya shimoliy Mesopotamiya va Xarran viloyatini, janubda Fors, Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi Parfiya va Girkaniyani, Urartu, skif davlatlari Sakasena va Mannani o'ziga qo'shib oladi. M.a. 585-550 yillarda podsholik qilgan Astiag davrida Midiya katta va qudratli davlatga aylanadi. Bu vaqtda Elam ham qo'shib olinadi. M.a. 550-yilda forslar Midiyaga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, uni bosib oladilar.

M.a. VII va VI asrning birinchi yarmida Midiya Eronning moddiy va ma'naviy madaniyati markazi edi. Keyinchalik ularning yutuqlari forslar tomonidan qabul qilib olindi. Midiya hududida aniqlangan yodgorliklarni tadqiq qilish ularning ularning tarixiga oid boy arxeologik ma'lumot berdi. Sakkiz shahridan topilgan xazina, Xasanlu tepaligidan mustahkamlangan inshoot qoldiqlari, G'ilon viloyatidagi Marlik qabristoni shular jumlasidandir.

## **2-savol bayoni:**

Forslarning davlat birlashmasi tarixi yarim afsonaviy xususiyatga ega. Suloa asoschisi an'anaga ko'ra Ahamon sanaladi. M.a. 675-650 yillarda Ahamonning o'g'li Chishpish forslarni boshqargan. Ossuriya manbalarida m.a. VII asrda Oshshurbanipalning zamondoshi bo'lgan Kurush (Kir) tomonidan boshqarilgan Parsumash viloyati xususida so'z boradi.

M.a. 558 yilda fors qabilalarining podshosi bo'lgan Kir II Fors davlatining haqiqiy bunyodkoridir. Fors qabilalari ichida eng yiriklaridan biri bo'lgan pasargadlar hududi forslar konsolidatsiyasi markazi bo'ldi. Ular ko'p o'tmay Midiyaga qarshi kurash boshladi va 550 yilda uni mag'lub etdi. 549-548 yillarda forslar Midiyaga qaram bo'lgan boshqa hududlarni (Парфия, Гиркания, Арманистон) ham bo'ysundirdilar. M.a. 547 yilda Lidiya podsholigi vayron qilindi. Shundan so'ng Kichik Osiyodagi yunon davlatlari Kirning hukmronligini tan oldilar. M.a. 549-548 йилларда форслар M.a. 545-va 539-yillarda Kayxusrav hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyo yerlarini bosib oladi. Fors davlat hududi Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindiqushning janubiy yonbag'irlari va Sirdaryo havzalarigacha yetdi.

M.a. 539 yil kuzida Bobil bosib olingach, barcha g'arbiy mamlakatlar (Suriya, Falastin, Finikiya) Misr chegarasigacha forslar qo'liga o'tadi. Kayxusrav fors davlatining shimoliy-sharqiy chegaralari xavfsizligiga jiddiy xavf solib turadigan O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar ustiga yurish boshlaydi. Kayxusrav m.a. 530 yilda Amudaryoning shimoliy qismiga o'tadi va massaget qabilalari bilan bo'lgan jangda mag'lub bo'lib, o'zi ham halok bo'ladi.

Uning vorisi Kambiz (Kombiz, m.a. 529-522 yy) m.a. 525 Misrga yurish qilib, uni bosib oladi va fir'avn deb e'lob qilinadi. M.a. 522 yilda Kambiz halok bo'ladi va hokimiyat uchun kurashdan so'ng taxtga Doro I (m.a. 522-486-yillar) o'tiradi. Doro I taxtga o'tirishi bilan unga qarshi Bobilda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirayotgan bir vaqtda Fors, Midiya, Elam, Marg'iyona, Parfiya, Sattagidiya (hozirgi Afg'onistonda) O'rta Osiyoning sak qabilalari va Misr qo'zg'olon ko'taradilar. Bir yil davom etgan qonli urushlardan so'ng bu qo'zg'olonlar bostiriladi.

Erishgan zafarlarini abadiylashtirish maqsadida Doro I Bobil va Ekbatani bog'lab turuvchi qadimgi karvon yo'li ustida joylashgan, Kirmonshohdan 30 km. sharqdagi Bexistun qoyalarida 400 qatorli bitik va relyeflar o'yib yozdiradi.

Doro olib borgan urushlar tufayli O'rta Osiyoda saklar, Frakiya, Makedoniya, Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismi bo'ysundiriladi. Shu tariqa m.a. VI asr oxiriga kelib sharqda Hind daryosidan g'arbda Egey dengizigacha, shimolda Armanistondan janubda birinchi Nil ostonasigacha bo'lgan hududda cho'zilgan jahon tarixidagi birinchi imperiya vujudga keldi. Ahamoniylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy institutlar va madaniy ana'analar jahon tarixida katta rol o'ynadi. Ammo ko'p o'tmay Ahamoniylar saltanati kuchli raqib – Aleksandr Makedonskiy bilan duch keldi. M.a. 329 yilda Baqtriyaning bosib olinishi bilan Ahamoniylar saltanati quladi.

Ahamoniylar turlicha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga va madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlarni birlashtirgan. Bunday xilma-xil viloyatlarni samarali boshqarish uchun Doro I tomonidan ma'muriy-moliya islohoti o'tkazilgan. Mamlakat 23 ta (Gerodotda 20 ta) satraplikka bo'lingan. Satrapliklar mamlakatning eski davlat va etnografik chegaralariga mos kelgan. Satrapliklar ichida avtonom o'z-o'zini boshqaradigan qabila va shaharlar - Finikiya, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari mavjud bo'lgan.

Markaziy davlat boshqaruvi Ahamoniylar saltanatining ma'muriy



poytaxti – Suzada joylashgan. Podsho saroyi kuz va qishni Bobilda, yozni - Ekbatanada, bahorni – Suzada, katta bayramlar vaqtini - Pasargad va Persepolda o'tkazgan. Ahamoniylar saltanatining rasmiy tili oromiy tili bo'lgan.

Satrapliklarni boshqarish uchun doimiy pochta xizmati yo'lga qo'yilgan. Ulkan imperiyaning soliq tizimi ham puxta ishlab chiqilgan edi. Har bir viloyat yer hajmi va hosildorlik darajasiga ko'ra qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirishi shart bo'lgan. Gerodot bergan ma'lumotga ko'ra fors podsholariga qaram bo'lgan xalqlar yiliga 7740 bobil kumush talantini to'lashgan (232 200 kg). Hind satrapligi esa o'lponni oltin qum bilan to'lagan. Pul solig'idan tashqari o'lpon mahsulot tarzida ham to'langan.

Doro I butun saltanat uchun yagona pul birligini joriy etadi. Faqat podsho tomonidan zarb ettirilgan 8,42 g. oltin tanga “doroyi” tangasi deb atalgan. Mahalliy satrapliklarda esa turli qiymatdagi kumush tangalar zarb etilgan. Oddiy savdoda zarb etilmagan kumush quymalaridan keng foydalanilgan.

Xo'jalik taraqqiyoti, qulay dengiz yo'llari, eski va yangi karvon yo'llarining namunali saqlanishi, pul muomalasining rivojlanishi xalqaro savdoni gurkirab o'sishiga olib keladi. Turlicha tabiiy sharoitga ega mamlakatlar o'rtasida rang-barang mahsulotlar bilan savdo qilingan.

Mamlaktdagi barqarorlikni ta'minlash ko'p jihatdan qo'shinga bog'liq bo'lgan, shu sababdan unga katta ahamiyat berilgan. Fors podsholigining qudratini asosi fors va midiyaliklar tashkil qilgan jangovar qo'shin belgilagan. Eng muhim urush harakatlari davrida har bir qaram halq ma'lum miqdorda askar yetkazib berish majburiyatini olgan.

Qadimgi Eron mafkurasida m.a. I ming yillikda O'rta Osiyoda yoki Sharqiy Eronda shakllangan diniy ta'limot - zardushtiylik muhim o'rin egalladi. Zardushtiylik so'nggi Midiya podshosi Astiag davridayoq rasmiy dinga aylangan edi. Doro I m.a. 520-yil atrofida zartushtiylikni rasmiy davlat dini deb e'lon qildi. Biroq forslar o'zlarining qadimiy diniy e'tiqodlaridan butunlay voz kechmaganlar va bo'ysundirilgan xalqlarning e'tiqodlariga ham daxl qilmaganlar.

Ahamoniylar davlati uchun turli xalqlarning madaniyati va diniy qarashlarni sinkretizmi xarakterli edi. Mamlakat turli hududlarining doimiy iqtisodiy – ijtimoiy va siyosiy aloqasi, madaniyatlarining o'zaro ta'siriga ijobiy turtki beradi. Turli xalqlarning yagona davlat

hududiga yashashi xalqlarning ilmiy bilimlari, san'at va adabiyotlarning bir-birini boyitishiga olib keldi.

Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o'ziga xos mixxatning yaratilishi bo'lgan. Fors mixxati 600 belgidan iborat akkad alifbosidan farq qilgan holda bor-yo'g'i 43 belgidan iborat bo'lib, deyarli alifboli yozuv bo'lgan. Fors saltanatida akkad, misr, shumer va boshqa xalqlar yozularidan keng foydalanilgan. Doro I ning uch tilda bitilgan Bexistun bitigi, Doro I ning Suzadan topilgan haykalidagi to'rt tilli yozuv bunga misol bo'la oladi.

M.a. VI asrda Eronda 354 kunlik oy kalendari majud bo'lgan. Shuningdek forslar 365 kunlik zardo'sht kalendaridan ham foydalanishgan. Sosoniylar davrida u rasmiy davlat kalendari sifatida tan olingan.

Qadimgi fors me'morchiligining ulug'vor inshootlari Pasargad, Suza va Persepoldagi saroy majmualari edi. Pasargadda Kir II ning dahmasi joylashgan. Doro I davrida Suzada katta qurilishlar olib borilgan. Qurilish ashyolari 12 mamlakatdan olib kelingan. Persepol saroyiga 110 zinapoyali keng hashamatli pillapoyadan chiqilgan. Doro I ning saroyi (apadana) balandligi 20 m bo'lgan 72 ustunli ulkan zali (maydoni 3600 kv.m.) bilan mashhurdir. Apadana olib boruvchi zinapoyaning bir tomonida relyeflar bilan 33 qaram xalqlarning xiroj olib kelayotgani tasvirlangan. Bu haqiqiy etnografik muzey bo'lib, unda turli xalq va qabilalarning o'ziga xos kiyimlari, qurollari, yuz ifodalarining tasvirlari toshga o'yib tushirilgan. Persepoldan 3 km. uzoqlikda Naqshi Rostam deb nomlangan qoyalarda Doro I va boshqa fors podsholarining qabrlaridagi relyeflar ham Eron tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Qadimgi fors san'ati, Eron madaniyati an'analari Bobil, Misr, Osuriya va boshqa xalqlarning badiiy an'analari va texnika usullarining sintezi edi. Qadimgi fors san'ati namunalari ichida nozik did bilan podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan tosh vazalar, metall qadah, fil suyagidan yasalgan riton, zeb-ziynat buyumlari, muhrlar, lazurit haykallar mavjud. Fors san'atida ayniqsa o'simlik va hayvonlarning hayotiy tasvirlari bo'lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi.

Taxminan m.a. 250 yilda Amudaryo va Kaspiy dengizi o'rtasida ko'chib yurgan parnlar qabilasi Atrek vodiysiga bostirib kiradi va m.a. 247 yilda Arshakni podsho deb e'lon qilishadi. O'z davlatini barpo etgach, parnlar Salavkiylar davlatiga hujum boshlaydi. M.a. 239 yilda

Parfiyani bosib olgan parmlar bu yerda istiqomat qiladigan qardosh parfiya qabilalari bilan qo'shib ketadi.

M.a. 171 yilda Parfiya podshosi bo'lgan Mitridat I davrida ushbu davlat qudratli saltanatga va Ahamoniylar siyosiy qudrati va qaysidir darajada ularning madaniyati merosxo'riga aylandi.

Parfiya saltanati yaxlit tuzilishga ega emas edi. Xususan, Eronning janubida, Forsda milodiy III asrda bir necha yarim mustaqil knyazliklar mavjud bo'lgan. Ularning birida Soson hukmronlik qilgan. Sosoniylar sulolasining vakili Artashir o'ziga tegishli hududlarni kengaytira borib, butun Forsni birlashtirgan, Kermon va Xuzistonni ham qo'shib olgan. Artashirning muvaffaqiyatlaridan xavotirga tushgan Parfiya podshosi Artabon V unga qarshilik ko'rsatishga qaror qiladi, ammo 224 yilda mag'lubiyatga uchraydi. M.a. 226 yilda Artashir parfiyaliklarga qarashli Mesopotamiyada joylashgan Ktesifon shahrini bosib oladi va o'zini Eron shohi deb e'lon qiladi. Shu tariqa Parfiya podsholigi vayron bo'ldi va ahamoniy podsholarning qadimgi vatanida yangi Eron imperiyasi- Sosoniylar saltanati vujudga keldi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qadimgi Eronning qaysi diniy ta'limotlari antik dunyoning filosofik qarashlariga va xristianlik hamda islomda esxolatik ta'limotlarning yuzaga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi?
2. Elam sivilizatsiyasi yuzaga kelgan va gullab-yashnagan davrni aniqlang.
3. Eron tsivilizatsiyasining har bir taraqqiyot bosqichiga xos xususiyatlarni ko'rsating.
4. Eron va O'rta Osiyo xalqlari madaniy aloqalari haqida ma'lumot bering.

### **9-mavzu: Qadimgi Janubi-Sharqiy Osiyo sivilizatsiyasi**

#### **Asosiy savollar:**

1. Dongshon sivilizatsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari
2. Milodiy I ming yillikda yuzaga kelgan sivilizatsiyalar

#### **1-savolning bayoni:**

Dongshon sivilizatsiyasi m.a. I ming yillikning boshlarida Hindixitoy yarimorolining shimoliy-sharqiy qismidagi Qizil daryoning quyi oqimlarida yashagan austroosiyo til oilasiga kiruvchi tilda so'zlashuvchi lakvyetlar tomonidan barpo etilgan.

Dongshonliklarning ma'naviy madaniyatida ajdodlar ruhiga sig'inish ustunlik qilgan va u asta-sekin sinfiy jamiyatning alohida dinini shakllantirgan. Sholikor lakvyet-dongoshliklarda, boshqa dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda bo'lgani kabi, osmon jismlariga, hosildorlikka topinish ham mavjud bo'lgan. Dongshonliklar dinining ko'pgina elementlari boshqa austri xalqlari tomonidan qabul qilingan, rivojlantirilgan va to'ldirilgan.

Dongshon sivilizatsiyasining tushkunlikka yuz tutishi uning vakillari diniy tasavvurlarining o'zgarishi bilan bog'liq edi. Lakvyetlarning xanliklar bilan aloqaga kirishishi xanliklar ma'naviy hayotining ta'sirini olib kelmagan bo'lsa-da, bilvosita diniy ma'lumotni saqlashda tasviriy vositadan ko'ra matn rolining oshishiga olib keldi.

Dongshon sivilizatsiyasi diniy maqsadlarga xizmat qilgan o'ziga xos realistik san'ati bilan mashhur. Diniy marosimlar odamlar kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan va shu tufayli marosimning realistik tasvirlanishi talab etilgan. Insonlar qat'iy belgilangan kompozitsiyalar doirasida tasvirlangan, ushbu kompozitsiyalar diniy marosim buyumi – “dongshon nog'oralari” (kesik konus)da aks ettirilgan. Ushbu konuslarda tasvirlangan sahnalar deyarli bir xil: harbiy kema, kemadagi yoki piyoda jangchilar va uchayotgan laylak (dongshonliklarda laylak muqaddas qush sanalgan). Ta'kidlab o'tish lozimki, tasvirlar shunchaki turli real odamlarni emas, belgilab qo'yilgan mazmunga ega sahnalarni aks ettirgan. Dongshon san'atining ommaviy tarqalgan marosimiy turi mayda bronza haykaltaroshlik bo'lgan.

Demak dongshon san'atining muhim vazifasi marosimni qayd etish bo'lgan. Bu jihatdan u vazifasiga ko'ra boshqa dinlardagi marosimni tasvirlovchi matnga mos keladi.

Dongshon san'ati lakvyetlarda sehrgalik, qurbonlik, muqaddas qushga topinish kabi amaliyotlarning bo'lganligi, rivojlangan harbiy marosimlarning mavjudligini ko'rsatadi. Etnograflarning keyingi kuzatuvlariga ko'ra “nog'oralar” ni marosimlarda qo'llash xudolar tasviri va kohinlar ishtirokisiz bajariladigan marosimlar orqali insonlarning narigi dunyo kuchlari bilan munosabatlarini yo'lga qo'yishga xizmat qilishi lozim bo'lgan.

M.a. VI-IV asrlarda gullab-yashnagan dongshon san'ati bir qancha lokal variantlarning yuzaga kelishiga turtki berdi. Uning Janubiy-Sharqiy Osiyoning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan hududlarida yashagan boshqa austri xalqlari tomonidan tez qabul qilinishiga ikkita omil sabab bo'lgan: sinfiy jamiyatga o'tayotgan

asosiy sholikor vodiylar aholisi rivojlangan mafkura zarur edi va ikkinchidan, bu barcha xalqlarning diniy tasavvurlarining asosi yagona bo'lgan – ajdodlarga sig'inish.

Ilk bosqichlarda dongshon sivilizatsiyasi Indoneziyaning Malakka yarimoroli tomonga, shuningdek Qizil daryoning yuqori oqimi bo'ylab tarqalgan. Keyinchalik shimoli-sharqqa, lakvyetlarga qardosh bo'lgan, o'z davlatiga ega bo'lgan namvyetlar yerlariga tarqalgan.

Dongshon san'ati ta'sirida shakllangan eng qiziqarli maktablar sirasiga malayya-yava maktablarini, tay-austroosiyo muhitida Dien davlatini (hozirgi Yunnani), shuningdek namvyetlarni (Namvyet davlati-Guansi va Guandun hududlari) kiritish mumkin.

Dienada “nog'oralar” o'zgartirilgan holda saqlanib qolgan, ularda mahalliy obrazlar aks ettirilgan. Diena san'atida naqshlar uslubi o'zgargan, bu yerda e'tiqod qilinadigan yo'lbars va ilon tasviri paydo bo'lgan. Austroneziyaliklarda (malayalar, yavalilar va boshqalar) diniy sahnadagi asosiy qism – laylak parvoziva patli dubulg'ali jangchilar saqlanib qolgan. Shu bilan birga mahalliy muqaddas obrazlar paydo bo'lgan. Namvyet maktabida insonlarning mahalliy obrazlari yaratilmagan, yangi elementlar naqshli belgilardan iborat bo'lgan. Namvyetliklarda “yomg'ir chaqiruvchi” qurbaqalarga sig'inish rivoj topgan.

So'nggi dongshon davrida (m.a. II-I asrlar) mazkur san'at izlari o'chib borgan, milodiy asr boshlaridan esa Qizil daryo vodiysi va undan janubdagi vodiylarda diniy marosim buyumlarini ishlab chiqarish ham to'xtagan. Ammo bu yerda ajdodlarga sig'inish hanuzgacha saqlanib qolgan. Bu Hindistondan buddizmning kirib kelishi va lakvyetlarning xanliklar bilan madaniy assimilatsiyalashtirishga urinish bilan bog'liq edi. Milodiy I-II asrlarda “nog'oralar” bilan bog'liq e'tiqod Xan ma'muriyati tomonidan ta'qib qilingan.

Milodiy I asrdan lakvyetliklar orasida buddizmning tarqalishi va asosiy dinga aylanishi dongshon diniy marosim amaliyotining yo'q bo'lib ketishiga asosiy sabab bo'ldi. Ushbu amaliyot uzoqroq vaqtgacha chekka tog'li hududlarda va Indoneziya orollarining bir qismida saqlanib qoldi. Vyetlar e'tiqodida bronza nog'ora uzoq vaqtgacha vyet imperatorlarinning ruhlari kabi vyetlar davlatini asrovchi mo''jizaviy kuchlar timsoli sifatida saqlanib qolgan.

## **2-asosiy savol bayoni:**

Markaziy va Janubi-Sharqiy Hindixitoy, Malakka yarimorolining shimoli va G'arbiy Nusantara orollaridagi mon-kxmerlar va austroneziyaliklar, G'arbiy Hindixitoydagi protobirmaliklar va monlar, shuningdek zamonaviy Yunnanning bir qancha tay-austroosiyo guruhlarining ajdodlarida ilk sinfiy davlat madaniyati va mafkurasining shakllanishi qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan aloqalarning kuchayishi sharoitida kechgan.

Hindiston hamda Shri-Lankadan hinduiylik va buddizmning kirib kelishi diniy me'morchilik va ikonografiyaning umumqabul qilingan qoidalarining shakllanishiga olib keldi.

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Hindixitoy yarim orolining janubidagi Bapnoma shahri kabi nisbatan taraqqiy etgan markazlarda, hind markazining yodgorliklari kirib kelishidan avvalroq qurilishning g'isht va tosh qo'llanilgan avtoxtan an'analari mavjud bo'lib, ilk kxmer animistik e'tiqodlariga xizmat qilgan ibodatxonalar barpo etilgan.

Bu hududlarda o'ziga xos obrazlar va mavzularga ega diniy va dunyoviy haykaltaroshlik, naqsh-bezak san'ati mavjud bo'lgan. Milodiy II-V asrlarda Bapnom va Janubiy dengizdagi dengiz kommunikatsiyalarining forpostlari mahalliy madaniyatning hinduiylik va buddizm bilan keng tutashgan zona bo'lgan. Ushbu dinlar austrik xalqlarning ajdodlarga sig'inish e'tiqodi va tabiatning iloha-ruhlari, boy diniy-mifologik an'alariga moslashtirilgan. Me'morchilikda bu podsho hokimiyatining vorisiyligi muqaddaslashtirilgan, Tog' Podshoning Shiva qiyofasidagi hinduiylashtirilgan e'tiqodi bilan bog'liq ibodatxonalarining barpo etilishida namoyon bo'ldi.

Bapnom Oy sulolasining so'nggi podsholari (kurunglar) (V-VI asr boshlari) Angkor-Boreya rayonida Shivaning Podshoning ilohiy timsoli bo'lgan, muqaddas Tog'da istiqomat qiladigan Girishi va Maxeshvara qiyofasidagi ibodatxonalarini barpo etishgan. Bu an'ana Chenla (Kambudjadeshining o'tmishdoshi) tomonidan qabul qilingan va uning bosh ibodatxonasi Lingvi Vat Pxuda aks etgan.

Mazkur mafkuraviy tasavvurlar bilan bog'liq ibodaxona me'morchiligining yana bir markazi milodiy IV asrda Shiva-Bxadreshvari sulolaviy e'tiqodi yoyilgan qadimgi Tyampa (Janubiy Vyetnamning Markaziy qismidan to shimoligacha) bo'lgan. Kxmerlarda Tog' Podsho Eysora nomi bilan ma'lum bo'lgan va ibodatxonalar shahri Misona Shivalingi ibodatxonalarini barpo etilgan.

Demak VI asrdayoq mahalliy mahobatli ibodatxona qurilishining ilk shakllari yaratilgan va u keyinchalik o'rta asr klassik me'morchiligiga, aynan "tog'-ibodatxona" shakliga asos bo'lgan. Mahalliy an'analarning hinduiylik (shivaizm, vishnuizm) va buddaviylik tasavvurlar bilan uyg'unlashuvi tufayli "tog'-ibodatxona"ning minorasimon yoki piramidasimon-terassali konstruksiyasi austroosiyo (monlar, kxmerlar va boshqalar) va austroneziya xalqlari me'morchiligining barqaror modeliga aylandi.

Buddizmning tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim me'morchilik yodgorligi qo'ng'iroqsimon yoki dubulg'asimon stupalar bo'lib, ular "tog'-ibodatxona" bilan bir qatorda qadimgi va o'rta asr Janubi- Sharqiy Osiyo davlatlari diniy me'morchiligining asosiy tuzilmasini tashkil etdi. Dastlab stupalar Quyi Birma va Tailand monlarida va O'rta Irvaddagi pyularning ilk Birma podsholigida keng tarqaldi.

Hindixitoy yarimoroli va Nusantara orollarida ma'lum bo'lgan diniy ikonografiyada dastlab Budda tasvirlari milodiy II-III asrlardagi Amavarati maktabi va uning Shri-Lanka mahalliy variantlari ta'sirida yaratilgan. Dong – Ziong (Vyetnam), Pong-Tuk (Tailand), Sungey-Budjang (Malakka yarimoroli) dagi haykallarni esa Gupta davri hind obrazlarining mahalliy an'analar bilan uyg'unlashgan budda ikonografiyasi namunalari sifatida baholash mumkin. V-VI asrlardagi so'nggi Bapnom budda ikonografisida qadimgi kxmer mahobatli haykaltaroshligining ilk namunalaridan bo'lgan yirik yog'och haykaltaroshlik ajralib turadi.

Mahalliy toshga va yog'ochga ishlov berish va bronza quyish san'ati chuqur ildizlarga ega bo'lganligi sababli antrpomorf tosh va metall budda haykaltaroshligi tez rivoj topdi. VSh asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan Pnom Da uslubidagi Budda, Vishnu va boshqa hinduiylik xudolarining tasvirlarida mahalliy va antik an'analar uyg'unligi ko'zga tashlanadi.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlar chegarasida Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining klassik san'ati xarakterini belgilab bergan alohida siyosiy-mafkuraviy omillarni sanab o'tish lozim. Birinchidan, yirik davlat birlashmalarining mavjudligi - Chenla (Kambudja), Tyao-Pray havzasidagi monlarning Dvaravat davlati, Irvad vodiysidagi Tarekkitar (Shrikshetra) ilk Birma podsholigi, hozirgi Janubi-G'arbiy Xitoydagi Dal (Nanchjao), Tyampa austroneziya davlati, Shrividjay (markazi Sumatra orolida) va Yava orolidagi Mataram. Navbatdagi

omil hinduiylik va buddizm qobig'ida hukmdor-xudo rasmiy e'tiqodining, ajdodlarga sig'inish e'tiqodining turli an'anaviy shakllarining yanada rivojlanishidir. "Keng yo'l" (maxayana) buddizmining va ayniqsa vajrayana buddizmi afsonaviy mafkurasining tarqalishi yana bir muhim omil bo'lgan.

Badiiy madaniyatning muhim yutuqlari bu omillar bilan bog'liq bo'lgan va ilk o'rta asrlar klassik me'yorlariga asos bo'lgan.

1. "Tog'-Ibodatxona" me'morchilik obrazi kxmerlarning prasat, tyamlarning kalan, yavaliklarning chandi, malayyaliklarning biaro modellariga asos bo'lgan. Bu me'morchilik shakllarining barchasi zinapoyasimon piramida "tog'" ning yuqorisida barpo etilgan minorasimon, terassa-minorali ibodatxonalaridir. Me'morchilikning ahamiyatga ega mahalliy yo'nalishlarining barchasida ibodatxona qurilishiga o'z an'alariga mos holda o'zgarishlar kiritilgan.

2. Haykaltaroshlikning yetakchi yo'nalishlari yuqorida qayd etilgan me'morchilik, ya'ni ibodatxona majmualari bilan bog'liq bo'lgan. Kxmerlarning Sambor Prey Kuk va Prasat Andetdagi hinduiylashtirilgan xudolari va ayniqsa mashhur Xarixara (Shiva-Vishnu) haykallarida hukmdor hokimiyatining muqaddasligi va uning o'limidan so'ng ilohiylashtirilishi bilan bog'liq g'oyalar aks etgan.

3. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar chegaralarida mahobatli san'atning budda aqidalari doirasidagi mahalliy me'yorlari ishlab chiqilgan. Masalan, Markaziy Yavadagi Borobudur ibodatxoan majmuasida (VIII asr oxiri - IX asr boshi) muqaddas Tog', stupa va piramida obrazlari birlashtirilgan.

4. Vyetnam madaniy arealida "shimoliy mustaqillik" davrida (m.a. I asr – milodiy IX asrlar) xitoy sivilizatsiyasining ta'siri Dongshon sivilizatsiyasi vakillari-lakvyetlar an'analari bilan to'qnash keldi. Dxyana buddizmining qabul qilinishi va adaptatsiya qilinishi o'ziga xos qirralarga ega alohida me'morchilik, haykaltaroshlik va naqsh san'ati yodgorliklarining paydo bo'lishi bilan birga borgan (Dayla va Lyuilaudagi budda va fuqarolik inshootlari, Tenzudagi stupalar modellari, turli dafn buyumlari).

Qadimgi Janubi-Sharqiy Osiyo sivilizatsiyalarining badiiy merosi hozirda ushbu hududda istiqomat qiladigan etnoslar an'anaviy madaniyatining ajralmas qismini tashkil etuvchi madaniy qadriyatlarni yetkazishda katta rol o'ynadi.

**Nazorat uchun savollar:**



1. Dongshon sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.
2. Buddizmning kirib kelishi va tarqalishi Janubi-Sharqiy Osiyo sivilizatsiyalari taraqqiyotida qanday o'rin tutdi.
3. Janubi-Sharqiy Osiyo madaniyatining o'ziga xos jihatlariga misol keltiring.

## **10-mavzu: Xitoy sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Qadimgi Xitoy davlatchiligining taraqqiyoti
2. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining yutuqlari

### **1-asosiy savol:**

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi tarixi m.a. Xuanxe vodiysida protoshaharlar paydo bo'lgan III-II ming yilliklarga borib taqaladi. Uning yakuni esa Xan imperiyasining qulashi bilan belgilanadi. Xitoyning tabiiy sharoiti ma'lum ma'noda qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi. M.a. I ming yillikning ikkinchi yarmiga qadar Xitoyning boshqa sivilizatsiyalardan uzilgan holda rivojlanganligi ham bu o'rinda muhim rol o'ynadi.

Xuanxe daryosi havzasida mahalliy paleolit va mezolit madaniyatlari asosida m.a. V ming yillikda Xunshan, naqshinkor sopolli Yanshao neolit madaniyatlari shakllandi. III ming yillikda u qora sopolli Lunshan madaniyati bilan o'rin almashdi. M.a. II ming yillikda Xitoyda shahar-davlatlar tipiga kiruvchi ilk sinfiy tuzilmalar paydo bo'ldi. Ilk shahar madaniyatlari Xenani, Shansi, Shensi, Shandun va boshqa hududlarda topilgan. Ularning orasida Xenandagi Anyan shahri rayonida topilgan "Buyuk shahar Shan" ajralib turgan. Shan (In) shahar davlati anchagina yirik birlashmaning boshida turgan. Shan hukmdori van deb atalgan. Ular harbiy vakolatlarga va oliy kohinlik funksiyalariga ega bo'lgan. Shanliklar doimiy urushlar olib borgan, harbiy asirlar ommaviy ravishda ilohiylashtirilgan ajdodlar va ruhlarga qurbonlik qilingan.

M.a. II-I ming yilliklar chegaralarida Shanga g'arbdan, Vey daryosi havzasidan kelgan chjou qabilalari tomonidan bosib olingan. Istilo oqibatida chjouliklar katta, ammo mustahkam bo'lmagan davlat birlashmasi tuzganlar. U an'anaviy ravishda G'arbiy Chjou deb ataladi. Uning tepasida Chjou podsho urug'idan bo'lgan va

shanliklardan “van” unvonini qabul qilgan merosiy hukmdorlar turgan. Bu davrda podsholikning kelib chiqishi ilohiylashtirilgan. Van Osmon O’g’li (Tyan-tsz) va uning yerdagi de sehrli kuchiga ega “Yagona” timsoli deb e’lon qilingan. Van hokimiyatni Osmondan olgan va u Tyansya – Osmon ostining hukmdori deb hisoblangan. G’arbiy Chjou davlati despotik shaklga ega bo’lmagan, vanlar hokimiyati uning huzuridagi amaldorlar kengashi bilan cheklangan.

M.a. IX asrdan G’arbiy Chjou davlati ichki siyosiy inqirozlar davri boshlandi. Chjou zodagonlari – chjuxou separatizmining o’sishi bilan vanlarning harbiy qudrati susaygan. M.a. VIII asr boshlarida shimoli-g’arbdan kirib kelgan ko’chmanchilar hujumining kuchayishi sharoitida G’arbiy Chjou tashqi xavfga qarshi tura olmagan. Chjouliklarning Vey daryosi havzasidagi yerlari tsyuanjunlar tomonidan bosib olingach, m.a. 770 yilda Chjou poytaxti sharqqa (hozirgi Loyan hududi) ko’chirilgan. Endi manbalarda Sharqiy Chjou deb atala boshlagan davlatning hududi keskin qisqargan. Xitoyda bir qancha mustaqil podsholiklar paydo bo’ldi. Ular orasida Xuanxening o’rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligidagi madaniy an’analarning yagonaligi bilan mashhur bo’lgan podsholiklar ajralib turgan. Bu podsholiklar mamlakatning an’anaviy birligini ramzi sifatida Chjou vanining Osmon O’g’li sifatidagi oliy hokimiyatini rasman tan olardilar.

Bu podsholiklar hududida xuasya madaniy-genetik mushtarakligining shakllanish jarayoni borar edi, natijada m.a. I ming yillik o’rtalarida o’rta podsholiklarning (chjungo) barqaror etnomadaniy-siyosiy majmui tashkil topdi. Chjungojen (o’rta podsholik odamlari) larning madaniy ustunligi g’oyasi qadimgi xitoyliklar o’z-o’zini anglashining muhim komponentiga aylandi. Chjou an’anasiga ko’ra Xitoyda mahalliy etnik asosda tashkil topgan va o’rta podsholiklardan til va madaniyat jihatidan farq qiladigan, ammo hudud va taraqqiyot jihatidan kam bo’lmagan boshqa davlatlar “varvarlar” sifatida talqin qilingan. Chuntsyu (Bahorlar va kuzlar) davrida o’z hukmini butun Osmon ostiga o’tkazgan “Besh gegemon” orasida to’rttasi “varvar” podsholiklardan edi. M.a. V-III asrlarda, Chjango (kurashayotgan podsholiklar) davrida eng kuchli yetti podsholiklar uchta xuasya podsholiklari emas edi: Yan, Chu va Tsin.

O’rta podsholiklar qo’shni xalqlar bilan doimiy aloqada bo’lgan, bunda assimilyatsiya va o’zaro ta’sirning murakkab jarayoni ham borgan.

Chuntsyu davridagi podsholiklarda yetakchi mavqe merosiy aslzodalarga tegishli edi. Yirik podsholiklarda asta-sekin markaziy siyosiy-ma'muriy tizim joriy etila boshlandi. Asosiy ishlab chiqaruvchi kuch erkin dehqon-jamoachilar edi. Jamolar orasida mulkiy tengsizlik jarayoni kuchaydi. Qarz uchun qullik paydo bo'ldi.

M.a. I ming yillik o'rtalarida Xitoyning siyosiy xaritasi Chuntsyuning boshlanish davriga ko'ra o'zgarib ketdi. 200ga yaqin davlat birlashmalaridan 30 dan ozi qoldi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, temir eritishning o'zlashtirilishi, hunarmandchilik va dehqonchilikning, sug'orish tizimlari barpo etishning rivojlanish davri edi. Tsin podsholigi tomonidan IV asr oxiri- III asr boshlarida yirik suv xo'jalik tadbirlarining o'tkazilishi bilan sug'orma dehqonchilik uning ravnaqi garoviga aylandi.

Chjango davrida qariyb yarim million aholiga savdo-hunarmandchilik shaharlari paydo bo'ldi. Yerga jamoa mulkchiligi tizimi tugadi. M.a.. 1000 yillik o'rtalaridan yerni sotish va olish huquqi bilan yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ldi. Davlat yer egalaridan yer solig'ini olishni joriy qildi, boy hunarmand-savdogarlar tabaqasi shakllandi.

M.a. IV asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni barqaror holatga keltirish uchun ko'pgina podsholiklarda islohotlar o'tkaziladi. Ana shunday islohotlardan biri m.a. 350 yilda Tsin podsholigida oliy amaldor Shan Yan tomonidan o'tkaziladi. Mamlakat uezdlarga bo'linadi, yer sotib olishga ruxsat beriladi, o'lchov birliklari unifikatsiya qilinadi, urug' zodagonlarning ayrim imtiyozlari bekor qilinadi. Ushbu islohotlardan so'ng Tsin qudratli davlatga aylandi. Ichki ziddiyatlardan foydalangan Tsin vanlari butun Xitoyni birlashtirdilar. M.a. 221 yilda Tsin so'nggi mustaqil podsholik-Shandun orolidagi Tsi podsholigini bosib oldi. Tsin vani In Chjen yangi "xuandi" - imperator unvonini oldi va tarixga Tsin Shixuandi – "Tsinning birinchi imperatori" sifatida kirdi. Tsin poytaxti Syayan imperiya poytaxtiga aylandi.

Tsin Shixuandi shimoliy chegaralarning xavfsizligini ta'minlash uchun misli ko'rilmagan qurilish: minglab kilometr uzunlikdagi Buyuk Xitoy devorni bunyod qilishga kirishdi. Janubiy Koreya va Shimoliy Vyetnamga borsqinchilik yurishlari uyushtirildi. Tsin Shixuandi yakka hukmdor boshchiligidagi harbiy-ma'muriy imperiyani barpo etdi. Tsinliklar unda imtiyozli o'rin egalladi. Qonun bilan teng huquqli erkin fuqarolar uchun yagona bo'lgan "qora boshlar" nomi joriy etildi.

M.a. 210 yilda Tsin Shixuandi vafotidan so'ng boshlangan xalq qo'zg'oloni Tsin sulolasini agdarib tashladi. Qo'zg'alon boshliqlaridan biri mayda amaldor Lyu Ban m.a 202 yilda «Xan imperatori» unvonini qabul qilib, Xan imperiyasiga asos soladi. Bu sulola Xitoyda eramizning III asrigacha hukmronlik qiladi. Xan imperiyasi tarixi ikki davrga bo'linadi: To'ng'ich Xan (m.a.202 yildan – milodiy 8 yilgacha) va Kichik Xan (milodiy 25-220 yillar) imperiyasi.

Imperator U-Di (m.a. 140-87 yy) boshqaruvi yillari Xan imperiyasining eng gullab - yashanagan davri edi. U-Di markazlashtirish siyosatini olib boradi. Konfutsiylik davlatning yagona mafkurasi sifatida qabul qilingan. U-Di faol istilochilik siyosatini olib boradi. Xitoy Hindistonga boradigan yo'lda Yuanyan va Sichuanni, m.a. 108 yilda Koreya yarim orolidagi Choson davlatini bosib oladi.

U-Di shimolda ko'chmanchi xunlar hududini bosib olishga harakat qiladi. Xunlar bilan urush yillarida Xitoy O'rta Osiyo bilan birinchi aloqalarni o'rnatadi. U-di m.a 139 yilda o'z elchisi Chjan Tsyanni O'rta Osiyo («G'arbiy o'lka»)ga yuborgan, elchi o'n yildan keyin Xitoyga qaytib keladi. Xitoyliklar Farg'ona (Dovon), Baqtriya (Dasya) va Parfiya (Ansi) to'g'risida bilimga ega bo'ladilar va bu mamlakatlar bilan aloqa o'rnatadilar. Ana shu vaqtda Xitoy O'rta Osiyodan uzum, loviya, beda, anor va yong'oq daraxti, musiqa asboblari, idish-tovoqlarni o'zlashtirib oladi. Keyinchalik Xitoy O'rta Osiyodan budda dinini qabul qiladi.

Imperator U-Dining hukmdorlik yillari qadimgi Xitoy tarixida «oltin davr» deb hisoblandi. Xan davrida qullarning soni oshdi. Xususiy, davlat qullari, qarz uchun qul qilingan qullar mavjud edi. M.a. II-I asrlarda xalqning iqtisodiy ahvoli yana og'irlashadi, yer va boshqa boyliklar oldi-sotdisi keng tus oladi.

Milodiy asr boshlarida yillarida yirik amaldor Van Man (9-23 yy) imperator hokimiyatiga ega bo'lib, yer egaligi va quldorlik munosabatlarida islohot o'tkazadi. Bu vaqtda dehqonlarning yersizlanishi kuchayib, katta-katta yer maydonlari alohida qullarda to'planib qolgan edi. Van Man barcha yerlarni imperator mulki deb e'lon qilib, yerni sotishni ta'qiqlaydi. Qul savdosi ham ta'qiqlanadi, ammo bu islohotlar amalga oshmaydi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tobora tushkunlikka yuz tuta boradi. 18 yilda boshlangan «Qizil qoshlilar» qo'zg'oloni tufayli Van Man halok bo'ldi.

Kichik Xan imperiyasi davridagi taraqqiyot zamirida chuqur ziddiyatlar yashirin edi. Imperiyadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida 184 yilda Qadimgi Xitoy tarixidagi eng yirik qo'zg'alon – “Sariq ro'molliklar” qo'zg'aloni boshlanib ketdi. Qo'zg'alon bostirildi, ammo ichki ziddiyatlar tufayli zaiflashgan Xitoy 220 yilda uch mustaqil davlat Vey, Shu va U ga bo'linib ketadi.

## **2-savolning bayoni:**

Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g'risidagi manbalar asosan m.a. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy konsepsiya, bo'linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi Yan va qorong'ulik (ayol) ning boshlanishi - In paydo bo'lgan. Ikkinchi kontsepsiya barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi bu transformatsiya natijasidir deb tushuntiradi.

Tabiat kuchlari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g'risida afsonalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Toshqin va qurg'oqchilik hodisalari afsonalarda ko'p tilga olinadi.

Qadimgi xitoyliklar u dunyo to'g'risidagi tushunchalarida yerda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat vanga tegishli, osmonda hamma jismlar Oliy xudo (Di)ga buysunadi. Di qudratli, u odamlarga marhamat qiladi yoki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga hosilni sovg'a qiladi, qurg'oqchilik yuboradi, yomg'ir va shamol Diga bog'liq. Dining yaqinlarini Vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dining topshiriqlarini bajaradi va ular Vanning yerdam berish to'g'risidagi iltimosini Diga etkazadi. Vanning oliy kohin sifatidagi vazifasi odamlar va xudolar dunesi o'rtasida vositachi bo'lgan o'z ajdodlari bilan muloqotni amalga oshirishdir.

II-III asrlarda Xitoyga budda dini kirib keldi. Afsonalarga ko'ra, birinchi budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoyga oq otda olib kelingan: bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida budda «Oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va budda dinini tarqalishi IV-VI asrlarga tegishlidir.

Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari m.a. XIV-XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yoki murakkab

tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi - ideogramma ko'rinishidadir.

In belgilarining hozirgi Xitoy iyerogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan bir belgilini yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan belgini qatorning nisbiy yo'nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining m.a. I ming yillikda Chjoular tomonidan o'zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo'ymadi. M.a. II-I ming yilliklarda iyerogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi, belgilarni yozishning yangi husnixati paydo bo'ldi.

Qadimgi Xitoyda odatda yupqa yog'och yoki bambuk taxtachalariga yozilgan. M.a. I ming yillikning o'rtalarida ipak matoga ham yozilgan. Yangi era boshida qog'oz kashf qilinib ishlatila boshlandi va qog'oz boshqa materiallarni siqib chiqardi.

Chjango davri an'anaviy ravishda Xitoy ma'naviy madaniyati tarixida klassik davr hisoblanadi. Manbalarda ta'kidlanganidek "Yuz maktab raqobati" davri bo'lgan bu davrda qadimgi Xitoyning asosiy ta'limotlari: konfutsiylik, legizm, daosizm vujudga keldi. Konfutsiy (Kun-size m.a. 551-479-yillar) ta'limoti bo'yicha inson tabiatan ezgulik xislatiga ega va o'z burchini sidqidildan o'tashga tayyor. Konfutsiy barcha ijtimoiy munosabatlar uchun oilani namuna hisoblaydi. Oilada kattalar kichiklarga g'amxo'rlik qiladilar va ularni tarbiyalaydilar, kichiklar ularni hurmat qiladilar va ularga bo'ysunadilar. Davlatga xalq farzandlar o'rnida, hukmdor ota o'rnida bo'ladi, hukmdor o'z shaxsiy manfaati emas xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim.

Eng qadimgi Xitoy she'riyati namunalari m.a. XI-VI asrlarda jez ko'zalardagi yozuvlarda yetib kelgan. "Qo'shiqlar kitobi" qadimgi Xitoy adabiyotining haqiqiy xazinasidir. Bu yodgorlik 4 bo'limga bo'lingan («Podsholik ahloqi», «Kichik odalar», «Buyuk odalar», «Madhiyalar») 305 poetik asarlar majmuasidan iborat.

Musiqqa, poeziya va raqs kabi san'at janrlari Xitoyda yuqori darajada shakllangan. Xitoy me'morchilik san'atida yog'och asosiy xom-ashyo edi. Xan davrining noyob me'morchilik yodgorligi imperiya poytaxti Chanyan shahri 12 darvozali devor bilan o'rab olingan. Ma'muriy binolar sariq rangda, imperator saroylari qizil rangda bo'yalgan. Xan davrida portret san'ati yuksak darajada bo'lgan, saroylar portret freskalari bilan bezatilgan.

Qadimgi Xitoyda ilmiy bilimlar, ayniqsa, matematika rivojlangan. M.a. II asrda to'qqiz kitobdan iborat «Matematika» traktati tuzildi. Matematika bilan yonma-yon astronomiya fani ham rivojlandi. M.a. 104-yilda bir yil 365,25 kunga tengligi hisoblab chiqildi va kalendar ishlab chiqildi. Qadimgi Xitoyda tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishildi. M.a. III asrda Xitoy vrachlari igna bilan davolashni kashf qilganlar. Tabiblar 52 kasallikni davolashni bilganlar, 280 davolash usulini qo'llaganlar.

### **Nazorat savollari:**

1. Xitoy sivilizatsiyasi shakllanishining o'ziga xos jihatlariga baho bering.
2. Xitoy davlatchiligida hukm surgan sulolalarni sanang.
3. Xitoy madaniyatining erishgan yutuqlarini tahlil qiling.
4. Xitoy falsafiy maktablari va ularning ta'limoti haqida ma'lumot bering.

### **11-mavzu: Hindiston sivilizatsiyasi**

#### **Asosiy savollar:**

1. Hind sivilizatsiyasining taraqqiyot bosqichlari.
2. Qadimgi hind madaniyati va uning taraqqiyoti.

#### **1-savolning bayoni:**

Janubiy Osiyoda eng qadimgi bo'lgan hind sivilizatsiyasi m.a. III ming yilliklardayoq, ibtidoiy-jamoa tuzumining emirilishi va sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi davrida asosan Hindistonning shimoliy qismida, Hind daryosi vodiysida (hozir asosan Pokiston hududida, taxminan m.a. XXII-XVI asrlar) shakllana boshlagan.

Qadimgi Hind sivilizatsiyasi tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Eng qadimgi Hind sivilizatsiyasi. Bu davr taxminan m.a. XXIII-XVIII asrlar bilan belgilanadi. (Ilk shaharlarning paydo bo'lishi).
2. «Veda» davri. M.a. XIII-VII asrlar. Shimoliy Hindistonda ilk davlatlarning yuzaga kelishi.
3. «Budda davri». M.a. VI-III asrlar. Bu davr buddaviylik dinining paydo bo'lishi va tarqalishi, umumhind davlatining tashkil topishi bilan xarakterlanadi.

4. «Klassik davr». M.a. II asrdan eramizning V asrigacha. Janubiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyoti va madaniyatini gullab-yashnagan davri.

Hind daryosining g'arbida m.a. VII-VI ming vujudga kelgan Moxenjodaro va Xarappa madaniyati m.a. 2 ming yillikning o'rtalarida, Hind vodiysiga g'arbdan rivojlanishda pastki pog'onada turgan oriylar qabilalarining bostirib kirishi natijasida halok bo'ldi.

Ikkinchi davr bizga asosan Hindistonning qadimgi adabiy yodgorligi – “Veda” lar (m.a. 2 ming yillik) orqali ma'lum. «Veda davri» (m.a. XIII-VII asrlar) Shimoliy Hindistonda ilk davlatlarning tashkil topishi bilan xarakterlanadi. So'nggi veda matnlari shakllangan paytda oriy qabilalari Hind-Gang tekisligining butun markaziy qismiga tarqalgan edi. “Rigveda” (hind-oriylarning vedalarining eng qadimgi qismi) yaratilgan davrida oriylarda sinfiy jamiyat va davlat hali shakllanmagan edi. Iqtisodiyotda yirik qoramolchilikka asoslangan chorvachilik rivojlangan, dehqonchilikka e'tibor berilmagan.

Veda davrida avvalgidek yirik shaharlar qurilmagan. Odamlar katta bo'lmagan manzillarda yashaganlar. Lekin qadimgi paytlardagidek, shaharda binolar rejalashtirish printsiplida joylashgan. Veda davri tasviriy va amaliy san'at namunalari bizgacha kam yetib kelgan. Bular, asosan, loydan, oltindan ishlangan kichik hajmdagi haykallardir.

Gang daryosining yuqori qismi, Gang va Jamna o'rtasidagi yerlardagi kechgan hayot “Maxabxarata” epik asarining syujetini tashkil qiladi. Ijtimoiy tashkilot qabila bo'lgan, qabila boshlig'i rojharbiy boshliq va yo'l boshchi sifatida o'z qarindoshi va xizmatkorlariga tayangan. Qabila uch tabaqa: kohinlar, harbiylar va oddiy jamoachilarga bo'lingan. Ilk veda davrida qulchilik mavjud bo'lgan. Qadimda hindcha “dasa” - qulni bildirgan so'z ko'pgina veda madhiyalarida uchraydi. Asirlar qulga aylantirilgan.

So'nggi veda davrida iqtisodiyot, ijtimoiy siyosiy tuzumda keskin o'zgarishlar yuz bergan. Dehqonchilik rivojlanib, Hind-Gang vodiysida keng dalalar o'zlashtiriladi, daraxtning qattiq yog'ochidan omoch yasay boshlanadi.

M.a. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti jamiyatning “kohinlar”, qabila harbiy zodagonlari-“kshatriylar”, to'la huquqli xalq- “vayshilar”



jamoaning pastki to'la huquqli bo'lmagan aholi qismi - "shudra" (qullar) kabi to'rt qatlamini vujudga keltiradi.

Har bir qatlam epik toifalar – varna (so'zma-so'z "nav") ga aylanadi. Har bir varna (kasta) vakilining merosiy mavqei ularning mashg'uloti va diniy majburiyatlarini belgilagan. Kohinlik va o'qituvchilik majburiyati braxmanlarga, jang qilish va boshqarish kshatriylarga, vayshiylarga mehnat qilish, shudralarga uch oliy varnalarga so'zsiz xizmat qilish majburiyati yuklatilgan. Bu toifaviy mavqe meros bo'lib o'tgan.

M. a. VI-III asrlar, "Budda davri" da shimoliy Hindiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida keskin o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar to'grisida arxeologik va yozma manbalar ayniqsa, budda manbalari boy ma'lumot beradi.

Bu davrda shaharlar aholisining soni keskin oshadi. Tovar – pul munosabatlarining o'sishi natijasida er. avv. I ming yillik o'rtalarida tanga pul zarb qilina boshlaydi.

Qishloqda oila yetakchi o'rin tutgan. Oila boshlig'i ota yer-chorvani oila nomidan boshqargan. Ayollar hurmat qilinsada, lekin mulk huquqiga ega bo'lmaganlar. Patriarxal oilada bir necha avlod yashagan. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi mulkiy tengsizlikka olib kelgan.

M.a. I ming yillik o'rtalarida hokim (roja) lar davlat boshqaruvida shakllanayotgan ma'muriy apparat va xizmatga tortilayotgan aslzoda bo'lmagan kishilarga tayanganlar. Hokim uchun asosiy tayanch kuch qo'shin edi. Armiyada engil jang aravalari o'rnini og'ir kvadrigalar egallaydi, otliq qo'shinnardan keng foydalanildi, jangovar fillardan qo'shin tuzila boshlanadi.

M.a. I ming yillik o'rtalarida Hindistonda yirik davlatlar paydo bo'ladi. Ularning ko'pchiligida alohida sulolalar, faqat ayrimlarida oligarxiya hukmron edi. Magadxa va Koshala Gang daryosining quyi oqimida, Gang va Yamun oralig'ida Vatsa, Avanti davlatlari o'rtasida yetakchilik uchun kurash olib boradilar. M.a. IV asrda Magadxa davlati kuchli ta'sirga ega bo'ladi va yuz yil o'tgach u birinchi umumhind davlatiga asos soladi.

Shimoliy Hindistonda Panjobdan to Bengaliyagacha bo'lgan yerlar Mauriya urug'idan bo'lgan Magadxalik zodagon Chandragupta (m.a. 317-yil hokimiyatni egallagan) tomonidan bo'ysundiriladi. Uning vorisi davrida Mauriyalar hokimiyati Dekan hududigacha yetib boradi.

Ashoka (m.a. 264-231-yillar) davrida Mauriyalar davlati gullab-yashnaydi.

Podsho hokimiyati poytaxtda oliy mansablarni egallagan zodagonlar va podsho qarindoshlaridan tuzilgan podsho kengashi bilan cheklangan. O'z navbatida podsholar ham urug' zodagonlari kshatriylarning imtiyozlarini cheklashga, ularni o'z tarafdorlari bilan almashtirishga harakat qiladi.

Hindistondagi barcha davlatlarning hukmdorlari noan'anaviy dinlarga, asosan budda diniga homiylik qilganlar. Mauriyalar budda dini targ'ibotiga jiddiy e'tibor berganlar. Turli mamlakatlarga budda g'oyalari targ'ib qilish uchun missionerlar yuborilgan. Ayniqsa, Hindiston bilan yaqin aloqa bo'lgan viloyatlarda budda ta'limoti tez qabul qilinadi.

M.a. IV-III asrlarda sekin-asta umumhind davlati tashkil topa boshlaydi. Bu butun janubiy Osiyoning barcha hududlarining sivilizatsiyalashuvida muhim rol o'ynagan. M.a. II asr boshlarida bu siyosiy birlashma parchalanib ketadi, lekin u to'g'risida xotira qoldi. Ashokia kapiteldagi to'rt sher hozirgi kunda Hindiston Respublikasining milliy ramzi hisoblanadi. Madaniy birlik, davlat paydo bo'ladi.

Klassik davr (m.a. II asrdan- milodiy V asrgacha) boshlarida Maurilarning so'nggi vakili hukmronligi tugab, shu vaqtdan mamlakatda uzoq siyosiy tushkunlik boshlandi. Shimoliy-g'arbiy Hindistonda yunon-baqtriyaliklar paydo bo'ldi va ular Gandxarada o'rnashib qoldilar. M.a. I asrlarda sak qabilalari kirib kelib, shimoliy-g'arbda bir necha davlatlarni barpo qiladilar. Sak podsholari o'zlarini «buyuk podsholar podshosi» deb ataydilar. Yirik davlat birlashmalarida noiblik, satrapliklar joriy qilinib, hududlarda satrap (kshatrap) ancha mustaqil bo'lgan.

Eramizning boshlarida shimoliy-g'arbiy Eronning ba'zi viloyatlari parfiyaliklarga bo'ysundi. Eramizning I asrida Markaziy Osiyoda Kushon davlati yetakchi rol o'ynaydi. Kushonlar Hindistonning shimoli-g'arbiy qismida o'rnashib oladilar.

Eramizning IV-V asrlarida Magadha Gupta sulolasi hukmronligi ostida yana rivojlana boshladi. IV asr o'rtalarida Samudragupta (335-380-yillar) davrida Magadxa qudratli davlatga aylanadi. Samudragupta Shimoliy Hindistonda unga yaqin davlatchalarni, Dekanda o'n besh davlatchani tugatadi. Dekan viloyati g'olibona yurishga qaramasdan Gupta davlati tarkibiga

kirmaydi. Chandragupta II (380-445 yillar davrida) Gupta davlati gullab-yashnadi. Uning davri hind tarixining “oltin davri” hisoblanadi. Uning vorislari davrida o‘zaro urushlar kuchayib ketadi. O‘rta Osiyodan kelgan eftalitlar V asrda Gupta davlatini qulatdi. V asrda shimoliy Hindiston kichik davlatchalarga bo‘linib ketadi.

Dekan mamlakatlari tarixida Satavaxan sulolasi alohida o‘rin tutadi. Eramizning ikkinchi asrida Satavaxanlar davlati o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Uning asosiy markazlari g‘arbiy Dekanda edi. III asrda bu davlat parchalanib ketadi.

## **2-savolning bayoni:**

Ko‘p asrlar davomida taraqqiy qilib kelgan qadimgi hind madaniyati bir qator qo‘shni xalqlarning madaniy taraqqiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. O‘z navbatida Hindiston tasviriy san‘ati va me‘morchiligida (ayniqsa eramizning birinchi asrlarida) qadimgi Yunoniston san‘ati, shuningdek O‘rta Osiyo mamlakatlari san‘ati bilan bog‘liq qirralar ko‘zga tashlanadi.

Hind madaniyatining yodgorliklari bo‘lgan Moxenjodaro va Xarappa xarobalaridan topilgan ko‘plab miqdordagi qattiq tosh, yumshoq steatit, fil suyagi va sopoldan qilingan muhrlarda muqaddas qayvonlarning suratlaridan tashqari yozuvlar o‘yib ishlangan. Hind yozuvining eng qadimgi asarlari Shimoliy Hindistonda urug‘chilik tuzumining emirilish davridan boshlab eng qadimgi quldorlik davlatlarining paydo bo‘lganiga qadar ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi va juda qadimgi shakllanishi jarayonini kuzatish imkonini beradi. Moxenjodaro va Xarappadan topilgan iyeroglif yozuvlar shuni ko‘rsatadiki, m.a. 3 ming yilliklardayoq Hindistonda o‘ziga xos ravishda vujudga kelgan suratli yozuv mavjud bo‘lgan. Hindistonda alifbo-bo‘g‘inli yozuv m.a. 3 asrda tarqalgan. Kxaroshti yozuvidagi bitiklar shu davrga oid. Bu yozuv oromiy yozuvini qo‘llash negizida paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ashoka yozuvlarining ko‘pi braxma yozuvining original qadimgi hind tizimida ko‘lamida yozilgan bo‘lib, bu yozuvdan devanagari, shuningdek, ko‘p sonli boshqa hind alifbolarining ancha keyingi tizimlari taraqqiy etgan.

Moddiy madaniyat va san‘at yodgorliklari asosida, Hind vodiysi aholisining diniy tasavvurlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish mumkin. Muhrlardagi tasvirlar bu yerda yashagan aholining daraxtlar, hayvonlar, osmon jismlariga e‘tiqod qilganidan guvohlik beradi. Ona ma‘buda haykalchasi dinning dehqonchilik xususiyatini ko‘rsatadi.

To'rt hayvon qurshovida yog holatida turgan erkak ma'bud dunyoning to'rt tomonini hukmdori deb qaraladi.

Qadimgi Hindistonning ko'pgina asarlari hozirgacha hinduizm va buddizmning muqaddas kitoblari hisoblanadi. Yozma manbalar bizgacha juda ko'plab yetib kelgan. Sanskrit tilini o'rganish qadimgi til grammatik asarlariga, asosan Panini grammatikasiga (m.a.IV asr) asoslanadi. Adabiyot asosan diniy madhiyalar (Rigveda" va boshqa Vedalar) ritual sharhlar, nasihatlar to'plamidan iborat.

Ijtimoiy munosabatlarni o'rganish uchun asosiy manba bo'lib, diniy-ahloqiy majburiyat-draxmalar («Manu qonunlari»), siyosat san'ati to'g'risidagi («Artxashastra»), muhabbat to'g'risidagi (Kamasutra) maxsus traktatlardan foydalaniladi.

Tarixiy voqealar adabiyotda kam tilga olinadi. U ko'p hollarda yarim afsonaviy qissalarda aks etadi. Yilnomalar eramizning I asrlarida Tseylondagi budda ibodatxonalarida tuzilgan va boshqa asosan budda ta'limotiga oid siyosiy-xo'jalik hujjatlari bo'lgan. Davlat va xususiy arxivlar yetib kelmagan. Hujjatlar palma daraxti barglari, po'stloq yoki mato parchasi kabi mo'rt asosda yozilgani uchun saqlanmagan.

Bizgacha faqat eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarga oid o'qish qiyin bo'lgan Hind sivilizatsiyasiga oid muhrlardagi qisqa yozuvlar va Ashoki davri (m.a. III asr) yozuvlarigina yetib kelgan. Ashoka ediktleri deb atalmish bu yozuvlar diniy-ahloqiy nasiqatlarni hamda buddizmning keng yoyilishini, shuningdek Ashokaning diniy faoliyatini tasvirlaydi.

Bu yerda me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivoj topgan. Adabiy manbalarga ko'ra m.av. birinchi ming yilliklarda, bu yerda dastlabki davlat paydo bo'lgan davrda shu davlatlarda ajoyib, hashamatli yog'och me'morchiligi ravnaq topgan.

Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Ashoka imperatorligi davrida (er.av.272-232) sodir bo'ldi. Ashoka hukmronlik qilgan davrda buddizm keng yoyildi. Bu din ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at namunalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Buddaga bag'ishlangan me'morchilik kompozitsiyalarida qadimgi hind me'morchiligida mavjud an'analar, xalq mifologiyalari, Budda hayoti va faoliyati bilan qo'shib ketgan afsonalar o'z ifodasini topdi.

Qadimgi Hindistonda qurilish materiallari sifatida asosan yog'och ishlatilgan. Tosh va bronza haykaltaroshligi keyingi asrlardagina paydo bo'lgan. Yana shuningdek, hind qadimiy obidalarini o'rganish asosan

XX asrda boshlandi. Faqat ozgina shaharlar, Moxenjodaro, Xarappa katta maydonlarda qazib ochilgan.

Kundalik hayotda bo'ladigan ehtiyojlar hindlarni juda qadimgi zamonlardayoq tabiatda bo'ladigan turli hodisalarni tartibli suratda kuzatib borishga majbur etgan. Tibbiyot, astronomiya va matematika sohasidagi dastlabki bilimlar ana shu tariqa vujudga kelgan.

Diniy-sehrgarlik dunyoqarashi hukmronlik qilgan davrda qadimgi Sharqdagi boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, qadimgi hindlarda ham fanning boshlang'ich shakllari diniy e'tiqodlar va tasavvurlar bilan chirmashib ketgan. Shuning uchun tibbiyot fani to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar diniy "Veda" to'plamlarida, jumladan, "Rigveda"da madhiyalarida va "Atxarvaveda"da saqlanib qolganini ko'ramiz.

Qurbonliklar qilishning vaqtini aniqlash uchun osmon jismlarining harakatini kuzatish talab etilardi, bu astronomiya bilimlarining rivojlanishiga olib keldi. Murakkab mehroblar, diniy inshootlarning qurilishi esa geometriya fanining taraqqiyotida muhim omil bo'ldi.

Vaqt o'tishi bilan qadimgi azayimxon, bxishaj (jinlarni quvlovchi) garchi o'zining qadimgi nomini saqlab qolgan bo'lsa-da, sekin-asta tabibga aylanadi. Vedalar tuzilayotgan davrdayoq hind tabiblari anatomiyadan bir qadar xabardor bo'lganlar va ba'zi anatomik atamalarni qo'llaganlar. Hali primitiv bo'lgan bu meditsinaning taraqqiy eta borishi bilan, tabiblikning ba'zi bir ixtisoslari, chunonchi, ichki kasalliklarni, ko'z kasalliklarini davolash, jarrohlik paydo bo'ladi. Meditsina bilimlarining to'plana borishi eramiz boshlarida meditsina sohasida dastlabki traktatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Eramizgacha bo'lgan VIII-VII asrlarda Hindistonda Lokayati (faqat shu lokayani tan oluvchi kishilarning qarashlari) falsafiy ta'limoti shakllana boshlaydi. Bu ta'limot asoschisi Brixaspati va uning izdoshlari yerdan boshqa tarzda hayotning bo'lishi mumkin emas, degan fikrni olg'a surdilar.

Charveka nomi bilan ataladigan qadimgi hind falsafiy oqimi tarafdorlari esa, dunyoni tabiat hodisalarini qanday bo'lsa o'shanday tushuntirmoq kerak, degan talabni ilgari surgan edilar.

Ular nuqtai nazaricha, butun olam olov, suv, havo, tuproq yigindisidan iborat, inson ham ana shu to'rt unsur birikmasidan tashkil topgan. Charvekalar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning zaminida moddiy elementlar birikishi yotadi, deb hisoblaydilar.

Hind xalqlari fan sohasida ham ulkan yutuqlarni qo'lg'a kiritganlar. Masalan, matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Ar'iyabxattaxa harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. Matematikada nolning kiritilishi, arab raqamlari deb aytiladigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi.

Hindlar yuqori nav po'lat ishlashni o'zlashtiradilar. Metall san'atining noyob namunasi sifatida Sandra temir ustuni (o'tgan bir yarim ming yil davomida bu temir ustunda biror zang paydo bo'lmagan, bu yodgorlik hozirgacha yetib kelgan).

### **Nazorat savollari:**

1. Hind sivilizatsiyasining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga baho bering.
2. Hind madaniyatining rang-barangligi sabablarini izohlang.
3. Hind falsafiy maktablari haqida ma'lumot bering.
4. Qadimgi hind adabiyoti haqida nimalar bilasiz?

## **12-mavzu: Yapon sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Yaponiya sivilizatsiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi.
2. Yaponiya madaniyati va uning o'ziga xosligi.

### **1-savolning bayoni:**

Yaponiya orollarida mezolit va neolit davrida (m.a. VIII-I ming yilliklar) Dzyomon madaniyati tarqalgan. Bu davrda Yaponiyada yashagan ilk xalqlar protoayn xalqlari, shuningdek kelib chiqishi bo'lgan malayya-polineziyalik qabilalar bo'lgan deb taxmin qilinadi. M.a. I ming yillikning o'rtalarida Koreyaning janubiy qismidan protoyapon qabilalarining kirib kelishi kuchaygan. Xitoy tilidagi yodgorliklarda protoyaponlar «Va odamlari» deb tilga olinadi. Ular Yaponiya janubidagi xalqlarni assimilyatsilashtirishga muvaffaq bo'lgan. Yaponlar dunyoqarashining yetakchi belgilardan biri bo'lgan boshqa xalqlar bilan aloqalar tufayli kirib kelgan ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati juda erta shakllangan. Buni aynan shu assimilyatsilashish jarayonidan so'ng, m.a. IV-III asrlar chegarasida sug'orma sholichilik va metallga ishlov berish yuzaga kelishida ham ko'rish mumkin.

M.a. III asrdan milodiy III asrgacha bo'lgan olti asrlik davr yapon tarixshunosligida “Yayoy” (ushbu madaniyatning birinchi yodgorligi topilgan Tokiodagi kvartal nomidan olingan ) davri deb ataladi. Yayoy madaniyati sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan barqaror jamoalarning yaratilishi bilan xarakterlanadi. Temir va bronza Yaponiyaga deyarli bir vaqtda kirib kelgan.

Davlatchilik Yaponiyada milodiy III-IV asrlarda yuzaga kelgan. Bu davrda Janubiy Kyusyu qabilalari ittifoqining markaziy Yaponiyaga bosqinchilik yurishlari sodir bo'ladi. Natijada markaziy Xonsyuda Yamato davlati shakllana boshlaydi.

Yapon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi Yamato davrining IV asrdan VI asrgacha bo'lgan davri tuzilishi va buyumlarida Koreya va Xitoyning kuchli ta'siri sezilib turadigan dafn qo'rg'onlari tufayli “qo'rg'onlar davri” (“kofun dziday”) deb ham ataladi. Bugungi kungacha 10 mingdan ortiq qo'rg'onlar topilgan bo'lib, ehtimol ular genetik jihatdan Kyusyu orolidagi dolmenlar bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga IV-VIII asrlar madaniyatini o'tgan davrlar madaniyatidan ajratib turadigan yana bir xususiyat mavjud. Bu davrda suvoriylik, otda yurish san'ati bilan bog'liq o'ziga xos an'analar yapon orollariga kirib keladi.

Qo'rg'ondan topilgan buyumlar orasida qadimgi ritual san'at namunasi – xaniva sopol haykalchalar alohida ahamiyatga ega. Qo'rg'on tipidagi inshootlarni barpo etish ajdodlarga sig'inish va Quyoshga topinish bilan bog'liq bo'lgan, bu bizgacha yetib kelgan ilk yapon yozuvi yodgorliklarida (“Kodziki”, “Nixon syoki”) ham o'z aksini topgan.

Ajdodlarga sig'inish haqiqiy yapon dini – sintoizm uchun ham, demakki, butun Yaponiya madaniyati uchun katta ahamiyatga ega. Ajdodlarga sig'inish yapon sivilizatsiyasining tarixiy evolyutsiya jarayonida merosiylikni ta'minlaydigan yana bir qudratli harakatlantiruvchi kuchini tashkil etadi.

Davlat miqyosida ajdodlarga sig'inish hukmdor urug'ning ajdodi sanalgan Quyosh ilohasi Amaterasuga e'tiqod qilishda o'z aksini topgan. Ilk sintoizm panteoniga o'sha davrda yapon jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida yetakchi o'rin egallagan urug'lar ajdodlari ham kirgan. Ulardan tashqari yaponlar mahalliy ahamiyatga ega turli tabiat ilohalariga sig'inishgan.

VI asrda “tenno”imperator hokimiyati rasmiylashtirila boshlangan Yamato davlatida mustaqillikka intiluvchi kuchlar mavjudligiga

qaramasdan birmuncha siyosiy barqarorlikka erishilgan. Mafkuraviy tarqoqlikka barham berish uchun Yapon hukmdorlari buddizmga murojaat etganlar. Umumdavlat mafkurasining yaratilishiga qo'shgan hissasidan tashqari buddizm ta'limoti urug' an'alariga bog'lanmagan va shu tufayli davlat munosabatlari tizimida faoliyat ko'rsatish uchun munosibroq bo'lgan shaxsning yangi tipini shakllantirdi. Buddizmning ijobiy ahloq me'yorlarining kuchayishida ham roli katta.

Buddizmning ashaddiy muxlisi bo'lgan imperator Setoku (474-622 yy.) davrida Xitoy ta'siridan chiqishga harakat boshlangan. Yaponiyaning yaponcha Nixon (Nippon) - "quyosh chiqadigan mamlakat" degan nomi aynan Setoku nomi bilan bog'liq. 604 yilda konfutsiylik davlatning mafkuraviy asosi qilib olinadi.

710 yilga kelib doimiy poytaxt Naraning qurilishi yakunlangan. Taxminan 200 ming kishi istiqomat qilgan Nara o'sha vaqtda yagona shahar bo'lgan. Qishloq xo'jaligi, hunurmandchilik va ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyot darajasi shaharlarning yuzaga kelishini talab qiluvchi bosqichda emas edi. VIII asrga kelib Yaponiyada tanga zarb qilina boshlangan.

VII asrning o'rtalarida boshlangan islohotlar Yaponiyani yarimyo'vvoyi qirollikdan "imperiya" ga aylantirishga xizmat qilishi lozim edi. 646 yilgi to'rt moddadan iborat farmonga ko'ra yerga davlatning egalik qilishi, mamlakat viloyatlar va uezdlarga bo'linishi, yerni qayta taqsimlash uchun xo'jaliklarning ro'yxatga olinishi, ilgarigi mehnat majburiyati bekor qilinishi va qishloq xo'jaligi hamda hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'lanadigan soliq hajmining belgilanishi e'lon qilingan edi.

VII asrning ikkinchi yarmida davlatning qonunchilik sohasidagi faol siyosatini kuzatish mumkin. Keyinchalik alohida farmonlar birlashtirilib, ularning asosida 701 yilda birinchi universal "Tayxoryo" qonunlari tuzildi. U bir qancha o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan butun o'rta asr davomida feodal qonunchilikka asos bo'lib xizmat qildi. "Tayxoryo" va "Yororyo" (757 y.) ga ko'ra, yapon davlatining ma'muriy – amaldorlar apparati murakkab va keng tarmoqli iyerarxik tizimni tashkil etgan.

Yaponiya davlat tuzimining yana bir o'ziga xos xususiyati X asrda shakllangan harbiy-xizmatchilar tabaqasi - samuraylar edi. Samuraylarning alohida or-nomus kodeksi mavjud edi. Samuray jangchi (busido) yo'lidan borishi kerak bo'lgan. Maxsus mashqlar yordamida u o'zini to'liq boshqarishga erishgan. Samuray uch narsaga



ont ichgan: uy haqida, rafiqasi haqida va o'z hayoti haqida unutish. Uning yagona jinoyati xo'jayiniga xiyonat bo'lgan va bunday holatda samuray o'z joniga qasd qilishi (xarakiri) lozim bo'lgan. Samuraylarning tepasida syogun turgan. XII asrdan Yaponiyani rasman imperator boshqarsa-da, haqiqiy hokimiyat syogun qo'lida bo'lgan.

Yapon sivilizatsiyasining ajralgan (yakka)lik xususiyati tufayli Meydzi inqilobiga qadar deyarli o'zgarmasdan qolaverdi.

## **2-savolning bayoni:**

VII-VIII asrlar mobaynida yapon davlati shakllanayotgan boshqaruv institutlarini g'oyaviy jihatdan asoslashga uringan. "Kodziki" (712 y.) va "Nixon syoki" (720 y.) kabi afsonaviy-yilnoma to'plamlar birinchi navbatda shunga xizmat qilishi lozim bo'lgan. Ularning vazifasi davlat mafkurasini yaratish, ya'ni "afsona" va "tarix" ni moslashtirish bo'lgan: "Kodziki" va "Nixon syoki" voqealari "xudolar erasi" va imperatorlar erasi" ga bo'linadi.

Sintoistik afsonalar zahirida umumdavlat mafkurasini yaratishda muhim bosqich bo'lgan "Kodziki" va "Nixon syoki" to'plamlari xitoy tilida yozilgan. "Nixon syoki" sulola yilnomasi sifatida qabul qilingan. "Kodziki" Ono Yasumaro tomonidan Xieda-no Are og'zidan yozib olingan. Uzoq vaqtgacha xitoy adabiy tili yapon madaniyatining tili bo'lib keldi va u birinchi navbatda davlat ehtiyojlariga xizmat qildi. Imperator Setoku davrida bo'g'inli yapon alifbosi yaratildi va rasmiy yozuv sifatida joriy etildi.

Sintoizmning davlat qurilishiga faol jalb etilishi bilan buddizm bu sohada o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Bu ayniqsa 771 yilda budda monaxi Dokyō tomonidan o'tkazilgan muvaffaqiyatsiz to'ntarishdan so'ng sezila boshladi. Nara ibodatxonalari va monastirlaridaga budda ruhoniylarining ta'sirini kamaytirish uchun 784 yilda poytaxt Nagaokaga, 794 yilda Xeyanga ko'chiriladi. Davlatning qo'llab-quvvatlashidan qisman mahrum bo'lgan buddizm baribir alohida shaxsning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lib qolaverdi.

Buddizm bilan bir qatorda Yaponiyaga ushbu dinning ehtiyojlariga xizmat qiluvchi moddiy majmua ham kirib keldi. Ibodatxonalar qurilish, budda va bodxistavlarning haykallari va boshqa marosim buyumlarini ishlab chiqish boshlandi. Sintoizm esa bu davrda hali rivojlangan yopiq diniy inshootlar qurish an'anasiga ega emas edi. Koreya va Xitoy prototiplariga o'xshash jihatlar bilan bir qatorda yapon ibodatxonalari qurilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib bordi.

Me'morchilikda o'ziga xos yapon uslubi shakllana borgan. Masalan, Syotoku tomonidan barpo etilgan Xoryu-dzi ibodatxona majmuasiga o'xshashi Xitoyda ham, Koreyada ham uchramaydi. Takamatsudzuka qo'rg'onidagi freskalar ham materik namunalaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

Yaponiyadagi eng yirik budda yodgorliklaridan biri 90 ga. maydonni egallagan Todaydzi ibodatxonasidir (VIII asr o'rtalari). Sof diniy ehtiyojlardan tashqari ushbu inshoot umumdavlat ahamiyatiga ega dunyoviy marosimlarni o'tkazish uchun ham xizmat qilgan. Todaydzining "Oltin pavilon"i ("kondo") vayronkor yong'inlardan so'ng bir necha bor qayta qurilgan. Bugungi kunda u dunyodagi eng yirik yog'och inshoot sanaladi. Uning balandligi – 49, kengligi – 57, uzunligi 50 metr. Unda kosmik budda Vayrochananing 18 metrlik haykali joylashgan. Ammo keyingi davrda Yaponiyada kichik hajmga intilish kuchaygan.

VII-VIII asrlardan boshlab buddaning bronza haykallari asosan Xitoy va Koreyadan keltirilgan yoki u yerdan kelgan ustalar tomonidan yaratilgan. VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tarqala boshlagan loklangan, sopol va yog'och budda tasvirlarida mahalliy ikonografiya an'analarning ta'siri sezilarli ekanligini ko'rish mumkin. Shu davrdan boshlab yapon buddizmining buyuk vakillari (Gyosin, Gien, Gandzin va h.k.) ning portret tasvirlari yaratila boshlangan.

O'rta asr yapon she'riyati bugungi kunda butun dunyoga mashhur. Ammo bizgacha yetib kelgan birinchi she'riy to'plam – "Kayfuso" (751 y.) xitoy tilidagi she'rlardan iborat. Ko'p vaqt o'tmay tuzilgan yapon she'rlari to'plami – "Man'yosyu" iyerogliflarning fonetik yozuvi "man'yogana" yordamida yozilgan. "Man'yosyu"ga turli davrdagi she'rlar kiritilgan: folklor va diniy she'riyat namunalari, xalq qo'shiqchilik ijodi bilan aloqasini yo'qotmagan mualliflik she'rlari. Ammo "Man'yosyu" yaratilgandan so'ng xitoy tilining yuksak obro'si yapon she'rlarining uzoq vaqtgacha yozma madaniyat doirasidan chiqib ketishiga olib keldi. Yapon tilidagi navbatdagi to'plam "Kokinsyu" faqatgina X asr boshiga kelib paydo bo'ldi.

Ajoyib va mustaqil xeyan madaniyatiga asos bo'lgan davr yaponlar uchun qat'iyatli va samarali o'rganuvchanlik davri bo'ldi. Turli xalqlar yutuqlarini o'zlashtirish xususiyatiga qaramasdan, yaponlar o'z o'tmish madaniyatlariga nisbatan merosiylikni saqlab qola oldilar. IX asr boshlariga kelib o'zga xalqlar yutuqlari hisobiga

boyitilgan yapon madaniyati mustaqil taraqqiyot uchun yetarlicha ichki kuchga ega edi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yapon sivilizatsiyasining yakkalik xususiyati uning rivojida qay tariqa o'z aksini topdi?
2. Yapon sivilizatsiyasining qaysi xususiyatlari uning o'ziga xosligini belgilaydi deb hisoblaysiz?
3. Bugungi kunda yapon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga baho bering.

## **13-mavzu: Islom sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Islomning vujudga kelishi va Arab xalifaligining tashkil topishi.
2. Islom jamiyati va ijtimoiy diniy harakatlar.
3. Arab musulmon madaniyati taraqqiyoti.

### **1-savolning bayoni:**

Arablarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti VII asr boshlarida arab qabilalarining birlashishi va umumlashuviga olib keldi. Islom dini, bu birlashuvni mafkuraviy tasdiqlovchi, oqlovchi bo'ldi: hamma uchun bab baravar printsiplar, millatlarning etnik kelib chiqishiga qaramay, din oldida hammaning huquq tengligi arablar oldida katta imkoniyatlar tug'dirdi.

Islom dinining asoschisi, «Allohning elchisi» (rasululloh), Muhammad (s.a.v) (570-632 yy) 610 yildan Makkada yangi diniy ta'limotni boshlaydi. 610—620 yillar davomida Makkaning an'anaviy butparast jamoalari bilan yangi din tarafdorlari orasida to'xtovsiz kurash ketadi. Bu kurash 622 yilda payg'ambarimizning Yasrib (Madina) ga hijrati bilan yakunlanadi. Musulmonlar jamoasi (ummat) Madinada mustahkamlanib, kuchaydi. 630 yili Makka jangsiz Muhammadga (s.a.v) taslim bo'ldi. Makka Islomning diniy markaziga aylandi. Ka'ba ichidagi majusiy butlar va sanamlar tantanali ravishda buzib tashlandi, u eng muqaddas sajdagohga aylantirildi, bu yerga haj qilish Islomning asosiy farzlaridan biri deb e'lon qilindi. Bu Muhammad (s.a.v) jamoasining badaviylarga nisbatan ta'sirini kuchaytirdi va ular o'rtasida Islomni keng yoyishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Muhammad (s.a.v) dan so'ng chahoriyorlari Abu Bakr Siddiq (568—634), Umar ibn al-Xattob (634-644 yy), Usmon ibn Affon

(644—656), Ali ibn Abu Tolib (656—661 yy) lar birin ketin xalifa bo'ldilar va zabt etish, islom dinini tarqatish siyosatini davom ettirdilar.

Dastlabki saylangan to'rt xalifadan so'ng xalifalikda hokimiyat Ummaviylar sulolasi qo'lga o'tdi. Bu sulola asoschisi yirik savdogar va qurayshiylar zodagoni Abu Sufyonning o'g'li, Suriya hokimi Muoviyadir. Muoviya Ali xalifaligini tan olmay, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qilgan. Ali vafotidan keyin (661 y.) arab zodagonlari va harbiy boshliqlar yordamida Muoviya yagona hukmron-xalifa bo'lib qoladi. Xalifalik poytaxti Madinadan Damashqqa ko'chirildi.

Abbosiylar sulolasiga Muhammad (s.a.v) amakisi avlodlaridan Abulabbos as-Saffoh (749—754 yy) Abbosiylar davrida poytaxt Damashqdan Bag'dodga ko'chirildi.

Arab xalifaligi Arabiston yarimoroli, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o'z ichiga olgan yirik feodal davlat edi. Arablar Vizantiyaga qaram bo'lgan Suriya, Misr, Eron, Markaziy Osiyoda mavjud ijtimoiy va siyosiy davlat tuzumi, ma'muriy tashkilotlar, moddiy va ma'naviy hayot udumlarini qabul qiladilar. Masalan Erondagi Sosoniylar davlatidan markazlashgan davlat idorasi, feodal ishlab chiqarish usulini qabul qiladilar.

Umaviylar davrida qator ma'muriy harbiy o'zgarishlar amalga oshirildi: xalifalik lavozimi nasliy merosga aylantiriddi, davlat xazinasini va davlat arxivi tashkil etildi, arab tili davlat tili deb e'lon qilindi, yangi oltin, kumush va mis pullari chiqarildi, harbiy-dengiz floti tashkil etildi.

Abbosiylar davrida Old va O'rta Osiyoning shuningdek Shimoliy Afrikaning juda keng hududida ma'lum vaqtgacha tinchlik qaror topishi natijasida xalifalik iqtisodiy jihatdan g'oyat taraqqiy topdi. Soliq solishda ham eron usullarining o'zlashtirildi. Xalifalik Erondagi singari ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'linib, ularga gubernator – amirlar boshliq qilib qo'yilgan. Arab xalifaligida xo'jalik ishlarining turli sohalariga ham katta e'tibor berilgan, bu borada ham qisman Eron, qisman Mesopotamiya an'analaridan foydalandi. Markaziy hukumat irrigatsiya tizimiga muttasil e'tibor berishi natijasida, bu davrda dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi.

IX-X asrlarda xalifalikning siyosatida keng ko'lam olgan ichki savdo va ayniqsa tashqi xalqaro savdo juda katta o'rin tutar edi. Arab savdogarlari yiroq shimolgacha – yuqori Volgagacha va hatto Boltiq dengizi qirg'oqlarigacha borib savdo qilardilar. Uzoq sharqda Xitoy,

Hindiston va Indoneziyada doimiy suratda savdo qilardilar. Arablar Yaqin sharqda - Levantda, ayniqsa, qizg'in savdo olib bordilar.

Bog'dod xalifaligi davrida arablarda yer egaligi munosabatlari uzil-kesil qaror topdi. Xalifalikga qarashli mamlakatlarda ekspluatatsiya qilinuvchi asosiy sinf jamoachi dehqonlar edi. Jamoachi dehqonlarning ko'pchiligi xalifaning yerlarida yashab, feodal rentani bevosita davlatning o'ziga to'lar edi. Arab qonunlariga muvofiq butun yer xalifaga qarashli bo'lib xalifa bu yerning biror qismini o'z xizmatkorlariga vaqtinchagina berar edi. Shu tufayli xalifalikda katta yer egaligining nasldan-naslga o'tishi o'rta asr Yevropasidagi kabi qat'iy emas edi.

Iqto-harbiy xizmat o'taganligi uchun beriladigan chek yer bo'lib, G'arbiy Yevropa benifetsiyalariga o'xshab ketadi. Mulk – in'om qilingan va asta sekin nasldan naslga meros bo'lib o'tadigan yer mulklar, xissa va boshqa imtiyozli yerlar g'aznaga soliq to'lashdan ozod qilingan bo'lib, bular o'sib kelayotgan xususiy yer egaligining shakllari edi.

Arablar hukmronligining ilk davrida ancha engil tortgan mehnatkash aholisining ahvoli keyinchalik og'irlasha bordi. Dehqonlar qisman natura shaklida va qisman pul shaklida katta-katta soliqlar to'lardi, bu esa mayda ishlab chiqaruvchi dehqon yoki hunarmandning deyarli hamma qo'shimcha maxsulotlarini yamlab ketar edi-da, natijada ularning o'zlari juda achinarli kun kechirar edi. Amaldorlarning o'zboshimchaligi va jabr zulmi, dehqonlarning huquqsizligi va himoyasizligi, ularni yarim qul holiga solib qo'ygan edi. Xalifalikda qullarning ahvoli esa nihoyatda og'ir edi. Bunga javoban yirik r egalarga va ularning manfaatini himoya qiluvchi xalifaga qarshi bir necha marta qo'zg'olon ko'tarildi. Keng ko'lam olgan xalq xarakatlari xalifalikni larzaga keltirib ko'p vaqtgacha uning birligini buzib qo'ydi.

Biroq xalifalikni parchalanishiga boshqa sabablar ham bor edi. Xalifalik turli mamlakatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, turli tuman xalqlarning murakkab bir konglomeratidan iborat ediki, bulardan ba'zilar o'tmishda o'zining yorqin tarixiga ega edi; shuning uchun ham bu xalqlar o'z mustaqilligini tiklashga intilar edilar; ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida maxalliy aloqalar mustahkamlanib borgan sari bu intilish kuchayib borardi. Shu bilan birga xalifalik hokimiyati tobora zaiflashib bormoqda edi. Xalifalik haqiqatda VIII asrdayoq parchalana boshlgan edi. 756-yilda Qurdoba amirligi ajralib chiqqandan keyin VIII asrning oxiri IX asrda boshlarida Marokash

bilan Tunis ajralib chiqdi, IX asrning o'rtalarida Misr mustaqil bo'lib oldi (bu yerda avvaliga tumanlar, keyinchalik X asrda Alining avlodlari – Fotimiylar idora qila boshlab, ular 969-yildan etiboran Misrni mustaqil Qohira xalifaligiga aylantirdi). IX va X asrlarda Eron ajralib chiqdi, 945 yili Erondagi buyayhiylar Bag'dodni egallab, abbosiylarni siyosiy hokimiyatdan chetlatdilar, fors tilida so'zlashuvchi aholidan iborat katta hudud mustaqillikka erishdi.

Movaraunnahrda Movaraunnahrda mahalliy sulolalar boshchiligida Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylar davlati tuzildi.

Shu tarzda qudratli abbosiylar xalifaligi parchalanib keta boshladi. 1055 yilda saljuqiy turklar Bog'dod shahrini bosib oldi, Abbosiy xalifa qo'lida faqatgina diniy hokimiyat saqlanib qoldi. Eng so'nggi xalifa Mu'tasim mo'g'ullar xoni Xuloku tomonidan 1258 yili qatl etildi. Mana shunday qilib abbosiylar xalifaligi besh asr va umuman Muhammad (s.a.v.) payg'ambardan keyin tashkil topgan arab xalifaligi 626 yil hukm surdi.

## **2-savolning bayoni:**

Ilk islom jamiyatini boshqarish Qur'on asosida olib borilgan. Vaqt o'tishi bilan musulmonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ildi. Islom ilohiyotchilari bir necha asr mobaynida shariat qonunlarini ishlab chiqqanlar. Shariat (arab.-to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik) - islom diniy huquq tizimidir. Shariatga asos qilib Qur'on va sunna, keyinchalik ijmo' va qiyos olingan. Unda sof huquqiy masallardan tashqari ahloqiy normalar va amaliy diniy talablarga ham qonun tus berilgan.

Islom dastlabki davrda hech qanday yo'nalish, mazhab va oqimlarga bo'linmagan. Keyinchalik islom dinida ijtimoiy ziddiyatlar va hokimiyat uchun kurash jarayonida turli yo'nalishlar va oqimlar vujudga keldi. Islom mazhablaridan besh turini bir-biridan tafovut qilish kerak:

1) Islomdagi asosiy yo'nalishlar. Islomda dastlab yuz bergan ixtilolar natijasida diniy ta'limot, marosimchilik, ahloqiy-huquqiy normalarga oid bir qator masalalarda bir-biridan farq qiladigan uch asosiy yo'nalish vujudga kelgan: - sunniylik, shialik va xorijiylik.

Sunniylik (arab. sunna— odat, an'ana, xatti-harakat tarzi) islom dinidagi 2 asosiy yo'nalishdan biri va eng keng tarqalgani. Jahondagi barcha musulmonlarning taxminan 90 % i sunniylikka mansub.

Sunniylikda to'rtta diniy-huquqiy mazhab (hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, hanbaliylik) mavjud. Sunniylik islomda an'anaviy e'tiqod yo'li deb e'tirof etilib kelgan.

Shialik (arab.-guruh, tarafdorlar) – o'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati bilan sunniylikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Hozir jahonda musulmonlarning 8 % shialikka mansub hisoblanadi. Shialik VII asr o'rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. VII asr oxirlariga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan.

Xorijiylar (arab. - ajralib chiqqan, isyonchi) - islomdagi ilk oqim tarafdorlari. Xalifa Ali bilan umaviylar o'rtasidagi kurash davomida VII asrning 2-yarmi boshlarida vujudga kelgan. Keyinchalik xorijiylar bir necha mayda guruhlariga bo'linib ketgan. Umaviy va abbosiy xalifalar VII-IX acrlarda xorijiylarga qarshi keskin kurash olib borgan.

2) Islomdagi sektalar (firqalar), mohiyatan aqidaviy ta'limot va marosimchilik masalalarida bir-biridan farqlanadigan diniy guruhlar. Islom sektalarining eng ko'pi shialikdan ajralib chiqqan, bulardan qarmatlar, ismoiliylar, zaydiylar, nusayriylar, aliilohiylar, druzlar va boshqalar, hamda ular ichidan ajralib chiqqan ko'p kichik sektalarni, bobiylik, bahoiylik kabilarni tilga olish mumkin. Sunniylikdan ham o'rta asr oxirlari va yangi davrda turli sekta va oqimlar ajralib chiqqan: ravshaniylar, ahmadiya, voisovchilar sektalarini, vahhobiylar, mahdiylar, panislomizm kabi diniy-siyosiy oqimlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, zamona oxir bo'lishi va Imom Mahdiyning kelishi haqidagi diniy ta'limot. Zamona oxir bo'lganda "yashiringan imom" yerga qaytib kelib, adolatli tuzum o'rnatadi, degan e'tiqod dastlab shialar o'rtasida kelib chiqqan. Keyinchalik bu ta'limot sunniylarga ham o'tgan. Islom mamlakatlarida mahdiylik g'oyalaridan ayrim davlatga qarshi harakatlarning rahnamolari ham foydalangan (Erondagi bobiylik harakati).

Ismoiliylar – shialik ichida vujudga kelgan firqalardan birining tarafdorlari. Ushbu haakat VIII asr o'rtalarida boshlangan, X-XI asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan imom Ja'far as-Sodiq vorisi masalasi yuzasidan shialar o'rtasida kelib chiqqan ixtilof bilan bog'liq. Ismoiliylar turli davrlarda turli nomlar bilan atalgan: botiniylar, sa'biylar, ta'limiylar, mulhidlar va h.k. IX asrning ikkinchi yarmidan ismoiliylik ta'limoti tarafdorlarini qarmatlar deb atay boshlaganlar. Qarmatlar harakati Janubiy Iroqda vujudga kelgan, Suriya va Yamanda tarqalgan. Harakat o'z nomini uning rahbari va tashkilotchisi Hamdon

ibn al-Ash'asning laqabi Qarmatdan olgan. Qarmatiylar yerga jamoa egaligini, umumiy (qullardan tashqari) tenglik g'oyalarini targ'ib etishgan. Ular islom marosimlarini bajarishmagan, shariat qoidalarini tan olmagan, ularda masjidlar bo'lmagan.

3) Mazhablar, shariat mazhablari ham islomdagi ajralishning alohida shaklidan iborat.

4) Ilohiyot oqimlari bo'lib, ular islom ilohiyotining shakllanish bosqichida ilohiyotga oid ayrim masalalar bo'yicha ixtiloflar tufayli vujudga kelgan. Bulardan ash'ariylar, jabariylar, qadariylar, sifatiylar, mu'taziliylar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Masalan, ash'ariylar kalomning asosiy yo'nalishlaridan biri-Ash'ariy maktabi tarafdorlaridir. Ash'ariylarning dunyoqarashida aql diniy an'ana-naqldan ustun qo'yiladi. Ash'ariylarning qarashlarini eng avval Eronda (X asr) keng tarqalgan shofi'iylik mazhabi tarafdorlari qabul qilganlar. Bu ta'liaot Boqiloniy, G'azzoliy va boshqalarning asarlari tufayli musulmon olamida katta ta'sirga ega bo'lib, kalomning eng keng tarqalgan oqimiga aylangan.

5) Sufiylik yoki tasavvuf tariqatlari. Sufiylik g'oyalari keng tarqalgach, musulmon mamlakatalarida har biri o'z yo'li (suluk) ni olib borgan sufiylik pirlari nomi bilan bog'liq ravishda juda ko'p uyushmalar paydo bo'lgan. Umuman olganda o'ttizdan ortiq turli tariqatlar mavjud, ulardan O'rta Osiyoda vujudga kelgan naqshbandiylik, yassaviylik, kubraviylik, Kavkazda vujudga kelgan muridchilik va h.k. lar mashhur. Masalan, muridchilik sfiylikning shimoliy Kavkazda keng yoyilgan shakli bo'lib, sufiylik ta'limotining zohidlik, murshidlik va imomat g'oyalariga asoslanadi. Muridchilik XIX asrda o'ziga xos diniy-siyosiy va harbiy uyushma sifatida tarqalib, G'ozi Muhammad, Hamzat, Shomil kabi imomlar rahbarligida tog'liklarning Rossiyaga qarshi urushida namoyon bo'lgan.

### **3-savolning bayoni:**

Arab xalifaligi madaniyati antik madaniyat bilan o'rta asr G'arb madaniyatini bog'lovchi xalqa vazifasini bajardi. Ushbu madaniyatning o'ziga xosligi shundaki, uning taraqqiyotiga asos bo'lgan islom nafaqat jahon dini, balki huquq va davlat, falsafa va san'at, din va fanni o'z ichiga olgan yaxlit, betakror madaniyatdir.

Arab xalifaligida arab tili davlat va hukmron sinf vakillari tili edi. Arablar bosib olgan mamlakatlarda arab tili majburan joriy etildi. Qadimgi yunon va sharq xalqlarining asarlari arab tiliga tarjima qilina



boshladi. Arab tilida faqat arab olimlari emas, xalifalikka qaram bo'lgan mamlakatlar olimlari, yozuvchilari va shoirlari ham o'z asarlarini yozdilar.

Arab xalifaligi qo'l ostidagi mamlakatlarda ilm-fan sohasida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Fanning turli sohalarida arab tilida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk asarlar yaratildi, qadimgi yunon fanining durdonalari arab tiliga tarjima qilindi.

Arab fani taraqqiyotidagi birinchi bosqich VII-VIII asrga to'g'ri keladi, markazi Iroqdagi Basra va Kufa shaharlari bo'lgan. Islom tarqalgan turli mamlakatlardan juda ko'p istedadli olimlar shu shaharlarga kelib, fanning turli sohalaridan ta'lim olganlar. Arab tili davlat va hukmron din tili, muqaddas (ya'ni Qur'on tushgan) til sifatida ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganilgan. Mashhur arab-fors tilshunosi Sibavayh (796 yil atrofida o'lgan) birinchi bo'lib arab tili grammatikasini tuzdi.

Arab fani taraqqiyotida ikkinchi davr VIII asrdan, xalifalik markazi Bag'dodga ko'chirilgandan so'ng boshlanadi. Bu davrda qadimgi yunon va Sharq xalqlari yaratgan asarlarni yig'ish va ularni arab tiliga tarjima qilishga kirishildi. IX-X asrlarda Bag'dod va boshqa fan markazlarida arab xalifaligi tarixi va umumiy tarixga oid ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlarning ko'pchiligi forsiy tilida yozilgan manbalar asosida arab bo'lmagan tarixnavislar tomonidan yozildi. Abu Ja'far Muhammad Tabariyning (923 yil vafot etgan) «Tarixi umam va muluk» nomli tarixiy asari va Qur'on tafsiriga bag'ishlangan «Jome' al-bayon fi ta'vil al-Qur'on» kitobi, Ali ibn Husayn Mas'udiyning (vafoti 956) «Muruj az-zahab va maodin al-javhar» asarida arab xalifaligi sulolasi tarixi bilan bir qatorda boshqa Sharq xalqlari hayoti haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu davrda geografiya sohasida ham ko'plab asarlar yaratildi. Ularning eng mashhur xalifalikda aloqa ishlari boshlig'i Ibn Xo'rdadbah va Ibn Havqalning «al-Masolik va al-mamolik» asari, Mas'udiy va Maqdisiylarning jug'rofiy asarlaridir.

Tibbiyot fanlari sohasida bu davr yangi ixtirolar davri xisoblanadi. Matematik va astronom al-Battoniy (858-929) trigonometrik funksiyalar (sinus, tangens va kotangens) ni ishlata boshlaydi. Kimyo sohasida bir qancha ixtirolar arab alximigi Jobir ibn Hayyonga (VIII asr) taalluqlidir. Bu davrda qurilgan rasadxonalarda arablar bilan bir qatorda Markaziy Osiyolik iste'dodli olim va astronomlar ham fan bilan shug'ullandilar.

Arab ilm-fani taraqqiyotining uchinchi davri XI-XV asrlarni qamrab oladi. Bag'dod bilan bir qatorda arab madaniyatining yangi markazlari Qurdoba (Kordova), so'ng Sevilya va Damashq kabi ilm-fan markazlari paydo bo'ldi. Tarixshunoslik, tabiiy fanlar, tabobat, astronomiya va boshqa qator fanlar taraqqiy etdi.

Arab yozma adabiyotining birinchi yirik obidasi Qur'onidir. Quron musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi, yirik diniy-falsafiy va huquqiy asar, arab-musulmon va jahon madaniyatining o'ziga xos nodir va muhim yodgorligidir. Jahon xalqlari ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirining ko'lami nuqtai nazaridan Qur'on butun insoniyatning madaniy merosi bo'lib hisoblanadi.

Muhammad (s.a.v.) va uning tarafdorlari Islomning boshlang'ich davrlarida she'riyatga qarshi chiqdilar. Ular she'riyat o'sha zamonga xos ko'pxudolik goyalarini ifoda etuvchi vosita deb qaradilar. Keyinchalik arab adabiyoti yana rivojlana boshladi. Arab adabiyotining bu bosqichi Ummaviylar sulolasi saltanati bilan bog'liq. Adabiyot yangi xalifalik markazlari Suriya va Irokda rivojlana boshladi. Arab mumtoz adabiyotining gullagan davri VIII-XII asrlar, ya'ni abbosiylar sulolasi davri hisoblanadi. Bu davr she'riyatida arablar bosib olgan mamlakatlardan chiqqan shoirlar adabiyot yo'nalishini belgiladilar. Arab adabiyoti taraqqiyotida Eron, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan va o'z asarlarini arab tilida yozgan shoirlar ijodi samarali ta'sir ko'rsatdi.

VIII-IX asrlar arab nasriy adabiyoti katta yutuqlarga erishdi. Qadimgi rivoyatlar yozma ravishda to'plandi. Arab nasriy adabiyoti uchun pahlaviy tilidan qilingan tarjimalar ham alohida ahamiyatga ega. XII asr boshlarida arab adabiyotida yangi nasriy janr-qahramonlik rivoyatlari paydo bo'ddi. Buning eng yirik yodgorliklaridan ko'p jildli «Siyrat Antara» (Antara sarguzashtlari) va «Ming bir kecha» ertaklarini ko'rsatish mumkin. Bu asarlar arab adabiyotiga xos bo'lsa ham, ularning mundarijasini turli xalqlar og'zaki ijodi tashkil etadi.

Arab xalifaligi davlatlarining san'ati ham o'ziga xos yo'ldan rivojlanib bordi. O'rta asr arab san'ati ravnaqiga islom dinining ta'siri juda kuchli bo'ldi. Bu ayniqsa, me'morchilik, amaliy-dekorativ san'atda yaqqol ko'rinadi. Xalifalik davrida fuqarolik va din bilan bog'liq bo'lgan binolar qurilishi avj oldi. Shu davrdagi shaharlar qator yangi tipdagi binolar bilan boyidi. Masjid va madrasalar, karvonsaroy va minoralar, tim va saroylar musulmon shaharining o'ziga xos tomonini belgilovchi muhim va ajralmas elementiga aylandi.

VII asrda arab masjidi tipi yuzaga keldi. Quddusda Umaviylar davrida 688 yilda barpo etilgan Umar masjidi, Damashqdagi Umaviylar masjidi (705-715) arab me'morchiligining dastlabki namunasi hisoblanadi. Ilk arab me'morchiligining o'ziga xos tomoni, ayniqsa, Qohiradagi Ibn Tulun (87-879) masjidida namoyon bo'ladi. Qurilgan inshootlar g'ishtlarni naqshsimon terish, ganch o'ymakorligi, naqshlar lentasi va yozuvlar bilan bezatilgan. Arab xalifaligi me'morchiligi turli xalqlar me'morchiligi ta'siri ostida rivojlandi: Eron, Vizantiya, Old Osiyo va boshqalar.

Arab realistik san'ati, rassomlik va haykalchiligi din ta'sirida bo'ldi. Din ularning keng rivojlanishiga yo'l qo'ymadi. Realistik san'atning monumental shakllari deyarli yaratilmadi. Qo'lyozmalar uchun ishlangan miniatyuralarda, dekorativ relyeflarda hamda amaliy san'atda real voqelik, uning "jonli obrazlari" keng uchraydi. Bunga sabab, albatta hukmdor sinf orasida diniy qarashlar bir xil emasligidir. Voqelik shartli, ba'zan ramziy shakllarda ifodalanadi.

Arab san'atida kalligrafiya va naqsh (ornament, arabeska) alohida o'rin egallaydi. Real borliq shu sirli, chigal bo'lib ko'ringan naqsh tasviri bilan aralashib ketgandek tuyuladi. Uning mazmunini oshiradi. Bu san'atda xalqning hayot mazmuni va mohiyati haqidagi dunyoqarashi va tushunchalari o'z ifodasini topdi.

Ispaniyasi me'morchiligining nodir yodgorliklari qatorida Qurdoba (Kordova) dagi juma masjidi (785 –X asr), Al Granadadagi Al-Gambra saroyini ko'rsatish mumkin.

Arab xalifaligining so'nggi davrlari uchun qurilishlarning keng ko'lamliligi, butun bir me'moriy majmualarning yaratilishi xosdir. Shaharlarning markazida registon – shaharning asosiy maydoni joylashar edi. Madrasa va masjidlarning peshtoqi registonga qaratib qurilgan.

Xalifalik davrida yurtimizda barpo etilgan memoriy obidalar sirasiga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi (X asr), Samarqand yaqinidagi Tim qishlog'idagi qurilgan Arab ota maqbarasi (977-978 yy), Uzun (Surxondaryo) tumanidagi Xo'ja Naxshron maqbarasi (IX-X asr), Namozgoh, Marvdagi Sulton Sanjar (XI asr), Buxorodagi Minorai Kalon (1127), Vobkent minorasi (1192), Jarqo'rg'on minoralari va boshka ko'rkam me'morchilik inshootlarini nisbat berish mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Islom sivilizatsiyasining asosiy xarakterli belgilari va o'ziga xos xususiyatiga baho bering.
2. Islom sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiling.
3. Islom jamiyati va ijtimoiy-diniy harakatlar haqida ma'lumot bering.
4. Arab-musulmon san'atining asosiy xarakterli belgilariga baho bering.
5. Hozirgi davrda islom va uning mohiyatini tahlil qiling.

## **14-mavzu: Qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Yunon sivilizatsiyasining taraqqiyot bosqichlari.
2. Qadimgi yunon madaniyati

### **1-savolning bayoni:**

Yevropada ilk bor yuzaga kelgan Yunon sivilizatsiyasi tarixi uch bosqichga bo'linadi: birinchisi - bu m.a. II ming yillikda Krit va Mikenada ilk sinfiy jamiyatlar va davlat birlashmalarining paydo bo'lishi va halokati.

Ikkinchi bosqich - bu Krit-Miken sivilizatsiyasining halokatidan keyin antik Yunonistonning m.a. XI asrdan m.a. IV asrning so'ngi choragigacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Qadimgi Yunon jamiyati taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy davlat tuzilmasi bo'lgan yunon polislarining tug'ilishi, yuksalishi va tushkunligi bosqichi bo'ldi. Bu bosqich o'z ichiga uch davrni oladi:

1. M.a. XI-IX asrlar - Gomer yoki polis arafasi ("Qorong'i asrlar"). Bu bosqichda Bolqon Yunonistoni hududida urug'-qabila munosabatlari hukmron bo'ladi.

2. Arxaika davri (m.a. VIII-VI asrlar) - polis-davlatlarning shakllanishi, buyuk Yunon kolonizatsiyasi va ilk yunon tiraniyalari davri.

3. Klassik Yunoniston (m.a. V-IV asrlar.) - qadimgi yunon polislari, ularning iqtisodiyoti va yunon madaniyatining gullab-yashnagan davri.

M.a. IV asrning so'ngi choragida yunon-makedonlar tomonidan Ahamoniylar Eroni davlatining bosib olinishidan yunon tarixining uchinchi so'nggi bosqichi boshlanadi. Bu bosqich qariyb uch yuz yilni o'z ichiga olib (m.a. IV asrning so'ngi choragi – m.a. 30-yillar), sharq

va g'arb madaniyati unsurlarini o'z ichiga olgan ellin davlatlarining tashkil topishi, ellin madaniyatining rivojlanishi davridir. M.a. 30-yilda so'ngi ellin davlatlaridan biri Ptolomeylar Misri mustaqilligini yo'qotib Rimga tobe bo'ladi. Shu bilan antik Yunoniston sivilizatsiyasi tarixi tugallanadi.

Endi har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Kritda yuzaga kelgan bronza davri sivilizatsiyasi Minoy nomi bilan ataladi. M.a. III va II ming yilliklar chegaralarida Kritda dastlabki, markaz-saroylari Knoss, Fest, Malliya, Kato-Zakroda bo'lgan davlatlar yuzaga keladi. "Saroy sivilizatsiyasi" davri taxminan m.a. 2000 yildan 1400 yilgacha davom etgan. Uning nihoyasiga yetishi, ayrim olimlarning taxminiga ko'ra, ulkan tabiat ofatlari bilan bog'liq. Ko'p o'tmasdan vayron bo'lgan saroylar o'rnida yangilari, yanada hashamatli va muhtasham saroylar paydo bo'ladi. "Yangi saroylar" davriga oid Knossdagi saroy arxeologik jihatdan juda yaxshi o'rganilgan. Minoy sivilizatsiyasi m.a. XVI-XV asrning birinchi yarmida gullab-yashnagan. Yuqorida aytib o'tilganidek, tabiiy ofat tufayli vayron bo'lgan va ziflashgan Kritga axeylar bostirib kirgan va sivilizatsiya markazi materikka ko'chgan.

Axey sivilizatsiyasining gullab-yashnashi XV-XIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga saroylar Mikena, Tirinf. Pilos, Afina, Fiva va boshqa joylardan topilgan. Axey jamiyati iqtisodiy tizimining asosini saroy xo'jaligi tashkil etgan. Yerlar xususiy va jamoa yerlariga bo'lingan. Jamiyatning eng quyi qatlamini tashkil etgan qullar asosan saroyga qarashli bo'lgan. Erkin jamoachilar muhim ijtimoiy guruhni tashkil etgan. Davlat tepasida siyosiy va diniy funktsiyalarga ega bo'lgan podsho ("vanaka") turgan.

XIII asr oxirida Yunonistonga shimoliy xalqlarning, shu jumladan yunon-doriylarning kirib kelish boshlandi va XII asr oxiriga kelib axey sivilizatsiyasi yakun topdi.

M.a. XI-IX asrlar haqida ma'lumot beruvchi asosiy manbalar "Iliada" va "Odisseya" epik poemalaridir. Ularda axeylarning Troyaga yurishi haqida hikoya qilinadi. Ammo bu asarlarning muallifi hisoblanadigan Gomer m.a.VIII asrda yashaganligini hisobga olish lozim. Bu davrda Yunoniston aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan, chorvachilik ham rivojlangan. Hunarmandchilik, ayniqsa metallsozlikda muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aynan shu davrda temirdan keng foydalanila boshlandi.

Yunoniston iqtisodida erkin dehqon yetakchi shaxs bo'lgan.

Doriylar istilo qilgan hududlarda, masalan Spartada ahvol boshqacha bo'lgan, ular mahalliy axey aholisini o'zlariga qaram qilib olgan.

Jamiyatni tashkil etishning asosiy shakli jamoaning alohida shakli bo'lgan polis edi. Polislarning fuqarolari unga kirgan patriarxal oilalarning boshliqlari edi. Polis-jamoa ikki funktsiyani bajargan: yerni va aholini himoya qilish hamda ichki jamoaviy munosabatlarni boshqarish. Faqatgina Sparta o'xshash qaram aholi bo'lgan polislar sodda davlat tashkiloti xususiyatlariga ega bo'la boshladi.

Arxaika davrida antik damiyatning asosini tashkil etgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatlar shakllandi: klassik qulchilik; pul munosabatlari va bozor tizimi; siyosiy tashkilotning asosiy shakli-polis; xalq suvereniteti konsepsiyasi va boshqaruvning demokratik shakli. Arxaik davrda ayrim shahar-davlatlarda boshqaruvning tiraniya shakli (m.a. VII-VI asrlar) ham mavjud bo'lgan.

Aynan shu davrda antik dunyoga to xristianlika qadar ta'sir ko'rsatgan ahloq me'yorlari va estetik idellar ishlab chiqildi. Nihoyat bu davrda antik madaniyatning asosiy xususiyatlari shakllandi: falsafa va fan, adabiyotning asosiy janrlari, teatr, order me'morchiligi, sport. Arxaik davrda sodir bo'lgan "buyuk yunon koloniyalashtirishi" ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Klassik davr m.a. VI-V asr chegaralaridan to m.a. 338 yilgacha davom etgan. Bu davr Yunonistonning eng yuksalgan, arxaik davrda shakllangan hodisalarning gullab-yashnagan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tashkilotning o'ziga xos shakli bo'lgan polislarning hukmronlik davridir. Olimlarning fikricha qadimgi yunon jamiyati, shu jumladan madaniyat va san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari aynan jamiyatni tashkil etishning polis shakli bilan bog'liqdir.

Bu davrda sodir bo'lgan yunon-fors urushlari Elladaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi: qulchilikning keng tarqalishi, Afinaning yuksalishi va demokratik tuzumning shakllanishi. Shu bilan birga, bu davrda Delos dengiz ittifoqi va Peloponnes ittifoqining yuksalishi ular o'rtasidagi Peloponnes urushining kelib chiqishiga olib keldi. Bu urush Yunoniston tarixida polis inqirozini boshlab berdi, hokimiyat tepasiga oligarxiya kela boshladi.

M.a. IV asrga kelib fuqaro-yer egalarining jamoasi sifatida vujudga kelgan polislar savdo-pul munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Iqtisodiy va siyosiy sohalarda o'zgarishlar sodir bo'ldi, tiraniya qayta tug'ildi. O'zaro urushlar Yunonistonni zaiflashtirdi, mamakat xo'jaligini izdan chiqardi. Bundan esa

Makedoniya podsholigi foydalanib qoldi. Aleksandr Makedonskiy davri klassik davrdan ellinistik davrga o'tish davri bo'ldi.

Makedonskiyning Sharqqa yurishlari va yangi bosib olingan yerlarga ellinlarning ommaviy ko'chib borishi ellinistik davrni boshlab berdi. Ellinistik sivilizatsiyaning geografik va xronologik chegaralari olimlar tomonidan turlicha baholanadi. Ellinizm davri uch bosqichga bo'linadi: ellinistik davlatlarning tashkil topishi (m.a. IV asrning oxiri-III asrning boshi), bu davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimining shakllanishi va gullab-yashnashi (m.a. III – II asrning boshlari) va iqtisodiy tushkunlik, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashishi, Rim hokimiyatiga bo'ysunish davri (m.a. II asr-milodiy I asrning oxiri).

## **2-savolning bayoni:**

Antik yunon madaniyati uzoq vaqt davomida rivojlanib bordi. Yunon madaniyatining eng qadimgi tarixi “Egey” yoki “Krit-Miken” madaniyati bilan boshlanadi. Kritda o'ziga xos chiziqli yozuv bo'lgan.

Bu davrda hashamatli me'morchilik kompozitsiyalari, podsho saroylari, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at namunalari yaratilgan. Shunday nodir yodgorliklardan biri ingliz arxeologi A.Evans tomonidan Kritdan topilgan Knoss saroyining qoldiqlaridir. Knoss saroyida ustunlardan keng foydalanilgan. Saroy devorlariga suratlar ishlangan, pollari esa bejirim naqshlar bilan bezatilgan. “Parijlik ayol” deb nom olgan tasvirda shaffof materiallardan to'qilgan libos kiyib olgan ayol tasvirlangan. Monumental haykaltaroshlik belgisi bu yerda uchramaydi. Lekin amaliy-dekorativ haykaltaroshlik va zargarlik san'ati borasida kritiklar nodir yodgorliklar qoldirganlar.

Krit madaniyati inqirozga yuz tutgach, Egey madaniyatining markazi yunon materigiga - Peloponnes yarim oroliga ko'chdi. Bizgacha Mikena va Tirinfdagi baland tepaliklar ustiga m.a. XIV-XIII asrlarda qurilgan qal'alar, qo'rg'onlar yetib kelgan. Bu qo'rg'onlarning devorlari og'irligi 12 tonnagacha keladigan toshlardan qurilgan bo'lib, devorning qalinligi 6-10 m. hatto undan ham ortiq bo'lgan. Masalan, Tirinf qo'rg'oni devorining saqlanib qolgan qismining qalinligi -4,5 m, balandligi -7,5 m. Mikena qo'rg'onining markaziy darvozasi “Sherlar darvozasi” deb nomlangan. Darvoza atrofi yaxlit katta toshlardan qurilgan, tepasiga ustunlarni ushlab turgan ikki sherning bo'rtma tasviri ishlangan. Bu ustun Mikena podsholari qudrati va birligining ramzi

bo'lgan.

Eramizdan avvalgi XII asr o'rtalarida Bolqon yarim orollarining shimolidan janubga tomon siljiy boshlagan doriy qabilalarining Egey orollaridagi davlatlarni bosib olishi Peloponesdagi Egey madaniyatini tugashiga sabab bo'ldi. Lekin uning keyingi ellin madaniyatiga ta'siri kuchli bo'ldi.

Elladaliklar Egey madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirdilar. Ular Krit-Miken diniy-mifologik tushunchalarini qabul qildilar. Kulolchilik, mayda plastika san'ati an'analari Ellada san'ati taraqqiyotida davom ettirildi.

Qadimgi Yunoniston tarixining Gomer davri san'ati va madaniyatini o'rganishda "Iliada" va "Odisseya" dostonlari qimmatli manba hisoblanadi. Mikena yozuvlarining o'qilishi shu davrga oid ma'lumotlarning kengayishiga yordam berdi. Gomer davrida hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan ko'zaga gul solish san'ati ravnaq topgan. Dastlabki ishlangan kulochilik buyumlari - ko'zalarda qadimgi yunon amaliy-dekorativ san'atining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'zalar yuzasiga geometrik naqshlar, o'simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar ishlangan bo'lib, ularning shakli ko'rkam, naqshlar kompozitsiyasi aniq ("Dipilon ko'zalari").

Arxaika davrida Gretsiyada ilmiy fikrlar rivojlanadi. Tibbiyot, astronomiya, tarix, geografiya, matematika taraqqiy qildi, poeziya, adabiyot, teatr kamol topdi. Yunonlar o'zlaridan avvalgi xalqlar, Sharq mamlakatlari - Babil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining betakror san'at va madaniyatlarini yaratishga muvassar bo'ldilar.

Yunon dunyoqarashi uchun politeizm va tabiatning jonliligi haqidagi tasavvurlar xos. Arxaika davrida umumyunon xudolari panteoni shakllandi. Bunga misol-Gesiodning "Teogoniya" poemasi. Siyosiy tarqoqlik va koinlar tabaqasining yo'qligi tufayli yunonlarda yagona din shakllanmadi. Ko'plab bir-biriga yaqin diniy tizimlar vujudga keldi.

Arxaika davri-me'morchilikning shakllanish davridir. Bu shaharlarning rivojlanishi va qurilishi bilan bog'liq. Bu davr uylari sodda va primitiv, asosiy e'tibor mahobatli me'morchilik, birinchi navbatda ibodatxonalarga qaratilgan. Yunon ibodatxonalari bir necha tipda bo'lib, bularning ichida eng keng tarqalgan tipi peripter



hisoblangan. Bu tipda qurilgan binoning markaziy qismi muqaddas yersella bo'lib, atrofi esa ustunlar bilan o'ralgan. Yunon me'morchiligining o'zga xos xususiyati – orderlar tizimining qo'llanilishidir.

Arxaika davrida yunon monumental haykaltaroshligi kamol topa boshladi. Persey va Gerakl qahramonligiga, xudolar va gigantlar jangiga bag'ishlangan kompozitsiyalar shu davr haykaltaroshligi mahsulidir.

Arxaika davrining ko'zga surat solish san'ati dastlab qora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Ayniqsa qora figurali vazalar ishlash san'ati m.a. VI asrning II-III choragida rivojlangan. Mashhur ustalardan biri, rassom Klitiy bo'lgan. U jahonga mashhur bo'lgan "Fransua vazasi"ni bezatgan. Keyinroq qizil figurali vazalar ishlash keng tarqaldi. Qizil figuralarda tasvirlangan obrazlar, tasvirlar ko'zaning tabiiy rangi - pishirilgan loy rangida (qizg'ish, qizg'ish jigarrang) qoldirib, fon, qolgan bo'shliq esa qora lak bilan bo'yab chiqilgan. Bu uslub voqelikni real tasvirlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, m.a. VI asrning 3-choragidan IV asrgacha davom etdi.

Arxaika davrining eng katta yutug'i yunon yozuvining paydo bo'lishidir. Finikiya bo'g'inli tizimini o'zgartirgan holda yunonlar axborotni aks ettirishning oddiy usulini yaratdilar.

Yevropa madaniyati uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan falsafaning vujudga kelishi ham arxaika davri bilan bog'liq. Yunon falsafasining ilk shakli - naturfilosofiya taraqqiyoti faylasuflar Fales, Anaksimend, Anaksimandr nomlari bilan bog'liq. Bu davrda pifagorchilar maktabi ham yuzaga keldi.

Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Gretsiya madaniy ravnaqining oltin davri boshlandi. Yangi an'analar dastlab shaharsozlikda ko'zga tashlandi. Bu davrda miletlik Gippodamaning shahar qurilishi borasidagi sistemasi muhim rol o'ynadi. Shu plan asosida qurilgan Milet, Olinf shaharlarining ko'chalari ochiq va keng prospektlardan tashkil topgan. V asrning birinchi yarmida doriy me'morchiligining mashhur namunasi bo'lgan Olimpdagi Zevs ibodatxonasi barpo etildi.

San'atning hamma tur va janrlari rivojlanib, yuqori klassika davri kishilarining estetik ideal haqidagi tushunchalarini mukammal badiiy obrazlarda ko'rsatadi. Bu taraqqiyotda, so'zsiz, shu davrning yirik davlat arbobi Perikl muhim rol o'ynadi. Yuqori klassika davrida Afina akropoli o'zining tugal ko'rinishini egalladi. Perikl tashabbusi bilan

Afinaning ichki qal'asi - Akropol qayta tiklandi. Bu qal'a Eron-Yunon urushida vayron bo'lgan edi. M.a. V asrning uchinchi choragida bu yerda Parfenon, katta darvozaxona - Propiley, qanotsiz g'alaba ma'budasi Nikaga atab qurilgan Nika Apteros qad ko'tardi. Bu binolar badiiy bezakka boy bo'lgan. Masalan, Propiley devorlari davlatning jangovor o'tmishini tasvirlovchi suratlar bilan bezatilgan. Akropolning ochiq maydonida Afina davlatining kuch-qudratini va ulug'ligini o'zida ifodalab, yunon tarixida birinchi bor umumellin birligini namoyish etuvchi me'morchilik ansambli edi. Yunon klassikasi me'morchiligining beqiyos namunasi, yuksak aql-zakovat mevasi va afinaliklar homiysi bo'lgan Afina ma'budasiga bag'ishlangan Porfenon ibodatxonasi hisoblanadi. U m.a. 447-438 yillarda me'morchilik Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan. Parfenon ibodatxonasining bezak va haykallari esa davrning buyuk haykaltaroshi, Periklning yaqin safdoshi Fidiy rahbarligida bajarilgan.

Bu davrga kelib, haykaltaroshlik yuksak kamolot davriga qadam qo'ydi. Haykaltaroshlar endilikda odam qomati va yuz tuzilishini to'g'ri tasvirlabgina qolmasdan, o'z asarlarida murakkab harakatlarni ham ifodashga, kompozitsiya echimining hayotiy bo'lishiga, inson ma'naviy olamining turli qirralarini yoritishga alohida e'tibor bera boshladilar. Bu xususiyat klassika davrining buyuk haykaltaroshlari Miron ("Diskobol", "Afina va Marsiy"), Poliklet ("Dorifor", "Diadumen"), Skopos ("Menada") ijodida sezilarli edi. Klassika davri tasviriy san'atida ham o'ralistik an'analarga intilish kuzatiladi. Bu davrdagi rangtasvir rivoji Polignot va Appolodorlar nomi bilan bog'liq.

M.a. V asr dramatik san'atning gullab-yashnash davridir. Esxil, Safokl, Evripdlar yaratgan tragediyalar, Aristofan yaratgan komediyalar o'z davrining muhim muammolarini ochib berishga xizmat qilgan.

M.a. V asrda eng yirik yunon tarixchilari Gerodot va Fukidid o'z asarlarini yaratdilar va tarix ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Klassika davrida yunon falsafasi ham o'ziga xos tarzda rivoj topdi. Geraklit, Empedokl, Anaksagor, Levkip, Demokrit, Protagor, Sokrat kabi faylasuflar bu davrda turli falsafa maktablariga asos soldilar.

Ellinizm davri me'morchiligi o'zining hashamatligi, dabdabadorligi va katta hajmga intilishi bilan xarakterlanadi. Me'morchilik nazariyasi rivojlanadi Uning bosh maydoni atrofi esa turli ijtimoiy binolar bilan o'ralgan.

Ellinizm davri madaniyati yaxlit tusga ega emas edi, u har bir

hududda mahalliy an'anaviy va yunon madaniyatining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan edi. Shu bilan birga ellinistik madaniyatni umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan yaxlit hodisa sifatida baholash mumkin. Ellinistik madaniyatning vujudga kelishida ellin turmush tarzi va ellin ta'limotining tarqalishi muhim omil bo'ldi.

Ellinistik shaharlar o'ziga xos qiyofaga ega edi. Masalan, Misr Ptolemeylar podsholigining poytaxti Aleksandriya ellinistik dunyoning yirik madaniy-siyosiy markazi, yirik port shahri edi. Bu davrda jamoat binolarining yangi tiplari paydo bo'ldi: kutubxonalar (Aleksandriya, Pergam va b.), Museyon (Aleksandriya, Antioxiya), spetsifik binolar-120 metrlik Faross mayog'i va Afinadagi Shamollar minorasi.

Ellinizm davrida sharq va yunon dunyosida to'plangan bilimlarning solishtirilishi uning klassifikatsiyasi va yanada taraqqiy etishiga asos bo'ldi. Matematika (Evklid, Appoloni, Arxime), astronomiya (Kiden, Naburian, Aristarx, Gipparx), geografiya (Erastofen, Posidoniy, Gippal, Strabon), botanika (Feofrast), meditsina (Gerofil xalkedonskiy, Erasistrat) kabi fanlarda ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi.

Adabiyotda eski janrlar-epos, tragediya, lirika, ritorika va tarixiy proza yanada rivojlandi va yangi janrlar-filologik tadqiqotlar, lug'atlar, biografiyalar va h.k. yuzaga keldi.

Monumental haykaltaroshlik bu davrda yanada rivoj topdi. Ellinistik haykaltaroshlikka mifologik mavzular, mahobat, murakkab kompozitsiyalar xos. Masalan, Rodos kolossi-Xeres tomonidan yaratilgan Geliosning 35 metrlik bronza haykali san'at va texnika mo'jizasi edi. Pergamdagi Zevs mehrobida aks ettirilgan xudolar va gigantlar kurashi sahnalari (uzunligi 120 m.) dinamikasi, ifodaliligi va dramtizmi bilan ajralib turadi. Bu davrda Lisipp, Skopas va Praksitel an'anelarini davom ettirgan rodos, pergam va aleksandriya haykaltaroshlik maktablari shakllandi. Aleksandrning "Melos orolidagi Afrodita" ("Venera Miolsskaya"), noma'lum haykaltaroshlarning "Samofrakiya orolidagi Nika", "Anadiomen Afroditasi", Agesandr, Polidor va Afinodorlar tomonidan yaratilgan "Laokoon", "Farnez buqasi", "O'layotgan gall", "O'zi va xotinini o'ldirayotgan gall" kabi asarlar ellinistik haykaltaroshlikning durdonalaridir.

Portret haykaltaroshligi va rangtasviri ham yuksak darajada taraqqiy etdi. Bu haqida Fayum vohasi portretlari orqali xulosa chiqarish mumkin.

Ellinistik davrdagim tarixiy va falsafiy asarlarda insonning

jamiyatga, o'z davrining siyosiy va ijtimoiy muammolariga munosabati aks etgan. Bu davr falsafasida kiniklar va skeptiklar maktabining roli o'sdi. Stoiklar va Epikur falsafasi yangi davrning dunyoqarashining asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettirdi.

Ellinistik davr diniy e'tiqodlarida ham yunon va sharq diniy tasavvurlarining o'zaro ta'sirini ko'rish mumkin. Bu davrda an'anaviy yunon xudolari bilan bir qatorda sharq xudolariga (Aarapis, Isida, Kibela) topinish ham keng tarqaldi. Ellinistik podsholar, qadimgi Sharq an'alaridan foydalangan holda podsholarga topinishni keng yoyishga harakat qilardilar.

Rim tomonidan ellinistik davlatlarning zabt etilishi, Sharqiy O'rtayer dengizi mamlakatlariga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rimcha shaklining yoyilishi o'z navbatida aks ta'sirga ega edi-Rimga ellinistik madaniyat, mafkura va ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar kirib kela boshladi. Ellinistik dunyoning ko'plab xususiyatlari Rim imperiyasi tomonidan meros qilib olindi.

Назорат саволлари:

## **15-mavzu: Qadimgi Rim sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Rim sivilizatsiyasining taraqqiyot omillari va bosqichlari
2. Rim sivilizatsiyasining asosiy yutuqlari

### **1-savolning bayoni:**

O'rtayer dengizining markazidagi Appenin yarimorolida yana bir dengiz sivilizatsiyasi – Qadimgi Rim sivilizatsiyasi vujudga kelgan. Uning shakllanishida qulay geografik va iqlim sharoitlari muhim rol o'ynagan. Aynan shu qulay iqlim sharoiti ushbu yarimorolning janubiy qismida yunon koloniyalarining vujudga kelishiga va uning “buzoqchalar mamlakati” deb nom olishiga sabab bo'ldi. Biroq, Italiya foydali qazilmalarga nisbatan kambag'al.

Qadimgi Rim sivilizatsiyasining yuragiga aylangan Appenin yarimoroli hududida etnik, til va madaiy jihatdan turli-tuman xalqlar yashagan. Uning qadimgi aholisi: Italiyada liqurlar, Sitsiliya orolida – sikanlar, Korsika orolida – korslar, Sardiniyada – sardlar bo'lgan. M.a. II m.y. oxirlaridan Dunay havzasi va Kichik Osiyoning g'arbiy hududlaridan yarimorolga turli qabilalar kirib kela boshlagan, ularning orasida eng ko'p sonlisi indoevropalik italiylar edi. M.a. I m.y.da

Italiyaning asosiy aholisini Latsiy viloyatida istiqomat qilgan lotinlar, osklar, umbrlar, sabeylar, shu jumladan samnitlar, sabiniyaliklar tashkil etardi. Lotinlar va sabiniya qabilalarining aralashuvidan rimliklar shakllangan. Tibrdan shimoli-g'arbda Kichik Osiyodan kirib kelgan etrusklar istiqomat qilgan. Etrusklar finikiya alifbosi asosida yaratilgan o'z yozuvlariga ega bo'lishgan. Mohir metallurg, quruvchi, dengizchi bo'lgan etruslar m.a. III asrda rimliklar tomonidan bo'ysundirilgan va ularning yutuqlari rimliklar tomonidan o'zlashtirilgan. Shu tariqa uzoq davom etgan etnomadaniy qorishuv natijasida m.a. I asrga kelib Appenin yarimorolida lotin tilida so'zlashuvchi yagona italiy xalqi shakllangan.

Appenin yarimoroli aholisining bir qismini m.a. VIII-VI asrlarda yarimorolda, shuningdek, Sitsiliya orolida o'z kaloniyalarini barpo etgan yunonlar tashkil etgan. Rimliklar yunonlardan juda ko'p sivilizatsiya yutuqlarini o'zlashtirdilar. Appenin yarimoroli aholisi Sitsiliya va Sardiniyada kaloniyalari joylashgan karfagenliklarning ham ta'sirini sezishgan.

Shunday qilib, Rim sivilizatsiyasi bir necha omillar ta'sirida shakllangan: umumitaliya madaniy fondining mavjudligi, yunon sivilizatsiyasi va etrusk madaniyatining ta'siri.

Qadimgi Rim tsiivilizatsiyasi m.a. VIII asrdan (m.a. 753 y) milodiy V asrgacha (476 y) bo'lgan davrini qamrab oladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: Rim respublikasigacha bo'lgan davr (m.a. VIII-VI asrlar), Rim respublikasi davri (m.a. VI -I asrlar), Rim imperiyasi davri (Ilk imperiya davri va So'nggi imperiya davri) (m.a. 1 asr oxiri-m. V asr).

Rim tarixining eng qadimgi Podsholar davri deb ataladi. Arxaik davrda Rim ijtimoiy tuzilmasi urug'-qabilachilik munosabatlariga xos qirralarni saqlab qolgan edi. Rim jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asosini oila (familiya) tashkil etgan. Ma'lumotlarga qaraganda butun aholi 300 urug'dan tarkib topgan. Har 10 urug' kuriyalarga, 10 kuriyaning har biri tribalarga birlashganlar. Shunday qilib, hammasi bo'lib, 3 ta triba bo'lgan, ularning har biri alohida qabila bo'lgan. Ayrim olimlarning fikricha, tribalarning biri lotin urug'lari birlashmasi, ikkinchisi – sabin, va uchinchisi esa etrusk urug'lari birlashmasi bo'lgan. Eslatib o'tilgan 300 urug' rim xalqini tashkil etgan (Populus Romanus), bunga faqatgina urug' a'zosi kirgan, chunki u o'z urug'i orqali kuriya va triba a'zosi bo'lar edi.

Jamoaning muhim ishlarini oqsoqollar kengashi (senat) hal qilgan. Senatdan tashqari kuriyalar bo'yicha yig'ilgan xalq yig'inlari (kuriat komitsiyalari) ham bo'lib turgan. Kuriat komitsiyalarida yangi qonun loyihalari rad etilgan yoki qabul qilingan barcha oliy amaldor shaxslar, shu jumladan podsho ham saylangan; bu yig'in urush boshlanishini e'lon qilgan; oliy sud instantsiyasi sifatida hal qiluvchi qarorni qabul qilgan (Rim fuqarosiga o'lim jazosini belgilashda). Davlatning umrbod saylab qo'yiladigan hukmdori ham kohin, ham harbiy sardor, ham hakam vazifasini bajarar edi.

Rimning eng qadimiy tub aholisi patriitsiyalar deb atalgan (lotincha «pater» ota degan ma'noni anglatadi). Patriitsiyalar Rim jamosining to'la huquqli a'zolari sanalgan. Patriitsiyalarning nufuzli oqsoqollaridan «keksalar kengashi» tuzilgan bo'lib, lotinchada senat deb atalgan. Plebeylar esa asosan ko'chib kelganlar va bo'ysundirilgan viloyatlar aholisidan iborat bo'lgan. Rim aholisining eng quyi tabaqasini qullar tashkil etgan.

M.a. 510 yilga qadar Rimda uni VII asrda o'ziga bo'ysundirgan Tarkviniyalik etrusk podsholari hukmronlik qilgan. Etruks podsholaridan Serviy Tulliy (m.a 578-534 yy) o'tkazgan islohotlar Rimning keyingi respublika davri taraqqiyotiga zamin hozirlagan. Uning o'rniga kelgan Mag'rur Tarkviniyning quvib yuborilishi bilan Rimda respublika davri boshlandi.

Rimda respublika davri boshqaruvi davri taraqqiyotini ikki asosiy omil belgilab berdi: patriitsiyalar bilan plebeylar o'rtasidagi keskin ziddiyat va Rimning butun Italiya ustidan o'z hukmronligini o'rnatish uchun kurashi.

Patriitsiyalar va qo'shinning ko'pchilik qismini tashkil etgan plebeylar o'rtasidagi kurash m.a. 450 yili 12 ta mis lavhaga o'yib yozilgan qonunlarning qabul qilinishiga olib keldi. Eramizdan oldingi III asr boshlariga kelib plebeylar Rimning to'la huquqli fuqarolari bo'lib olganlar.

Respublika davrida hokimiyat organlari xalq yig'ini, senat va bir yilga xalq majlisi tomonidan saylab qo'yiladigan magistratlardan (konsullar, pretorlar, tsenzorlar) iborat edi. Miloddan avvalgi V – III asrlarda Rim quldorlar va aslzodalar respublikasiga aylangan.

Boshqaruvning demokratik shakli, tinimsiz bosqinchilik urushlari natijasida yuzaga kelgan ulkan davlat oxir-oqibatda qadimgi Rim sivilizatsiyasining qadriyatlar tizimini aniqlab berdi. Unga vatanparvarlik, qul va erkin kishi o'rtasidagi tafovutni kiritish mumkin.

Olib borilgan keng ko'lamli istilochilik yurishlari Tibr qirg'og'idagi uncha katta bo'lmagan oligarx respublikani butun Italiyaning xo'jayiniga va nihoyat, butun O'rtayer dengizi bo'yi va antik dunyoni zabt etib ulkan davlatga aylantirdi. Urushlar natijasida qo'lga kiritilgan boyliklar, yangi yerlar, qullar respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar olib keldi. Ammo aynan shu jihatlarning inqirozi va tushkunligi ham boshlab berdi.

M.a. I asr boshida eng yirik quldorlik davlati bo'lgan Rimning katta hududini, bosib olingan yerlardagi ulkan xo'jalikni boshqarish murakkab boshqaruv apparatini talab etardi. Boshqaruvni markazlashtirish zaruriyati eski respublika shakllariga zid kelardi. Tabaqalar o'rtasidagi uzoq davom etgan kurash, unga hamroh bo'lgan fuqarolar urushi davrining ijtimoiy ziddiyatlari natijasida hokimiyatning yangi siyosiy shakli – imperatorning harbiy diktaturasi tarkib topdi. M.a. I asrning oxiridan Rimning qulashigacha bo'lgan davr (V asr) imperiya davri deb ataladi. Shu o'rinda I asr oxiridan III asr oxirigacha bo'lgan davr printsipiat davri (printseps - ya'ni senatorlar va fuqarolar orasida birinchi) deb nom olgan. Bu davrda hokimiyatning amalda shakllangan monarxiya shakliga qaramasdan, rasmiy ravishda Rim davlatida hokimiyat printseps (ya'ni imperator) va senat o'rtasida bo'lingan deb hisoblanardi.

Rimda davlatchilik inqirozini engib o'tish va imperiyaga asos solishga birinchi urinish gay Yuliy Tsezar (m.a. 100-44 yy) davrida amalga oshirilidi. Tsezar o'rnatgan harbiy diktatura uning halokati bilan yakun topdi. Uning vorisi Oktavian avgust (m.a. 63-14 yy) haqiqiy Rim imperiyasiga asos soldi.

Milodiy I - II asrlarda Rim imperiyasi qator ziddiyatlarni boshidan kechirdi. Avgustning vorisi Tiberiy Klavdiy Neron boshida senat bilan kelishuv yo'lini tutgan bo'lsa-da, keyinchalik u o'z siyosiy raqiblariga qarshi qatag'onlar va mulk musodaralarini boshlab yubordi. Bu hodisa uning davomchilari Kaligula, Klavdiy va Neron davrida yana qaytarildi. Bu ziddiyatlar esa Rimda vaqti-vaqti bilan urushlarga olib kelardi.

Milodiy II asrni, ayniqsa, uning birinchi yarmini Rim imperiyasining «oltin asri» deb atashadi. Imperator-jangchi Mark Ulpiy Trayan (98-117 yy) bu davrda o'z davlatining chegaralarini butun Rim tarixidagi eng katta hududlarga kengaytirdi. Bu esa Rimga yangi shon-shuhrat va cheksiz boyliklar olib keldi.

III asrda Rimda ichki nizolar yanada kuchaydi. 235 yildan boshlangan yarim asrlik davr tarixga “soldat-imperatorlar” hukmronligi davri sifatida kirgan. Yangi eraning ilk ikki asrida 22 ta imperator hukm surgan bo’lsa, uchinchi asrning o’zida ularning soni 50 taga yetgan.

Bu davrda ichki va tashqi vaziyat nihoyatda og’ir edi: varvar qabilalarining hujumi kuchayib borar, ko’plab hududlar o’z mustaqilligini e’lon qilardi. III asrning 70 yillarida Avrelian nisbatan muvozanat o’rnatishga muvaffaq bo’ldi. Ammo bu uzoqqa cho’zilmadi. Davlat tuzumining emirilishi, ichki nizolar, german qabilalarining hujumlari va Sosoniylar bilan uzoq davom etgan muvaffaqiyatsiz urushlar Rimning iqtisodiy va ijtimoiy inqirozini chuqurlashtirdi.

III asr oxiri - IV asr boshlaridagi Diokletianing ma’muriy, harbiy va iqtisodiy islohotlari Rim imperiyasining hayotini yana 100 yilga uzaytirdi. Bu davrda imperator hokimiyati absolyut monarxiya xarakteriga ega bo’ldi, endilikda imperatorni «prinseps» emas, «dominus»- hukmdor deb atashardi. Diokletian xristianlarning so’nggi jidiy raqibi bo’ldi. Ma’muriy jihatdan imperiya sharqiy va g’arbiy qismlarga bo’lingan edi.

324 yilda poytaxtni o’zi barpo etgan Konstantinopolga ko’chirgan Imperator Konstantin Mediolan edikti bilan 313 yilda xristian dinini boshqa dinlar bilan teng huquqligini e’lon qilishi, bu dinni rasmiy davlat diniga aylantirishda birinchi qadam bo’ldi. Xristian dini asta-sekinlik bilan hukmron dinga aylana bordi. 392 yilda imperator Feodosiy I rasmiy ravishda ma’jusiylar dinlarni ta’qiqladi. 381 yilda xristianlik yagona davlat dini deb e’lon qilindi. Bu esa Rim sivilizatsiyasi hayotida katta o’zgarishlarga olib keldi.

393 yilda oxirgi Olimpiya o’yinlari o’tkazildi. 395 yilda Feodosiyning o’g’illari Arkadiy va Gonoriy Rimni batamom ikki qismga bo’lib oldi.

Rimliklar asta-sekin qo’l ostidagi hududlarni tark eta boshladilar. Quldorlik tuzumining talvasasi boshlangan edi va bu “yakunning boshlanishi”ning yaqqol his etilishi Rim sivilizatsiyasini zaiflashtirar edi. Provintsiyalardagi qo’zg’olonlar, varvar qabilalarining tashqi chegaralarga hujumi tobora kuchayib borar, Rimning hukmron tabaqalari orasidagi beboshliklar, imperatorlarning zolimligi, Yuliylar-Klavdiylar davridagi terroristik rejimlarning dahshati, saroydagi fitnalar



shunday inqirozli shakllarga yetib kelardiki, bekorga “Rim tushkunligi” har qanday jamiyatdagi chirkinlikning ramzi bo’lib hisoblanmasdi.

476 yilda G’arbiy Rim imperiyasi uchta zarba: ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy inqiroz, varvarlar ta’ziyqi ostida quladi. Sharqiy Rim imperiyasi esa Vizantiya nomi ostida yana deyarli ming yil hukm surdi.

## **2-savolning bayoni:**

Yunon va boshqa xalqlar sivilizatsiyasining kuchli ta’siriga qaramasdan, Rim sivilizatsiyasi o’ziga xos xususiyatlarga ega edi: rimliklar tafakkurining pragmatik usuli, rim huquqining mukammalligi, aniq tarixiy dalillarga intilish, diniy tasavvurlarning sodda aniqligi va hokazo.

Rim ma’naviy madaniyatida diniy qarashlar ham katta o’rinni egallaydi. Ilk Rim diniga politeizm xosdir. Qadimiy rimliklar tasavvuri bo’yicha har bir narsa va hodisa o’zining ruhiga, xudosiga ega bo’lgan. Qadimiy Rim dinida xudolar qiyofasiz (antromorf) bo’lgan, shu sababli Qadimiy Rimda uzoq vaqtlar xudolarning tasviri bo’lmagan.

Ular keyinchalik etrusk va Yunon dinlari ta’siri ostida paydo bo’lgan. Oilaviy va urug’ e’tiqodlari (sanamlari) sezilarli o’rinni egallagan. Oila va xonadonning homiylari mehribon ruhlar – penatlar va larlar bo’lgan bo’lsa, vafot etgan ajdodlarning jonlari mehribon xudolar – manlar bo’lgan. Rim dinining marosimiga oid tomonlari juda sinchkovlik bilan, birma – bir ishlab chiqilgan, shu sababli kohinlik va kohinlar kollegiyalari keng rivojlangan. Ulardan eng qadimiylari quyidagilar edi: pontifiklar, (ular diniy marosimlarni o’tkazilishi ustidan oliy nazoratni amalga oshirar edi), avgurlar va gauspiklar (folbin kohinlar bo’lib, ular qushlarning parvozi va hayvonlarning ichki a’zolariga ko’ra fol qaraganlar), vestalkalar (ayol xudo Vestaning ayol kohinlari, ular davlat va oila o’chog’ining homiylari bo’lishgan).

Qadimiy Rim xudolaridan biri Yanus edi, u dastlab eshiklar xudosi, keyinchalik har qanday boshlanishning xudosi, Yupiterning ajdodi hisoblangan. Rimliklarning bosh xudosi Yupiter, Mars – bahorgi o’simliklar xudosi, keyinchalik urush xudosi, Kvirin esa uning qiyofadoshi bo’lib hisoblangan. Etrusklar, keyinchalik esa yunonlar ta’siri ostida Rim panteoni kengaygan, unda Yunona (Gera), Minerva (Afina), Saturn (Kronos), keyinchalik Serera (Demetra) Merkuriy (Germes), Appalon va boshqalar paydo bo’lgan. Rim panteoni hech qachon yopiq bo’lmagan, rimliklar o’z qo’shinlari va hattoki

dushmanlarining xudolarini ham o'z tomonlariga og'irib olishga tez – tez intilib turganlar.

Qadimiy Rimda falsafa va huquq ham rivojlangan. Ilk Rim respublikasi davrida, urug'chilik qoldiqlarini o'zida saqlab qolgan, yopiq agrar jamoa uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos mafkura shakllangan. Ilk Rim Respublikasi mafkurasi konservatizm, an'analariga sodiqlik, har qanday yangiliklarga dushmanlik bilan qarash kabi xususiyatlarga xos bo'lgan. Rim jamiyati taraqqiyotining o'ziga xos mahsulotlaridan biri bu huquq bo'lib, uni batafsil ishlab chiqishi eramizdan oldingi V – IV asrlarda boshlangan. Bu huquqning dastlabki elementlari podsholik davrida paydo bo'lgan bo'lsada, ammo asosiy tushunchalar ilk respublika davrida formulirovka qilingan edi.

Boshlang'ich nuqta vazifasini, tarixchi olimlar fikricha “XII jadval qonunlari” o'tagan, bunga komitsiyalar tomonidan qabul qilingan qonunlar qo'shilib boravergan.

M.a. VII asrdan to yangi eraning V asriga qadar bo'lgan o'n ikki asr mobaynida italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Italiyaliklar qadimgi Gretsiya san'ati va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qaradilar. Uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi ilmiy bilimlar bilan boyitdilar. Rimliklar yunonlar singari fizika, matematika, dengizda suzish, astronomiya, gidrotexnika va agronomiya fanlariga juda qiziqqanlar. Faqat rimliklar bu sohalarda nazariy tadqiqot ishlariga emas, ularning ilmiy yutuqlarini amalga tatbiq qilish bilan ko'proq qiziqqanlar. Ular savdo arifmetikasi, me'morchilik, gidrotexnika va agronomiyadan dastlabki qo'llanmalar yaratganlar. Rim ilmiy tafakkurining amaliy xarakteri Katon Katta bilan Varron asarlarida ayniqsa yorqin aks etgandir. Rim davlatining qudratini mafkuraviy jihatdan mustahkamlash ehtiyoji yilnomachilarning dastlabki tarixiy-adabiy asarlarni yaratishiga sabab bo'lgan.

Rim me'morchiligining ahvoli ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi bilan, urbanistik jarayonlarning rivojlanishi bilan, shahar aholisi talablarining o'sishi bilan bog'liq edi. Rim me'morchiligi yunon va etrusk ta'siri ostida rivojlangan. Rim me'morligida I asrning oxiri va II asr boshlarida eng katta me'morlik komplekslari yaratildi, ko'p qavatli binolar vujudga keldi va shahar qiyofasini belgiladi. Yuliyalar, Flaviylar, Severlar kabi imperatorlar davrida qurilgan g'oyatda katta saroylar, zafar ustunlari shu davr ideologiyasini badiiy

ifodalovchi yodgorlik sifatida xarakterlidir. Shunday me'morlik kompozitsiyalaridan biri 81-yilda qurilgan Tit me'morial zafar arkidir.

Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey amfiteatridir. Planda Kolizey gigant oval bo'lib, uning asosi 188x156 m, devorlarning balandligi 48,5 m ga yaqin. Gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan bu binoga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin kira olgan. Rim me'morligining yana muhim yodgorligi «hamma xudolarning qasri» — Panteon hisoblanadi. Me'mor Apollodor Damashqiy tomonidan 118—125 yillarda qurilgan bu bino antik dunyoning eng katta gumbazli binosidir.

Rim me'morligida paydo bo'lgai yangi tiplardan biri termalar — (suv saroylari)dir. Iliq va sovuq suvli hovuzlar, gimnastika zallari, oromgoxlar, kutubxona bo'lgan 2—3 ming kishiga mo'ljallangan bunday suv saroylari bezagiga aloxida e'tibor berilgan. Imperator Karakalla davridagi terma (211—216 yillarda qurilgan), ayniqsa, katta va hashamatli bo'lgan (11 gektar).

Uzoq davom etgan qonli fuqarolar urushi, o'zaro nizolardan so'ng yuzaga kelgan tinchlik va barqaror holat madaniy taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratdi. Shu tufayli m.a. I asrning so'nggi o'n yilliklari — rim madaniyati va san'atining gullab-yashnash davri bo'ldi. Bu davrdagi adabiyot buyuk namoyandalarning — Vergiliy, Goratsiy va Ovidiyning nomlari bilan bog'liq. Tarix sohasida bu davrda Tit Liviy, me'morchilikda mashhur nazariyachi Vitruviy faoliyat yuritgan. Shuni qayd etib o'tish kerakki, Avgust davri rim adabiyoti uchun eng yuksak ijodiy yutuqlar davri bo'lgan bo'lsa, tasviriy san'at sohasidagi buyuk yodgorliklar keyinroq, I asrning ikkinchi yarmi - II asrning birinchi yarmida yaratilgan.

Imperiyaning birinchi asrlari ma'naviy hayotining yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri falsafaga ommaviy qiziqish edi. Bu davrda yangi falsafiy tizimlar paydo bo'lmadi: o'sha davrdagi ko'zga ko'ringan faylasuflar - Seneka, Epiktet, Plutarxlar eklektiklar edi. Biroq sayoq faylasuflarning ta'sirida falsafaga qiziqish tobora ommalashdi. Bu davrda falsafiy qiziqish metafizika va boshqa falsafiy sohalardan etikaga ko'chgan edi.

Shunday qilib, Rim sivilizatsiyasi dunyoga davlatchilik printsiplarini, imperiya g'oyasini, huquqlar tizimini, fuqaro ideali va fuqarolik qadriyatlarini tizimini, butun o'rta asrlar davomida ma'rifatli Yevropa qo'llagan lotin tilini, me'morchilik uslublarini va h.k berdi.

Qadimgi Rim sivilizatsiyasi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

### **Nazorat savollari:**

1. Rim sivilizatsiyasining yunon sivilizatsiyasi bilan umumiy xususiyatlarini ko'rsating.
2. Antik sivilizatsiyaning bugungi kunga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmagan yutuqlarini sanab bering.

## **16-mavzu: Vizantiya va Rossiya sivilizatsiyalari**

### **Asosiy savollar:**

1. Vizantiya sivilizatsiyasi va uning ahamiyati
2. Rus sivilizatsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

### **1-savolning bayoni:**

Sivilizatsion taraqqiyotning Qadimgi davrdan keyingi bosqichi O'rta asrlar bo'ldi. Bu davrda Vizantiya sivilizatsiyasi alohida, yetakchi o'rin tutdi.

Vizantiya tarixi 324 yilda Bosfor bo'g'ozidagi qadimgi Vizantiy shaharchasi o'rnida Rimning yangi poytaxti Konstantinopolga asos solinishi bilan boshlanib, 1453 yilda turklar tomonidan bosib olinishidan so'ng yakun topdi. Mustaqil davlat va sivilizatsiya sifatida esa uning tarixi Rim ikki qismga parchalanib ketgan 395 yildan boshlanadi.

Konstantinopol Rim imperiyasining Yevropa va Osiyo qismlari tutashgan nuqtada, Sharq va G'arb chorrahasida joylashgan edi. Darhaqiqat Vizantiya sivilizatsiyasi antik meros va sharqiy – xristian maslagining o'ziga xos sintezi edi. Uning tabiiy-geografik o'zni muhim savdo yo'llarini nazorat qilish, bo'g'ozlar ustidan harbiy-strategik jihatdan hukmronlik qilish imkonini berardi. Vizantiya chegaralari uning ming yildan ortiq tarixi davomida o'zgarib turdi, biroq o'zining qudratga erishgan davrida Vizantiya Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Shimoliy Mesopotamiya, Armanistonnig bir qismi, Suriya, Falsatin, Misr, Krit va Kipr orollari, Qrimdagi Xersones, Kavkazdagi Lazika. Arabistonning ayrim hududlarini o'z ichiga olgan.

Vizantiyaga kiruvchi viloyatlar iqtisodiy imkoniyatlari jihatidan bir xil emas edi. Hunarmandchilik taraqqiyoti jihatidan Vizantiya g'arbiy Yevropa mamlakatlaridan oldinda turgan. G'arbiy Yevropadan farqli o'laroq Vizantiyaning ichki xo'jalik hayoti nisbatan barqaror edi.

Vizantiya aholisi etnik jihatdan rang-barang bo'lib, uning katta qismini yunonlar tashkil etgan, bu yerda shuningdek suriyaliklar, yahudiylar, armanlar, gruzinlar, koptlar (Misrda) istiqomat qilgan. Rimliklar ozchilikni tashkil etgan. X asrga kelib Vizantiyaning aholisi 20-25 mln. kishini tashkil etgan. VII asrga qadar lotin tili ustunlik qilgan, ammo vaqt o'tishi bilan yunon tili davlat tiliga aylandi.

Vizantiya sivilizatsiyasi rivojida uch davr ajratiladi. Ilk davrda (IV-VII asrning birinchi yarmi) Vizantiya davlatchiligi shakllandi va xristianlik yetakchi dinga aylandi. O'rta davr (VII asrning ikkinchi yarmi - XII asr) Vizantiya sivilizatsiyasining gullab-yashnagan davri bo'lib, bu davrda cherkov va davlat uyg'unlashdi, yagona xristian cherkovi G'arbiy va Sharqiy qismlarga parchalanib ketdi, qonunni kodifikatsiyalash yakunlandi, yunon tili davlat tiliga aylandi. So'nggi davr (XIII-XV asrlar) tushkunlik belgilari yuzaga chiqdi va sivilizatsiya emirila boshladi.

Vizantiya sivilizatsiyasi deyarli har doim urush holatida bo'lgan. Imperiya varvarlarning hujumlari, xalqlarning Buyuk ko'chishi to'lqinlarining kirib kelishi sharoitida shakllandi. VII asrda tashkil topgan Birinchi Bolgar podsholigi uzoq vaqtgacha Vizantiyaning raqibiga aylandi. Imperator Yustinian (482-565 yy.) Rimni uning ilgarigi chegaralari doirasida qayta tiklashga harakat qilib, imperiya hududlarini deyarli ikki barobarga ko'paytirdi. Vizantiya davlatchiligini mustahkamlash uchun qator tadbirlar amalga oshirildi, xususan rim huquqi kodekslashtirildi.

Vizantiyaning sharqdagi xavfli raqibi Sosoniylarning Yangi fors podsholigi edi. VI asrda bu podsholik o'z qudratiga ko'ra Vizantiya bilan tenglasha oladigan yagona davlat edi. VII asrdan Vizantiya arablar bilan kurashga kirishdi. IX asrda Vizantiyaning bolgarlar bilan uzoq davom etgan urushlari boshlandi. X-XI asrlarda Kiev Rusi ham bir necha marta Vizantiyaga qarshi yurishlar uyushtirdi. XI asr oxirida Orolbo'yidan kelgan saljuqiy turklar Vizantiyani Kichik Osiyodan siqib chiqarishdi. 1204 yildagi to'rtinchi salib yurishidan so'ng Vizantiya parchalanib ketdi. Ko'p o'tmasdan u qayta tiklangan bo'lsa-da, o'zining ilgarigi qudratiga erisha olmadi. Endilikda Vizantiya kuchsiz markaziy hokimiyatga ega tarqoq feodal davlat edi. Iqtisodiy jihatdan Vizantiya Italiya shaharlari – Genuya va Venetsiyaning ta'siriga tushib qoldi. XV asrga kelib Vizantiya saljuqiy turklar mulklarining qurshovida qoldi. 1453 yilda Konstantinopol turklarning zarbasi ostida quladi.

Vizantiya sivilizatsiyasi Rim sivilizatsiyasi merosining barcha asosiy elementlarini saqlab qola oldi – hunarmandchilik va savdo taraqqiy etgan yirik shaharlar, jamoa dehqonchiligi bilan birlashgan qulchilik, yunon elementlari ustunlik qilgan rivojlangan madaniyat, rivojlangan rim huquqiga asoslangan kuchli davlat. Vizantiyaning katta yer egaligi munosabatlariga o'tishi G'arbiy Yevropaga qaraganda birmuncha oson kechdi va kechroq, XI asrga kelib yakunlandi. X-XII asrlarga kelib Vizantiyada yirik yer egaligi yuzaga keldi, biroq vizantiyalik feodal - yer egasi o'z mulkning to'la xo'jayini emas edi. Vizantiya sivilizatsiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri shunda ediki, kuchli markazlashgan hokimiyat yirik xususiy yer egaligining o'sishiga to'sqinlik qilgan, feodal mulklarning mustaqilligini chegaralagan. Shu bilan bir vaqtda Vizantiyada yerga xususiy egalikni qonuniylashtiruvchi rim huquqi saqlanib qolgan edi.

Vizantiya imperiyasining imperatori (vasilevs) deyarli cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan, ammo o'zini hech qachon qonundan ustun qo'ymagan. Unga ko'p sonli sud, harbiy va soliq muassasalari, davlat amaldorlari, shuningdek, maslahat organiga vazifasini bajargan sinklit (lotincha senat) bo'ysungan. Vizantiyada nafaqat zodagonlar, balki iqtidorli va bilimli oddiy kishilar ham yuqori darajalarga erishish imkoniga ega bo'lgan.

Vizantiyaliklar imperiya g'oyasini Rimdan qabul qilib olganlar. Xristianlik muqaddaslik tusini berib, imperiya g'oyasini mustahkamlagan. IV asrda Buyuk Konstantinning safdoshlaridan biri Evseviy Kesariyskiy Vizantiya davlatchiligining diniy asosiga aylangan siyosiy nazariyani ishlab chiqqan. Unga ko'ra Vizantiyada dunyoviy va diniy hokimiyat qo'shib, simfoniya (uyg'unlik) ni vujudga keltiradi. Imperator nafaqat dunyoviy hukmdor, shu bilan birga cherkov boshlig'i. Imperator hokimiyatining o'zi muqaddaslashtirilgan, shunga qaramasdan nomaqbul imperatorlarni ko'pincha taxtdan ag'darishgan. Yevseviy Kesariyskiy nazariyasiga ko'ra Vizantiya xristianlikning tayanchi, u xudoning homiyligi ostida boshqa xalqlarni najotga yetaklaydi. Imperiya g'oyasi Vizantiyaga yaxlitlikni, saltanatni saqlab qolish imkonini berdi. Ammo shu bilan birga an'analar va odatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan imperiya g'oyasi, vizantiya avtoritarligi jamiyat rivojiga to'sqinlik qildi.

Xristian dini Vizantiya sivilizatsiyasining hukmron mafkurasiga aylandi. IV asrdan boshlab davlat dini bo'lgan xristianlik Vizantiyaning ma'anaviy hayotini belgilab berdi. Vizantiyada xristianlikning joriy

etilishi nafaqat ma'jusiylilik, balki bid'atchilikka qarshi kurash bilan birga bordi. O'z obro'sini mustahkamlash uchun cherkov har qanday o'zgacha fikrlashga qarshi chiqdi. Sobit e'tiqodlilar va bid'atchilar o'rtasidagi bahslar mavzusi xristianlikning azaliy isbotsiz qabul qilinadigan qoidalari edi: Muqaddas Uchlik aqidasi, Masih tabiatini anglash, insondagi ma'naviylik va jismoniylik nisbati. Eng ko'p tarqalgan bid'atlar arianlik, monofizitlar, pavlikianlar, bogomillar ta'limotlari edi. Bid'atlar ko'p hollarda ijtimoiy norzilikning mafkuraviy shakli bo'lib xizmat qilgan.

Ilohiyotga masalasidagi qarama-qarshiliklar 1054 yilda cherkovning parchalanishida (sxizma) tashqi omil bo'lib xizmat qildi. Bu hodisa xristianlikning ikki yirik markazi – Rim va Konstantinopol o'rtasida IV asrda boshlangan ma'naviy va siyosiy rahnamolik uchun kurashning yakuniy marrasi edi. Ikki cherkov o'rtasidagi kurashda ilgarilari ham bunday keskin choralar qo'llanilgan. Cherkovning parchalanishi diniy ta'limotning o'zidagi ixtilofning namoyon bo'lishi ham edi.

Vizantiyada din birlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi funktsiyalarni ham bajargan. U Vizantiya ma'naviyati va madaniyatining shakllantiruvchi yagona qobiq edi. Vizantiyada ma'jusiylilik antik davr madaniy qadriyatlari ham rad etilmagan. Antik adabiyot va falsafa keng o'rganilgan. Maorif tizimi antik davrdagi ta'lim tizimiga yaqin bo'lgan va cherkovga bo'ysunmagan. Vizantiyada xo'jalik boshqaruvi va mamlakat boshqaruvi ehtiyojlariga xizmat qilgan fan ham antik davr ta'sirida taraqqiy etgan.

Shunday qilib, insoniyat genotipini boyitgan Vizantiya sivilizatsiyasining betakror xususiyatlaridan biri xristian dini, ellin madaniyati va rim davlatchiligining ajoyib uyg'unligi edi. Ushbu sivilizatsiya ko'plab Sharqiy Yevropa xalqlari, xususan Rus tsivilizatsiyasining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

## **2-savol bayoni:**

A.Toynbi, K.Yaspers va boshqalarning fikricha, Rossiya sivilizatsiyasi G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi qatorida turadi. Ilk bor Rus sivilizatsiyasi xususida so'z yuritgan rus olimi N.Ya.Danilevskiy o'zining “Rossiya va Yevropa” (1869) asarida chirib borayotgan G'arb sivilizatsiyasidan farqli ravishda kelajakka ega bo'lgan “slavyan madaniy tipi” ga ta'rif bergan.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, Rossiya sivilizatsiyasi yunon-rim divilizatsiyasining bir tarmog'i hisoblanadi. Shuningdek, Rossiya sivilizatsiyasi uchun vizantiyaliklarning roli salmoqlidir.

Qadimgi Rus sivilizatsiyasi VII-IX asrlarda shakllandi. Osiyo va Yevropa chegaralarida vujudga kelgan Rus sivilizatsiyasi G'arb va Sharq qirralarini o'zida mujassamlab, o'ziga xos Evroosiyo sivilizatsiyasiga aylandi.

Ba'zi olimlar qadimgi Rus sivilizatsiyasining vujudga kelishini VI asrda sharqiy slavyanlarda ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishidan, boshqa bir guruh olimlar IX asrda davlatning vujudga kelishidan, ayrimlar 988 yilda Rusning cho'qintirilishidan boshlashadi.

O'troq rus qabilalari asosida shakllangan va turli davrlarda turlicha nomlangan davlatda rivojlangan Rus sivilizatsiyasi quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan: ibtidoiy urug'chilik tuzumi (Kichik Rus, Rus yerlari, IX asrga qadar), feodalizm (Rus yerlari, Buyuk Rus, Rossiya, Rossiya imperiyasi, IX asr o'rtalaridan – XIX asr boshigacha), kapitalizm (Rossiya, Rossiya imperiyasi, XIX – XX asr boshlari), sotsializm (Sovet Ittifoqi, XX asr boshlari – XX asr oxirlari) va nihoyat XX asr oxiridan Rossiya Federatsiyasi.

Rus tsivilizaiyasi o'ziga xos tabiiy-geografik omil asosida tarkib topgan. To'rtta dengiz (Oq, Boltiq, Qora, Kaspiy), uchta tog' (Karpas, Kavkaz, Ural) bilan o'ralgan Sharqiy Yevropa tekisligi ming yillar avval sovuq iqlimga ega bo'lib, o'rmonlar bilan qoplangan bo'lgan. Undan janubda boshlanadigan o'rmon-dasht zonasi dehqonchilik qilish uchun qulay.

Sharqiy Yevropa daryolari savdo yo'li sifatida ham ahamiyatga ega bo'lgan. 6 asrdan tarixshunoslikda "Varyaglardan yunonlarga boruvchi yo'l" nomi bilan mashhur bo'lgan suv yo'li ma'lum. Boltiq dengizidan boshlanib, daryo va ko'llar orqali Qora dengizga boruvchi bu yo'l sharqiy slavyanlarga yunon koloniyalari va ular orqali Vizantiya sivilizatsiyasi bilan aloqada bo'lish bilan imkoniyatini bergan. "Varyaglardan forslarga" olib boruvchi yana bir yo'l tufayli esa Volga bo'ylab Kaspiy dengiziga chiqish, volga bulg'orlari va Xazar hoqonligi orqali Eron bilan aloqa bog'lash mumkin bo'lgan.

Rus sivilizatsiyasi taraqqiyotida diniy omil ham muhim rol o'ynagan. Xristianlikning qabul qilinishi Svyatoslavichlar knyazlar sulolasi hukmronligining mustahkamlanishiga, Kiev Rusi davlatining Yevropa davlatlari qatoriga qo'shilishiga, uning xalqaro mavqeining mustahkamlanishiga olib keldi.



## Sharqiy slavyanlarda davlat paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar

Nazariya nomi	Normann	Tsentrik	Slavyan
Vakillari	N.M.Karamzin, S.M.Solovev, L.N.Gumilev, B.L.Vasilev	A.L.Yurganov, L.A.Katsva	B.A.Ro'bakov, V.N.Chivilixin
Mazmuni	Qadimgi Rus davlati varyaglar tomonidan slavyanlarning ixtiyoriy roziligi bilan tuzilgan. Varyaglar slavyanlarga nisbatan uyushgan va ma'rifatli, ular o'sha davrda mavjud nisbatan rivojlangan davlatlar tomonidan tan olingan.	Qadimgi Rus davlati slavyan jamiyatining uzoq davom etgan mustaqil taraqqiyoti natijasida tashkil topgan. Ammo chet ellik knyazlar haqiqatdan ham "uchinchi", kelishtiruvchi kuch sifatida Rusga taklif etilgan.	Rusga varyaglarning kirib kelganligi, bu yerda davlat tuzganliklari va dastlabki rus knyazlarining varyaglardan bo'lganligi inkor qilinadi.

Novgorodliklar tomonidan knyazlik taxtiga afsonaviy Ryurikning taklif etilishi Rus sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim siyosiy omil bo'ldi ("normann nazariyasi"). Ammo ayrim olimlarning fikricha, varyaglar Rusga kelgunga qadar bu yerda davlatning yuzaga kelishiga asos bo'lgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lgan. Rus tarixchisi V.O.Klyuchevskiy (1841-1911 yy) arab va Vizantiya manbalariga tayangan holda VI asrdayoq sharqiy slavyanlarda knyaz Dulebov yetakchiligidagi katta harbiy ittifoq bo'lganligini

ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra Vizantiya bilan doimiy kurash bu ittifoqning shakllanishiga sabab bo'lgan va sharqiy slavyan qabilalarini birlashtirgan.

Rusning Vizantiya bilan, u orqali yunon-rim madaniyati bilan shuningdek varyaglar bilan o'zaro aloqalar ushbu sivilizatsiyaning shakllanishida tashqi omil vazifasini bajargan. Xalqlarning buyuk ko'chishi natijasida V-VI asrlarda slavyanlarda urug'chilikka emas, hududiy-siyosiy xarakterga ega jamoa shakllangan. VIII-IX asrlarda 12 ta qabila-knyazliklar ittifoqi vujudga kelgan.

Uzoq vaqtgacha Russda yerga xususiy mulkchilikning bo'lmaganligi ushbu sivilizatsiyaning yana bir o'ziga xos xussiyatini shakllantirgan. Yana bir o'ziga xoslik sifatida Kiev Rusining yaxlit markazlashgan davlat bo'lmaganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Mo'g'ul-tatar bosqini ham Rus sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Rus sivilizatsiyasining o'ziga xos qirralarining shakllanishida bir tomondan, Vizantiya xristian ma'naviy va moddiy madaniyati, ikkinchi tomondan Rusda uzoq vaqt hukm surgan ma'jusiyluk dinlari o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xristianlik qabul qilingandan so'ng ham ma'jusiyluk an'analari saqlanib qolgan.

Rus xalqi uch subetnik komponentlar aralashmasidan shakllangan: dehqon-slavyanlar va baltlar, ovchi fin-ugor, shuningdek germanlar, ko'chmanchi turk va qisman shimoliy Kavkaz xalqlari. Bu turli etnoslar diniy jihatdan ham rang-barang bo'lgan. Kiev knyazlari ijtimoiy tuzilmalarning xilma-xilligi sharoitida son va madaniy jihatdan ustun bo'lgan birorbir etnosga tayana olmagan. Ryurikovlarda kuchli harbiy-brokratik tizimga ham ega bo'lmagan. Shu sababli birlashtiruvchi vosita rolini xristianlik o'ynagan.

## **17-mavzu: G'arb sivilizatsiyasi**

### **Asosiy savollar:**

1. G'arbiy Yevropa o'rta asr sivilizatsiyasi
2. G'arb industrialoldi sivilizatsiyasi.
3. Industrial va postindustrial sivilizatsiya davrida G'arb taraqqiyoti

### **1-savolning bayoni:**

G'arb sivilizatsiyasi — G'arbiy Yevropa, AQSh, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarini birlashtirib turuvchi madaniy, siyosiy va iqtisodiy belgilar majmuidir. G'arb

sivilizatsiyasining manbalari va uning yetakchi tashuvchilari geografik, madaniy, lingvistik va diniy jihatdan doimo o'zgarib turgan. Shu o'rinda G'arb va Yevropa tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, bir xil ma'noni anglatmasligini ta'kidlab o'tish lozim.

Antik davr G'arb sivilizatsiyasining ilk bosqichini tashkil etadi. Antik davrda g'arb jamiyatining asosiy qadriyatlari yuzaga kelgan: xususiy mulk munosabatlari, bozorga yo'naltirilgan xususiy ishlab chiqarish, xalq hokimiyatining ilk namunalari – demokratiya, boshqaruvning cheklangan respublika shakli. Bu davrda shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi fuqarolik jamiyatiga, shuningdek shaxsning ijodiy qobiliyatini safarbar qilish va uning gullab-yashnashiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy printsiplarga asos solindi. G'arb sivilizatsiyasining navbatdagi bosqichi Yevropa va xristianlik bilan bog'liq.

Mazkur sivilizatsiyaning eng asosiy qadriyatlaridan biri – hayotning barcha jabhalarida tanlovning individual erkinligi sanaladi. G'arbning yana bir qadriyati ratsionallikdir. Bu qadriyatlar uzoq davom etgan murakkab jarayonlar hosilasidir.

476 yilning 23 avgustida Rim xizmatidagi harbiy sarkardalardan biri Odoakr so'nggi Rim imperatori – go'dak Romul Avgustulni taxtdan qulatib, o'zini Italiya qiroli deb e'lon qildi. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan Yevropada varvar qirolliklari davri boshlandi. Ammo imperiya g'oyasi yo'q bo'lmadi. VIII-IX asrlar chegarasidayoq Yevropaning siyosiy birligi g'oyasi paydo bo'ldi. Dastlab bu Rim imperiyasini qayta tiklashga urinish bilan bog'liq edi.

O'rta asr sivilizatsiyasi tarixida ikki bor G'arbiy Yevropada Rim imperiyasini tiklashga urinish bo'lgan. Dastlabki urinish 486 yilda Xlodvig (465-511 yy) tomonidan barpo etilgan Frank qirolligi tarixi bilan bog'liq. VIII-IX asrlarda frank qiroli Buyuk Karlning (742-814 yy) yurishlari tufayli Franklar davlati Ebrordan ta Elbaga, La-Manshdan to Adriatika dengiziga qadar bo'lgan hududni egalladi. 800 yilda papa Lev III Karlga imperatorlik tojini kiygazdi. Buyuk Karlning nevaralari 843 yilgi Verden shartnomasiga ko'ra imperiyani uch qismga taqsimladilar: Lyudovik Nemis Germaniyani, Karl Yaltiroqbosh bo'lajak Fransiyani, Lotar bo'lajak Italiyani qo'lga kiritdi. Shu tariqa Yevropaning uch zamonaviy davlati tarixi boshlandi.

G'arbiy Yevropada imperiya g'oyasini amalga oshrishiga ikkinchi urinish Muqaddas Rim imperiyasining vujudga kelishi bilan bog'liq. Germaniya qiroli Otton I (912-973 yy) Italiyaga bir necha yurishlardan

so'ng 962 yilda imperatorlik tojini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Muqaddas Rim imperiyasiga (XV asr oxiridan Nemiya millatining Muqaddas Rim imperiyasi) Germaniya yerlari, Shimoliy va O'rta Italiya, Chexiya va Burgundiya kirgan. Uning hukmdorlari Rim imperatorlarining vorislari roliga da'vogarlik qilishardi. Otton III (980-1002 yy) o'z qarorgohini Rimga ko'chirib, markazi Rimda bo'lgan umumevropa katolik imperiyasini barpo etish rejasini tuzgan edi. Ammo bu imperiya ham barqaror va mustahkam emas edi.

Universal imperiya g'oyasini amalga oshirishga muvaffaq bo'lmasa-da, Buyuk Karl va Otton I lar asos solgan imperiyalar muhim birlashtiruvchi rol o'ynadi.

Yevropa sivilizatsiyasining birligi g'oyasini katolik cherkov ham alohida xristian dunyosi g'oyalarini targ'ib etish orqali ta'kidlar edi. Mazkur g'oya iqtisodiy manfaatlarga ham mos kelar, shu sababdan savdo-siyosiy ittifoqlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanardi. O'rta asr Yevropa sivilizatsiyasi uchun ikki asosiy iqtisodiy qutbning vujudga kelishi xosdir: qit'aning markazi va shimolida - Ganza ittifoqi hamda O'rtayer dengizida vujudga kelgan, Venetsiya va Genuya respublikalari yetakchilik qilgan markaz.

1241 yilda Lyubek va Gamburg shaharlari Boltiq dengizini Shimoliy dengiz bilan bog'lovchi savdo yo'llarini birgalashib himoya qilish haqidagi bitimi asosida vujudga kelgan Ganza uzil-kesil 1356 yilda shakllangan va ravnaq topgan davrida 80 ta shaharni birlashtirgan. Ganza ittifoqi Angliya, Niderlandlar, Germaniya, Skandinaviya, Boltiqbo'yi va Rossiya o'rtasidagi vositachilik savdosini deyarli monopollashtirib olgan edi.

Ikkinchi savdo-iqtisodiy markazning yetakchilari Venetsiya va Genuya o'z boyliklarini asosan salib yurishlari davrida orttirgan bo'lib, kuchli flotga ega edi.

Yagona G'arbiy Yevropa o'rta asr sivilizatsiyasining shakllanishi feodal tarqoqlik sharoitida kechdi. Hududlarning siyosiy tarqoqligi zahirida feodal iqtisodiyot bilan bog'liq iqtisodiy tarqoqlik, yagona bozorning yo'qligi yotardi. O'rta asrlarda Yevropada vujudga kelgan imperiyalarda imperator hokimiyati faqat rasman tan olinar, real hokimiyat esa aslida mahalliy feodallar qo'lida edi. Butun o'rta asr davomida feodal tarqoqlikka markaziy hokimiyatni kuchaytirish an'anasi qarshi turdi. Yevropada Franklar imperiyasi, slavyan davlatlari, Angliya va Fransiya kabi markazlashgan davlatlarning yuzaga kelishi milliy bozorlarning yuzaga kelishi va millatlarning

shakllanishi jarayonini kuchaytirdi. G'arb sivilizatsiyasining hududiy jihatdan birlashishi butun o'rta asr bo'yi davom etdi. O'rta asrlar oxiriga kelib G'arbiy Yevropa deyarli mustaqil, shu bilan birga bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar bilan bog'langan ko'plab davlatlardan iborat edi.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada boshqaruvning eng keng tarqalgan shakli monarxiya edi. O'rta asr sivilizatsiyasining ilk davrida qirol hokimiyatining roli ahamiyatli edi. X-XI asrlarda Yevropa sivilizatsiyasi rivojida katta sifat o'zgarishi sodir bo'ldi. Butun Yevropa bo'ylab hunarmandchilik va savdo markazlari bo'lgan shaharlar vujudga keldi. O'rta asr shaharlarida yangi tabaqa – burjuaziya shakllandi. Feodallarning qirol hokimiyati bilan siyosiy kurashida shaharlar ham faol ishtirok etdi. Feodallar (dvoryanlar va ruhoniylar) va shaharliklar (byurgerlar) alohida toifalar sifatida siyosiy jiplashuvi toifaviy – vakillik organlarini, toifaviy monarxiyani yuzaga keltirdi.

Dastlabki toifaviy vakillik organi – parlament Angliyada vujudga keldi. 1265 yilda Lester grafi Simon de Monfor eng yirik baronlar va ruhoniylar, shuningdek har bir graflikdan ikkitadan ritsar va eng yirik shaharlardan ikkitadan shaharliklardan iborat yig'in chaqirdi. Keyinchalik lordlar va jamoa palatasiga bo'lingan parlament XIV asrdan davlat qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda ham ishtirok eta boshladi. Shu tariqa XIII asrdayoq Angliyada parlament bilan cheklangan monarxiya shakllanib, bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

1302 yilda Fransiya qiroli Filipp IV Chiroyli uchta toifa vakillaridan iborat General shtatlarni chaqiradi.

XV asrda Muqaddas Rim imperiyasida shunday toifaviy vakillik organi – reyxstag shakllanadi. Ispaniyada 1137 yilda tilga olingan Kastiliya korteslarini ham o'ziga xos toifavaiy-vakillik organlarining debochasi deyish mumkin.

O'rta asr Yevropasida mavjud bo'lgan yana bir boshqaruv shakli shahar-respublikalardir. Shimoliy va O'rta Italiyada vujudga kelgan shahar-respublikalarni shaharliklar tomonidan saylangan kengashlar boshqargan, biroq ularning tuzumini ko'proq oligarxlar boshqaruvi sifatida baholash mumkin. Masalan, Venetsiya respublikasining davlat tuzumi amalda tor doiradagi oligarxiya diktaturasi xususiyatlarga ega edi.

Feodal tuzumning asosini feodallarning yoki feodal davlatlarning yerga monopol egalik qilishi va dehqonlarning feodalga shaxsiy

qaramligi tashkil etgan. Yerdan foydalanganlik uchun feodal mahsulot yoki pul ko'rinishida renta undirgan.

G'arbiy Yevropa jamiyati iyerarxik tuzilishga ega edi. Vassallik tartibiga asoslangan iyerarxiyaning yuqorisida qirol turgan. O'rta asr G'arb jamiyatiga xos xususiyatlardan biri toifalarning mavjudligi edi. Toifa bu - qonunlarga ko'ra meros bo'lib o'tadigan huquq va majburiyatlarga ega ijtimoiy guruh (qatlam). O'rta asr G'arb jamiyati uchta toifaga bo'lingan: ruhoniylar, dunyoviy feodallar hamda shaharliklar va dehqonlar toifasi.

O'rta asr G'arb sivilizatsiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri korporativlik edi. O'rta asr kishisi o'zini doimo jamoaning bir qismi sifatida his qilgan. Turli belgilarga ko'ra kishilarni birlashtirgan bu korporatsiyalarga misol tarzida qishloq jamolari, hunarmandchilik tsexlari, monastirlar, diniy - ruhoniylar ordenlari, harbiy drujinalar va h.k. larni ko'rsatish mumkin.

O'rta asr sivilizatsiyasining xarakterli belgilaridan biri jahon dini - xristianlikning hukmron mavqei edi. Diniy shakldagi mafkura ilk bor jamiyatda yetakchi omilga aylandi. Insoniyat tarixida dinning, cherkovning roli bu qadar katta bo'lgan boshqa bunday davr bo'lmagan. Ahloq, falsafa, ilm-fan, san'at - bari teologik dunyoqarashga bo'ysundirilgan edi. Yevropaning xristianlashuvi butun G'arb sivilizatsiyasining xarakteriga ta'sir ko'rsatdi.

XI asrning birinchi yarmida Konstantinopol patriarxi Mixail Kerullariy va Rim papasi Lev IX o'rasida janubiy Italiya ruhoniylari kimga bo'ysunishi kerakligi masalasida bahs yuzaga keldi. Bu bahs G'arbiy va Sharqiy cherkov o'rtasida uzil-kesil ajralishning yuz berishiga sabab bo'ldi. 1054 yilning yozida kardinal Gumbert boshchiligidagi papa legatlari, ya'ni elchilari Konstantinopoldagi Sofiya sobori mehrobiga patriarx Mixailga anafema e'lon qilingan yorliq - bullani qo'ydilar. Patriarxning talabi bilan imperator chaqirgan Vizantiya ruhoniylarining cherkov sobori o'z navbatida rim elchilariga anafema e'lon qildi. Oradan to'qqiz asr o'tibgina, 1965 yilda rim-katolik cherkovi va Konstantinopol pravoslav cherkovining umumiy deklaratsiyasi e'lon qilinib, o'zaro anafemalar bekor qilindi. Xristian cherkovining ikkiga bo'linishi Yevropani ham diniy belgiga ko'ra parchalanib ketishiga olib keldi.

Katolik cherkovida boshidanoq hokimiyatning qat'iy markazlashuvi yuzaga keldi. V asrdan boshlab papa deb nom olgan Rim episkopi katta ta'sirga ega edi. VIII asrda paydo bo'lgan, teokratik

hokimiyatga ega Papa davlati o'rta asr Yevropasida davlat ichidagi davlat edi. Xristian aqidalari Vselen soborlarida ishlab chiqilgan. O'rta asr Yevropasida maorif tizimi deyarli to'liq cherkov qo'lida edi. Cherkovning tayanchi bo'lib xizmat qilgan monastirlar bora-bora maorif markazlariga aylandi. Monastir va cherkov maktablarida yetti erkin san'at o'qitilgan.

Cherkov uchun eng muhim masalalardan biri dunyoviy hokimiyat bilan munosabat edi. 413 yilda xristian teologiya va cherkov arbobi Avreliy Avgustin (354—430) "Xudo shahri" haqida asar yozib, cherkov va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy printsiplarini asoslab berdi. Avgustinning fikriga ko'ra, insoniyat tarixi – bu taqvodorlar (Xudo shahri) va gunohkorlar (Yer shahri ) o'rtasidagi kurash tarixi. Yer hokimiyati Xudo shahriga yaqin bo'lgan cherkov hokimiyatidan pastda turadi, demak, dunyoviy hokimiyat cherkovga bo'ysunishi lozim. Aslida esa butun o'rta asr davomida davlat va cherkov munosabatlari o'zaro kurashdan iborat bo'ldi.

Cherkovni tashvishga solgan muammolardan yana biri bilish jarayoniga munosabat, e'tiqod va bilim, haqiqatdan qaysi biri ustunligi masalasi edi. Bu masalani oydinlashtirish yo'lidagi ma'naviy urinishlar o'rta asr odami ommaviy ongining shakllanishiga, ratsionalizmning ilk kurtaklari rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, oqibatda Yevropada yangi tipdagi erkin, tashabbuskor, faol, tadbirkor insonni shakllantirishga asos yaratdi.

O'rta asr G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasining eng murakkab va ziddiyatli hodisalaridan biri ushbu davr insonlarining mentalitetidir. O'rta asr mentaliteti bu davrning barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiribgina qolmasdan, ilk Yangi davrda inson yangi tipining yaratilishiga zamin yaratdi.

G'arbning o'rta asr sivilizatsiyasi umuminsoniyat madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Bu davrning ilk bosqichida madaniy tushkunlik kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u rivoj topdi va gullab-yashnadi. Ko'plab Yevropa davlatlarining milliy madaniyati shakllandi, cherkov, ritsarlik, shahar va h.k madaniyati kabi ijtimoiy tabaqalangan madaniyatlar yuzaga keldi.

Sxolastikaning vujudga kelishi intellektual hayotda muhim chegara bo'ldi. Yozuvning keng tarqalishi va kitob chop etishning kashf etilishi intellektual foliyat doirasining kengayishiga xizmat qildi. XI asrdan vujudga kela boshlagan boshlagan o'rta asr universitetlari cherkov va monastir maktabalari bilan bir qatorda bilim va madaniyat

o'chog'iga aylandi. 1500 yilda butun Yevropada 65 ta universitet bor edi.

Jumladan, 1088 yilda ilk ma'ruza o'qilgan Italiyaning Bolonya universiteti, 1096 yildan mashg'ulotlar olib borilgan va 1117 yilda rasman universitet sifatida shakllangan Angliyaning Oksford va 1209 yilda ochilgan Kembridj universitetlari Yevropaning eng keksa universitetlari sanaladi.

O'rta asrlarda dunyoviy san'at ham gullab-yashnadi. Adabiyot sohasida jahon adabiyotining durdonalari qatoriga kirgan asarlar yaratildi. Me'morchilikda roman (Vorms, Shpeyer, Maynts, Shartr shaharlarining soborlari), gotika (Parij Bibi maryami ibodatxonasi, Milan, Strasburg soborlari) kabi uslublar vujudga keldi. Shaharlar G'arbiy Yevropa o'rta asr sivilizatsiyasi taraqqiyotiga alohida hissa qo'shdi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropa o'rta asr sivilizatsiyasi o'z taraqqiyotida uchta sivilizatsiya omilini birlashtirib, o'zaro uyg'unlashtira oldi: antik meros, varvarlik dunyosi sivilizatsiyasi va xristianlik. O'rta asrlarda keyingi industrialoldi sivilizatsiyasi taraqqiyoti uchun asos yaratildi.

## **2-savol bayoni:**

Jahon tarixida XVI-XVIII asrlarni o'zi ichiga olgan industrialoldi sivilizatsiyasi alohida o'rin tutadi. Jadal tarixiy rivojlanish, eski va yangi an'analar, ma'naviy hayotning turli shakllari o'rtasidagi kurash, beqarorlik, o'sib borayotgan tartibsizliklar, inqirozlar va inqiloblar davri bo'lgan bu davr Yevropaga siyosiy va iqtisodiy yetakchilik rolini qaytarib berdi. Industrialoldi davri bozor chegaralarini kengaytirdi, kapitalizmga yo'l ochdi, insonga tanlash imkoniyatini berdi, tevarak olam va uni bilish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarni o'zgartirdi.

Uyg'onish davri (XIV-XVII aa.) industrialoldi sivilizatsiyasi taraqqiyotini boshlab berdi. Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida buyuk fan inqilobi sodir bo'ldi. Bu inqilob umumtexnik inqilob bilan bog'liq edi. Bozor chegaralari kengaydi va mustahkamlandi, kapitalning jamlanish jarayoni boshlandi, savdo, sanoat, dengiz transporti, qisman qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar yuzaga kela boshladi.

Gumanizm davrini boshlab bergan Uyg'onish (XIV-XVII aa.) Industrialoldi sivilizatsiyasining o'ziga xos debochasi bo'ldi. Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida zamonaviy fan asoslarini yaratgan Buyuk fan inqilobi sodir bo'ldi. Fandagi to'ntarish amaliyotdan oziq



olgan va unga xizmat qilgan umumtexnik inqilob bilan ham bog'liq edi. Bozor chegaralari mustahkamlandi va kengaydi, kapitalning dastlabki jamlanishi, savdo, sanoat, dengiz transporti, qisman qishloq xo'jaligida (Angliyadagi g'ov tutish) kapitalizmning vujudga kelish boshlandi.

Bu davr milliy davlatlar shakllangan barqaror-absolyutizm davridir. Buyuk geografik kashfiyotlar va dengiz sayohatlari Ispaniya, Angliya kabi jahon mustamlakachilik imperiyalarining (Ispaniya, Angliya) shakllanishiga olib keldi. Moddiy madaniyat ustunligi o'rnatila boshlandi, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi o'zgarib boshladi, erkin xususiy mulk egasi va tadbirkor paydo bo'la boshladi, raqobat va musobaqa ruhi yuzaga keldi, yangi mafkura tug'ila boshladi.

Industrialoldi sivilizatsiyasi taraqqiyotiga asos solgan bosh omillardan biri modernizatsiya, ya'ni an'anaviy sivilizatsiya asoslarining vayron etilishi bo'ldi. Modernizatsiya, urbanizatsiya (shaharlarning va shahar aholisining o'sishi), industrializatsiya (Angliyadagi sanoat inqilobi), siyosiy tuzilmalarning demokratlashuvi, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning o'sishi, sekuliyarizatsiyani, ya'ni tafakkurning

Mazkur davrda insonning o'rni va roli haqidagi tasavvurlarning yangi tizimi shakllandi. O'rta asr kishisi o'zini o'rab turgan tabiat va jamiyatning barqarorligiga ishonchi komil edi, bular o'zgarimas, ilohiy qonunlar asosida mavjud bo'lgan narsalar edi. Industrialoldi kishisi jamiyat va tabiatni nazorat qilish mumkin va hatto uni o'zgartirish kerak, deb hisoblagan.

Davlat hokimiyatiga bo'lgan munosabat o'zgardi, uning ilohiyligi haqidagi tushuncha yo'qoldi. Industrialoldi sivilizatsiyasining inqiloblar, dunyoni kuch bilan o'zgartirishga ongli ravishda urinishlar davri bo'lganligi bejiz emas. Industrialoldi davri kishisi sharoitga moslashuvchan bo'lib, o'zini qandaydir bir toifa, birlashmaga mansub emas, biror bir sinf yoki millatning bir qismi deb hisoblagan.

Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida Yevropada aholining o'sish sur'ati jadallashdi. Agar XV asrga kelib Yevropa aholisi 69 mln. dan 100 mln. kishiga o'sgan bo'lsa, XVI asrda aholi soni 115 mln. kishini tashkil etar edi. Ammo o'rtacha yosh 30-35 yoshni tashkil etardi. Aholining o'sishi tabiiy o'sishning yuqoriligidan tashqari, hayot darajasining yuksalishi va ovqatlanishning yaxshilanganligi bilan ham bog'liq edi.

Aholining ijtimoiy tarkibi ham turli-tuman bo'lib, uning katta qismini (80-90%) qishloq aholisi tashkil etardi. Shaharlarning o'sishi davom etdi. Yevropaning eng yirik shahri bo'lgan parij aholisi 300 ming kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, Neapolda 270 ming, London va Amsterdamda 100 ming, Rim va Lissabonda 5 ming kishi istiqomat qilardi.

Etnik jarayonlar - yirik xalqlar va etnik guruhlarining, kapitalizmning o'sish barqaror bo'lgan joylarda esa millatlarning shakllanishi davom etdi.

XV asr Yevropaning boshqa sivilizatsiyalar bilan munosabatlarida burilish davri bo'ldi. Sharq bilan ilk to'qnashuv Salib yurishlari davrida sodir bo'ldi (XI-XIII aa.). Ikkinchi burilishni esa Buyuk geografik kashfiyotlar yasadi. Uning birinchi bosqichida (XV asr oxiri – XVI asr boshi) kashfiyotlarning ilk tashabbuschilari bo'lmish ispanlar va portugallar Yangi dunyoni ochdilar va dunyo bo'ylab birinchi sayohatni amalga oshirdilar, Hindiston boyliklarini topish ilinjida Afrika qirg'oqlari bo'ylab bir necha ekspeditsiyalar tashkil etdilar. B.Dias, X.Kolumb, Vasko da Gamalarning kashfiyotlari tufayli G'arbning dunyo haqidagi tasavvurlari kengaydi. Buyuk geografik kashfiyotlarning ikkinchi bosqichida (XVI asr o'rtalaridan XVII asr o'rtalarigacha) tashabbusni gollandlar, inglizlar va fransuzlar o'z qo'liga oldilar.

Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng global okean sivilizatsiyasining shakllanish jarayoni boshlandi. Insonlarning mamlakatlar, boshqa xalqlar haqidagi tushunchalari kengaydi, sanoat, savdo, pul-moliya munosabatlari shiddat bilan o'sa boshladi. Jahon savdo yo'llarining O'rtayer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chishi tufayli Yevropaning yetakchi savdo markazlari o'zgardi. O'rtayer dengizi bo'yi o'z o'rnini Gollandiyaga, keyinchalik Angliyaga bo'shatib berdi.

Yevropaga qimmatbaho metallarning oqib kelishi narx-navoning oshishiga sabab bo'ldi. Yevropa yangi qishloq xo'jaligi ekinlari bilan tanishdi. Shunday qilib, Buyuk geografik kashfiyotlar sanoat va savdoning rivojiga kuchli turtki berib, kapitalistik munosabatlarning shakllanishiga xizmat qildi. Ammo Yevropaning boshqa xalqlar bilan tanishuvi dramatik va ziddiyatli xarakterga ega edi. Boyishga, xristianlikni boshqa xalqlar orasida yoyishga intilish kashf etilgan dengizorti hududlaridagi o'ziga xos madaniyatlarning yo'q qilinishiga (inklar, atsteklar, mayyalar), qul savdosining yuzaga kelishiga olib

keldi.

Buyuk geografik kashfiyotlar yangi ilmiy ixtirolar va kashfiyotlarning qudratli omiliga aylandi. Bu kashfiyotlarning ko'pchiligi hunarmandchilik va manufaktura ishlab chiqarishi bilan bog'liq edi. Texnika yutuqlari tsexlarning o'rniga yuzaga kelgan manufakturalar va qishloq xo'jaligidagi fermer xo'jaliklarida keng qo'llanilardi.

Ammo bu XVI asr va ayniqsa XVII asrning birinchi yarmida sodir bo'lgan Buyuk fan va umumtexnika inqilobi natijalaridan biri edi xalos. Tabiatshunoslik sohasida (tabiat falsafasi, astronomiya (Nikolay Kopernik, Djordano Bruno, Galileo Galiley, Tixo Brage, Iogann Kepler), matematika, fizika, mexanika (Galiley, Torrichelli, Dekart i Paskal), ximiya, biologiya, fiziologiya, meditsina) juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bu davrda vujudga kelgan yangi falsafa tabiiy va gumanitar fanlarni birlashtirgan bo'lib, uning yirik vakillari ingliz Frensis Bekon va fransuz Rene Dekart edi. Xuddi shu davrda sotsialistik utopiya ham vujudga keldi. Masaln, Tomas Mor o'zining «Davlatni yaxshi boshqarish, yangi Utopiya oroli haqida foydali va ajoyib oltin kitob» asarida (1516 y) ideal ijtimoiy tuzumni bayon qiladi. Bu tuzumda xususiy mulk yo'q, hamma mehnat qiladi, kambag'allar ham, boylar ham yo'q.

Italiyalik olim Nikolo Makiavelli (1469-1527 yy) o'zining «Hukmdor» asarida Italiyani kuchli markazlashgan davlatga aylantirish yo'lini izlagan. Makiavelli o'z qarashlarining mohiyati jihatidan Yevropa jamiyatida vujudga kelgan yangi mulqdor tabaqalarning mafkurachisi, «qattiqqo'l»lik tarafdori edi va u xalq ommasining noroziligini har qanday yo'llar bilan bostirishni, Italiyada yagona dunyoviy hokimiyat barpo qilishning tarafdori bo'lgan.

Gumanitar bilimlar sohasida ham sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi, yurisprudentsiya, tarixshunoslik, arxeologiya, numizmatika, pedagogika kabi yangi fanlar yuzaga keldi. Yan Amos Kamenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida pedagogika fanining asoslarini yaratdi.

Fan taraqqiyoti, jamoatchilikning uning imkoniyatlariga e'tiborining oshishi yangi tipdagi ilk ilmiy jamiyatlarning yaratilishiga olib keldi. Ularning qatorida hozirga qadar faoliyat ko'rsatayotgan London qirollik jamiyati (1666 y), Fransiya fanlar qirollik akademiyasini sanab o'tish mumkin.

Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida yagona umumevropa tarixiy hududining shakllanish jarayoni davom etdi. Biroq u o'rta asrlar davridagiga qaraganda ziddiyatli va og'riqli kechdi.

XVI-XVII asrlarda Angliya, Fransiya va Ispaniya Yevropaning siyosiy markazlariga aylandi. Chegara xususidagi bahslar, sulolaviy da'volar, savdo ziddiyatlari turli harbiy va siyosiy mojarolarni keltirib chiqarardi. Yevropada yetakchilik uchun Fransiya va Germaniya o'rtasidagi kurash Italiya urushlariga olib keldi (1494-1559 yy). XVI-XVII asrlarda Daniya va Shvetsiya o'rtasida Boltiq dengizi uchun borgan kurashda Shvetsiya g'alabaga erishdi. Butunjahon katolik imperiyasini yaratish ishtiyoqida bo'lgan Angliya va Ispaniya o'rtasida XVI asrda ziddiyatlar juda kuchaydi.

O'sha davrning eng kuchli ziddiyatlaridan biri bo'lgan feodal Ispaniya va tug'ilib kelayotgan burjuaziya vatani bo'lgan Niderlandiya o'rtasidagi kurash Yevropada 1566-1609 yillardagi birinchi burjua inqilobiga olib keldi. Aynan shu davrda birinchi umumevropa urushi – O'ttiz yillik (1618-1648 yy.) urush ham sodir bo'ldi.

Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida eng keng tarqalgan boshqaruv shakli monarxiya bo'lib qolaverdi. Hukumat va jamiyat o'rtasidagi kuchlar muvozanati o'zgardi. Toifaviy monarxiya o'rnini absolyut monarxiya egalladi. Feodal jamiyati mavjud tartiblarni saqlab qolishga, tug'ilib kelayotgan burjuaziyaga yon bermaslikka intildi. XV asrdayoq vujudga kela boshlagan absolyutizm XVII asrda, markazlashgan milliy tuzilmalar doirasida gullab-yashnadi. Fransiya, Angliya va Ispaniya absolyut monarxiyalari bunga misoldir.

Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. San'atdagi uslub va yo'nalish sifatida Fransiyada XVII asrda klassitsizm yuzaga keldi. Klassitsizm absolyut monarxiyaning o'rnatilishi va absolyutizmning mustahkamlanishi bilan bir vaqtda yuzaga keldi. Klassitsizmning mohiyatini antik an'analarni qayta tiklash, sipolik, uyg'unlik va ratsionalizmga qaytish tashkil etardi. Qirollar va saroy ahli san'atga homiylik qilishga intilardi, metsenatlik gullab-yashnadi. Klassitsizmning davomi va yakuniy bosqichi sifatida Fransiyada Napoleon hukmronligi davrida ampir uslubi shakllandi. XVII-XVIII asrlarda Yevropaning qator davlatlarida me'morchilikda barokko uslubi ustunlik qildi. Absolyutizmning inqirozi davrida esa rokoko uslubi paydo bo'ldi.

Yevropa industrialoldi sivilizatsiyasi davrida ishlab chiqarish kuchlarining, moddiy ishlab chiqarish darajasining o'sishi yangi

mafkuraga, insonning o'ziga va atrof-muhitga yangicha munosabatiga ehtiyojni yuzaga keltiri. G'arbiy Yevropa ma'naviy hayotidagi bu inqilob Uyg'onish yoki Renessans deb nom oldi va Yevropa sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi eng yorqin sahifalardan biriga aylandi. XVI asr va XVII asrning boshi Uyg'onish belgisi ostida o'tdi. Uyg'onish o'zining vatani bo'lgan Italiyada ayniqsa gullab-yashnadi. Italiya Renessansi xronologik jihatdan Protorenessans (XIII asrning ikkinchi yarmi —XIV asrlar), Ilk Renessans (XV asr), Yuqori Renessans (XV asrning oxiri — XVI asrning 20—30-yillari) va So'nggi Renessansni (XVI asr) o'z ichiga oladi.

Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim davr, muhim bosqich, ya'ni insoniyat o'z boshidan kechirgan o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi. Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yaratdilar, xalq ommasining orzu-istaklarini, his-tuyg'ularini ifodalab chiqdilar, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr gumanizm asri, deb nom oldi. Go'zallik va garmoniyani real voqelikdan qidirish, real voqelikdan keng foydalanish shu davr taraqqiyotining mezonini belgiladi. Hayot real hodisa deb tan olindi. San'atkorlar real voqelikni tasvirlashda yangi qonun va qoidalar yaratdilar. Me'morchilik va amaliy san'atda yangi an'analar rivojlandi. Shu bilan birga qadimgi an'analar o'zlashtirilib, ular yangi mazmun bilan boyitildi.

O'zgarib borayotgan G'arb dunyosining cherkovga bo'lgan munosabati ham o'zgardi va bu o'zgarish reformatsiyada o'z aksini topdi. Vittenberg universitetida falsafa va teologiya professori Martin Lyuter (1483—1546) ta'limoti asosida Germaniyada vujudga kelgan reformatsiya cherkovning yangi davr talablariga moslab yangilanishi, ko'plab cherkov aqidalarining yakson qilinishi, xristianlikda uchinchi diniy oqim – protestantlikning yuzaga kelishidan iborat bo'ldi. Protestantlik o'z navbatida lyuterchilik, kalvinchilik va anglosakson cherkoviga bo'linardi. Umuman olganda reformatsiya aksilfeodal xarakterga ega edi.

Ma'rifatparvarlik Industrialoldi G'arb sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi uchinchi ma'naviy omil bo'ldi. XVIII asr ma'rifatparvarlik asri sifatida tarixga kirdi. Immanuel Kantning "Agar biz ma'rifatlangan asrda yashayapmizmi, deb savol berilsa, javob shunday bo'ladi: yo'q, ammo biz ma'rifat asrida yashayappmiz", degan so'zlari ushbu davr xususiyatini ochib bera oladi.

Uyg'onish va Reformatsiyadan so'ng Ma'rifatparvarlik o'rta asr qadriyatlarini tizimini butunlay yakson qilib, yangi ma'naviy to'ntarish yasadi. Bu davrda insonning tabiatdagi o'rni haqidagi masala diqqat markazida bo'ldi. J. Lokk (1632-1704), J. J. Russo (1712-1778), D. Didro (1713-1784), Sh. Monteske (1689-1755), Volter (1694-1778) kabi ma'rifatparvarlar insonni hayotga, erkinlik va tenglikka bo'lgan huquqini himoya qildilar.

Ma'rifatparvarlik davrida tug'ilayotgan tsivilizatsiyaning iqtisodiy nazariyasi paydo bo'ldi, uning muallifi Glazgo universitetining professori, shotland faylasufi va iqtisodchisi Adam Smit (1733-1790) edi. Uning fikricha, bir insonning boylik kabi mamlakat boyligining manbai ham pul emas, mehnatdir.

Industrialoldi davr kishilarining ongini ma'rifatlashtirishda 22 tom maqolalar va 13 tom illyustratsiyalardan iborat "Entsiklopediyalar yoki fan, san'at va din bo'yicha izohli lug'at" muhim o'rin tutdi. Entsiklopediyalarning asoschisi, muharriri va mualliflaridan biri Deni Didro edi.

Har bir Yevropa davlatida ma'rifatparvarlik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Ma'rifatparvarlik davrida jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi qudratli omil – jamoatchilik fikri paydo bo'ldi. Jamoatchilik fikriga matbuot nashrlari, turli-tuman to'garaklar, salonlar katta ta'sir ko'rsatardi. Industrialoldi davrda gazeta va jurnallarning kishilar fikriga katta ta'siri oshdi. Agar XVII asr boshida bor-yo'g'i 2 ta davriy nashr chop etilgan bo'lsa, XVII asr oxirida ularning soni 68 taga yetdi, XVIII asrda 900 tadan oshdi. Bu davrni salonlar davri deb ham atash mumkin. XVIII asrda eng ommalashgan oqimlardan biri masonlik bo'ldi.

Shu tariqa ma'rifatparvarlik g'oyasi eski tuzumga qarshi chiqib, feodal tartiblarni tanqid qildi, fan va maorif taraqqiyotini qo'llab-quvvatladi, jamoatchilik ongini siyossiylashtirdi, jamiyat ijtimoiy tashkilotini moodernizatsiyalash lozimligini uqtirdi.

Inqilob - bu jamiyatni tezkor, kuch bilan, fundamental o'zgartirish demak. Bu Yevropa industrialoldi sivilizatsiyasi davriga xos bo'lgan an'anaviy jamiyatni moodernizatsiyalash, yangilashning bir yo'lidir. XVI-XVIII asrlarda Yevropa uch inqilobni boshidan kechirdi: Niderlandiya inqilobi (1566-1609 yy.), Angliya inqilobi (1640-1660 yy.) va Buyuk fransuz inqilobi (1789-1794 yy.). Har uchchala inqilob o'xshash omillarga va xarakatlantiruvchi kuchlarga ega edi.

Yevropa Industrialoldi sivilizatsiyasiinning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan modernizatsiya insoning yangi tipini yaratdi. Ijtimoiy kelib chiqish endi har doim ham inson taqdirini belgilamas edi. Shaxsiy faollik va shaxsiy muvaffaqiyat g'oyalari rivojlanayotgan burjuaziya sinfi vakillarining kayfiyatlariga mos kelardi. Boyishga intilishi bu davrda insonlar ongida birinchi o'ringa chiqdi va hayotning mazmuniga aylandi. Chunki pul nafaqat moddiy farovonlik manbai, balki mustaqillik garovi ham edi. Benjamin Franklinning mashhur "Vaqt – bu pul" degan iborasini Industrialoldi sivilizatsiyasining shiorlaridan biri deyish mumkin. Ammo pulni topish maqsadida hech narsadan tap tortmaslik, o'z shaxsiy manfaatini har narsadan ustun qo'yish kabi xislatlar ham shu davrdan shakllana boshladi.

Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida mehnatsevarlik inson hayotining muhim printsipligiga aylandi. Bunda protestant mehnat etikasi ham muhim o'rin tutdi.

Modernizatsiya jarayoni insonlarning kundalik hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Yevropa aholisining soni o'sib bordi. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisi sonining ko'payishiga olib keldi: Londonda bu davrda 675 ming, Parijda 600 ming, Madridda 160 ming kishi istiqomat qilardi. Insoning o'rtacha umr ko'rishi ham o'sdi.

Shu tariqa Industrialoldi sivilizatsiyasi davrida Yevropa yangi davrga qadam qo'ydi va uning taraqqiyoti tezlashdi.

### **3-savolning bayoni:**

XVIII asrdan sivilizatsion jarayon rivojida alohida davr - industrial sivilizatsiyaning yuzaga kelish davri boshlandi. Agrar iqtisoddan industrial iqtisodga o'tish ikki bosqichda sodir bo'ldi – manufaktura va fabrika bosqichi.

Manufaktura bosqichi XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asr boshida nihoyatda taraqqiy etdi. Fabrika bosqichi manufakturadan yirik mashina ishlab chiqarishiga o'tishni bildirib, sanoat inqilobi deb nom oldi. Sanoat to'ntarishini amalga oshirish uchun bir necha omillar zarur edi: xom ashyoning, erkin ishchi kuchi va tadbirkorlar qo'lida kapitalning mavjudligi. Sanoat inqilobi barcha mamlakatda deyarli bir xilda sodir bo'ldi. Sivilizatsiya taraqqiyotining industrial bosqichida texnika, texnik jarayon asosiy qadriyatga aylandi.

Texnik jarayonning rivojlanish sur'atini amaliy maqsadlarga yo'naltirilgan mashina industriyasi bilan fan o'rtasidagi qizg'in aloqa belgilab berardi. Dastlab energiyaning yangi manbalari va uni qo'llash

usullari izlab topildi. XIX asrning bug' asri deb nom olishi bejiz emas edi. Biroq bu asrni birday temir davri yoki elektr davri deb ham atash mumkin. Elektrdan keng foydalanila boshlandi. Elektrkavsharlash, elektroximiya, elektrometallurgiya vujudga keldi, ko'chalarda ilk tramvaylar qatnay boshladi. Ichki yonuv dvigateli paydo bo'ldi, uning eng maqbul varianti nemis injeneri Rudolf Dizel tomonidan 1897 yilda taklif etilgan edi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyotiga kapitalistik monopoliyalar (kartel, sindikat, trest, konsernlar) katta ta'sir ko'rsata boshladi. Ishlab chiqarishning monopoliyalashishi ijobiy xususiyatlar bilan bir qatorda qator salbiy xususiyatlarga ham ega edi: bir guruh kishilarning qo'lida moliya hokimiyatining to'planishi va oligarxlarning mamlakat ichki hamda tashqi siyosatiga ta'sir o'tkaza olishi.

XIX asr oxiriga kelib uchta tarkibiy qism: yirik mashina industriyasi, zamonaviy transport, jahon bozorini o'z ichiga olgan jahon xo'jaligi tizimi shakllandi. Dastlab Angliya qiyofasidagi yagona markazga ega bo'lgan evrotsentrik jahon xo'jaligi ikki markazli xo'jalikka (Yevropa va AQSh) aylandi.

Industrial sivilizatsiyaning o'ziga xos jihatlaridan biri mehnat xarakterining, insonning ishlab chiqarishdagi rolining hamda insonning o'z faoliyatiga munosabatining o'zgarishidir. Yangi ishlab chiqarish bir tomondan insoning ijodiy imkoniyatlarini safarbar etishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, uzluksiz, ommaviy ishlab chiqarish ishchini mashinaning yordamchi muruvvatiga aylantirardi. Insonning tabiatga munosabati ham o'zgardi. Bu, xususan, ingliz iqtisodchisi Tomas Maltusning (1766- 1834) ta'limotida o'z aksini topdi. U o'zinnig «Nufus qonuni to'g'risida tajribalar» asarida (1798 y) jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning ildizlari aholi o'sishi (geometrik progressiyada) bilan oziq-ovqat taklifi (arifmetik progressiyada) o'rtasidagi o'sish sur'atining farqida deb ko'rsatadi. Aholi o'sishini ijobiy (ya'ni o'limni ko'paytirish orqali) — urushlar, epidemiyalar va b. yoki salbiy (tug'ilishni cheklash orqali) — ahloqiy cheklashlar, kech nikohga kirish va boshqalar yo'llar orqali nazorat qilish mumkin.

Industrial sivilizatsiyaning vujudga kelishi davrida aholi soni shiddat bilan o'sib bordi. 1700 yilda dunyo aholisi soni 610 mln. kishini, 1800 yilda 905 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 1900 yilga kelib bu raqam 1 mlrd. 630ga yetdi. Shahar aholisi soni ham tez



ko'paya bordi. Agar 1800 yilda atigi 3% aholi shaharda yashagan bo'lsa, 1900 yilga kelib bu raqam 13,6% ni tashkil yetdi. Bu ko'rsatkich Yevropada ayniqsa yuqori edi, masalan, Angliyada 1891 yilda 71% aholi shaharlarda yashagan. Ilk millioner shaharlar (London, Parij) paydo bo'ldi. 1900 yilga kelganda millioner shaharlar soni 13 taga yetdi. Bir vaqtning o'zida migratsiya faolligi o'sib bordi. XIX asrda aholining ijtimoiy tarkibi ham o'zgardi. Sanoat to'ntarishining muhim ijtimoiy natijasi sifatida burjuaziya sinfi mustahkamlandi va ishchilar sinfi paydo bo'ldi.

G'arbiy Yevropa davlatlarining ko'pchiligida millatlarning shakllanishi nihoyasiga yetdi. Millatlarning shakllanishi xalqlarning o'zligini anglashini o'sishi bilan bog'liq edi.

Yevropa davlatlarining davlat tuzumida qator sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Absolyut monarxiyalar deyarli yo'q bo'ldi. Juda oz mamlakatlar XX asrga monarxiya sifatida qadam qo'ydi. Angliya konstitutsion monarxiya namunasi bo'lib qoldi.

Industrial davrning ko'plab siyosiy o'zgarishlari inqiloblar va Napoleon urushlari bilan bog'liq edi. XIX asr ijtimoiy inqiloblar davri bo'ldi. Inqiloblarda yetakchilik roli Fransiyaga tegishli edi. Fransiyada 1789 yilgi inqilobdan so'ng yana 1830, 1848 va 1871 yillarda inqiloblar sodir bo'ldi. 1848 yilda Germaniyada inqilob bo'lib o'tdi, qator inqiloblar Italiya va Ispaniyada sodir bo'ldi.

Yevropa mamlakatlarida kapitalizmning taraqqiyoti bir tekisda kechgani yo'q. Bu davrda G'arbda ilk iqtisodiy buhronlar boshlandi. Eski va yangi kapitalizm mamlakatlarining kapitalistik taraqqiyot an'analarida sezilardi farqlar mavjud edi.

XIX asr va XX asr boshlarida Yevropa tarixidagi o'zgarishlar va ziddiyatlar bu davrdagi ma'naviy madaniyatga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. XIX asr ma'naviy madaniyat taraqqiyotida alohida davr bo'ldi. Insonlarning dunyoqarashida insonga va uning cheksiz kuchi, energiyasi, ongiga bo'lgan chegarasiz ishonch o'rnini asta-sekinlik bilan dunyo va insonni cheksiz rang-barang olamning bir zarrasi sifatida tushunish egallay bordi. Ijtimoiy kuchlarning o'zaro kurashining rivojlanishi esa turli g'oyaviy badiiy oqimlarni vujudga keltirdi: romantizm, realizm, impressionizm va h.k.

Romantizm jahon madaniyatiga juda ko'plab mashhur nomlarni berdi: bular adabiyotda E.T.A. Gofman, V. Vordsvort, V. Skott, Dj. Bayron, P.B. Shelli. V. Bleyk, V. Gyugo; musiqada F. Shubert, K. Veber, R. Vagner, G. Berlioz, N. Paganini, F. List, F. Shopen; tasviriy

san'atda E. Delakrua, T. Jeriko, Dj. Konstebl, U. Terner va boshqalar edi.

Industrial davrning timsoli sifatida realizm ham rivoj topdi. Onore de balzak, Stendal, U. Tekkerey kabilarning ijodida bu ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Impressionistlar – Klod Mone (1840-1926), Ogyust Renuar (1841-1919), Edgar Dega (1834-1917), Kamil Pissarro (1830-1903), lar nafaqat asriy badiiy an'analarga qarshi chiqdilar, balki ma'nisiz rasmiyatchilik, sovuq afsonaviylik va ularga zamondosh akademik maktabning rangsiz palitrasiga qarshi chiqqan edilar.

Shu bilan birga voqelikka va insonga jiddiy e'tibor chuqur pessimistik qarashlarni ham vujudga keltirdi. Buni A. Shopengauer, hayot falsafasining asoschisi F. Nitsshe hayoti va ijodida yaqqol kuzatish mumkin.

XIX asr insonning o'zi haqidagi qarashlarida ham burilish yasadi. Bunda Ch. Darvinning evolyutsion nazariyasi va Z. Freyd tomonidan ishlab chiqilgan inson konsepsiyasi, uning psixoanaliz haqidagi ta'limoti katta rol o'ynadi.

Shuningdek, XIX asr faoliyat davri, siyosiy liberalizmning keng tarqalishi (D. Bentam, D. Mill, G. Spenser, A. de Tokvil), sotsial-utopistik (Klod Anri de Sen-Simon, Sharl Fure, Robert Ouen, Sen-Simon), marksistik g'oyalarning (K. Marks, F. Engels) paydo bo'lish davri ham bo'ldi.

XVIII asrda Shimoliy Amerika xaritasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ingliz koloniyalarining mustaqillik uchun kurashi 1776 yilda 13 ta shtatdan iborat Amerika Qo'shma Shtatlarining vujudga kelishi bilan yakun topdi. XIX asrning birinchi yarmida AQShning hududi shiddat bilan kengayib bordi. 1861 yilga kelib uning shtatlari soni 40 taga yetdi. Bu hududiy ekspansiya turlicha usullarda olib borildi. Masalan, AQSh Alyaskani 1867 yilda Rossiyadan atigi 7,2 mln. dollar (11 mln. rubl oltin) ga sotib olgan edi. XX asr boshiga kelib AQSh davlat hududining shakllanishi nihoyasiga yetdi.

Amalda burjua inqilobi vazifasini bajargan mustaqillik uchun urushdan so'ng AQSh iqtisodiyoti Yevropaning hech qaysi davlatida kuzatilmagan sur'atda o'sa boshladi. XIX asr o'rtalariga kelib AQSh sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan dunyoda to'rtinchi o'ringa chiqib oldi. Bunday yuksak sur'atda o'sish bir qator sabablarga ega edi.

AQShda sanoatlashgan shimol va qulchilikka asolangan plantatorlik qishloq xo'jaligi hududi bo'lgan janub taraqqiyoti o'rtasidagi farq sezilarli edi Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyat

shimolliklarning g'alabasi bilan tugagan 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushiga olib keldi. Fuqarolar urushi davrida qabul qilingan ikki muhim qonun: qulchilikning bekor qilinishi va gomstedlar haqidagi qonunlar AQSh qishloq xo'jaligi taraqqiyotining fermerlik yo'lini belgilab berdi. Fuqarolar urushidan so'ng AQSh yangi iqtisodiy o'sish davriga kirdi. Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida amerika millatining shakllanishi ham sodir bo'ldi.

AQSh madaniyati Yevropa ta'siri ostida shakllandi, ammo tez o'tmasdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Ayniqsa shahar qurilishi va me'morchilik o'ziga xos yo'ldan taraqqiy yetdi. Kollejlar, Garvard, Yel, Pensilvaniya, Prinston va Kaliforniya universitetlari kabi o'quv maskanlari ta'lim va madaniyat markazlariga aylandi. Masalan, Bostonda 1636 yilda asos solingan Garvard universitetida 30 ta Nobel laureati va 6 ta AQSh prezideti tahsil olgan.

1787 yilda Filadelfiya shahrida yig'ilgan Konstitutsion konvent ishida 55 kishi ishtirok etdi va unda AQSh Konstitutsiyasi qabul qilinib, respublika tuzimi o'rnatildi.

AQSh butun dunyoda demokratiya timsoliga aylandi. Biroq AQSh demokratiyasi ham o'ziga xos ziddiyatlarga ega. Uning dunyo rahnamoligiga intilishi esa dunyoning ikki qutbga bo'linib ketishi, dunyoning turli burchaklarida urush o'choqlarining yuzaga kelishiga olib kelgan omillardan biri bo'ldi.

XX asr industrial sivilizatsiyasiga ta'rif berish uchun unga ko'proq "inqiroz" so'zi mos keladi. Asr boshida sodir bo'lgan sanoat inqirozi, 1907 yilgi inqiroz, 38 davlat ishtirok etgan birinchi jahon urushi, Rossiyadagi inqilob, davlat-monopolistik kapitalizmi sharoitida tez-tez sodir bo'lib turgan iqtisodiy inqirozlar, xususan 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi fikrimiz dalilidir.

Barcha mamlakatlarning hukumatlari inqirozlar bilan kurashga kirishdi, unga qarshilik ko'rsatish yo'llarini izlay boshlashdi. Inqirozdan chiqish yo'llaridan uchtasini ajratib ko'rsatish mumkin: AQSh prezidenti F.Ruzveltning yangi kurs siyosatida o'z aksini topgan liberal-islohotchilik yo'li; Skandinaviya davlatlari va Fransiya uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy-islohotchilik yo'li; Germaniyada to'la va izchil qo'lanilgan totalitar variant.

Industrial sivilizatsiya mafkura inqiroziga duch keldi. Bu inqiroz Italiyada vujudga kelib, Germaniyada keng tus olgan fashizm g'oyasida o'zining yorqin aksini topdi. Bu inqirozlarning hammasi insoniyat tarixidagi eng keng miqyosli va vayronkor Ikkinchi jahon urushiga olib

keldi. 72 davlat ishtirok etgan ikkinchi jahon urushini XX asr birinchi yarmidagi inqirozlar zanjirining eng yuqori nuqtasi, eng yirik, global sivilizatsion inqiroz sifatida baholash mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi inqirozlar (1974-75 yy, 1980-82 yy.) texnik-iqtisodiy rivojlanish darajalari o'xshash bo'lgan va milliy iqtisodiyotlari o'zaro bog'liq bo'lgan barcha Yevropa davlatlariga birdek ta'sir ko'rsatdi. Ikki tizimning o'zaro kurashi, mustamlakachilik tizimining emirilishi bu inqirozlarni yanada chuqurlashtirdi.

XX asrda Industrial sivilizatsiya taraqqiyotiga uchinchi fan-texnika inqilobi ulkan ta'sir ko'rsatdi. Fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi industrial sivilizatsiyani xarakterlovchi xususiyatdir. Fan-texnika taraqqiyotida sovuq urush ham alohida rol o'ynadi. Bu inqilob jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida katta o'zgarishlarga olib keldi. Shahar aholisi o'sdi, nomoddiy ishlab chiqarish sohasida xizmat qiluvchilar soni ko'paydi, ishchilar malakasi oshdi, ta'lim sohasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mehnat sharoitlari, mehnatga haq to'lash o'zgardi, insonlarning turmush darajasi yuksaldi. Shu bilan birga fan-texnika inqilobi qator salbiy jihatlarni ham yuzaga keltirdi, xususan ishsizlik. Faqatgina fan-texnika inqilobi yangiliklari va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni uyg'unlashtirish orqali ko'pgina malakatlar aholining moddiy to'kisligi hamda demokratik erkinliklarning yuksak darajasini ta'minlashga muvaffaq bo'ldi.

Fan-texnikaning shiddat bilan rivojlanishi ma'naviy sohada ziddiyatlar va inqirozli hodisalarni kuchaytirdi. Bu ziddiyatlar XX asr adabiyoti, san'atida o'z aksini topdi va ekzistentsializm (J.P. Sartr i A. Kamyu), modernizm (D. Djoys, F. Kafka, M. Prust, T. Eliot), abstraktsionizm (K. Malevich, V.Kandinskiy), postimperissionizm (A.Matiss, P.Pikasso), ekspressionizm (G.Gross), syurrealizm (S.Dali), giperrealizm kabi g'oyaviy-badiiy oqimlarda namoyon bo'ldi.

Ilk bor 1895 yilning 28 dekabrda Parijda aka-uka Lyumerlar tomonidan namoyish etilgan kinematograf industrial davr kishilari ma'naviy olamining o'ziga xos ko'zgusi bo'ldi.

Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ommaviy madaniyatning ahamiyati oshib bordi. Zamonaviy madaniyatning xolisona tahlili shuni ko'rsatadiki. ma'naviy madaniyat ko'proq ommaviylik mazmunini kasb etib boradi. Ommaviy madaniyatning manzarasi quyidagicha: u millati, yoshi, yashash joyi, ijtimoiy xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan ommaviy istemolchilarga ega bo'ladi; bu madaniyat namunalarini yaratish jarayonining o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning

maxsus ko'inishini o'zida namoyon qiladi. Ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik extiyoji bilan bog'liq. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi - matbuot, radio, kino, kitob chop etish va nusxa ko'chirish-bularning barchasi jamoatchilik fikriga tasir o'tkazish, ommaviy madaniyatning tezlik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi.

XX asrning so'nggi choragida industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiyaga o'tish boshlandi. XX asr davomida shakllangan kapitalizm-sotsializm muammosida tarix uchinchi yo'lni, industrial jamiyatni tanladi.

Postindustrial jamiyatga o'tish uchinchi fan-texnika inqilobining XX asrning 70-yillarida boshlangan ikkinchi bosqichi bilan bog'liq. Mikroelektronika, biotexnologiya va informatika sohalaridagi sifat o'zgarishlari bosqichi bo'lgan bu davr insoniyat tarixidagi temir davriga yakun yasadi. Butunlay yangi texnologiyalar, yangi materiallar, aloqa va kommunikatsiya vositalari yaratildi. Ekologik muammolarning keskinlashishi global miqyos kasb etdi, biroq bir vaqtning o'zida ularni hal etishning yangi imkoniyatlari ochildi. Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari tubdan o'zgardi. Yirik gigantlar o'rnini kichik va o'rta korxonalar, tadbirkorlar egalay boshladi.

Shu bilan birga postindustrial jamiyatning shakllanishi murakkab integratsion, dezintegratsion jarayonlar fonida bormoqdaki, ular XX va XXI asrlar chegarasidagi sivilizatsion rivojlanishning asosiy an'alarini aks ettiradi.

Rivojlanib borayotgan postindustrial jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri iqtisodiyotning internatsionallashtirishidir. Jadal davom etayotgan integratsiya jarayonlari iqtisodiyotning ochiq bo'lishiga olib keldi, transmilliy va ko'pmillatli korporatsiyalar paydo bo'ldi. Ushbu ko'p tarmoqli xalqaro korxonalar ishlab chiqarishni turli mamlakatlarda optimal ravishda joylashtirish hisobiga yuksak iqtisodiy samaradorlikka erishmoqdalar. Tovar va kapitallar, ishchi kuchi dunyo bozorlarining mislsiz kengayishi bilan bir qatorda xalqaro korxonalarining va birlashmalarning rivojlanishi informatsiya bozorlarining (nou-xau, patenlar, litsenziyalar) va ilmiy-texnikaviy xizmatlarning (injeniring, lizing)shakllanishiga olib keldi.

Industrial va postindustrial sivilizatsiyalar chegarasida milliy xo'jaliklarning davlatlararo integratsiyalashuvi jarayoni kuchaydi. Bu kabi integratsiyalarning eng rivojlangan shakli Yevropa Ittifoqidir.

Integratsion jarayonlarni Shimoliy Amerika davlatlari, Osiyo-Tinch okean regionini va boshqa hududlarda ham kuzatish mumkin.

Sivilizatsion jarayonlarining yetakchi an'anasi sifatida integratsiya jahon xo'jaligining yetakchi uchta markazi - AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya o'rtasidagi keskin raqobat kurashi bilan birgalikda kechmoqda.

### **Adabiyotlar:**

1. Яковец Ю.В. История цивилизаций: Учеб. пособие для студентов вузов гуманитар. профиля, 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997.
2. Буданова В.П. История мировых цивилизаций. – М.:РУДН,2004.
3. История мировой культуры (мировых цивилизаций)./ Под ред. Г.В. Драча. – Ростов н/Д. : Феникс, 2002; 2007.
4. Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. - М., 1992.
5. Ясперс К. Смысл и назначение истории. - М., 1991.
6. Тойнби А. Постижение истории. - М., 1991.
7. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Т.1., -М., 1993.
8. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: Из-во АСТ, 2003.
9. Западный мир //www.wikipediya.org.

### **GLOSSARIY:**

**Absolyut** (lot. absolutus — shak-shubhasiz, cheklanmagan, mutlaq) - shak-shubha-siz, shartsiz, hech qanday shart-sharoitlarga bog'liq bo'lmagan, cheklanmagan, poyoniga yetgan, mukammal degan ma'nolarni bildiruvchi tushuncha

**Avtoxton** (yunon) – tub aholi, mahalliy yer egasi bo'lgan xalq, mamlakatning ibtidoiy aholisi yoki aborigenlar.

**Animizm** (lotincha animu – ruh) – tabiatdagi barcha narsalarni, tabiat kuchlari va hodisalarini jonli deb tushunish, ularda g'ayri tabiiy kuch bor deb tushunishdir. Animistik tasavvurlar mana shunday ma'nodja ibtidoiy e'tiqodlar va dinlarnig barchasida u yoki bu tarzda mavjuddir. Bu tushunchani o'tgan asrda ilm-fanga kirgan E.Teylor animizmni “eng kam quyi din”, umuman dinning dastlabki bosqichi deb qaragan.

**Antropogenoz**(yunon) - odamning paydo bo'lish jarayoni.

**Domestikatsiya** (ing. domesticated) – hayvonlarni inson tomonidan qo'lga o'rgatish va ularni ko'paytirish.

**Joytun madaniyati** — O'rta Osiyoning neolit davriga oid eng qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri (mil. av. 6—5-ming yillik). Ashxoboddan 30 km shimolda joylashgan qadimgi o'troq dehqonlar qishlog'i xarobasi nomidan olingan. 1952 yildan Janubiy Turkmaniston arxeologiya kompleks ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan. 10 dan ortiq yodgorliklar (Chag'illitepa, Pessejiktepa, Chopontepa, Nayzatepa, Joytun va b.) ni tekshirgan. Bu urug'doshlik manzilgohlarining har biri 0,5—2 ga maydonni egallagan. Somonli guvaladan qurilgan bir xonali uylar (25—45 m<sup>2</sup>) sahni oq ganchli loy bilan suvalgan, ayrimlari qizil va qora rangga bo'yalgan. Har bir xonada o'choq, g'alla o'rasi, supa bo'lgan. Ayrim xonalar o'rtasida katta otashkada bo'lib, umumiy sajdagoh vazifasini o'tagan. Manzilgohlarda ombor, sopol idishlar pishiriladigan maydonchalar bo'lgan. 3 madaniy qatlamdan iborat Joytun manzilgohi to'la o'rganilgan. Uning maydoni 0,5 ga, yuqori qatlami 35—40 xonadan, o'rta qatlami 29 xonadan iborat. Manzilgohlardan bolalar suyagi topilgan, kattalar tashqariga ko'milgan. Aholi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik bilan shug'ullangan. Aholi chaqmoqtoshdan qirg'ich, o'roq, randa, pichoq; suyakdan igna, bigiz; tosh o'g'ir va b. buyumlar yasagan. Sopol idishlar somonli loydan ishlanib, ba'zilarining sirti qizil angob bilan bo'yalgan.

**Jarmo-** Iroqning Kirkuk shahridan sharqda joylashgan Zagros tog'laridagi manzilgoh. 1948-1954 yillarda R.Breydvudning

qazishmalari 16 qatlamni aniqlagan. Dehqonchilik mavjud bo'lgan. 11-5-6 ming yil avval.

**Iyerixon** — O'lik dengizning shim.-g'arbida, Iordan daryosi vodiysida joylashgan shahar. Mil. av. 7—2-ming yillikda Falastindagi qadimgi manzilgoh. Neolit va jez davriga oid manzilgoh qoldiqlari, mustahkam qo'sh devori bo'lgan shahar xarobasi (mil. av. 18—16-a.lar), maqbaralar ochilgan. Mil. av. 2-ming yillikning oxirlarida yahudiy qabilalar tomonidan vayron qilingan. Bibliya rivoyatiga ko'ra, Iyerixonning devorlari dushman karnaylari sadosidan («iyerixon karnaylari») qulab tushgan.

**Integratsiya** (lotincha) – tiklanish, to'ldirish, turli xalqlarning birlashuvi, turli etnoslarning bir hududda etnik-madaniy aloqalarni o'rnatish jarayoni.

**Madaniyat** — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. «Madaniyat» tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda madaniyat atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

«Madaniyat» arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiyl turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu saxrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

**Me'morlik**, arxitektura — foydalanishdagi maqsad va vazifalar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik karashlaridan kelib chiqib bino va inshootlarni loyihalash va qurish san'ati. Me'mor inson hayoti va faoliyati uchun zarur fazoviy muhitni tafakkur kuchi bilan avval ijodiy loyihada rejalab, uni amalda yuksak did va mahorat bilan bunyod etadi. M. asarlari qatoriga turli-tuman binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, shaharlar, ulardagi monu-mentlar, usti ochiq va yopiq inshootlar kiradi. Axoli yashaydigan manzillar — qishloq, shahar va shaharchalarni rejalab tashkil etish b-n M.ning jamlovchi, eng murakkab sohasi — shaharsozlik shug'ullanadi. Tabiat



manzaralari b-n bog'liq muhitni bunyod etish, bog'lar yaratish sohasi bog'sozlik (bog'-park) san'atidir.

**Monoteizm** (yunon) – yakka xudolik, faqat bitta xudoga sig'inuvchi, birgina xudoni e'tirof etuvchi diniy e'tiqod.

**Migratsiya** (lotincha) – ko'chish, joyni o'zgartirish, aholini bir joydan ikkinchi joyga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chirish.

**Oykumena** (yunon) – joylashtirish; yer sharining ba'zi qismlariga odamlarning dastlabki joylashuvi. Ma'lum hududiy ijtimoiy xo'jalik madaniy muhitining kompleks tushunchasi.

**Relyef** (lotin. relyefo- ko'taraman) - haykaltaroshlikning bir turi. Shakl, tasvir fon (zamin) dan bo'rttirib yoki, aksincha, o'yib hosil qilinadi. Relefning asosiy turlari: barelyef va gorelyef.

**San'at** – arabcha atama bo'lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy g'ismi. U tasviriy va amaliy san'at, musig'a, me'morchilik, teatr, kino, badiiy adabiyotni o'z ichiga oladi.

**Tabaqa** – meros bo'lib o'tgan kasbi va jamiyatdagi alohida(ko'pincha yuridik jihatdan mustahkamlangan) mavqei bilan bog'langan shaxslar guruhini aks ettiradi.

**Tasviriy san'at** - san'at turi. Rassomlik san'ati, grafika, haykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud narsalarni ularning tabiiy shakli, o'rni va boshqalarni o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi, predmetlarning hajmi, o'zaro qanday masofada joylashgani va boshqalar to'g'risida tomoshabinda tasavvur hosil qiladi.

**Terrakota** (lot. terra – yer va cotta - qizdirilgan) – kulollikda ishlatiladigan loy va shunday loydan tayyorlab olovda qizdirilgan mahsulot, sopol. Ro'zg'orda (idish va buyumlar), haykaltaroshlik va qurilishda (sopolak, parchin, arxitektura detallari) ishlatiladi. Terrakota tayyorlash uchun, odatda, tarkibi va rangi bir hil tuproq tanlanadi. Shakl berishda yog'och va gips qoliplar ishlatiladi. Koshinning ayrim xillari ham terrakotadan tayyorlanadi.

**Urbanizatsiya** (lotincha) – aholi va sanoatning yirik shaharlarda to'planish jarayoni, shaharlashuv. Ijtimoiy tarixiy jarayon sifatida sivilizatsiyaning shahar madaniyati markazlarining vujudga kelishi.

**Freska** (ital. fresko – yangi, qurimagan) - bo'yoqni suvga yoki ohak qo'shilgan suvga qorib yangi, qurimagan suvoq ustiga ishlanadigan

rassomlik san'ati asari. Qadimdan devoriy rasmlarning asosiy texnikasi bo'lib kelmoqda. Suvoq, odatda, o'chgan ohakka ikki hissa kum qo'shib tayyorlanadi, suvoq qurigandan keyin uning yorilib ketmasligi ta'minlanadi. Ohak bilan qo'shilganda aynimaydigan, shuningdek vaqt o'tishi bilan nur ta'sirida buzilmaydigan bo'yoqlardan foydalaniladi. Freska uchun suvoq va bo'yoq tayyorlashning turli usullari mavjud. Freska rassomdan katta mahorat, tezkorlik talab qiladi, tasvir qisqa vaqt ichida suvoq qurimay turib tayyorlanishi kerak.

**Sivilizatsiya** (lot. *civilis*) -fuqarolikka, davlatga taalluqli), tamaddun— 1) keng ma'noda — ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli; 2) madaniyat so'zining sinonimi. Bu termin ko'pincha moddiy madaniyat ma'nosida ham qo'llaniladi; 3) madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi (Misr Ts.si, Mesopotamiya Ts.si va b.); 4) yovvoyilik va vahshiylikdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi. «Ts.» tushunchasi 18-a.da «madaniyat» tushunchasi b-n uzviy bog'liq ravihda paydo bo'lgan. Frantsuz faylasuf ma'rifatparvarlari akl va adolatga asoslangan jamiyatni Ts.lashgan jamiyat deb bilganlar. Ko'pchilik faylasuflar «Ts.» deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, «madaniyat» deganda esa fakat uning ma'naviy qadriyatlarini tushunishgan. Ulardan ayrimlari bu tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yganlar. Chunonchi, O. Shpengler fikricha, «Sivilizatsiya» har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichini bildiradi. Sivilizatsiyani bunday davr tanazzuli sifatida tushunish madaniyatning bir butunligi va tabiiyligiga ziddir.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Островский А.В. История цивилизаций. – СПб: Изд-во Михайлова В.А., 2000.
2. Яковец Ю.В. История цивилизаций: Учеб. пособие для студентов вузов гуманитар. профиля, 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997.
3. Древние цивилизации. /Под общей редакцией Бонгарда-Левина Г. - М.: Мысль, 1989.
4. Буданова В.П. История мировых цивилизаций. – М.:РУДН,2004.
5. История мировой культуры (мировых цивилизаций)./ Под ред. Г.В. Драча. – Ростов н/Д. : Феникс, 2002; 2007.
6. Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. - М., 1992.
7. Массон В.М. Первые цивилизации. – Ленинград: Наука, 1989
8. Античная цивилизация. / Под. ред. Блаватской. - М., Наука, 1973.
9. Алексеев В.П., Першиц А.И. История первобытного общества. - М.,1990.
10. История древнего Востока / Под ред. В.И. Кузищина. 2-е изд. - М., 1988.
11. Кузищин В.И. История Древней Греции. Издание второе, переработанное и дополненное. – М., Высшая школа, 1996
12. История древнего мира. Под. ред. В.И.Кузищина. – М., Высшая школа, 1988.
13. R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim). - T.: Fan va texnologiya, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Геродот. История в 9-ти книгах. - Л., 1972.
2. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. - М., 1989.
3. Черницкий А. М. История исчезнувших цивилизаций. – Ростов н/Д. : Феникс, 2007.
4. Мифология древнего мира. - М., 1977.
5. Хрестоматия по истории древнего мира. Пособие для учителей. - М., 1991.
6. История древнего мира / Под ред. Дьяконова И.М., Нероной В.Д., Свенцицкой И.С. Кн. 1. – Ранняя древность. Кн. 2 – Расцвет древних обществ. Кн. 3 – Упадок древних обществ. - М., 1982, 1983, 1989
7. Ясперс К. Смысл и назначение истории. - М., 1991.

8. Тойнби А. Древнейший Восток в свете новых раскопок. - М., 1956.
9. Тойнби А. Постигание истории. М., 1991.
10. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Т.1., -М., 1993.
11. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: Из-во АСТ, 2003.- 603 с.
12. Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. – М.:Наука, 1982
13. Крамер С. История начинается в Шумере. - М., 1991.
14. Оппенгейм А.Л. Древняя Месопотамия. - М., Наука, 1990.
15. Коростовцев М. А. Религия Древнего Египта. - М., 1971.
16. Древнеиндийская философия. Начальный период. - М., 1963.
17. История китайской философии. - М., 1988.
18. Гуломов Х.Г., Татибоев А.С. Ўрта Осиё ва жаҳон тарихи. - Т., 1993.
19. К.Куманецкий. История культуры Древней Греции и Рима. - М., Высшая школа, 1990.
20. Большаков О.Г. История Халифата. Т.1., - М., 1989.
21. Гарн В. Эллинистическая цивилизация. - М., 1989.
22. Массон В. М, Средняя Азия и Ближний Восток, М.— Л., 1964.
23. Матвеев К.П., Сазонов А.А. Земля Древнего Двуречья: (Мифы, легенды, находки и открытия). – М.: Молодая гвардия, 1986
24. Косвен О. Очерки истории первобытной культуры. – М., 1957.
25. Шурц Г. История первобытной культуры. Т.2: Материальная и духовная культура. – М.: Красанд, 2010.
26. Саггс Х. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. – М: Центрполиграф, 2004
27. Бьюкенен П.Дж. Смерть Запада. - М.: АСТ, 2003

#### **Internet saytlari ro'yxati:**

1. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org).
2. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
3. [http://sociosphera.com/publication/conference/2014/252/civilizaciya\\_atamasining\\_talinlari/](http://sociosphera.com/publication/conference/2014/252/civilizaciya_atamasining_talinlari/)
4. [www.humanites.edu.ru](http://www.humanites.edu.ru)
5. [www.urdu/uz/ursulib/taqdimot/jahon\\_sivil](http://www.urdu/uz/ursulib/taqdimot/jahon_sivil)
6. [www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html)
7. [www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)

8. [www.wikipedia.org/](http://www.wikipedia.org/)
9. <https://sites.google.com/site/civilizacium/home/civilizacium/russkaa-civilizacia>
10. <http://historic.ru/lostcivil/babylon>
11. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiFindex.html>
12. <http://www.lib.byu.edu/-rdh/www/>
13. <http://classics.mit.edu>
14. <http://www.aegyptika.orientalstudies.ru>
15. «МААТ» Ассоциация по изучению Древнего Египта. - М., 2001-2013. - URL: <http://www.maat.org.ru>